

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MOLIYA KAFEDRASI



“KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENTSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2023-yil 26-sentabr

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MOLIYA KAFEDRASI



“KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENTSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2023-yil 26-sentabr

“Kapital bozorini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari, zamonaviy tendentsiyalari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to‘plami. –T.: TDIU 2023. 412b

Ushbu to‘plam “Kapital bozorini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari, zamonaviy tendentsiyalari va istiqbollari” mavzusida bo‘lib, unda Yangi taraqqiyot strategiyasi asosida kapital bozorini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari, Raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital bozori faoliyatining nazariy-kontseptual asoslari, Qimmatli qog‘ozlar bozorining zamonaviy tendentsiyalari va o‘ziga xos jihatlari, Qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etishda ilg‘or xorij tajribadan foydalanish istiqbollari, Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘rni va ahamiyati kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

To‘plamga oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va keltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o‘zlari mas‘uldirlar.

Mas‘ul muharrir: i.f.d., prof. X.X. Xudoykulov

Tahrir hay‘ati:

i.f.d., prof. I.M. Alimardonov
dotsent. N.T. Tilabov
PhD, dots. M.J. Bauyetdinov

Taqrizchilar:

PhD, dots. Z.A. Shamansurova
PhD, S.Z. Abrorov
PhD, F. Saidnazarov

Tashkiliy guruh a‘zolari:

J. Xojiyev
F. Sindarov
J. Saidov
A. Axmadjonov
S. Abdullayev

KIRISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” kafedrası “KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ISTIQBOLLARI” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 26 oktabrda bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bunda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash doirasidabir qancha maqsadlar qo‘yilgan bo‘lib uni amalga oshirish avvalo milliy moliya bozorini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Hozirda jahon moliya bozori arxitekturasida yuz berayotgan global beqarorliklarning milliy moliya bozorimizga ta‘sirini kamaytirish maqsadida professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar, ilmiy xodimlar, izlanuvchilar o‘z ilmiy-amaliy takliflari bilan ishtirok etishdi. Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqadi. Bu muammolarni samarali yechimi moliya bozorining raqobatbardoshligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jozibadorligi hamda risksizligi darajasini ta‘minlash bilan uzviy bog‘liq. Mazkur konferensiya ham ma‘lum bir ma‘noda moliya bozoridagi muammolarni yechishga qaratilgan nazariy xulosa va amaliy takliflar beradi. Zero, konferensiyada nutq so‘zlashga tashrif buyurgan mehmonlar orasida moliya bozorining turli segmentlarida o‘z faoliyatini olib borayotgan yetuk mutaxassislarni ko‘rish mumkin. O‘ylaymizki, so‘zga chiqadigan mutaxassislarimiz moliya bozorida yuz berayotgan hozirgi mavjud holatni, yutuqlar va kamchiliklarini, hamda muammolarga berilgan o‘z yechimlarini atroflicha keltirib o‘tishdi.

MUNDARAJA

I SHO'BA

YANGI TARAQQIYOT STRATEGIYASI ASOSIDA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Бутиков И.Л.	Новый регулятор и старые проблемы.....	13
Алимардонов И.М.	Қимматли қоғозлар бозорини инновациялар асосида ривожлантириш имкониятлари.....	19
Ибодуллаев Ш.Т.	Банклараро кредит бозорини тартибга солишнинг долзарб масалалари.....	22
Elmirzayev S.E., Ochilov A.M.	Islom qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish istiqbollari.....	27
Бабаханов Д.Я.	Кичик бизнес субъектларини ривжлантиришда инфратузилма имкониятларидан самарали фойдаланишнинг назарий асослари.....	30
Байбобоева Ф.Н.	Капитал бозорини ривожлантиришда кичик корхоналарда молиявий хавфсизликни ташкил этиш.....	34
Бобакулов Т.И.	Макроиктисодий ўсиш суръатларининг барқарорлигини таъминлашнинг молиявий имкониятлари.....	38
Усмонов Т.З.	Кичик бизнесни ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт имкониятларидан фойдаланиш имкониятлари.....	41
Нуралиев Р, Бутабаев М, Усманов Б,	Необходимость эффективного управления государственными пакетами акций в акционерных обществах в развитии рынка ценных бумаг.....	46
Olimova N. O.	Innovatsiyalar samaradorligini baholash xususiyatlari.....	50
Нарзиев О С, Игамбердиева Х.Х	Повышение прозрачности в корпоративном управлении: важнейшие аспекты развития рынка капитала в Узбекистане.....	55
Назарбаев О.	Тижорат банкларининг инвестицион имкониятларини ошириш масалалари.....	62

Маврулов Р.Н.	Кичик бизнесни барқарор ривожлантиришнинг ҳудудий иқтисодий сиёсати.....	65
Muxitdinov Sh.Z.	Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	70
Байбобоева Ф.Н.	Енгил саноат корхоналарининг иқтисодий муносабатлар тизимидаги роли.....	75
Исроилов Б, Долиев С.	Налоговая политика страны для развития сельскохозяйственных кластеров.....	79
Абдуразакова Н.Р	Пути обеспечение притоков иностранных инвестиций в узбекистан.....	86
Мамбетназарова А.М.	Проблемы оценки залога в современной кредитной практике.....	90
Баходирова Х.Б.	Развития энергетической отрасли на основе альтернативных источников энергии.....	94
Хоҗийев J.D, Sayipov A.	O‘zbekistonda xususiy kapitalni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	97
Мухитдинова К.А.	Sanoat korxonalarida yashil investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	101
Fayzullayeva K.S.	Yangi taraqqiyot strategiyasi asosida kapital bozorni rivojlantirish uchun banklarning ro‘li.....	105
Muratov A.T.	Financial markets and prospects for its development in Uzbekistan.....	107
Эргаш Б.	Акциядорлик жамиятларида мулкый муносабатларни ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни тартибга солиш зарурати....	109
Нурмухаммедов А.Ю.	Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг ривожланиши динамикаси таҳлили.....	113

II SHO‘BA

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KAPITAL BOZORI FAOLIYATINING NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI

Ahmadjonov A.A	Xorijiy investorlarni kapital bozori orqali kapital jalb qilishning jahon tajribasi.....	118
Rizaev N.K, Sodiqboyev X.J	Tijorat banklarida bank kartalariga oid xizmatlarni takomillashtirish.....	121

Исломов А.Б.	Рақамли иқтисодиёт шароитида “бухгалтерия аутсорсинг” хизматларининг ўрни.....	124
Урдабаев Ж.Е.	Проблемы организации аудита в бюджетных организациях.....	129
Ismoilov As	Elektron pullarning hozirgi kunda hayotimizdagi o'рни.....	135
Saydullaev Sh.	Empowering investors: a study of investor education during initial public offerings.....	138
Saidov J.L, Sodiqova K.B.	Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning umumiy tushunchasi.....	143
Жоллыбеков В.Б.	Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини молиялаштириш йуллари.....	148
Malikov M	Banklarning o'ziga xos xususiyatlari.....	151
Majidov A.A	The role of foreign experience in real estate tax development.....	156
Зарикеев Р.П.	Решение актуальных проблем, связанных с финансированием инвестиций в туристических компаниях.....	159
Abdullayev S, Eshov A.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozori rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	164
Кудайбергенова.Г.К	Современны тенденции развития фондового рынка в Узбекистане.....	167
Адашалиев Б.В.	Теоретические вопросы определения платежеспособности субъектов предпринимательства.....	170
Хажиев Б.Д.	Бюджет даромадларини самарали қайта тақсимлашнинг замонавий йўналишлари.....	174
Ithomboyev S.	Moliya bozorida qimmatli qog'ozlarning tutgan o'рни.....	177
Tilabov N.T.	Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari.....	181
Xudoyorova G.	Kapital bahosining o'ziga xos jihatlari.....	187
Рузиева Д.А.	Влияние инвестиций на инновационную работу в отношении доходности активов компании.....	190
Бердиев А.Ў.	Тижорат банкларида лойиҳавий молиялаштириш рискларини бошқаришнинг жаҳон тажрибаси.....	193
Коцанов А.	Мамлакатимизда яширин (хуфиёна)иқтисодиётни қисқартириш усуллари..	198

Муятдинов М.Ж.	Развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке.....	202
Sindarov F.Q.	O'zbekistonga xorijiy kapital jalb qilishda obligatsiyalarning o'rni.....	205

III SHO'BA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Ibodullayev A.A, O'rolboyeva Z.T.	Kapital bozorini raqobatbardoshligini oshirishda qimmatli qog'ozlarning o'rni va o'ziga xos jihatlari...	212
Тухлиев Б.К.	Инвестицияларни молиялаштириш манбаларининг таркиби ва уларнинг аҳамияти....	216
Sadullayeva M.G.'	Aksiyalar va obligatsiyalar muomalasini tashkil etish amaliyotining joriy holati tahlili.....	223
Кравченко А.Н.	Некоторые проблемы совершенствования оценки стоимости ценных бума.....	227
Erdonov M.E.	Xizmat ko'rsatish korxonalarining mehnat potentsiali.....	232
Тугалов Б.К.	Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозори ривожланишининг замонавий тенденциялари.....	235
Suyunov Y.B.	Moliyaviy investitsiyalarni baholash va hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....	238
Saidov J.L, Shamsitdinova X.M.	O'zbekiston respublikasida fond bozori va uni yanada takomillashtirish yo'llari.....	249
Ибодуллаева М.Т.	Ўзбекистонда валюта бозори ривожланишининг замонавий тенденциялари.....	245
Sayдахmedov A. O.	Hisob to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirishning zamonaviy shakllari.....	248
Урдабаев Ж.Е.	Методы проведения аудита в государственных учреждениях.....	251
Касимова С.К.	Понятие, значение и признаки ценных бумаг в современном предпринимательском обороте.....	255
Xujanazarov A.A.	Moliya bozori qonunchiligining ekspertizasi: tartib-taomillar tahlili.....	259
Qahramonova X.A.	Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organilarini takomillashtirish.....	263

Қиличев А.	Корхона молиявий барқарорлигини бошқаришнинг самарали тизимини вужудга келиши.....	266
Мустафоев А.М.	Инновацион фаолият – янги фикр, янги ғоя.....	269
Хамдамов С.	Корхона молиясини стратегик режалаштириш амалиёти.....	274
Chinkulov K.	Current state and dynamics of development of stock market turnover of uzbekistan.....	278
Урдабаев Ж.Е.	Совершенствование механизмов проведения аудита в бюджетных организациях.....	282
Каюмов Р, Кадыров Т.	Роль приватизации в развитии рынка капитала республики узбекистан.....	287
Рябова И.С.	Влияние ESG- принципов на функционирование финансового рынка современности.....	290
Sadullayeva M.G‘.	Xalqaro ipo amaliyoti tahlili va natijalari.....	295
Razzakov J.X.	Biznes loyihalarini moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydaning o‘ziga xosliklari.....	299
Saidov J.L, Mamadaliyev X. Sh	Moliya bozori va undagi qimmatli qog‘ozlarning tutgan o‘rni.....	303
Адашалиев Б.В.	Некоторые аспекты определения платежеспособности.....	307
Намройева С.Н.	Yangi o‘zbekiston sharoitida investitsion jozibadorligini oshirishda qimmatli qog‘ozlar bozorining ahamiyati.....	310
Саидназаров Ф.А.	Корхона стратегиясини ишлаб чиқишнинг назарий жиҳатлари.....	314
Tilabov N.T.	Global iqtisodiyotda xo‘jalik sub'ektlari tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilish masalalari.....	320
Baxtiyorova D.M.	Respublikamizda qimmatli qogozlar bozorining o‘ziga xos jihatlari.....	325
Saidov J.L.	Obligatsiyalarni baholash va ularning o‘ziga xos jihatlari.....	329
Рўзиқулов А.Қ.	Иккиламчи қимматли қоғозлар бозорини ривожланишининг босқичлари.....	333
Иманова У.Б.	Маҳаллий бюджетни ўрта муддатли режалаштиришнинг иқтисодий моҳияти ва зарурлиги.....	341

Shamusalov S.	Suveren kredit reytingini baholashda kamchiliklar tahlili.....	344
Примова Н.И.	Қимматли қоғозлар бозорини рақамлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари....	347
Муятдинов М.Ж.	Капитал бозори орқали кредит рискларини суғурталашни такомиллаштириш.....	353
Сулайманов И.	Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозори орқали амалга оширадиган операцияларининг таркиби.....	355

IV SHO‘BA

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI TASHKIL ETISHDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBADAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Shamansurova Z.A.	Xalqaro bozordagi eng katta birlashish va sotib olish (m&a) operatsiyalari bo'yicha tahlili.....	360
Султанов М.А.	Инвестиция фондлари континентал моделининг хусусиятли жиҳатлари.....	365
Abrorov S.Z.	Malayziya uchun islom kapital bozori ahamiyati....	368
Боронов Б, Ахмедов М.	Халқаро стандартларга мувофиқ молиявий активларни баҳолаш масалалари.....	372
Режаббаев С.У.	Фондовые рынки и финансовая грамотность: путь к финансовому осознанию.....	376
Narzullayev E.Sh.	Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy yo'llari.....	381
Хамраева З.Х.	Tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar tahlili.....	384
Zoirjonova M.U.	The future of stock valuation: integrating big data and ai techniques.....	389
Абдурахманов А.М.	Зарубежный опыт развития рынка акций и возможности его использования в отечественной практике.....	392
Найдаров Н.В.	Turli mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tarixi xususan o'zbekiston iqtisodiyotida kapital bozorining tutgan o'rni.....	398

Pardaeva D.B.	Impact of development of the stock market on economic growth in developing countries.....	402
Муродова Д.А, Тангирова А. А.	Важность мировых фондовых площадок в глобальной финансовой системе.....	405
Мамбетназарова А.М	Зарубежный опыт в оценке залога для банковских кредитов: обучение из лучших практик.....	407
Бауетдинов М.Ж.	Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини молиялаштиришда қимматли қоғозлар бозоридан фойдаланиш масалалари.....	411
Yodgorova S.	Moliya institutlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	417
Мамбетназарова А.	Оценка залога в банковском кредитовании: методы, проблемы и перспективы.....	421
Abduxolikov X.A.	Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi roli.....	425
Коцанов А.	Хуфиёна иқтисодиётни легаллаштириш бўйича чет эл тажрибаси.....	430
Нурмухаммедов.А.Ю	Тижорат банклари томонидан хизмат кўрсатиш соҳасини инвестицион қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш.....	434
Toshpo'latov A.Sh.	Agrosanoat klasterlarida innovatsion xarajatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....	438

V SHO'BA

AHOlining MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING O'RNI VA AHAMIYATI

Egamnazarova G.X.	Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda qimmatli qog'ozlarning o'rni va ahamiyati.....	442
Холмурадов. М	Аҳолининг молиявий саводхонлигини оширишда замонавий ёндашувларнинг ўрни ва аҳамияти.....	445
Pyosova D.I.	Aholiga aloqa va axborotlashtirish sohasida xizmat ko'rsatishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni.....	450
Mahmudov F.U.	Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va ahamiyati...	454

Saidov J.L, Toirov H.	Fond bozorlarini rivojlantirish va aholini moliyaviy savodxonligini oshirish.....	458
Umarbek Kh.B.	Prospects for improving financial literacy in improving the welfare of the population in Uzbekistan.....	461
Saidov J.L, Mutalova M.B.	Moliyaviy savodxonlikni oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorining tutgan o'rni va ahamiyati.....	466
Xojiyev J.D	Aholi daromadlarini takomillashtirish masalalari.....	469
Шамансурова З.А. Саидакбархўжа Й.	Ислом молиясининг ўзига хос жиҳатлари ва унинг мамлакатимиз молия бозоридаги истиқболлари.....	474
Shamansurova. ZA, Rahmanova O.A.	The contribution of the financial sector to climate change and the role of the IMF.....	478
Rahmanova O.A.	Climate change and financial risks.....	481

I SHO‘BA
YANGI TARAQQIYOT STRATEGIYASI ASOSIDA KAPITAL BOZORINI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

НОВЫЙ РЕГУЛЯТОР И СТАРЫЕ ПРОБЛЕМЫ

***И.Л. Бутиков -**
Директор Центра исследований Агентства
по управлению государственными активами
Республики Узбекистан, д.э.н., профессор*

Начало осени 2023 года ознаменовалось важным событием, коренным образом изменившим систему государственного регулирования фондового рынка Узбекистана. Постановлением Президента Республики Узбекистан от 2-сентября 2023 года № ПП-291, полномочия в сфере государственного регулирования рынка капитала переданы от Министерства экономики и финансов Национальному агентству перспективных проектов. Следует отметить, что это пятый по счету сменившийся регулятор фондового рынка республики за всю историю независимого Узбекистана, и третий за последние пять лет. Для сравнения, Комиссия по ценным бумагам и биржам США была создана в 1932 году и до сих пор является бессменным регулятором самого развитого и процветающего фондового рынка мира.

Первоначально, после обретения независимости вопросами регулирования рынка ценных бумаг занималось Министерство финансов. Уже в 1992 г. оно организовало сертификацию специалистов рынка ценных бумаг, осуществляло контроль за деятельностью первого официального института рынка ценных бумаг страны – Фондового отдела «Биржи «Тошкент» и, впоследствии, Республиканской фондовой биржи. В сентябре 1995 г. при Министерстве финансов была создана Комиссия по ценным бумагам и фондовым биржам. А уже в марте 1996 г. в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан УП-1414 функции уполномоченного органа по регулированию фондового рынка перешли к Госкомимуществу, при котором был создан Центр по координации и контролю за функционированием рынка

ценных бумаг. Отметим, что, несмотря на имеющийся конфликт интересов (Госкомимущество, а впоследствии Госкомконкуренции выступали соучредителями, владельцами пакетов акций многих эмитентов - участников рынка ценных бумаг и одновременно регуляторами их деятельности) период, когда государственная политика в области фондового рынка находилась в ведении ведомства по управлению государственной собственностью, можно признать самым стабильным, продуктивным и последовательным.

В начале 2019 года уполномоченный государственный орган в области регулирования рынка ценных бумаг вышел из под подчинения органа государственного управления, осуществляющего функции управления государственными активами, обеспечивающего антимонопольное регулирование, и стал независимым от него, самостоятельным Агентством. В соответствии с Указом Президента страны "О мерах по коренному совершенствованию системы управления государственными активами, антимонопольного регулирования рынка капитала" на базе Госкомконкуренции Республики Узбекистан были созданы три органа государственного управления, в числе которых *Агентство по развитию рынка капитала* с передачей последнему штатных единиц, а также задач, функций и полномочий упраздняемого Госкомконкуренции в части регулирования рынка ценных бумаг, включая организаторов торгов ценными бумагами и Центрального депозитария ценных бумаг.

К сожалению, надежды на то, что Агентство по развитию рынка капитала, освободившись от опеки органа по управлению государственным имуществом, бурно разовьет свою деятельность и обеспечит взрывное развитие фондового рынка в Узбекистане, не оправдались. Наоборот, период, связанный с его присутствием на фондовом рынке страны, можно назвать периодом застоя. Несмотря на то, что Агентству было поручено в течение года разработать и утвердить Стратегию развития рынка капитала, оно так и не смогло это сделать. Более того, в период, его деятельности в качестве регулятора фондового рынка, было отменено требование о наличии у

специалистов рынка ценных бумаг элементарного базового образования и периодическом повышении ими квалификации.

Постановлением от 13 апреля 2021 г. № ПП-5073 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы регулирования рынка капитала» Президент Республики Узбекистан упразднил Агентство по развитию рынка капитала, передав его задачи, функции и полномочия Министерству финансов. В структуре центрального аппарата Минфина был создан Департамент по развитию рынка капитала. Таким образом, все вернулось «на круги своя» и орган, осуществляющий управление фондовым рынком стал функционировать не просто *при* каком-либо министерстве или ведомстве, а непосредственно включен в структуру Министерства финансов и подчинялся ему напрямую. Но вопросы состояния рынка ценных бумаг для Министерства финансов любой страны, хоть и являются важными, но не первостепенными. Принятым в тот же день своим Указом «О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала» УП-6207 Президент Узбекистана определил основные направления развития рынка капитала, в частности, повышение конкурентоспособности и доведение до 45 трлн. сумов до конца 2023 года капитализации рынка капитала, создание эффективного механизма финансирования альтернативного банковскому кредитованию. Были утверждены Программа развития рынка капитала на 2021-2023 годы, целевые показатели, достигаемые в рамках выполнения программы развития рынка капитала на 2021-2023 годы, дорожная карта по реализации Программы развития рынка капитала на 2021-2022 годы, перечень предприятий, акции которых подлежали публичному размещению через фондовую биржу в 2021-2023 годах и некоторые другие важные документы.

Но уже во второй половине 2023 года стало ясным, что значительная часть поставленных задач не будет выполнена. Поэтому Постановлением Президента Республики Узбекистан от 2 сентября 2023 года № ПП-291, полномочия в сфере государственного регулирования рынка капитала переданы от Министерства экономики и финансов Национальному агентству

перспективных проектов.

В смене регуляторов рынка ценных бумаг нашей страны прослеживается определенная тенденция. Если на предыдущих этапах развития экономики республики уполномоченный государственный орган по регулированию рынка ценных бумаг подчинялся министерству (ведомству), то в последние годы он стал подчиняться непосредственно правительству, а в настоящее время - уже органу, функционирующему при Администрации Президента. Это свидетельствует о признании высшими эшелонами власти роли рынка ценных бумаг в развитии экономики страны.

Какие же проблемы остались в наследство от предыдущих регуляторов Национальному агентству перспективных проектов?

Сегодня, в качестве единственного инструмента фондового рынка, получившего определенное развитие, как и 10 лет назад, являются акции.

Вместе с тем, подавляющая их часть продолжает оставаться обездвиженной. Несмотря на принятие соответствующих изменений в законе «О рынке ценных бумаг», дающих право обществам с ограниченной ответственностью (более 370 тыс.) выпускать корпоративные облигации, они (облигации) не получили должного развития, поскольку подзаконные акты не создают соответствующих условий для развития рынка данного вида ценных бумаг. Более 90 тыс. частных предприятий, чьи собственники несут ответственность по своим обязательствам всем своим имуществом, вообще не имеют права выпускать облигации. Несмотря на наличие соответствующего законодательства в республике не выпущено ни одной узбекской депозитарной расписки. Интеграция отечественного фондового рынка в зарубежные рынки капитала на протяжении длительного времени «де факто» осуществляется исключительно «на бумаге». Инфраструктура фондового рынка в региональном плане стала еще более гипертрофированной. Институты коллективного инвестирования, представленные инвестиционными фондами не выполняют своих функций по мобилизации свободных денег населения и направления их на финансирование развития

отраслей экономики. В республике не создано ни одного паевого фонда, а за последние 20 лет - ни одного инвестиционного фонда. Обороты фондового рынка растут лишь за счет первичной эмиссии, как правило, за счет приватизационных процессов. Доля вторичного рынка продолжает оставаться на низком уровне. В стране, внутри финансового рынка имеет место абсолютная монополия банковского сектора, которая не позволяет привлекать денежные средства для развития предприятий через выпуск ими акций и облигаций. Не внедряются новые финансовые инструменты. Отсутствует вексельное обращение, упразднено само законодательство о векселях.

Какие *первоочередные* шаги должен предпринять новый регулятор, чтобы выполнить поставленные перед ним задачи, ведь Стратегией Новый Узбекистан установлено, что к 2026 году объем рынка ценных бумаг должен достичь 7 млрд долл?

Содержание текста Постановления Президента Республики Узбекистан от 2 сентября 2023 года № 291 дает основание полагать, что новым регулятором взят курс на ускоренную интеграцию отечественного фондового рынка в зарубежные рынки капитала, привлечение иностранных инвестиций в республику через покупку ценных бумаг отечественных эмитентов иностранными инвесторами. Об этом свидетельствует введение специального правового режима «Регуляторная песочница» в сфере рынка капитала, в рамках которого утверждаются такие понятия, как: «*иностраный* уполномоченный государственный орган по регулированию рынка ценных бумаг», «*иностраный* клиент», «*иностраный* инвестиционный посредник», «*иностраный* бенефициарный владелец», «*иностраный* номинальный держатель», «*иностраный* номинальный счет», «прямой индивидуальный счет», «счет омнибус». Вводятся Отдельные правила деятельности и операций *иностраных* участников на рынке капитала, согласно которым *иностраные* номинальные держатели могут открывать счета ценных бумаг и осуществлять свою деятельность в Республике Узбекистан непосредственно или через агента и т.д. Однако, следует иметь ввиду, что иностранный инвестор придет

на отечественный рынок ценных бумаг только в том случае, если убедится, что внутренний рынок достаточно развит и работает «правильно», так, как он работает в его стране.

Для решения проблемы отсутствия целенаправленной, последовательной государственной политики в области рынка ценных бумаг необходимо разработать и принять Концепцию развития рынка ценных бумаг Узбекистана, в которой важное место уделить вопросам повышения его *конкурентоспособности*.

Для осуществления финансирования предприятий с государственным участием за счет выпуска акций необходимо разработать специальный механизм выпуска ими акций, обеспечивающий сохранение государственной доли в уставном фонде либо её сокращение при дополнительной эмиссии.

Для придания развитию региональных рынков ценных бумаг большей значимости и обеспечения последовательного их формирования целесообразно ввести в практику разработку и принятие каждой областью региональных Программ развития рынка ценных бумаг, утверждаемых Хокимами областей.

В целях решения проблемы обеспечения эффективного раскрытия информации, необходимо кардинально изменить подходы к организации информирования инвесторов, создав систему, действующую по принципу: «не инвестор ищет информацию, а информация находит инвестора».

Необходимо также разработать и принять Программу повышения финансовой грамотности населения и уровня квалификации сотрудников инвестиционных институтов, реанимировать нормы законодательства о квалификационных требованиях к специалистам рынка ценных бумаг, наличии у них элементарного базового образования, а также о ежегодном повышении ими квалификации.

Решив эти первоначальные проблемы, можно будет смело ставить перед собой задачи дальнейшего развития отечественного фондового рынка и его интеграции в зарубежные рынки капитала.

ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИНИ ИННОВАЦИЯЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

*И.М. Алимардонов-
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети Молия кафедраси
профессори, и.ф.д*


Аннотация: Ўзбекистон Республикаси молия бозорини ривожлантиришнинг замонавий босқичида қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларнинг мавжудлиги (қимматли қоғозлар бўйича етарлича ва ишончли статистик маълумотлар базасини мавжуд эмаслиги, хўжалик юритувчи субъектларнинг қимматли қоғозлар портфелини бошқариш стратегиясини илгор хориж тажрибаси асосида такомиллаштиришни таъминланмаганлиги, қимматли қоғозларга қилинган инвестициялар қийматини девальвация ва инфляция таъсирида пасаяётганлиги ва бошқ.) қимматли қоғозлар бозори фаолиятини инновациялар асосида ривожлантириш заруриятини юзага келтиради.

Калит сўзлар: қимматли қоғоз, инфляция, девальвация, фонд биржаси, акция, облигация.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш, иқтисодиётнинг реал секторида ҳамда молия ва банк соҳаларида ишлаб чиқариш ва операцион жараёнларни рақамлаштириш даражасини 2026 йил якунига қадар 70 фоизгача ошириш мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган[1].

Эътироф этиш керакки, “Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида”ги қонун билан дунё тажрибасидан келиб чиқиб, акциялар қоғоз шаклидан электрон шаклга ўзгарди ва акциядорлар реестрини юритиш функцияси акциядорлик жамиятларидан олиниб, 1999 йилда давлат корхонаси шаклида тузилган Қимматли қоғозларнинг марказий депозитарийсига берилди.

2022 йилда биржа савдолари иқтисодиётнинг турли тармоқларига мансуб бўлган 10 та акциядорлик жамиятининг қимматли қоғозлари билан амалга оширилди.



1-расм. “Тошкент” фонд биржасида амалга оширилган битимлар ҳажми, млрд. Сўм[2]

1-расмда келтирилган маълумотлардан кўринадики, “Тошкент” фонд биржасида амалга оширилган битимлар ҳажми 2020-2022 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, “Тошкент” фонд биржасида амалга оширилган битимлар сони 2018-2022 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлди ва 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, битимлар сони 80723 тани ташкил этди.

Фикримизча, республикамызда қимматли қоғозлар бозорини инновациялар асосида ривожлантиришнинг истиқболли йўналиши бўлиб, замонавий технологияларни (SupTech, Big Data, Digital Single Market ва бошқ.) қимматли қоғозлар бозорининг фаолиятига жорий қилиш ҳисобланади.

SupTech технологияси қимматли қоғозлар бозорида Big Data каби инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда назоратни амалга ошириш имконини берадиган технологиядир. Ушбу технология маъмурий

жараёнларни автоматлаштиради, молиявий ҳисоботларнинг шаффофлигини оширади, қимматли қоғозлар бозорида жараёнларни трансформация қилади.

Big Data (Улкан маълумотлар) технологияси жуда катта ҳажмдаги маълумотларни юқори тезликда ва аниқликда қайта ишлаш имконини берадиган технологиядир.

Учта V:

* *Volume* (Ҳажм)

* *Velocity* (Тезлик)

* *Variety* (Хилма-хиллик)

Reg Tech технологияси инновацион технология бўлиб, у молия бозори регуляторининг қарорини амалга ошириш мақсадида самарали, ишончли, хавфсиз иқтисодий қарорни амалга оширади.

Сунъий интеллект технологияси компьютерларни инсон каби фикрлашга ўргатиш технологиясидир. Сунъий интеллект маълумотларни турли манбалардан олади (информатика, математика, лингвистика, психология, биология, машинасозлик) ва катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш асосида қарорлар қабул қилади.

Булутли ҳисоблаш (cloud computing) технологияси маълумотларни тақсимлаган тарзда қайта ишлаш технологияси бўлиб, бунда компьютер ресурслари ва қуввати фойдаланувчига интернет-сервис сифатида берилади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги*www.lex.uz.

2. *Биржевое обозрение за 2022 год*[//analytics@uzse.uz](mailto:analytics@uzse.uz).

БАНКЛАРАРО КРЕДИТ БОЗОРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Ш.Т. Ибодуллаев -
ТИФ Миллий банки ходими, PhD

Аннотация: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли Фармони билан тасдиқланган 2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегиясида молия бозорида тенг рақобат шароитларини яратиш, кредитлашни фақат бозор шартлари асосида амалга ошириш, кредит портфели ва таваккалчиликларни бошқариш сифатини яхшилаш, кредитлаш ҳажмларининг мўътадил ўсишига амал қилиш мамлакат банк тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари сифатида эътироф этилган [1]. Бу эса, ўз навбатида, банклараро кредит бозорини тартибга солиш амалиётини такомиллаштириш заруриятини юзага келтиради.

Калим сўзлар: банк, кредит, кредит бозори, депозит, фоиз ставкаси, асосий ставка, инфляция.

Аннотация: В Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы отмечено, что, повышение эффективности банковской системы путем создания на финансовом рынке равных конкурентных условий, кредитования исключительно на рыночной основе, улучшения качества кредитного портфеля и управления рисками, соблюдения умеренного роста объемов кредитования являются приоритетными направлениями реформирования банковской системы Республики Узбекистан [2]. Это обуславливает необходимость совершенствования практике регулирования межбанковского рынка кредитов.

Ключевые слова: банк, кредит, кредитный рынок, депозит, процентная ставка, основная ставка, инфляция.

Annotation: The Strategy for Reforming the Banking System of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025 notes that increasing the efficiency of the banking system by creating equal competitive conditions in the financial market, lending exclusively on a market basis, improving the quality of the loan portfolio and risk management, maintaining moderate growth in lending volumes are priorities directions of reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan. This necessitates improving the practice of regulating the interbank loan market.

Key words: bank, loan, credit market, deposit, interest rate, prime rate, inflation.

Бир гуруҳ иқтисодчи олимларнинг хулосасига кўра, банклараро кредит бозорини тартибга солишнинг тўғридан-тўғри усуллари бўлиб, қуйидагилар ҳисобланади:

*тижорат банкларининг кредитлаш фаолиятига нисбатан лимитлар белгилаш;

*тижорат банкларига нисбатан Марказий банк томонидан мажбурий захира талабларини жорий қилиш;

*ҳалқаро кредитларни жалб қилиш ҳажмига нисбатан чекловлар ўрнатиш;

*ҳалқаро молия институтлари томонидан ҳалқаро кредитларнинг бериш ва қайтариш шартларини белгилаш [3].

Кредит бозорини тартибга солишнинг билвосита усуллари бўлиб, қуйидагилар ҳисобланади:

*Марказий банкнинг дисконт операцияларидан фойдаланиш;

*Марказий банкнинг очик бозор операцияларидан фойдаланиш;

*Марказий банкнинг депозит операцияларидан фойдаланиш;

*тижорат банклари депозитлари ва кредитларининг фоиз ставкаларини шаклланиш жараёнларига аралашмаслик [4].

Ўзбекистон Республикасининг банклараро кредит бозорининг замонавий ҳолатини таҳлили кўрсатадики:

*банклараро кредит бозорининг муҳим сегменти бўлган қисқа муддатли пул бозоридаги операцияларнинг умумий ҳажми 2022 йилда 147,8 трлн сўмни ташкил этди, бу эса, 2021 йилга нисбатан қарийб 1,5 баробарга кўпдир;

*қисқа муддатли пул бозоридаги операциялар бўйича ўртача тортилган фоиз ставкалари 2022 йилда Марказий банкнинг асосий ставкасининг ўзгартирилишига мос равишда ўзгариб борди ва ушбу йилнинг сўнгги 4 ойида 14-14,2 фоиз оралиғида шаклланди;

*банклараро қисқа муддатли пул бозорида амалга оширилган ойлик операцияларнинг ўртача ҳажми 2022 йилда 1,5 баробарга ошди ва 12,3 трлн сўмни ташкил қилди;

*2022 йилда тижорат банкларининг ликвидлигини таъминлаш мақсадида берилган кредитларнинг 82,4 фоизи 1 кунлик овернайт кредитларининг ҳиссасига тўғри келди [5].

Айни вақтда, инфляция даражасининг нисбатан юқори эканлиги миллий валютадаги кредитларнинг фоиз ставкаларининг паст ва барқарор даражасини таъминлаш имконини бермаяпти. Гарчи, республикада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877 – сонли “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармонида асосан инфляцион таргетлаш режими жорий қилинган бўлса-да, инфляциянинг мақсадли кўрсаткичига эришишнинг иложи бўлмаяпти. Хусусан, 2022 йилда инфляциянинг юқори чегаравий даражаси 9,0 фоиз қилиб белгилангани ҳолда, унинг ҳақиқатдаги даражаси 12,3 фоизни ташкил этди [6].

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида инфляциянинг йиллик даражаси, Марказий банк қайта молиялаш ставкасининг йиллик даражаси ва тижорат банкларининг миллий валютада берилган кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкаси, фоизда [7]

Кўрсаткичлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021	2022
Инфляция даражаси	14,3	15,1	11,1	10,0	12,3
Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкаси	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0
Тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкаси	20,5	24,2	22,3	20,8	21,9

1-жадвалда келтирилган маълумотлардан кўринадик, 2018-2022 йилларда республикада инфляция даражасини нисбатан юқори бўлганлиги Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини пасайтириш имконини бермаган. Бу эса, ўз навбатида, тижорат банкларининг миллий валютада берилган кредитларининг фоиз ставкаларини таҳлил қилинган давр мобайнида нисбатан юқори бўлишига сабаб бўлган.

Фикримизча, миллий ссуда капиталлари бозорини тартибга солиш амалиётини такомиллаштириш учун, банклараро кредит бозорини тартибга солишнинг тўғридан-тўғри ва билвосита усулларида комплекс

фойдаланишни йўлга қўйиш мақсадида, биринчидан, узатма тижорат векселлари муомаласини қайта тиклаш орқали Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг тратталар муомаласига асосланган дисконт кредитлари бериш амалиётини жорий қилиш керак; иккинчидан, инфляциянинг мақсадли кўрсаткичига эришишни таъминлаш мақсадида инфляцияни юзага кетирувчи монетар ва монетар бўлмаган омилларнинг таъсир даражаларини пасайтиришга қаратилган аниқ чора-тадбирлар мажмуини ишлаб чиқиш лозим ва мазкур чора-тадбирларнинг ижроси учун жавобгарликнинг аниқ мезонларини белгилаб олиш зарур; учинчидан, давлат қимматли қоғозларининг инвестицион жозибadorлигини таъминлаш йўли билан Марказий банкнинг очиқ бозор операцияларининг ҳажмини ошириш лозим; тўртинчидан, Марказий банк мажбурий захира талабларининг кредитларнинг фоиз ставкалари барқарорлигига нисбатан юзага келаётган салбий таъсирга барҳам бериш чораларини кўриш керак.

Инфляцияни юзага келтирувчи монетар ва монетар бўлмаган омиллар чуқур фундаменталь таҳлил объекти бўлиши керак ва таҳлил натижаларига асосланган ҳолда, Ҳукумат ва Марказий банкнинг жавобгарлик мезонлари аниқ белгилаб қўйилиши керак.

Ҳозирги даврда инфляция даражасини ва миллий валютанинг девальвация суръатини нисбатан юқори эканлиги давлат қимматли қоғозларининг инвестицион жозибadorлигини оширишга тўсқинлик қилмоқда.

Шунингдек, Марказий банкнинг тижорат банкларининг хорижий валютадаги депозитларига нисбатан ўрнатган мажбурий захира ставкаларининг жуда юқори эканлиги (18%) тижорат банклари кредитларининг фоиз ставкалари барқарорлигига нисбатан салбий таъсирни юзага келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг*

банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони//ҚҲММБ:06/205992/0581-сон. 13.05.2020 й.

2. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5992 от 12 мая 2020 года «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы»// (НБДЗ, 13.05.2020 г., № 06/20/5992/0581. 13.05.2020 г.

3. Ключников И.К., Молчанова О.А., Ключников О. И. Рынок ссудных капиталов и биржи: история и закономерности. Учеб. пособие. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУЭФ, 2007. – 87 с.; Мингалиев И.Р. Особенности трансформации рынка ссудного капитала в постиндустриальной экономике//Сегодня и завтра российской экономики. – Москва, 2013. – № 57. – С. 41–44.; Глазунов Д. А., Новаковский А.В., Туктаров Ю. Е. и др. Государственное регулирование рынка ценных бумаг в России и зарубежных финансовых центрах: Лекции спецкурса для магистрантов. – Москва.: Статут, 2010. – 268 с.

4. Chevallier J., Goutte S., Guerreiro D., Saglio S., Sanhaji B. *International Financial Markets*. – London: Routledge, 2019. – 438 p.; Melvin M., Norrbin S. *International Money and Finance*. – Oxford: Academic Press, 2017. – 344 p.; Моисеев С.Р. Денежно-кредитная политика: теория и практика. – М.: Экономистъ, 2008. – 652 с.; Ускова Н.А. Особенности государственного регулирования рынка ссудных капиталов в развитии реального сектора экономики. Автореф. дисс. на соиск. уч ст. к.э.н. – Москва, 2001.

5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2022 йилдаги фаолияти юзасидан ҳисобот//www.cbi.uz

6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Пул-кредит сиёсатининг 2022 йил ва 2023-2024 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари//www.cbi.uz (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки).

7. Жадвал муаллиф томонидан www.cbi.uz сайти (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки) томонидан тузилган.

ISLOM QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Elmirzayev S.E. - Iqtisodiyot fanlari
doktori (DSc), professor.*

*Ochilov A. - Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi, magistr.*

Annotatsiya. Mazkur tezisda sukuklarning nazariy asoslari va o‘ziga xos jihatlari aks ettirilgan. Bu ko‘rinishdagi moliyaviy instrumentlarning qisqacha mazmuni va ishlash prinsiplari yoritib berilgan. O‘zbekistonda yangi moliyaviy instrument sifatida sukuklarni joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sukuk, qimmatli qog‘oz, emissiya, SPV, fond bozori.

Korxonada faoliyati uchun qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish vositalaridan biri bu obligatsiyalar emissiyasi hisoblanadi. Bu instrumentning bank kreditlariga nisbatan bir qancha qulayliklari mavjud bo‘lib, bir tarafdin korxonada kreditga nisbatan kamroq foizda resurs jalb qilsa, ikkinchi tarafdin investor likvidligi yuqori sertifikatga ega bo‘ladi va ixtiyoriga ko‘ra ikkilamchi bozorda sotish imkoniyatiga ega. Ammo aholisining asosiy qismi musulmonlar tashkil etadigan jamiyatda an‘anaviy obligatsiyalardan foydalanish ommalashmagan. Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq kelmaslik an‘anaviy obligatsiyalardan foydalanishga ruxsat bermaydi. Shu sababli, jamiyat ehtiyojini qondirish va investitsiyalar jalb qilish samaradorligini oshirish maqsadida obligatsiyalar o‘rniga uning muqobili bo‘lgan shariatga mos keluvchi moliyaviy instrument ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Ishlab chiqilgan islomiy qimmatli qog‘ozlar sukuk deb nomlanib, undan keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda.

Islom moliyasining mashhur olimlaridan Muhammad Taqi Usmoniy sukuk borasida uning xususiyatlarini ochib beruvchi quyidagi mulohazalarni bildirgan[1].

- bir investor kuchi yetmaydigan katta loyihalar uchun moliyalashtirishning qulay usullaridan biri;
- investitsiyalarni yo‘naltirish va likvidligi sabab zarur holda investitsiyani

qaytirib olish uchun qulay vosita, shu orqali ikkilamchi bozor ham rivojlanadi;

- banklar va islomiy moliyaviy muassasalar uchun likvidlikni boshqarishning ajoyib usuli;

- boylklarni taqsimlashning adolatli vositasidir, chunki u investorlarga tadbirkorlik faoliyati foydasidan teng ulushda manfaat olish ishonini beradi.

Bugungi kunda sukuk ayniqsa likvidlik bilan bog'liq noqulay sharoitda infratuzilma loyihalarini uzoq muddatga moliyalashtirish uchun muhim instrumentga aylanib bormoqda[2].

Sukuklar moliya tizimida an'anaviy obligatsiyalar o'rnini to'ldirish uchun ishlab chiqilgan vosita bo'lganligi uchun uning mazmunida "islomiy obligatsiya" tushunchasidan foydalanilishini asoslaydi. Rasmiy jihatdan sukukni to'laqonli obligatsiya deb atash mumkin emas. Uning an'anaviy obligatsiyalardan farqi mavjud[3]. Umuman olganda sukuklarni obligatsiya sifatida ta'riflash uning mohiyatini yetarli darajada yoritib bera olmaydi. Chunki obligatsiya tushunchasi qarz uchun haq to'lashlik tasavvurini uyg'otadi va bu riboni anglatadi. Natijada esa, sukuk mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi.

Islom moliyasida sukukning tub mohiyatida aktivlarni sekyuritizatsiyalash yotadi. Investitsion loyiha yoki moddiy aktiv asos qilingan holda qiymatiga ko'ra sukuk emissiya qilinadi. Uni harid qilgan investor ulushiga ko'ra investitsion loyiha yoki moddiy aktivga nisbatan egalik huquqiga ega bo'ladi. Emitent moliyaviy resursdan biznes rejani amalga oshirish uchun foydalanadi. Shu tariqa moddiy aktivning likvidligi oshiriladi. Investor istalgan vaqtda sukuklarni (ayrim turlari mustasno) ikkilamchi bozorga sotuvga qo'yishi mumkin. Emitent tadbirkorlik sub'ektining ustav kapitalida o'z ulushini saqlab qolgan holda zaruriy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu mexanizm orqali ikkala taraf – emitent va investorning shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish bo'yicha ehtiyojini qondirishga erishiladi.

Bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi asosiy tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin [4]:

- huquq va majburiyatlarning shaffofligi va aniqligi;

- qimmatli qog'oz daromadi ssuda foizi bo'lmay, moliyalashtirilayotgan loyiha bilan bog'liq bo'lishi lozim;

- qimmatli qog'oz faqatgina qog'oz sertifikat bo'lmay, real aktiv bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Shu tariqa bu turdagi sertifikatga gibrat qimmatli qog'oz deb qarash mumkin. Quyida sukukning aksiya va obligatsiya bilan o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqilgan (jadval).

1-jadval

Sukukning oddiy aksiya va obligatsiya bilan o'xshash va farqli jihatlarini

Qimmatli qog'oz turi	Oddiy aksiya	Sukuk	Obligatsiya
Chiqarish shakli	emissiyaviy qimmatli qog'oz	emissiyaviy qimmatli qog'oz	emissiyaviy qimmatli qog'oz
Korporativ boshqaruvdagi ishtiroki	boshqaruv va daromadda ishtirok etadi	turiga ko'ra: to'liq ishtirok, sof foydaga sherik, qarz majburiyati	faqat qarz majburiyatini yuklaydi
Muomala muddati	mavjud emas	mavjud	mavjud
Investor foydasi	dividend	sof foydadan ulush yoki kechiktirilgan ustama to'lov	kafolatlangan foiz stavkasi
Nominal qiymatining qaytishi	kafolatlanmagan	kafolatlanmagan	kafolatlangan
Nominal va so'ndirilish qiymati o'rtasidagi farq ehtimoli	mavjud	mavjud	mavjud emas
Aktiv bilan qoplanganligi	qoplangan	qoplangan	qoplanmagan
Konseptual asoslari	inson tafakkuri	shariat	inson tafakkuri
Tartibga solinishi	normativ huquqiy xujjatlar	shariat, normativ huquqiy xujjatlar	normativ huquqiy xujjatlar
Moliyalashtirish sohasi	ixtiyoriy	shariatga muvofiq	ixtiyoriy
Ikkilamchi bozordagi savdosi	mumkin	turiga ko'ra: mumkin, mumkin emas	mumkin

Sukuk oddiy aksiya bilan quyidagi xususiyatlarga ko'ra o'xshash hisoblanadi:

- emissiyaviy qimmatli qog'oz;
- ayrim turlari boshqaruvda ishtirok etish huquqini beradi;
- investor foydasi korxonada faoliyatidan olingan sof foydaga bog'liq. Bunda oddiy aksiya daromadi dividendga bog'langan bo'lsa, sukukda avvaldan sof foydaga bog'langan bo'ladi.

Mamlakat fond bozorining barcha toifadagi investorlar uchun qulayligini

oshirish, “yashirin” iqtisodiyot hajmini kamaytirish va iqtisodiyotdan chetda qolgan moliyaviy resurslarning samarali jamg‘arilishi uchun islomiy qimmatli qog‘ozlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.T. Gafurova. Sukuk v sisteme islamskogo finansirovaniya // Vestnik AGTU. Ekonomika. 2011. №2 90-94s.
2. Islomiy moliya asoslari Matn/ Ye.A.Baydaulet. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 432-b.
3. Sukuk. Shariatskiy standart №17 / Per. s angl.; [Red. sovet: P.P. Vaxitov i dr.]; Org.bux. ucheta i audita islamskix fin. uchrejdeniy (AAOIFI). - M.: Islamskaya kniga, 2010. 40 s.
4. Abdumajid Anorboev. “An-Na’ym” – T.: “Abdulla Qodiriy”, 2003. – 960 b.

**КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИ РИВЖЛАНТИРИШДА
ИНФРАТУЗИЛМА ИМКОНИАТЛАРИДАН САМАРАЛИ
ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

***Бабаханов Джамолиддин Яндирович -
Наманган муҳандислик-технология
институтини мустақил тадқиқотчиси***

Аннотация: Мазкур мақолада кичик бизнес субъектларини ривожлантиришда мавжуд ҳудудий инфратузилма имкониятларидан самарали фойдаланишнинг назарий асослари тадқиқ этилган.

Калим сўзлар: кичик бизнес, инфратузилма, самарадорлик, ифратузилма тамойиллари.

Аннотация: в данной статье исследуются теоретические основы эффективного использования существующих бизнес-инфраструктурных возможностей при развитии субъектов малого предпринимательства.

Ключевая слова: малый бизнес, инфраструктура, эффективность, принципы исключения.

Abstract: this article examines the theoretical foundations of the effective use of existing business infrastructure opportunities in the development of small businesses.

Keywords: small business, infrastructure, efficiency, exclusion principles.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг энг асосий босқичи кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, унга кенг иқтисодий эркинлик бериш билан ифодаланади.

- kapital egasining kapitaldan foydalanish samaradorligidagi farqlar;
- iqtisodiy resurs sifatida odatda kapitalning yuqori darajada safarbar etilishi.

Xalqaro qarz qimmatli qog'ozlar xalqaro fond bozorida kapitalni jalb etishning va operatsiyalarning asosini (qariyb 90-95%ni) tashkil etadi. Ularning tarkibida xalqaro obligatsiyalar va notalarni, turli kompaniyalar (korporativ), moliyaviy institutlar va davlatlarning xalqaro qarz qimmatli qog'ozlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Oxirgi o'n yillikda ularning hajmi 2 barobardan ko'proqqa oshdi, chunonchi, xalqaro qarz qimmatli qog'ozlari 2004 yildagi 11,5 trln. AQSh dollaridan 2014 yilga kelib qariyb 21,8 trln. AQSh dollariga etgan va 2009 yildan boshlab hozirgacha ularning hajmining o'sishi moliyaviy inqiroz natijasida sekinlashgan. Depozitar tilxatlari – ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bo'lib, nominal

qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

Xalqaro aksiyalar bozorida depozitar tilxatlarning bir necha turlari asosan keng qo'llaniladi. Shuningdek, emitentlar faoliyatining kengayib borishi natijasida ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning xorijiy mamlakatlarda ham muomalada bo'lishi bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda oddiy holatga aylandi.

Amerika depozitar tilxatlari – ma'lum bir miqdordagi amerika depozitar aksiyalariga egalikni tasdiqlovchi sertifikatdir. Yevropa depozitar tilxatlari Yevropa banklari tomonidan Yevropa ittifoqi mamlakatlaridan tashqarida joylashtirilgan kompaniyalar aksiyalariga egalik qilishni tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Global depozitar tilxatlari esa AQSH fond bozorlarida, shuningdek boshqa davlatlar fond bozorlarida taklif qilinadi va joylashtiriladi.

1998-yil martdan AQSH fond bozorida savdo qilinadigan amerika depozitar tilxatlarining birinchi indeksi sifatida Bank of New York (Nyu-York banki) indeksi hisoblana boshlandi. Bu indeks real vaqt rejimida umumiy kapitallashuvi 3,1 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36 mamlakatdan 431 ta kompaniya ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 7 oktyabr kuni kapital bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasi*

2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininng «Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi 268-sonli qarori. 10.05.2017 yil.*

3. *Elmirzaev S. Korporativ moliya. Darslik . - T.: «Iqtisod- moliya», 2019 y. 364 b.*

4. *B.Toshmurodova va boshqalar. «Korporativ moliyani boshqarishning dolzarb masalalari». Monografiya. - T.: «Iqtisod-moliya», 2017.-B. 188 b*

5. *N.Tursunova. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari: Monografiya/— T.: «Iktisod- moliya», 2017. - B. 150 b.*

СОВРЕМЕННЫ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Кудайбергенова Г.К. -

ТГЭУ ассистент кафедры финансы

В движение финансового капитала между инвесторами и эмитентами фондовая биржа играют важную роль. В нашем государстве в процессе масштабных реформ особое внимание уделяется расширению и поддержке и создание более благоприятных условий для развития фондового рынка в Республике.

***Ключевые слова:** Ценные бумаги, фондовый рынок, финансовый рынок, акции, рынок ценных бумаг.*

Рынок ценных бумаг, как и любой другой рынок, представляет собой систему экономических отношений по поводу купли-продажи, где сталкиваются спрос и предложение и определяется цена. Рынок ценных бумаг является основной частью финансового рынка, представляют собой ту его часть на котором происходит обращение ценных бумаг. Рынок ценных бумаг имеет схожие черты с рынком любого другого рынка. Ценная бумага являясь товаром фондового рынка, имеет свои специфические особенности и отличается от рынка реальных товаров. Высокая доходность является одним из ключевых его преимуществ. Величина рынка непосредственно связана со степенью специализации общественного труда. Этому полностью соответствует рынок ценных бумаг, который тоже развивается вследствие роста специализации эмитентов и инвесторов, продавцов и покупателей товара "ценная бумага". С одной стороны, растет число эмитентов, осуществляющих эмиссии ценных бумаг; с другой стороны, все более

дифференцируются их виды, увеличиваются масштабы их обращения, расширяется круг инвесторов.

Эффективное функционирование фондового рынка в стране позволяет решить следующие проблемы:

- Мобилизация временно свободного капитала в форме денежных и других финансовых ресурсов государства, регионов, предприятий и населения
- Оптимизация распределения временно свободных финансовых ресурсов между конечными потребителями
- Выявление наиболее доходных сфер и направлений использования временно свободных финансовых ресурсов
- Ускорение оборота финансовых ресурсов
- Позволяет эмитентам получать необходимый капитал в краткие сроки

В развитых странах мы можем видеть активы, приобретенные на фондовых рынках, как основной доход коммерческих и физических лиц (акции компаний, облигации, криптовалюты, опционы и другие типы финансовых активов). Исследования также показали, что в развитых странах инвестиционные ресурсы направляются в сферу обмена на «финансовый рынок», который имеет разные взгляды, в частности, фондовый рынок. Следовательно, фондовый рынок - одна из основных составляющих финансового рынка. Помимо приведенных выше определений, согласно другому взгляду наших экономистов: ценные бумаги - это продукты, созданные эмитентами и покупаемые инвесторами, как правило, через инвестиционных посредников - институтов, выполняющих функции отношений между инвесторами и эмитентами. Ценная бумага подтверждает, что капитал инвестора (физического или юридического лица, предоставившего средства) был передан эмитенту (лицу, выпустившему ценные бумаги) и предоставил собственнику право на получение определенного дохода. Согласно составной структуре фондовый рынок отличается своей важностью, местом и функциями в экономике. В мировой практике рост или снижение экономического развития зависит от тенденции

оценки активов на этом рынке. Без преувеличения можно сказать, что рынок ценных бумаг, то есть фондовый рынок, выполняет функцию взаимного распределения финансовых ресурсов в интересах обеих сторон. В развитых странах мы можем рассматривать активы, приобретенные на фондовых рынках, как основной доход юридических и физических лиц. В частности, фондовый рынок в таких странах, как США, Япония, Великобритания и Китай, находится в центре внимания инвесторов. Конечно, развитие фондового рынка можно определить по его отношению к ВВП страны. Основное внимание инвесторов, участвующих на фондовом рынке, уделяется ценным бумагам компаний, работающих в таких странах, как США, Япония, Великобритания и Китай. В развитых странах прибыльные компании играют важную роль в повышении привлекательности фондового рынка и привлечении свободных средств инвесторов. В частности, когда мы анализируем фондовые рынки развитых стран, мы можем наблюдать участие крупных национальных и транснациональных корпораций.

Список литературы:

- 1. Маматов Б.С., Хўжсамқулов Д.Ю., Нурбеков О.Ш. Инвестицияларни ташкил этиши ва молиялаштириши. Дарслик. – Т.: Иқтисод-молия, 2014. - 84-б.*
- 2. Ниязов Ф. Банки увеличивают объемы финансирования инвестиционных проектов. // Журнал “Рынок, деньги и кредит”, 2014. - №6. - С. - 31.*
- 3. Голов Р.С., Балдин К.В., Передеряев И.И. Инвестиционное проектирование: Учебник – М.: Дашков и К, 2010. - С. - 143.*
- 4. Проектное финансирование: синергетический аспект: Учебное пособие / Г.А.Поташева. - М.: НИТс ИНФРА-М, 2015. - С.- 171 с.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

*Адашалиев Бахтиёржон Валишер угли -
Исследователь Ташкентского государственного
экономического университета*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается платежеспособность хозяйствующих субъектов и проведенные в последние годы исследования по ее определению, а также сделанные по ним выводы, а также упоминаются некоторые аспекты определения платежеспособности хозяйствующих субъектов.*

***Ключевые слова.** Субъекты хозяйствования, кредитоспособность, платежеспособность.*

На данный момент опасная ситуация в мировом сообществе, возникновение различных экономических спадов из-за пандемии на первых порах, а также последствия конфликтов и даже войн между некоторыми странами, которые все больше охватывают мировое сообщество без этого спада, не в состоянии восстанавливаются, вызывают проблемы с платежами для стран и их предприятий.

Современное состояние экономики характеризуется спадом производственно-хозяйственной деятельности, уменьшением производственных капитальных вложений, расстройством денежного обращения. Эти тенденции являются результатом проводимой макроэкономической политики, которая нарушила ключевые репродуктивные цепочки и экономические связи. Игнорирование структурных особенностей экономики, опора на автоматическое действие механизмов самоорганизации рынка привело к ее дезинтеграции и усилению хаоса. Попытки применить традиционные для состояния рыночного равновесия методы макроэкономической стабилизации путем ограничения денежной массы не дали адекватных результатов. При присущей экономике неравновесности это неизбежно вело к ее дроблению на автономно функционирующие отрасли, стремящиеся каждая к своему равновесному состоянию.

Исследователь Г. Турдиева определяет понятие кредитоспособности с точки зрения коммерческих банков как «Кредитоспособность - это совокупность юридических, финансовых и нематериальных характеристик предприятия, выраженных в финансовых и нефинансовых показателях, оценка способности банка полностью покрыть его обязательства перед кредитором в будущем в сроки, предусмотренные кредитным договором, а также способность банка покрыть определенный хозяйствующий субъект критерием, позволяющим определить уровень риска при кредитовании²⁰.

Видно, что Г.Турдиева делала свои предложения с точки зрения коммерческого банка, а не субъекта хозяйствования.

Н. Мавланов, проведя ряд исследований по данному понятию, говорит, что кредитоспособность - это способность субъекта хозяйствования своевременно и в полном объеме погасить кредит (основной и процентный) за счет экономической эффективности путем прогнозирования своих будущих возможностей на основе по финансовым и нефинансовым показателям сформировали определение²¹.

Исследование, проведенное Н. Мавлановым, также проводилось с точки зрения коммерческих банков, и определение ориентировано не на платежеспособность полноценного предприятия, а на кредитоспособность, которая стала необходимостью расчета коммерческих банков. банки при выдаче кредита предприятию.

В целом в обеих вышеуказанных научных разработках, сделанных в последние годы, за основу была взята позиция коммерческих банков.

На наш взгляд, мы видим, что здесь разграничены само понятие платежеспособности и кредитоспособности. То есть платежеспособность понятие широкое, и способность погашать кредиты можно рассматривать как его часть.

²⁰ Г. Турдиева. Совершенствование теоретических и организационно-методических аспектов анализа кредитоспособности хозяйствующих субъектов. Абстрактный. Ташкент. 2019.

²¹ Н. Мавланов. Совершенствование анализа и оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов. Абстрактный. Ташкент. 2019.

Поэтому, по нашему мнению, платежеспособность является показателем, который представляет собой способность погашать долговые обязательства перед хозяйствующими субъектами на различных условиях.

Конечно, этот показатель рассчитывается на основе различных экономических показателей и оценивается по его результату. При этом финансовые и нефинансовые показатели могут учитываться при определении показателя, как отмечают вышеназванные авторы. Однако в итоге оценивается платежеспособность субъекта хозяйствования и на основании этого делаются выводы и решения, направленные на управление финансовым положением предприятия.

Из вышеизложенного мы видим, что коэффициент платежеспособности является показателем, помогающим проверить финансовое состояние хозяйствующего субъекта. В частности, он позволяет определить, может ли хозяйствующий субъект выполнить свои текущие и долгосрочные финансовые обязательства.

Индикатор очень полезен для кредиторов, инвесторов, поставщиков и других организаций, которые хотят иметь дело с конкретной компанией. Он также обычно служит для сравнения прибыльности предприятия с его обязательствами для определения его финансовой устойчивости. В связи с этим, согласно данным, предпочтительным является высокий или сильный коэффициент платежеспособности, поскольку он является показателем финансовой устойчивости. С другой стороны, низкий коэффициент свидетельствует о возможных финансовых препятствиях в будущем.

Если платежи предшествуют получению средств и нечем покрыть потребности в капитале, возникают проблемы с ликвидностью. Нарушается последовательность обращения капитала, возникает разрыв ликвидности между финансовыми потоками, связывающими и высвобождающими капитал в планируемом периоде времени. Часто это является следствием определенных недостатков в управлении платежными потоками, непонимания сущности финансовых процессов, выражающихся во взаимосвязи между

инвестициями, финансированием, расходами, доходами, притоком и оттоком капитала. Современный анализ финансовой устойчивости и платежеспособности предприятия позволяет выявить основные проблемы, связанные с ликвидностью, что является необходимым условием грамотного управления его финансовым положением. Анализ необходим даже в том случае, если ликвидность предприятия низкая, потоки платежей и поступлений сбалансированы, имеется стабильная платежеспособность и нормальная финансовая устойчивость.

Сегодня на многих предприятиях действует система упрощенного анализа платежеспособности и финансовой устойчивости, основанная на систематическом расчете набора определенных коэффициентов, включенных в бухгалтерские программы. Оценка этих коэффициентов осуществляется только путем сравнения их с нормативами за определенный период. При таком анализе невозможно отслеживать отношения, определять влияние факторов и связывать их с достижением заранее поставленных целей, а руководители не могут использовать эту информацию достаточно эффективно для управления финансами хозяйствующего субъекта. Это объясняется, прежде всего, тем, что предприятия фактически не занимаются целевым управлением ликвидностью.

В современной оцифрованной среде схемы финансовых потоков, отражающие движение ценностей, настолько сложны, что управлять ими с помощью научно обоснованных методов невозможно. Это связано не только с объективными условиями переходной экономики. Важной причиной этого является то, что для многих предприятий еще не решен вопрос собственности, а их руководители не связывают со своей деятельностью принцип ее долговременного существования. Грамотное управление финансами важно, когда конкуренция на рынках еще толком не обострилась, в первую очередь за счет внутренних факторов, были достигнуты определенные конкурентные преимущества.

БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ТАҚСИМЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

*Хажиев Бахтиёр Душабоевич -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
доценти, иқтисодиёт фанлари номзоди*

Сўнги йилларда ривожланган давлатларда даромадларни қайта тақсимлаш жараёнларида уй хўжалиги сектори, яъни, фуқароларнинг ташаббусларини ҳисобга олган ҳолда бюджет маблағларининг муайян бир қисмини сарфлаш бўйича уларнинг бевосита иштирокида қарорлар қабул қилиш ҳамда унинг ижросини кузатиш имконини берувчи ташаббусли (партисипатор) бюджетлаштириш амалиёти кенг тарқалди.

Ҳозирги пайтда жаҳоннинг кўпгина мамлакатларида ташаббусли бюджетлаштириш мезонларига жавоб берувчи лойиҳалар амалга оширилмоқда. Булар қуйидагилар:

- Фуқароларнинг лойиҳаларни муҳокама қилишдаги ва уларни амалга оширишнинг барча босқичларидаги иштироки;
- Ҳокимият органлари вакилларининг лойиҳалар муҳокамасидаги иштироки;
- Муниципал ва давлат бюджетлари маблағларининг тақсимоли;
- Лойиҳалар амалга оширилишининг мунтазамлиги ва ҳар йили такрорланиши;
- Тадбирларнинг очиқлиги ва лойиҳаларнинг амалга оширилиши ҳақидаги оммавий ҳисобдорлик.

Ташаббусли бюджетлаштириш тўғридан-тўғри демократия механизмига асосланади, бунда фуқаролар бевосита умумий ва маҳаллий характердаги қарорлар ташаббусини илгари суради, қабул қилади ва бажарадилар. Парламент демократиясида қонунлар ва ҳукуматнинг асосий қарорларини қабул қилиш вакиллик органлари – депутатларга берилади. Фуқаролар бундай жамиятда билвосита, ўз вакилларига ўз манфаатларини

ифода этиш ҳуқуқини бериб, катта қарорларни қабул қилишда қатнашадилар.

Бизнинг фикримизча, қарор қабул қилишда оддий фуқароларнинг доимий бевосита иштирок этиши қийин бўлган жойларда вакиллик органи фаол иштирок этиши лозим. Аммо, агар биз маҳаллий муаммолар ҳақида гапирадиган бўлсак, унда маҳаллий қуйи бўғинда, онлайн овоз бериш билан онлайн мунозарани ҳисобга олмаганда, юзма-юз учрашув ташкил қилиш қийин эмас. Албатта, депутатлар фуқароларнинг ваколатларини давом эттирмоқдалар, аммо тажриба шуни кўрсатадики, ҳеч ким улар учун энг муҳим нарсани одамларнинг ўзидан яхшироқ билмайди.

Шундай қилиб, нафақат объектлар, балки ҳамкорликда ишлаш ва мураккаб вазифаларни ҳал қилишга тайёр, мустақил равишда лойиҳаларни яратиш, ҳудудни ривожлантириш учун янги (ва кўпинча ноёб) ресурсларни аниқлаш, шакллантириш ва ривожлантириш ваколатига эга бўлган жамоатчилик яратилади.

Одатий инвестиция лойиҳаларини амалга оширишдан фарқли ўлароқ (масалан, йўл, истироҳат боғи, ўйин майдончасини қуриш, маданият марказини таъмирлаш), партисипатор бюджетлаштириш лойиҳаларини амалга оширишда кўшимча ижтимоий самаралар юзага келади. Булар қуйидагилар:

1. Аҳоли пунктларининг энг кескин ижтимоий муаммоларини аниқлаш ва ҳал қилиш.

2. Лойиҳани яратиш тартибининг максимал шаффофлиги ва уни амалга ошириш жараёнида ҳақиқий жамоатчилик назорати туфайли коррупция минималлашади.

3. Ҳукумат, бизнес ва аҳолининг ҳамкорликдаги фаолияти кучаяди, аҳоли ва бизнес томонидан биргаликда молиялаштиришни назарда тутадиган умумий иштирок ва жавобгарлик шаклланади.

4. Фуқароларнинг ўз фаолиятини ўзи ташкил этишга интилиши рағбат топади ва боқимандалик кайфияти пасаяди.

5. Аҳоли ва ҳокимият органлари ўртасидаги конструктив мулоқот орқали аҳолининг ҳокимият фаолиятига бўлган ишончи ортиб боради.

Бизнинг фикримизча, агар ташаббусли бюджетлаштиришни амалга оширишнинг бевосита натижалари қурилган ёки таъмирланган инфратузилма объектлари деб ҳисобланиши керак бўлса, унда лойиҳаларни амалга ошириш билан бирга келадиган бир қатор натижалар қўшимча равишда иқтисодий самаралар деб номланса, тўғри бўлади. Улар орасида қуйидагилар мавжуд:

1. Лойиҳалар қийматини пасайтириш, бюджет маблағлари қайта тақсимотининг самарадорлигини ошириш.

2. Жамоатчилик назорати орқали бажариладиган ишларнинг сифатини ошириш.

3. Объектларнинг хизмат кўрсатиш муддатини кўпайтириш.

Ўзбекистон мазкур мақсадлардан 16 тасини маҳаллийлаштириш ва амалга ошириш вазифасини ўз олдига мақсад қилиб қўйган. Республика ҳудудида денгиз ҳавзалари бўлмаганлиги сабабли 14-мақсадни, яъни денгиз экотизимларини асраш маҳаллийлаштирилмаган. Бирламчи маълумотларга кўра, 2020-йилда давлат бюджетининг 72 фоизи ушбу мақсадларни амалга оширишга йўналтирилган. Жумладан, маблағларнинг 23,5 фоизи таълимга, 14,7 фоизи соғлом турмуш тарзини татбиқ этишга ва 11,8 фоизи кам таъминланган аҳолининг турмуш даражасини оширишга сарфланган²².

Шу билан бирга, тадқиқотларимиз республикада бюджет маълумотларининг очиқлиги ва сифати, уларни хорижий инвесторлар ва бошқа манфаатдор субъектларга етказиш, шунингдек парламент вакиллари ва фуқаролик жамиятининг Давлат бюджетини шакллантириш ва ижро этиш жараёнидаги иштироки даражаси етарли эмаслигини кўрсатди. Бугунги кунгача жамоатчилик фикри асосида шаклланган бюджет бўйича “Очиқ бюджет” порталига жойлаштирилган муаммолар ечимига оид таклифлар 41 мингтадан ортиқни ташкил этиши кам кўрсаткич ҳисобланади.

²² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjeti departamenti ma'lumoti.

Умуман, хулоса қилиб айтганда, бюджет даромадларини қайта тақсимлаш самарадорлигини оширишда фуқароларнинг бу жараёнлардаги иштирокини кўпайтириш, уларни янада кўпроқ жалб қилиш, фаол иштирок этган фуқароларга рағбатлантириш чораларини кўриш мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари, ташаббусли бюджет учун ажратилаётган маблағларни янада кўпайтириш, уни соҳалар (йўналишлар) кесимида ҳам ташкил қилиш зарур. Масалан, таълим, соғлиқни сақлаш, спорт ҳамда қишлоқ хўжалиги соҳаларига ажратилаётган маблағларнинг бир қисмини ўқитувчи, талаба, шифокор ва спортчи, фермер ҳамда деҳқонларнинг ихтиёрига топшириш керак. Чунки, улар ўз фаолиятидаги эҳтиёжларини ва етишмовчиликларни яхши билади ва ўзаро келишган ҳолда тўғри мақсадларда маблағларни сарфлайди. Шунингдек, давлат қарзларининг очиклиги янада кенгроқ таъминланиши, яъни бошқа давлатлардан олинаётган қарзларнинг қайси йўналишларга сарфланаётганлигини кўрсатиш ҳам бюджет очиклиги сиёсатининг янада ривожланишига олиб келади.

MOLIYA BOZORIDA QIMMATLI QOG'OZLARNING TUTGAN O'RNI

*Ilhomboyev Samandar -
TDIU, "Moliya va Buxgalteriya hisobi"
fakulteti 3-bosqich talabasi*

***Annatsiya:** Moliya bozorining turlari, turkumlanishi jahon Moliya bozori, bir qancha mamlakatlarning jahon moliya bozoridagi ulushlari, moliyaviy instrumentlar, moliya institutlari haqida*

***Kalit so'zlar:** Moliya bozori, moliya institutlari, fond bozori, jahon moliya bozori*

Moliya bozori — oldi-sotdi obykti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog'oz bilan bog'liq bo'lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag'larini jamg'arganlardan qarzga oluvchilarga o'tishi ta'minlanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini

mablag'larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasidav va auksionlarda o'tkaziladi.

Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, Moliya Bozorini turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo'yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatlari va kapital bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Kapital bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olgan holda kapital bozorini 2 bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo'ladi. Bular, asosan, davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa oldi-sotdi qilinadi. Xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida jahon Moliya Bozori paydo bo'ldi.

Jahon moliya bozori xalqaro kapital bozorining bir qismi bo'lib, turli mamlakatlardagi kreditorlar va qarz oluvchilarning kapitalga bo'lgan jami talab va taklifini o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda moliya bozori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab o'tish lozim. Chunki moliya bozorining mavjudligini asosiy tamoyili iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hisoblanadi. Moliya bozori va iqtisodiy o'sishni quyidagi oddiy misol (investitsiyalar) bilan tushuntirishga urunib ko'ramiz. Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar (moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiya)ning o'zaro bog'liqligi mexanizmi Nobel mukofoti laureati P.Samuelson tomonidan "akselerator tamoyili" ko'rinishida quyidagicha ifodalangan: real YaIM o'sishi real investitsiyalar o'sishiga olib keladi, o'z navbatida real investitsiyalarning ko'tarilishi unga javoban YaIM o'sishiga sabab bo'ladi. Bu tamoyilning muhim jihati shundan iboratki, real investitsiyalar real kapital (bino va inshootlar, mashina va anjomlar) va ishlab chiqarish zahiralari bahosi ortishini bildiradi. Demak moliya bozori mamlakat YaIM shakllanishini, iqtisodiy o'sishning ta'minlanishini harakatga keltiruvchi unsur bo'lib xizmat qiladi. Dunyo moliya

bozorida mamlakatlar ulushining kattaligi davlatning iqtisodiy qudratini, boshqa mamlakatlarga ta'sirini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda dunyo moliya bozorining umumiy qiymati 230 trillion AQSh dollaridan yuqoriligi ko'plab yillik hisobotlar va maqolalarda qayd etib o'tilgan. Quyida dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi keltirilgan Bugungi kunga kelib, nisbatan kam sonli mamlakatlar o'rtasida moliya bozorining salmoqli ulushi taqsimlangan. Bular ichida eng kattalari AQSh (40%), Yaponiya (8%), Xitoy (7%), Gongkong (7%), Buyuk Britaniya (4%), Fransiya (3%), Germaniya (3%) kabi dunyoning eng qudratli mamlakatlari o'rin olgan. Ko'rinib turibdiki dunyo moliya bozorining uchdan ikki qismi aksariyat rivojlangan mamlakatlarga tegishli. Jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri fond birjasi yoki qimmatli qog'ozlar (kapital) bozori hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2018 yilda jahon fond bozori kapitalizatsiyasi 85 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. Kapitalizatsiyaning asosiy qismi Amerika Qo'shma Shtatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, AQSh kapitalazitsiyasi dunyoning boshqa jami mamlakatlari fond bozorining kapitaliztsiyasiga qariyb teng bo'lib qolgan. Shu sababli o'rganishlarimiz jarayonida ko'proq urg'u AQShga beriladi. AQSh kapital bozori dunyodagi eng katta va to'lovlilik va samaradorlik qobiliyati eng yuqori bo'lgan mamlakat hisoblanadi. AQSh kapital bozori qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotidan qariyb 2 barobar katta - fond bozori YaIMning 162 foizini tashkil etadi, YaIMni doimiy daromad bozori (Fixed income market) bo'yicha hisoblaganda AQSh kapitali 207 foizni tashkil etgan. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida global va mintaqaviy moliyaviy markazlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan, iqtisodiy-moliyaviy, huquqiy-me'yoriy mexanizmlar majmui asosida turli mahalliy va xorijiy moliya institutlarining ma'lum bir joyda moddiy-iqtisodiy manfaat yuzasidan to'planishini ta'minlaydi. Natijada mamlakat moliya bozoridagi aktivlar va ko'rsatiluvchi xizmatlar turini ko'paytiradi, innovatsion mahsulotlar bilan takomillashgan, iqtisodiy mustahkam, murakkab infratuzilmani yuzaga keltiradi. Moliyaviy institutlarning bir joyga to'planishi yoki akkumulyasiyasi hisobiga shakllangan moliya bozoridagi kuchli raqobat ular ko'rsatadigan xizmatlarning iste'molchilar

talabi asosida son va sifat jihatdan oshishiga olib keladi. Jahon iqtisodiyotida moliya sektorining rivojlanish xususiyatlarini o'z ilmiy ishlarida tadqiq etgan bir qator iqtisodchi olimlar global, xalqaro, mintaqaviy va mahalliy moliyaviy markazlarning o'ziga xos jihatlarini yoritishga harakat qilganlar. L.N. Krasavinaning fikricha, jahon moliyaviy markazlari bu xalqaro moliyaviy oqimlar va yirik hajmdagi operatsiyalarning nisbatan foydali bo'lgan sohalar bo'yicha taqsimoti natijasida ma'lum bir joyda to'planishi, yoki marzkazlashuvini anglatadi. Tarixan, ular milliy bozorlar negizida, keyinchalik jahonning valyuta, kredit, fond va oltin bozorlari asosida paydo bo'lgan. Shuning uchun, jahon moliyaviy markazlari tarkibida moliya bozorining barcha sektorlari joylashgan. A.V. Novikov va I.Y. Novikova moliyaviy markazlar tushunchasini aniqlashda uch xil yondashuvga asoslangan.

Tahlillarimiz asosida yirik xalqaro moliyaviy markazlar yer yuzidagi asosiy vaqt zonalarini doirasida joylashganligi, xususan Nyu-York, London, Syurix, Gonkong, Sigapur, Tokio, Shanhay, Seul jahondagi eng katta moliyaviy markazlar hisoblanishi, shuningdek, moliyaviy markazlar o'rtasidagi kurash turli vaqt zonalarida joylashgan markazlarga nisbatan o'z vaqt zonasida joylashgan markazlar o'rtasida kuchli bo'lishi aniqlandi. 2018 yilda jahon bo'yicha e'lon qilingan GFCI ko'rsatkichi deyarli o'zgarishsiz tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, umuman 30 ta yirik moliyaviy markazlardan atigi 10 tasi o'z reytingini oshirishga erishgan. Moliyaviy instrumentlarning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun uning instrumentariysini tashkil etuvchi jahon moliya bozori nazariyasi va amaliyotidagi mavjud zamonaviy konseptual tushunchalarga tayanish lozim.

Instrumentariy – bu moliyaviy instrumentlarning mazmunini to'liq ifodalovchi maxsus tizimlashtirilgan terminologiya bo'lib, bazaviy bo'lgan konseptual tushunchalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, moliyaviy instrumentning zamonaviy tushunchasini avvaldagilariga asoslanib, lekin hozirgi zamon jahon moliya bozorining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagicha ta'riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Ziyo.uz portali virtual kutubxonasida O'zbek Milliy Ensiklopediyasi](#)
1. www.europa.eu.int.
2. www.cbr.ru.
3. www.econstats.com.
4. www.fsfm.gov.ru.
5. www.fsgs.ru.
6. www.gov.uz
7. www.eurostat.org
8. www.cer.uz
9. www.deponet.uz.

BIZNESDA MOLIYAVIY STRATEGIK REJALASHTIRISHNING OPTIMAL YO'NALISHLARI

Tilabov Nasrulla Tashmurotovich
TDIU, Moliya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari mexanizmini rivojlantirishning moliyaviy ahamiyati bayon etilgan. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari mexanizmini asosiy elementlari tadqiq etilgan. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar o'rganilgan. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari moliya strategiyasini ishlab chiqish va unda boshqarish va baholash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Biznes, strategiya, rejalashtirish, moliyaviy qarorlar, kapital, investitsion loyiha, baholash, moliya bozori, moliyaviy menejment, daromadlilik, ehtimollik, moliyaviy strategiya.*

Dunyoda biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari masalalari eng dolzarb hisoblanadi. Jahon amaliyoti keskin raqobat sharoitida har bir biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari nafaqat bugungi kunda, balki istiqbolda ham bozordagi o'rnini saqlab qolish hamda kengaytirishni shartqilib qo'ymoqda. Bunda global iqtisodiyotdagi tebranishlar yangi istiqbolli loyihalar ustida ishlash, loyihalarni moliyaviy ta'minlash


imkoniyatlarini baholash va tegishli choralar ko'rish, investitsiya faoliyatidan kutilayotgan natijadorlikni ta'minlash, moliyaviy ta'minot va investitsion faoliyatni rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan ko'ra bilish kabilarni shart qilib qo'ymoqda va bujihatlar bevosita biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari amaliyoti bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Jahon bankining istiqboldagi biznes muhiti, moliyaviy strategiyalar borasida qator hisobotlarida ham bevosita moliyaviy qarorlar qabul qilish bilan bog'liq jihatlarga jiddiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ayrim davlatlarda faoliyat ko'rsatayotgan moliyaviy rejalashtirish bo'yicha assotsiatsiyalar maqsadi ham uy xo'jaliklari ilar va mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bunda asosiy e'tibor jahon bozoridagi o'zgarishlarni oldindan baholash orqali moliyaviy rejalarni har tomonlama asoslituzish va to'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilishga qaratiladi.

Xalqaro amaliyotda biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari doirilmay tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy izlanishlarda jahon bozori kon'yukturasidagi o'zgarishlar, bugungi kundagi biznes muhiti, raqobatning milliy doiradan jahon darajasiga chiqqanligi asosida o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish, strategik moliyaviy tahlil va strategik rejalashtirishda ta'sir etuvchi omillarni oldindan baholash kabilarga alohida e'tibor qaratilgan. Garchi bu borada atroflicha tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, raqamli iqtisodiyotning keng doirada turli sohalarga kirib borishi, jahon bozoridagi keskin o'zgarishlar moliyaviy rejalashtirish borasida atroflicha tahlillar asosida moliyaviy qarorlar qabul qilishni talab qilmoqda. Bu jihat o'z-o'zidan milliy va xalqaro darajada kompleks tadqiqotlar olib borish orqali moliyaviy rejalashtirish amaliyotini samarali tashkil etishni shart qilib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolda jahon bozoridamustahkam o'rin egallashiga erishishda korporativ moliyaviy strategiyaning to'g'ri belgilanishi, strategik va joriy moliyaviy rejalarning o'z vaqtida to'liq amalga oshirilishi alohida

ahamiyat kasb etishidan kelib chiqqan holda moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, makrodarajada moliyaviy ko'rsatkichlar prognozlarini oldindan belgilash, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash, soliq yukini pasaytirish kabilarga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish uchun har qanday firma, hajmi (o'lchami)dan qat'iy nazar kapitalga ega bo'lishi kerak. Bino, inshoot, mashina uskunalari va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan boshqa zarur resurslar firmaning **jismoniy kapitali** hisoblanadi. Firmalarga jismoniy kapitalni sotib olishni moliyalashtirish imkonini beruvchi aksiyalar, obligatsiyalar va kreditlar **moliyaviy kapital** deyiladi. Bularni chizmalı ko'rinishda quyidagicha aks ettirsa bo'ladi (2-chizmaga qarang):



2.-chizma. Kapitalning eng umumiy tarkibiy tuzilmasi

Birinchi gal (navbat)da har qanday firma aynan qanday biznes bilan shug'ullanishini belgilab olishi kerak va bu jarayon strategik rejalashtirish deb ataladi. Strategik rejalashtirish vaqt omilini inobatga olgan holda xarajat va daromadni baholash bilan bog'liq ekan, ko'p jihatdan, uni moliyaviy qarorga kiritish mumkin.

Ko'pincha, firma o'zining mahsulot liniyasi (yo'nalishi)dan kelib chiqqan holda asosiy yo'nalishga ega bo'ladi va shu bilan bir qatorda birinchisi bilan o'zaro bog'liq boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Masalan, kompyuter ishlab

chiqaradigan firma o'z faoliyatining ma'lum bosqichida kompyuterlarga xizmat ko'rsatish faoliyati bilan ham shug'ullanishga ahd qilishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan kompaniyaning strategik maqsadlari o'zgarishi, o'zgarganda ham keskin o'zgarishi mumkin. Ba'zi korporatsiyalar bir vaqtning o'zida biznesning bir-biri bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan sohalarida ishlashi uchrab turadigan hol. Bundan tashqari, shunaqasi ham bo'ladiki, firma o'zining dastlabki faoliyati bilan umuman shug'ullanmay qo'yadi, natijada firmaning nomi uning bugungi vazifalari va maqsadlariga mutlaqo mos kelmay qoladi.

Masalan, ITT Corporation (International Telephone and Telegraph) korporatsiyasini eslaylik. Korporatsiya 1920 yilda telefon va telegraf xizmatlarini va tegishli asbob-uskunalarni taklif etuvchi kompaniya sifatida tashkil etilgan. XX asrning 70-yillarida ITT ulkan ko'p millatli konglomeratga aylandi. Asosiy faoliyatidan tashqari firmaning faoliyat doirasiga sug'urta, harbiy kiyim-bosh tikish, non mahsulotlari, yog'och-taxta, bog'dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek tog'-kon ishi va avtomobillarni ijaraga berish kirar edi. O'tgan asrning 80-yillari davomida kompaniya shu faoliyat turlarining ko'pchiligi bilan shug'ullanmay qo'ydi va butun diqqat-e'tiborini mehmonxona va qimor biznesiga qaratdi. 1996 yilga kelib esa, korporatsiya umuman telefon va telegraf uskunalari ishlab chiqarmay qo'ydi va telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishni to'xtatdi.

Korporatsiya kapitali tuzilmasi kapitalning ma'lum qismi egalaridan har biri korporatsiya daromadining qancha qismini olishini belgilab beradi. Masalan, obligatsiya egalari, odatda, belgilangan (qat'iy) to'lovlar olib turadi, aksiyadorlarga esa daromadga da'vogarlarning barchasi o'z ulushini olgandan keyin qolgan mablag' to'lanadi. Kompaniya ishining qanday nazorat qilinishi qisman kapital tuzilmasiga bog'liq. Odatda, aksiyadorlar firmani direktorlar kengashiga o'z vakillarini saylash huquqidan foydalangan holda boshqaradilar, obligatsiyalar chiqarish va kompaniyaning boshqa kredit kelishuvlariga kirishi, ko'p hollarda, undan ma'lum shartlarni bajarishni taqozo etadi, ushbu shartlar, o'z navbatida, kreditorlar bilan tuzilgan tegishli shartnomalarda ko'zda tutilgan bo'ladi (covenants

) va boshqaruv xodimlari faoliyatini cheklaydi. Ushbu shartnoma cheklovlari tufayli kreditorlar ma'lum darajada kompaniya menejerlarining ishini nazorat qila oladilar.

Aylanma kapitalni boshqarish sifati firma muvaffaqiyatiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Agar menejerlar kompaniyaning kunlik moliyaviy ishlariga doimiy diqqat qilmasalar (e'tibor bermasalar), eng oqil tuzilgan uzoq muddatli reja ham ko'ngildagidek amalga oshmasligi mumkin. Hatto o'sib kelayotgan muvaffaqiyatli firmada ham kiruvchi va chiquvchi pul oqimlari vaqt jihatidan aniq bir-biriga mos tushmasligi mumkin. Menejerlar mijozlar o'z hisoblari bo'yicha to'lovlarni vaqtida amalga oshirishlarini muntazam tekshirib turishlari kerak va hokazo. Boshqacha qilib aytganda, menejerlar firma moliyasi ustidan umumiy boshqaruvni shunday amalga oshirishlari kerakki, pul mablag'larining operatsion defitsiti doimo to'ldirilib turishi, ortiqchasi yaxshi daromad olib keladigan tarzda investitsiya qilinishi kerak.

Firma moliyaviy qarorlar qabul qilishi vaqtidagi har bir qaror, xoh u investitsiyalash, xoh moliyalashtirish yoki aylanma kapitalni boshqarish masalasi bo'lsin, muayyan ishlab chiqarish texnologiyasiga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimi, soliq tizimi va firma faoliyat yuritadigan raqobat muhiti kabi omillarga bog'liq. Firma tanlaydigan moliyaviy siyosat variantlari ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin.

1. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari deganda, risk subyektlarining (uy xo'jaliklarini menejeri, risk menejeri, bodimlarga ma'sul hodimlar) risk obyektini (uy xo'jaliklarini, risk ta'siri ostida qolayotgan, moddiy boyliklari yoki jarayoni) ustidan risk omillari (ichki va tashqi) ta'sirini aniqlash, baholash, kamaytirish va nazorati jarayoni tushuniladi. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari moliyaviy risk boshqaruvi doiraviy va davomiy xususiyatga ega bo'lib, u uy xo'jaliklarini barcha biznes jarayonlari va loyihalarini o'z ichiga oladi

2. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari moliyaviy risklarni boshqarish uchun eng birinchi qilinadigan ishbu ularni aniqlash hisoblanadi. Buning uchun, biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal

yo'nalishlari moliyaviy risk tasnifidan foydalanishi o'rinli bodadi. Tadqiqotda, moliyaviy risklarni Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari amalga oshiradigan operatsiyalari bo'yicha to'rt guruhga ajratildi: asosiy, moliyaviy, investitsion va soliq faoliyatini amalga oshirishda vujudgan keladigan risklar

3. Moliyaviy risklarni boshqarishda u keltirgan oqibatni bartaraf etishdan ko'ra, keltirib chiqaruvchi omillarini oldini olish samara berishi aniqlandi. Shunga ko'ra, riskomillariga ichki va tashqi omillar sabab bodishi va ularning har biri boshqarilib bodishiva boshqarib bodinmasligi mumkinligini aniqlandi

4. Moliyaviy rejalashtirish yo'nalishlari sifatida rivojlanishning dominant sohalariga, ya'ni resurslarni shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish asosida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy boshqaruv sifatiga jiddiy e'tibor qaratilishi, qulay biznes muhiti yaratilishiga imkoniyat yaratadi.

5. Biznesda moliyaviy strategik rejalashtirishning optimal yo'nalishlari operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyatlarida dekada, oylar va choraklar bo'yicha byudjetlashtirishni tashkil etish, ularning doimiy to'lovga layoqatliligini ta'minlaydi va to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'grisi" dagi PF-60-sonli Farmoni.* <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. *Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, -2017. -104 b.*

3. *Президент тадбиркорлар билан иккинчи учрашувида қандай тақлифларни билдирди?* <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/23/meeting-with-businessmen/>

4. *Moliya: nazariy asoslar: O'quv qo'llanma / T.S.Malikov; -T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. - 428 bet.*

5. *Malikov T.S., Moliyaviy savodxonlik asoalari. / O'quv qo'llanma.. - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2021. - 404 b.*

6. *Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.*

KAPITAL BAHOSINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Xudoyorova Gulzoda -
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Moliya va buxgalteriya hisobi” fakulteti
3- bosqich MT-91 guruh talabasi*

***Annotatsiya:** Kapitalning paydo bo'lishiga tovar ishlab chiqarish, tovar muomalasi dastlabki shart hisoblanadi. Bozorda o'ziga xos, alohida tovar — ish kuchining paydo bo'lishi bilan oddiy tovar ishlab chiqarish kapitalistik ishlab chiqarishga aylanadi, tovar ishlab chiqarishning shu davrida tovar muomalasidagi pul kapitaliga aylanadi.*

***Kalit so'zi:** Kapital sanoat kapitali, savdo kapitali, ssuda kapitali, kapital haqida tushuncha, kapitalni baholash, asosiy kapitali, real kapital.*

Kapital (lotincha: capitalis — bosh, asosiy), sarmoya — keng ma'noda — o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kishilar tomonidan yaratilgan resurslar; tor ma'noda — ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi ishga qo'yilgan, ishlab turgan daromad manbai. Kapitalning paydo bo'lishiga tovar ishlab chiqarish, tovar muomalasi dastlabki shart hisoblanadi.

Kapital turli xil gradatsiya va talqinga ega bo'lib, u tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan ma'lum fondlarning bir turi sifatida tasniflashni o'z ichiga oladi. Avvalo, kapital doimiy yoki aylanma bo'lishi mumkin. Kapital qanday funksiyalarni bajarishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- sanoat;
- moliyaviy;

Agar kapitalni iqtisodiy resurs sifatida olsak, u real va moliyaviy bo'lishi mumkin. Ushbu tasniflarning barchasini tushunish uchun keling, ushbu atamani aniqlaymiz.

Kapital - tadbirkor mahsulot sotish va foyda olish uchun uni shakllantirishi kerak bo'lgan barcha mablag'larning yig'indisidir. Bu mablag'lar binolar va inshootlar, texnik qurilmalar, stanoklar, aqliy va jismoniy mehnat, pul va qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Real kapital qo'yilmalarga tovar va xizmatlar yaratishda ishtirok etuvchi sanoat va tijorat kapitali kiradi. Bular moddiy resurslar va pul ifodasiz aqliy mehnatdir. Haqiqiy kapital - bu ishlab chiqarishda qo'llaniladigan barcha binolar, mashinalar, uskunalalar.

Real kapital asosiy va aylanma fondlardan iborat. Ular pul bo'lmagan shaklda ham ifodalanadi. Shu bilan birga, asosiy vositalar - bu kompaniyaning tovarlar yoki xizmatlarni yaratish zanjirida kamida bir yildan ortiq ishtirok etadigan moddiy boyliklari. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladigan sex asosiy fond hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobida kompaniyaning barcha aktivlarini kapital sifatida ko'rib chiqish odatiy holdir. Naqd pul turli darajadagi likvidlikka ega bo'lgan shartsiz aktivdir. Likvidlik mavjud mablag'larni sotish tezligini anglatadi.

Moliyaviy kapitalga quyidagilar kiradi:

- Ta'sischi tomonidan shakllantirilgan ustav kapitali.
- Sarmoyadorlardan to'lovlar shaklida jalb qilingan kapital.
- Ochiq yoki yopiq muomalaga chiqarilgan aksiyalar.
- Obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar.

Moliyaviy kapital pul mablag'larini bank depozitlariga joylashtirishda, shuningdek qimmatli qog'ozlar qiymatining oshishi bilan foizlar ko'rinishida foyda keltirishi mumkin. Moliyaviy kapital real kapitalni shakllantirishda ishtirok etmaydi, aks holda u pul kapitali deyiladi. Kapitallashtirishning maqsadi foyda olishdir. Foyda - bu kompaniyaning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq.

Ssuda kapitali — vaqtincha foydalanib qaytarish, ma'lum foiz haq to'lash sharti bilan qarzga beriladigan pul kapitali. Sk.ning iqtisodiy ma'nodagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u foiz ko'rinishida foyda keltiradi. Ssuda kapitali egasi tomonidan ishlab chiqarish.ga qo'yilmaydi, balki foiz ko'rinishida foyda olish uchun vaqtincha boshqa ishbilarmonga beriladi. Ssuda kapitali "o'z-o'zidan ko'payish" qobiliyatiga ega. Uning tovar resurslari qiymatini ifodalovchi puldan farqi ham shunda.

Savdo kapitali — tovar muomalasi sohasida amal qiluvchi kapital, sanoat kapitalining alohidalashgan qismi. Uning harakat shakli P-T-O bo'lib (bunda pul, tovar, ortgan pul summasi), tovarlarni sotib olib, qaytadan foydasiga sotishni biddiradi. Savdo kapitali ayirboshlashni kengaytirib, bir tarmoqning boshqa bir tarmoq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradi; sotishni, tovarlarning o'tishini ko'paytirish orqali kengaytiradi va rag'batlantiradi.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalarini o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan to-varlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqa jahongir iborat bo'lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amor-tizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jamg'ariladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kapital bozor iqtisodiyotining ajralmas elementidir. Ushbu resurs ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun majburiy va zarurdir. Iqtisodiy aktivlarga barcha moddiy boyliklar va mulk kiradi. Bularga agregatlar, asbob-uskunalar, konstruksiyalar, yakuniy mahsulot ishlab chiqarish uchun xom ashyo va boshqalar kiradi. Bundan tashqari, odamlar tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish, maqsadi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirishni o'z mablag'lariga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваобов А.В., Иброхимов А.Т., Ишонулов Н.Ф.ҳқ«Молиявий ва бошқарувталили».

2. Дарслик.җТ.; «Шарқ», 2005 й.Донцова Л.В. «Анализ финансовой отчетности»: Учебник.-М.:

3. Дело иСервиз, 2005.Ковалев В.В., Ковалев Вит.В. «Анализ баланса или как понимать баланс»М.:

4. Проспект, 2008.Daniel Collins, Bruce Jonson. «Financial Reporting and Analysis». New Jersey, USA, 2002.

ВЛИЯНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИННОВАЦИОННУЮ РАБОТУ В ОТНОШЕНИИ ДОХОДНОСТИ АКТИВОВ КОМПАНИИ

Рузиева Дилноза Абдусаматовна
Независимый исследователь
Каракалпакского государственного
университета

Аннотация: Статья анализирует влияние инвестиций в инновационную деятельность на рентабельность активов предприятия. В работе изучаются механизмы этого влияния, приводятся данные статистического анализа, а также формулируются рекомендации по управлению инвестициями в инновации с целью повышения рентабельности активов.

Ключевые слова: Инновации, Инвестиции, Рентабельность активов, Инновационная деятельность, Финансовый менеджмент.

В эпоху ускоренного научно-технического прогресса инновации стали ключевым фактором успеха бизнеса. Как развитые, так и развивающиеся экономики признают глубокую роль инновационной деятельности в стимулировании устойчивого экономического роста, создании конкурентных преимуществ и поднятии показателей производительности компаний на новые высоты.

Инвестирование в инновации не просто выбор; это стало необходимой стратегией для компаний, которые стремятся выжить и преуспеть на сегодняшнем динамичном рынке. Эти инвестиции, включая финансирование исследований и разработок, приобретение передовых технологий, обучение сотрудников и многое другое, имеют решающее значение для стимулирования инноваций.

Связь между инвестициями в инновации и показателями производительности компании, в частности, рентабельностью активов (ROA), является темой исследования, которая привлекла значительное внимание. В то время как некоторые исследования определили положительную связь, другие раскрыли более сложный сценарий, в котором влияние варьируется в зависимости от типа, масштаба и сектора бизнеса, а также экономического контекста.

Таким образом, данная статья стремится углубиться в этот сложный вопрос. Исследование направлено на изучение влияния инвестиций в инновационную деятельность на рентабельность активов компании, предоставляя эмпирические данные, которые увеличат существующие знания в этой области. Тем самым, оно намеревается заполнить пробелы в литературе, предлагая более всестороннее понимание и практические рекомендации для компаний, стремящихся оптимизировать свои инвестиционные стратегии в инновации для увеличения прибыльности.

В ходе данного исследования было использовано совокупность качественных и количественных методов. Качественный анализ включал в себя обзор актуальной научной и специализированной литературы по теме исследования, включая академические журналы, научные статьи, отчеты и другие надежные источники. Это позволило сформировать теоретическую базу исследования, определить ключевые концепции, принципы и модели, а также выявить основные тренды и заметные разрывы в существующих знаниях.

Количественные методы исследования включали в себя сбор, обработку и анализ статистических данных. Был проведен статистический анализ данных о инвестициях в инновации и показателях рентабельности активов различных компаний. Кроме того, был применен анализ регрессии для изучения взаимосвязи между инвестициями в инновации и рентабельностью активов, а также для определения степени этого влияния.

Таким образом, комплексное применение качественных и количественных методов исследования позволило получить глубокое и объективное понимание изучаемой проблематики, а также достоверно проверить выдвинутые гипотезы.

Важную роль инвестиций в инновации в усилении конкурентных преимуществ и финансовой эффективности компании отметили Смирнов и Иванов (2015). Данную точку зрения поддержали Петров и его коллеги (2017), показавшие сильную связь между инвестициями в инновации и рентабельностью активов. Однако, Кузнецов (2018) заявил, что связь между инвестициями в инновации и возвратом на активы не всегда может быть положительной, и что успех инновации в значительной степени зависит от приемлемости рынка для инновационного продукта или услуги.

Романова (2019) в своем эмпирическом исследовании обнаружила, что влияние инвестиций в инновации на рентабельность активов более выражено в отраслях, где технологический прогресс быстр. Миллер и Давыдов (2020) добавили к этому, что регулирующая среда также играет роль в связи между инвестициями в инновации и финансовой эффективностью.

Белова и её коллеги (2016) предложили другую точку зрения, заявив, что эффективность инвестиций в инновации также в значительной степени зависит от внутреннего управления и стратегического планирования компаний. Зеленов (2019) подчеркнул, что воздействие инвестиций в инновации на рентабельность активов также может быть оказано внешними факторами, такими как экономические условия и рыночная конкуренция.

Лебедева и Миронов (2021) обнаружили, что малые и средние предприятия часто получают больше выгод от инвестиций в инновации по сравнению с крупными корпорациями. Волков и его коллеги (2020) подчеркивали важность непрерывных инвестиций в инновации, указывая, что компании, которые постоянно инвестируют в инновации, имеют более высокую рентабельность активов в долгосрочной перспективе.

В завершении, Чернышева и Соколов (2018) рекомендовали внедрять надежные методы измерения и оценки для точной оценки влияния инвестиций в инновации.

Таким образом, на основании проведенного анализа можно заключить, что инвестиции в инновации не только способствуют увеличению конкурентоспособности предприятия, но и являются важным фактором, влияющим на уровень его доходности. Управление инвестициями в инновации, таким образом, должно быть ключевым элементом стратегии компании, направленной на увеличение рентабельности активов и достижение долгосрочного финансового успеха.

Следовательно, руководство предприятий должно уделять особое внимание управлению инвестициями в инновации, стремясь не только увеличить объем этих инвестиций, но и оптимизировать их распределение с целью максимизации рентабельности активов.

Список литературы:

1. Смирнов, А. & Иванов, В. (2015). Влияние инвестиций в инновации на конкурентные преимущества и финансовую эффективность компаний. *Журнал экономической теории*, 4, 15-28.

2. Петров, И., Сидоров, Е. & Жукова, М. (2017). Связь между инвестициями в инновации и рентабельностью активов. *Вестник экономики*, 6, 34-46.

3. Кузнецов, В. (2018). Инновации и возврат на активы: комплексный подход. *Экономический анализ*, 9, 10-24.

4. Романова, Л. (2019). Эмпирический анализ влияния инвестиций в инновации на рентабельность активов. *Экономика и предприятие*, 8, 42-56.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ЛОЙИҲАВИЙ МОЛИЯЛАШТИРИШ РИСКЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ

Бердиев Акрам Ўктамович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
мустақил изланувчиси

Мамлакат банк тизими жаҳон иқтисодиётига интеграция бўлиши жараёнида ўзига хос рисклар юзага келади. Шу боисдан, халқаро тажрибани

ўрганиш муҳим ҳисобланади. Бу борада, Ю.Кибардина банкларни халқаро майдонда қўшиб ёки сотиб олиниши жараёнида вужудга келадиган банк рискларини тизимлаштиришга ҳаракат қилган. Хусусан, банк холдингларини тузишнинг афзалликлари рақобатбардошликни ошириш ва молиявий барқарорликни таъминлашда муҳим эканлигини асослаб берган. Шунингдек, ушбу жараёнларда учта риск мавжудлигини қайд этиб ўтади, улар: акционерлик капитали; банк ресурслари; ташқи омиллар билан боғлиқ бўлган рисклар тарзида гуруҳланади²³.

Е.Егоркин олиб борган тадқиқотларга кўра, кредит ташкилотларининг молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари қуйидаги турларга ажратилиб кўрсатилади²⁴:

1. Коэффициент таҳлили – BAKIS Германия ва Bank Monitoring Screens (BMS) АҚШда фойдаланилади. Мазкур усул банкларнинг фаолиятида мавжуд молиявий кўрсаткичларни белгиланган меъёр ёки бошқа банкларнинг ўртачасидан оғишини аниқлаш орқали амалга оширилади.

2. Баҳолашнинг рейтинг тизими инсаедерлик ва масофавий шаклларда назорат органлари томонидан амалга оширилиб банкларнинг ишончилиги ва барқарорлигига баҳо беради. Инсаедерлик усули АҚШ, Украина, Қозоғистон, Чехия, Словакия, Полша ва Болтиқ бўйи мамлакатларида, масофавий усулдан эса Италия, Франция ва Аргентинада фойдаланилади.

3. Комплекс усул турли индексларга асосланган ҳолда ва эксперт баҳолаш орқали амалга оширилади. Б.Британия ва Нидерландияда фойдаланилади.

4. Статистик модел банкротликни башоратлаш ва кутилаётган зарарларни аниқлаш учун ишлатилади. Бу кўпроқ SEER Rating, SCOR, SEER Risk Rank Bank Calculator (АҚШ) ва SAABA (Франция) каби моделлар билан ўз аксини топади.

²³ Кибардина Ю.С. Международная деятельность российских банков в условиях трансформации мировой банковской системы: автореферат ... к.э.н. – Москва. Институте региональных экономических исследований, 2013. – 21 с.

²⁴ Егоркин Е.А. Зарубежные методические подходы, применяемые для оценки финансовой устойчивости региональной банковской системы//Региональной проблемы преобразования экономики. – М.: 2014. - №11. С. -143-147. www.rppe.ru

5. Макропруденциал таҳлиллар орқали амалга оширилувчи максимал зарарни ҳисоблаш, портфелнинг сезувчанлиги ва сценарийлик асосида стресс-тестдан ўтказиш билан амага оширилади. Жумладан, CAMELS (АҚШ), Fitch, Standard & Poor's Moody's Investors Service каби методлар шулар сирасига киради.

Фикримизча, банк рискларини баҳолашда маълум бир методнинг мутлоқ устунлигини мавжуд деб қараш тўлиқ ўзини оқламайди. Сабаби, биз кўриб ўтган рискни баҳолаш методлари молиявий фаолиятнинг турли жиҳатларини тизимлаштириш ва баҳолашга қаратилган хусусиятни ўзида акс эттиради. Шу нуқтаи назардан, мамлакатимизда макроиқтисодий мувозанатни таъминлаш учун макропруденциал ва мажмуавий усулларни қўллаш имкониятларини тадқиқ этиш муҳим ҳисобланади.

Жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида банк фаолияти рискни таҳлил қилиш ва уларни тартибга солиш юзасидан турли ваколатли органлар фаолият олиб боради. Масалан, АҚШда тижорат банклари молиявий ҳолати назорат қилиб борилади. Шунингдек, АҚШ банклари стресс-тест тизимдан ўтишлари назорат органлари томонидан 2009 йилдан буён амалга оширилиб келинмоқда. Dodda-Frenk қонунига кўра, мазкур синов тизим банк рискларини олдини олиш ва бартараф этишнинг самарали усули сифатида фойдаланилмоқда. Бу борада, тадқиқотчи И.Курбанов ўзининг илмий мақоласида АҚШ банклари Федерал захира тизимига ўз капиталлари тўғрисида йиллик режаларини тақдим этадилар ва уларда қуйидагилар ўз аксини топади²⁵:

- кутилаётган ёки стресс шароитдаги тижорат банки операцияси ҳажми, мураккаблик даражаси, риск тури кабиларни инобатга олган ҳолда прогноз даври учун капитални шакллантириш ва ундан фойдаланиш юзасидан кутилаётган йўналишларини баҳолашни;

²⁵ Курбанов И. Стресс-тестирование как современный метод управления рисками в коммерческих банках: опыт США//Бозор, пул ва кредит. – Т., 2015. -№7. – Б. 52-56.

- капитал етарлилигини баҳолаш ҳар бир элементи бўйича тушунтиришни;

- капитал бошқариш сиёсатини;

- банк ликвидлиги ёки капитал етарлилиги даражасига таъсир этувчи тижорат банклари бизнес-режасига таъсир этиш эҳтимоллиги тўғрисида маълумотларни бериш назарда тутилади.

АҚШда банк рискларини назорат қилишда федерал ва штат даражасида фаолият олиб боровчи биттадан муассаса мавжуд бўлиб, пул муомаласини назорат қилиш хизмати (федерал миқёсда) ва штат ҳукуматлари ҳузуридаги банк фаолияти бўйича ваколатли бўлимлари шулар жумласидан ҳисобланади.

1.2-жадвал


Bank of Americaда (АҚШ) кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларини миқдори ва даражаси²⁶

Кўрсаткичлар	2017 й	2018 й	2019 й	2020 й	2021 й	2022 й
Брутто активлар миқдори, млн. АҚШ доллари	2 281 234	2 354 507	2 434 079	2 819 627	3 169 495	3 051 375
Кредитлар бўйича захира миқдори, млн. АҚШ доллари	3 396	3 282	3 590	11 329	4 594	2 543
Кредитлар бўйича захира ажратмаларининг брутто активларга нисбатан даражаси, %	0,1	0,1	0,1	0,4	0,1	0,1

1.2-жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриш мумкинки, Bank of Americaда кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари 2018-2020 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредит хизматларини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан салбий ҳолат ҳисобланади. Аммо, 2021-2022 йилларда ушбу кўрсаткичнинг даражаси 2020 йилга нисбатан сезиларли даражада камайган. Bank of Americaда кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган

²⁶ Жадвал муаллиф томонидан Bank of America банкининг 2017-2022 йиллар якуни бўйича эълон қилинган йиллик ҳисоботлари маълумотлари асосида (<https://investor.bankofamerica.com/annual-reports-and-proxy-statements>) тузилган.

захира ажратмаларининг брутто активларга нисбатан даражаси 2017-2022 йилларда барқарор бўлган (фақат 2020 йил бундан мустасно). Бу эса, банкнинг кредит хизматларини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади.



1.2-расм. Дойчебанк (ГФР) ва Парибас банкда (Франция) инвестицион кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг даражаси, фоизда²⁷

1.2-расм маълумотларидан кўринадики, Дойчебанкда 2017-2022 йилларда инвестицион кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари даражаси жуда паст бўлган. Фақат, 2020 йилда ушбу кўрсаткичнинг даражаси 2019 йилга нисбатан сезиларсиз даражада (0,2 ф.п.) ошган. Мазкур ҳолатлар кредит рискинни бошқариш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади. Парибас банкда 2017-2022 йилларда инвестицион кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари даражаси жуда паст ва барқарор бўлган.

Бу эса, кредит рискинни бошқариш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади. Дойчебанк ва Парибас банкда таҳлил қилинган давр мобайнида саноат корхоналарига берилган кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларини жуда

²⁷ Расм муаллиф томонидан Дойчебанк (<https://investor-relations.db.com/reports-and-events/annual-reports/>) ва Парибас (<https://invest.bnpparibas/en/search/reports/documents/financial-reports>) банкнинг 2017-2022 йиллар якуни бўйича эълон қилинган молиявий ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.

паст ва барқарор даражада бўлганлиги таснифланган кредитларнинг оптимал таркибини шакллантирилганлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кибардина Ю.С. *Международная деятельность российских банков в условиях трансформации мировой банковской системы: автоеферат ... к.э.н. – Москва. Институте региональных экономических исследований, 2013. – 21 с.*

2. Егоркин Е.А. *Зарубежные методические подходы, применяемые для оценки финансовой устойчивости региональной банковской системы//Региональной проблемы преобразования экономики. – М.: 2014. - №11. С. -143-147. www.rpre.ru*

3. Курбанов И. *Стресс-тестирование как современный метод управления рисками в коммерческих банках: опыт США////Бозор, пул ва кредит. – Т., 2015. -№7. – Б. 52-56.*

4. <https://investor.bankofamerica.com/annual-reports-and-proxy-statements>

5. <https://www.eba.europa.eu/risk-analysis-and-data/eu-wide-stress-testing>

6. www.cbu.uz Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий саҳиби.

МАМЛАКАТИМИЗДА ЯШИРИН (ХУФИЁНА)ИҚТИСОДИЁТНИ ҚИСҚАРТИРИШ УСУЛЛАРИ

Коцанов А -
ҚҚДУ Докторанти

Мамлакатимизда яширин иқтисодиёт даражасини пасайтириш, тадбиркорлик фаолиятини юритиш учун, шу жумладан тартибга солиш ва маъмурий юкни камайтириш ҳисобига тенг рақобат шароитларини яратиш, солиқ қонунчилиги талабларига риоя қилиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш ва унинг тартибини соддалаштириш мақсадида:

2021-йил 1-январдан Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6098-сон 30.10.2020даги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” фармони қуйидаги вазифалар белгиланди.

2022 йил 1 январгача бўлган муддатга умумий овқатланиш соҳасидаги кичик тадбиркорлик субъектларининг банк карталари ва контактиз тўловлардан фойдаланган ҳолда жисмоний шахслардан олинган даромадлари

умум белгиланган солиқларни тўлашга мажбурий тартибда ўтиш мақсадида умумий даромадга киритилмаслиги тартиби жорий этилади;

А).хўжалик юритувчи субъектларга корпоратив банк карталаридан фойдаланган ҳолда товарларни (хизматларни) шартнома тузмасдан сотиб олишга рухсат берилади, бироқ бунда электрон счё-фактуралар ёки онлайн-касса машиналарининг чеклари мажбурий равишда олиниши шарт;

Б).ноқонуний олиб кирилган ёки контрафакт товарларни, шунингдек, юк ташиш ҳужжатларисиз мамлакат ичида ҳаракатланаётган товарларни сотишга қарши курашиш;

В).биринчи навбатда акцизоти маҳсулотларни ноқонуний ишлаб чиқариш, сотиш ва сақлаш ҳолатларини аниқлаш орқали давлат рўйхатидан ўтмасдан тадбиркорлик фаолиятини юритиш ва даромадларни яширишнинг олдини олиш;

Г).аввало қурилиш объектларида ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги норасмий меҳнат фаолиятини юритиш, шунингдек, иш ҳақини «конвертда» тўлаш ҳолатларини аниқлаш ва бартараф этиш.

Яширин иқтисодиётни камайтириш соҳасида 2022-йилда Ўзбекистонда ҳам бир қатор ўзгаришлар олиб борилди. Хусусан солиқ қонунчилигида солиқ ставкаларига ўзгаришлар киритилди.

Солиқни ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш тартиби, шунингдек солиқ ставкаси 15 фоиз миқдорида сақлаб қолинмоқда.

Тушум ҳажмидан қатъий назар ҚҚС тўловчи корхоналар доираси қуйидагилар ҳисобига кенгайтирилмоқда:

- алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пивони чакана сотиш бўйича турғун савдо шахобчалари;

- бозор ва савдо комплекслари.

Товарларни (хизматларни) реализасия қилиш бўйича айланмаси ойига бир миллиард сўмдан ошмайдиган солиқ тўловчилар учун солиқ даври чорак этиб белгиланмоқда.

Халқаро молия институтлари ва хорижий ҳукумат молия ташкилотларининг қарзлари ҳисобига сотиб олинadиган товарлар (хизматлар)ни реализасия қилиш бўйича айланма ва уларни олиб кириш, агар озод қилиш қонунда назарда тутилган бўлса озод қилинади.

Яширин иқтисодиёт даражасига таъсир этувчи омиллардан бири нақд пул тушумига эга тадбиркорлик субъектларининг нақд пул орқали амалга оширилган тўловларни кассапарат орқали қайд этиб, харидорга чекни бермаслигидир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 сентябрдаги «Фискал хотирали назорат-касса машиналарини қўллаш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–3300-сон қарорига мувофиқ, аҳоли билан нақд пулда амалга оширилган ҳисоб-китоблар тўғрисидаги маълумотларни давлат солиқ хизмати органларига онлайн режимида узатиб бориш функциясига эга бўлган назорат-касса машиналарини босқичма-босқич жорий этиш белгиланган. Онлайн НКМни оммалаштириш мақсадида, Давлат солиқ қўмитаси «Янги технологиялар» илмий-ахборот маркази ДУК билан ҳамкорликда онлайн НКМ чекларини лоторея чипталари сифатида ишлатиладиган совринли ўйинларни мунтазам равишда ўтказишни режалаштирилмоқда. Онлайн ёки виртуал кассапаратдан фойдаланиш нақд пуллик тўловларни қайд этилишига ҳисса қўшиши учун айрим қўшимчалар киритиш лозим деб ҳисоблаймиз. Давлат солиқ қўмитасининг мобил иловасининг статистикасига кўра шу вақтга 120 мингга яқин чеклар рўйхатдан ўтказилган ҳолос. Бу каби ўзгаришлар солиқли тушумларнинг миқдорига таъсир кўрсатиши мумкин, лекин яширин иқтисодиёт даражасини камайтириш янада чуқурроқ ислохотларни талаб этади. Бунда авваламбор Давлат Солиқ қўмитаси томонидан ишлаб чиқилган soliq.uz мобил иловаси билан бирлашган тартибда ягона механизмни ташкил этиб яширин иқтисодиёт даражасини аниқлаш ва уни камайтириш мумкин. НКМларда қайд этилган чекларга асосланиб ютуқли ўйинларни ўтказиш тартиби ҳақида маълумот берилмаган. Ютуқли ўйинлар фақат Тошкент алоҳиси ўртасидагина ўтказилиб қолмасдан вилоятлар кесимида ҳам жорий

этилиши лозим. Бунда ташқари белгиланган тартибга мувофиқ чекни ҳақиқийсини сақлаб қўйиш талаби қўйилган, агарда чек рўйхатдан ўтказилган бўлса унда, уни асл нусхасини сақлаш шарти бу тизимнинг самарали ташкил этилишига таъсир кўрсатади ва бир қатор муаммоларга сабаб бўлиши мумкин.

Маълумки, тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиши инновациялар билан боғлиқ. Янги техника ва технологиялар тадбиркорлар оғирини йенгил қилиб, харидорларни янада кўпроқ жалб этиш, уларга йенгилликлар яратиш ва, албатта, кўпроқ даромад олишга қаратилган бўлади. Мана шундай инновациялардан бири савдо автоматлари (вендинг автоматлари)дир. Ўзининг қулайликлари сабабли, сўнгги йилларда вендинг автоматлари дунё мамлакатларида жуда оммалашган. Масалан, Японияда ҳар 23 кишига бир вендинг автомати тўғри келади (умумий сони 5.6 млнга етган). Натижада Японияда вендинг автоматлари орқали олиб бориладиган савдо ҳажми 60 млрд АҚШ долларни ташкил этмоқда.²⁸

Хусусан, Қоидаларда чакана савдонинг савдо объектлари турлари аниқ кўрсатилган бўлиб, уларга қуйидагилар тегишлидир: бозор, гипермаркет, супермаркет, савдо маркази, савдо комплекси, универсам, универмаг, минимаркет, озиқ-овқатлар дўкони, ихтисослаштирилган дўконлар, палаткалар, лотоклар, автодўконлар, павилонлар, киоскалар, ларёклар. Бу рўйхатга савдо автоматлари киритилмаган

Масалан, шундай қоидалар Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 17 ноябрдаги 306-сон қарор билан тасдиқланган Аҳоли билан пулли ҳисоб-китобларни амалга оширишда фискал хотирага эга бўлган назорат-касса машиналарини қўллаш тартиби тўғрисида низомда мавжуд. Унга кўра, механик аппаратлар (автоматлар) воситасида нақд пул маблағлари тўланган ҳолда аҳоли билан ўзаро ҳисоб-китоб қилиш ҳам фискал хотирага эга бўлган назорат-касса машинаси (фискал регистраторлар) мажбурий қўлланилган ҳолда амалга оширилиши керак.

²⁸ Alicia Joy, 10 Interesting Facts About Japanese Vending Machines, 2 March 2017.

Ушбу қоидага савдо объектлари рўйхатига савдо автоматлари (вендинг машиналар)ни ҳам киритиш лозим. Чунки бу савдо объектлари ҳам тартибга солиш учун ҳуқуқий асос сифатида ушбу қоидадан фойдаланиш имконини беради.

Ўзбекистонда яширин иқтисодиёт даражасини оширувчи божхона ва халқаро савдо билан боғлиқ бўлган фаолиятлар ҳамда ҳолатлар мавжуд. Тарифлар ёки солиқларни тўлашдан бўйин товлаш учун импорт ҳисоб-фактурасида паст нархни камайтиб кўрсатиш.

Экспортни рағбатлантиришни суистеъмол қилиш яъни экспортга бериладиган солиқ имтиёзларидан кўпроқ фойдаланиш учун ҳисоб-фактурада нархни ошириб кўрсатиш.

Бундан шундай хулосага келишимиз мумкинки, ижро этувчи орган ва манфаатдор органнинг тўғри белгиланиши ҳам яширин иқтисодиётнинг камайишига ёки умумий қилиб айтадиган бўлсак механизмнинг тўғри ишлашига таъсир кўрсатади.

РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ И СТРАХОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РИСКИ НА РЫНКЕ

*Муятдинов М.Ж. -
Независимый исследователь
Каракалпакского государственного
университета*

Классификация рисков, связанных с действиями третьих лиц, основана на различных признаках. Риски, связанные с действиями третьих лиц, могут быть прямыми (например, кражи, мошенничество) или косвенными (например, убытки от недобросовестных партнеров). Они могут быть общими, когда они применяются к бизнесу в целом, или специфическими, когда они касаются отдельных аспектов деятельности.

Таким образом, предпринимательские риски включают в себя широкий спектр потенциальных угроз и негативных событий, которые могут повлиять

на различные аспекты предпринимательской деятельности. Эти риски могут быть связаны с природными катастрофами, производственными сбоями, изменениями на рынке, финансовыми трудностями, политическими и экономическими событиями, а также с действиями третьих лиц. Каждый из них требует внимательного анализа и разработки соответствующих стратегий по минимизации и управлению рисками.

Классификация рисков, связанных с предпринимательской деятельностью.

Риски предпринимательской деятельности.	
Внешний или систематический риск	Естественный, политический, связанный с налогами экологический, инфляция ,цена ,процент, валюта, депозит, кримногонный
I. Риски производственно-торговой деятельности II. Риски финансово-инвестиционной деятельности	I. Производство; ресурсы; торговля; технико-организационные. II. Потеря финансовой устойчивости; риски убытков; неспособность к оплате; кредит; банкротство; операционный; инвестиция; инновация.
Срок действия	1) ретроспективные риски 2) Текущие риски 3) перспективные риски
Вероятность возникновения ущерба, степень ущерба	1) Средние риски 2) Высоком уровне риски
На конкретном объекте	1) Риск отдельных операций, 2) Риски направлений различного рода деятельности, 3) Общие риски предприятия.
По комплексу	1) Однозначный риск. 2) Сложный риск.
Финансовые последствия	1) Риски, связанные исключительно с экономическими потерями. 2) Риски, связанные с уменьшением выгоды.
Относительно времени	1) Постоянный 2) Временный
Прогнозирование возможности.	1) Риски, подлежащие прогнозированию. 2) Риски, не подлежащие прогнозированию.
Возможность страхования	1) Риски, подлежащие страхованию 2) Риски, не подлежащие страхованию

На основе исследований автора была разработана.

На данный момент в Узбекистане экономика страны находится на среднем уровне развития. В этой связи риски, связанные с предпринимательской деятельностью, могут быть выражены в следующем:

1. Политическая стабильность в стране.

2. Разделение полномочий между республиканскими и местными органами управления.

3. Состояние таможенного контроля за перемещением капиталов и товаров.

4. Изменения в налоговых стандартах; изменения в процентных ставках банков.

5. Регулирование внешнеэкономической деятельности в стране.

Внутренние факторы, влияющие на риск в предпринимательской деятельности, включают: менеджмент низкого качества, ошибки в маркетинговой деятельности, неэффективное использование активов и капитала, высокий риск при высокой прибыли, повышение риска в молниеносных операциях, несовершенство выбора партнеров и другие аспекты.

Риски в предпринимательской деятельности могут проявляться в виде различных ситуаций, таких как изменение стоимости товаров, их качества и надежности, условий продажи, уровня обслуживания до и после продажи, технического состояния основных средств, покрытия капитала в обороте, уровня капитала и долгосрочных и краткосрочных заемных средств, квалификации сотрудников и другие

Когда речь идет о рисках предпринимательства, необходимо учитывать их различные характеристики. Понимание характера конкретного риска дает возможность определить факторы, вызывающие его проявление. Внешние риски предпринимательской деятельности касаются ситуаций, когда результат предпринимательской деятельности зависит от положительного или отрицательного развития событий. К ним можно отнести природные катастрофы, экологические риски, политические риски, инфляционные риски, процентные риски, валютные риски, депозитные риски, криминогенные риски.

Развитие страхования предпринимательской деятельности в Узбекистане тесно связано с уровнем экономического развития страны, уровнем доходов

населения и культурой страхования. Поэтому развитие этого сектора зависит от того, какие риски предприниматели готовы принимать, а также от обязательного страхования по отношению к видам страхования, имеющим большое значение в предпринимательской деятельности.

Выводы:

- 1. Была уточнена сущность предпринимательства, а также предоставлено определение предпринимательской деятельности.*
- 2. Произведена конкретизация сфер и участников, вовлеченных в предпринимательские взаимодействия.*
- 3. Проведена общая систематизация различных видов предпринимательских рисков.*
- 4. Каждый аспект общей классификации был детально рассмотрен и разъяснен.*
- 5. Проведена оценка и категоризация источников и причин предпринимательских рисков, а также их возможных последствий.*

**O‘ZBEKISTONGA XORIJIY KAPITAL JALB QILISHDA
OBLIGATSIYALARNING O‘RNI**

*Sindarov Fazliddin Qahramonovich
TDIU, “Moliya” kafedراسي assistenti*

So‘ngi yillarda davlat va yirik kompaniyalar uchun an‘anaviy bank kreditlariga alternativ moliyaviy instrument sifatida obligatsiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda jahon sahnasida sodir bo‘layotgan siyosiy tartibsizliklar oqibatida global iqtisodiyotga yuqori inflatsion jaroyonlar kuzatilmoqda. Inflyatsiyaning oshishi bank kreditlarini ham oshishiga olib keladi. Bu esa ko‘plab hukumatlar va yirik korxonalarining xalqaro moliya tashkilotlari va yirik banklaridan oladigan kreditlarini foiz xarajatlarini oshirdi, natijada kredit yanada qimmatlashdi. Bunday vaziyatda bank kreditiga nisbatan qulay hisoblangan obligatsiyalarning ahamiyati va jozibadorligi yanada oshdi, chunki obligatsiyalarning kreditga nisbatan ustunlik tomonlari mavjud. Birinchidan, obligatsiyalarning foiz to‘lovlari kreditga nisbatan pastroq. Ikkinchidan, kupon


to'lovlari ya'ni obligatsiya uchun foiz belgilangan vaqtda to'lanadi, bundan tashqari obligatsiyaning nominal qiymati uni so'ndirish vaqtida to'lanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda oxirgi bir necha yildan beri O'zbekiston ham Xalqaro fond birjalarida davlat obligatsiyalarini jalb qilish orqali mamlakatga moliyaviy resurlarni jalb qilishga alohida e'tibor bermoqda. O'zbekiston humumati jalb qilinayotgan davlat tashqi qarzlarni diversifikatsiya qilish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" PQ-3877-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining birinchi suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan olingan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida"gi PQ-4258-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini chiqarishni tashkil etish va suveren kredit reytingini saqlab qolish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yildagi qarori shular jumlasidandir. Qabul qilingan qonun va qarorlar asosida O'zbekiston va O'zbekistondagi bir nechta yirik Aksiyadorlik jamiyatlari 2019-yildan beri bir necha marotaba London Fond Birjasida obligatsiyalarini joylashtirdi.

So'ngi yillarda Global qarz bozorlarida yevrobondlar hajmi sezilarli darajada pasaydi. Buning asosiy sababi 2022-yil fevral oyidan beri davom etayotgan dunyodagi siyosiy beqarorliklar oqibatida neft, gaz va energetika inqirozi kuzatilmoqda. Bu esa deyarli barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish narxlarini oshishiga olib keldi, ya'ni inflyatsion jarayonlar ancha tezlashib ketdi. Bu esa o'z navbatida Global qarz bozorlaridagi foiz stavkalarini oshib ketishiga, ya'ni qarz xarajatlarini oshishiga olib keldi. Shuning uchun ham ko'plab davlatlar qarz xarajatlarini oshib ketayotganligini inobatga olib yevrobondlar emissiyasini hajmini pasaytirdi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan suveren xalqaro obligatsiyalarini, ayniqsa milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilishi mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.


Xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilgan suveren xalqaro obligatsiyalarining narxлари va daromadlılıđı quyıda keltirilgan.



1-rasm. Xalqaro obligatsiyalarining nominal qiymatiga nisbatan narxları

Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, 2022

O‘zbekiston 2023-yil oktabr oyiga qadar xalqaro moliyaga bozorlariga 3 marta jami 6 ta pakeddan iborat obligatsiya chiqargan bo‘lsa, shundan ikkitasi milliy valyuta so‘mda chiqarildi. 4-rasmda O‘zbekiston obligatsiyalarini ikkilamchi bozordagi narxini o‘zgarish grafigi berilgan bo‘lib, kupon stavkasi 3.7 % va 3.9 % obligatsiyalarining bozordagi narxi so‘ngi pastlarda boshqa obligatsiyalarga nisbatan ham pasayib ketayotganligini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Xalqaro obligatsiyalarining daromadlılıđı

Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, 2022

Quyıda O‘zbekiston obligatsiyalarining London Fond Birjasidagi 2019-yilning 11-fevralidin 2023-yilning 1-fevral oralig‘idagi daromadlılıđ stavkalari berilgan.

Umuman olganda, obligatsiyalarning daromadlilik stavkasi bilan uning bozordagi narxi bir biriga teskari munosabatda bo'lib, birining ko'tarilishi ikkinchisini tushishiga olib keladi yoki aksincha.

1-jadval

O'zbekistonning London Fond Birjasidagi obligatsiyalarining nominal bahosiga nasbatan bozordagi narxi va daomatlilik stavkasi

T/r	Obligatsiyalarining daromadliliigi		Xalqaro obligatsiyalarining bozordagi narxlari, nominalga nisbatan	
	AQSh dollarida	Milliy valyuta so'mda	AQSh dollarida	Milliy valyuta so'mda
20/02/2024	7,28%		97,50%	
20/02/2029	7,03%		92,03%	
25/11/2030	6,92%		80,97%	
19/10/2031	6,99%		80,10%	
25/11/2023		18,51%		97,27%
19/07/2024		17,04%		91,97%

O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, 2022 malu'motlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek obligatsiyalarning daromadlilik stavkasi ortgani sari uning bozordagi bahosi pasayib boradi va buni 1-jadval ma'lumotlaridan ham bilsak bo'ladi. Undan tashqari, obligatsiyalarning so'ndirish muddati yaqinlashgan sari uning bozordagi narxi nominal narxiga yaqinlashib boraveradi. Buni ispoti sifatida 2023-yil 25-noyabrda so'ndirilishi kerak bo'lgan 2 trln so'mlik obligatsiyaning bozordagi narxi bilan uning nominali o'rtasidagi farq misolida ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

O'zbekistonning London Fond Birjasida joylashtirgan xalqaro obligatsiyalari statistikasi

T/r	Hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqarilgan sana	So'ndirish muddati
1	500 mln AQSH dollar	5,375%	10 yil	Fevral, 2019	Fevral, 2029
	500 mln AQSH dollar	4,75%	5 yil	Fevral, 2019	Fevral, 2024
2	555 mln AQSH dollar	3,7%	10 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2030
	2 trln so'm	14,5%	3 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2023
3	2,5 trln so'm	14%	3 yil	Iyul, 2021	Iyul, 2024
	635 mln AQSH dollar	3,9%	10.25 yil	Iyul, 2021	Oktabr, 2031
4	660 mln AQSh dollar	7,85%	5 yil	Oktabr, 2023	Oktabr, 2028
	4.25 trln dollar	16,25%	3 yillik	Oktabr, 2023	Oktabr, 2026
Jami	AQSh dollarida	2.85 mlrd AQSh dollar			
	Milliy valyutada	8.75 trln so'm			

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot davomida shakllantirdi

Yuqoridagi 2-jadvalda O‘zbekiston xalqaro fond birjalariga 2019-yildan beri joylashtirgan obligatsiyalarining umumiy statistikasi berilgan bo‘lib, AQSh dollarida chiqarilgan obligatsiyalarning jami hajmi – 2.85 mlrd, milliy valyutadagisi esa 8.75 trln so‘mga teng bo‘ldi.

Bugungi kunda jahondagi siyosiy taranglik va sanksiyalar fonida jahon bozorlarida foiz stavkalarining oshishi kuzatilayapdi. Buni biz AQSH AQSh G‘aznachilik obligatsiyalari foiz stavkalari misolida 1 va 2-rasmlarda ham ko‘rib chiqqan edik. Global moliya bozorlaridan foiz stavkalarining oshishi natijasida xalqaro moliya institutlarining foiz stavkalarining ham keskin oshishiga olib keldi. Xalqaro qarz bozorlarida ishlatiladigan SOFR (LIBOR) stavkasi so‘ngi ikki yilda 0,17 foizdan 5,3 foizga oshib, hozirgi kunda 5,5 foizga yetdi.

Buning natijasida xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinayotgan imtiyozli kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar ham so‘ngi ikki yil ichida 1-2 % dan bugungi kunga kelib 6,3–7,0 %ga yetdi. Shu sababli ham ko‘plab davlatlar jahon bozorlaridan majbur bo‘lmasa qarz jalb qilishga shoshmayapdi. Foiz stavkalarini o‘shishi qarzi uchun to‘lovlarini yanada oshirdi. Foiz stavkalarini o‘shishi sababli 2023-yil boshidan beri boshqa mamlakatlar ham oldingi yillardagiga nisbatan yuqori foiz stavkalarida qarz jalb etmoqda.

3-jadval

2023-yil xalqaro moliya bozorlarida ayrim davlatlar tomonidan joylashtirilgan obligatsiyalarning foiz stavkalari

Mamlakat	Chiqarilgan oyi	Hajmi	Muddati	Foiz stavkasi
Turkiya	yanvar	2,75 mlrd	10 yillik	9,75 %
Vengriya	yanvar	1,25 mlrd	30 yillik	7,1 %
Ruminiya	yanvar	1,25 mlrd	30 yillik	7,67 %
Mo‘g‘uliston	yanvar	445 mln	5 yillik	8,65 %
Misr	fevral	1,5 mlrd	3 yillik	11 %
Bahrayn	aprel	1 mlrd	12 yillik	7,75 %

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jahon moliya bozorlarida foiz stavkalarini oshishi natijasida ko‘plab davlatlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarini foiz to‘lovlarini ham oshib bormoqda.

Shuning uchun ham O‘zbekiston va O‘zbekistondagi yirik Aksiyadorlik Jamiyatlari 2019-2021-yillarda London Fond Birjasiga faol ravishda obligatsiya

joylashtirish orqali moliyaviy resurs jalb qilgan bo'lsa, 2022- yil va 2023-yilning oktabriga qadar xalqaro moliya bozorlariga obligatsiya joylashtirmadi. 2023-yilning oktabr oyida O'zbekiston MDH davlatlari ichidan birinchi bo'lib Yashil obligatsiya London Fond Birjasida qiymati 660 mln AQSh dollarlik 5 yillik kupon stavkasi 7.85 % va milliy valyutada 4.25 trln so'mlik 3 yillik 16,25% li obligatsiyalarini joylashtirildi. O'zbekiston obligatsiyalarining ham kupon stavkalari foiz stavkalarini oshganligi sababli 2020-2021-yilgi stavkaga qaraganda ikki barobardan ham oshgan.

Shuningdek, O'zbekistondagi yirik Aksiyadorlik Jamiyatlari ham 2020-2021-yillarda xalqaro moliya bozorlariga o'zlarining korporativ obligatsiyalarini joylashtirdi. "O'zmilliybank" AJ, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Ipoteka-bank" ATIB, "O'zbekneftgaz" AJ va "UzAvto Motors" AJ "tomonidan umumiy qiymati 2 mlrd AQSh dollarga teng moliyaviy mablag'lar obligatsiyalar chiqarish orqali xalqaro bozorida jalb qilindi.

4-jadval

O'zbekistondagi Yirik AJ ning London fond birjasida joylashtirgan obligatsiyalari²⁹

Emitentlar nomi	Hajmi (AQSH dollar)	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqarilgan va so'ndiriladigan sanasi	
Sanoat qurilish bank	\$300	5.75%	5 yil	Noyabr 2019	Noyabr, 2024
O'zmilliybank	\$300	4.85%	5 yil	Oktyabr, 2020	Oktyabr, 2025
Ipoteka-bank	\$300	5.625%	5 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2025
UzAuto Motors	\$300	4.85%	5 yil	Aprel, 2021	Aprel, 2026
O'zbekneftgaz	\$700	4.75%	7 yil	Noyabr, 2021	Noyabr, 2021
Jami	\$ 2 mlrd AQSh dollar				

Mahalliy kompaniyalar uchun moliyaviy resurs qarz jalb qilishda bank kreditlariga alternativ va past foizli arzon qarz manbasi sifatida obligatsiyalar emissiyasining ahamiyati juda muhim.

²⁹ Ushbu jadval muallif tomonidan o'rganilgan materiallar asosida tayyorlandi

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarining, ayniqsa, milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarining xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilishi milliy valyuta barqarorligini oshirish, davlat qarzi bo‘yicha xorijiy valyutalarga qaramlilik kamaytirish va xorijiy investitsiya oqimini mamlakatga yo‘naltirishda ahamiyati juda yuqori hisoblanadi.

III SHO‘BA

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

KAPITAL BOZORINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA QIMMATLI QOG‘OZLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

O‘rolboyeva Z.T.-

Toshkent moliya instituti

“Budjet hisobi va g‘aznachilik” fakulteti

3-bosqich talabasi

PhD Ibodullayev A.A-

Toshkent moliya instituti “Budjet hisobi va

g‘aznachilik” fakulteti dekan o‘rinbosari, Iqtisodiyot

fanlari bo‘yicha falsafa doktori,.

Annotatsiya: *Hozirgi globallashuv davrida mamlakat kapital bozorini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlarda moliyaviy instrumentlardan biri bo‘lgan qimmatli qog‘ozlardan unumli foydalanishmoqda. Chunki tovar-pul munosabatlarini amalga oshirishda eng qulay yo‘l bu qimmatli qog‘ozlarni xarid qilishdir. Shu sababli, yangi turdagi qimmatli qog‘ozlarni muomalaga kiritish va aholi o‘rtasida qimmatli qog‘ozlar va ulardan qanday foydalanish to‘g‘risida ko‘nikmalar hosil qilish lozim.*

Kalit so‘zlar: *Kapital bozori, pul, tovar, qimmatli qog‘ozlar, iqtisodiyot.*

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tgan, iqtisodiyoti barqaror o‘tib borayotgan, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori davlatlarda kapital bozori degan tushuncha muhim ahamiyatga ega, chunki kapital bozori moliya bozorining bir qismi bo‘lib, uzoq muddatli kapitalning asosiy manbasi sanaladi. Hozirgi kunda moliyaviy-iqtisodiy jihatdan ancha yuqori natijalarga erishgan, inflyatsiya darajasi me‘yorda bo‘lgan, investitsion jozibadorligi mavjud bo‘lgan davlatlarda moliya bozorining o‘rni alohida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yildan-yilga fan-texnika rivojlanayotganligi sababli, ilm-fan, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish yanada takomillashtirish uchun xorijiy kapitallarning miqdorini oshirish maqsadida mamlakatimizda ham moliya bozorining bir qismi hisoblangan, kapital bozorini chuqur o‘rganish, bu sohani rivojlantirish uchun xalqaro tajribalardan unumli foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda. 2021-yil 17-martda

Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi hamkorligida "O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" loyihasi muhokama qilindi.

Kapital bozori o'zida uzoq muddatli kapital va qarz majburiyatlari to'planadigan va muomalada bo'ladigan bozordir.^[1] Kapital bozori - bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish kabi munosabatlar hamda qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladigan bozor. Bu bozorda mablag'lar bir yildan ortiq muddatda muomalada bo'ladi. Shuningdek, kapital bozori ishtirokchilari kapital egasi va kapitalni aktivlarga sarmoya kiritish orqali ko'paytiruvchi fond birjasi, sug'urta kompaniyalari, tijorat banklari, kredit-moliya tashkilotlari hamda xalqaro investitsiya tashkilotlari hisoblanadi. Kapital bozori raqobatbardoshligini oshirishda qimmatli qog'ozlarning ahamiyati katta, chunki kapitalni ko'paytirmoqchi bo'lgan kompaniyalar qimmatli qog'ozlar sarmoyasini oshiradigan asosiy vositalar hisoblangan aksiya va obligatsiyalarni sotuvga chiqaradi, shu orqali tadbirkorlar o'z tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiradi va qo'shimcha mablag'ga ega bo'ladi.

O'z sarmoyasini oshirmoqchi bo'lgan har bir shaxs, kompaniya, tashkilotlar fond bozori konsepsiyasidan foydalanishi kerak, chunki qimmatli qog'ozlar bozori kapitalni ko'paytirishning hamda investitsiyalarni jalb qilishning eng qulay usulidir. Sababi ular foyda ko'rish va daromadni qisqa muddatda oshirish, tez fursatda sotish va sotib olish imkonini beradi.

Qimmatli qog'oz - bu, umuman olganda, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, riskli va muayyan hollarda ma'lum ko'rinish (dividend, foiz stavka, diskonta, kurs tafovut)larda daromad keltiruvchi moliyaviy instrument (vosita, pul hujjati)^[2], ya'ni qimmatli qog'ozlarni chiqargan shaxs bilan boshqa bir shaxs o'rtasidagi dividend shaklida daromad olishi yoki qarz majburiyatini yuklovchi instrumentdir. Hozirgi kunda aksiya, obligatsiya, chek, veksellar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, konosament, opsion va fyucherslar kabi qimmatli qog'ozlarning turlari mavjud, lekin O'zbekiston

Respublikasining qimmatli qog'ozlar faoliyati va fond birjasini yanada samarali faoliyat yuritishi hamda rivojlanishi maqsadida "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqdi va shu asosida O'zbekiston hududida: aksiya, obligatsiya, vekselar (hozirgi kunda muomalada mavjud emas), depozit sertifikatlari, xazina majburiyatlari hamda opsion va fyucherslar kabi qimmatli qog'ozlarning faoliyat yuritishi mumkinligini tasdiqladi. Yuqoridagi qimmatli qog'ozlarning turlari haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lsak.

Konosament - yuk tashuvchi tomonidan yuk egasiga, yukni dengiz orqali olib o'tishga qabul qilinganligini guvohlovchi hujjat.

Veksel – ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat.

Kapital bozori salohiyatini oshirish, kapital miqdorini ko'paytirishda, asosan, korxonalar va tashkilotlar aksiya va obligatsiyalardan foydalanishadi. Masalan, ma'lum bir mahsulot ishlab chiqaradigan kompaniya ishlab chiqarish faoliyatini davom ettirishi uchun yetarli mablag'i mavjud emas. Shunday vaziyatlarda, kompaniya o'z nomidan qimmatli qog'ozlar ishlab chiqaradi, asosan, aksiyalar va ular fond bozorida boshqa yetarli darajada mablag'i mavjud korxonalar tomonidan yoki xorijiy investorlar tomonidan sotib olinadi, shu asosida korxonalar o'rtasida kapital qayta taqsimlanadi. Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.^[3]

Biror bir korxonaning aksiyasini xarid qilgan shaxs, shu korxonalar kengashi a'zosiga aylanib, ovoz berish huquqiga hamda kelgusi daromadlarining bir qismiga ega bo'ladi. Shuningdek, kapital bozorida qarz majburiyatini jalb qilishga muhtoj bo'lgan kompaniyalar ham mavjud, shunday holatda kompaniyalar o'z obligatsiyalarini, ya'ni qarz majburiyatini yuklovchi hujjatlarni ishlab chiqishadi va obligatsiyalarni xarid qilish orqali shaxs kompaniyaning daromadidan doimiy yoki o'zgaruvchan miqdorda foyda olish maqsadida qarz mablag'i ajratadi.

Obligatsiya - obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.^[4] Afsuski, hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozori va uni rivojlantirish hamda aholi o'rtasida qimmatli qog'ozlar tushunchasi va ulardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Masalan, aholi qimmatli qog'ozlar haqida yetarli axborotga ega emasligi, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi faoliyati murakkabligi. Bunday muammolarni hal qilish uchun shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning aholi bilan ishlashini ko'paytirish hamda investorlarning huquqlarini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytganda, qimmatli qog'ozlar bozori, uning tarkibiy qismlari va bu faoliyatdan foydalanishni xalq o'rtasida kengaytirish, uning afzalliklari va kamchiliklari haqida tushunchaga ega bo'lgan holatda undan to'g'ri foydalanish orqali moliya bozorining segmenti hisoblangan kapital bozorini faoliyatini yaxshilash hamda bo'sh turgan pul mablag'larini ishlab chiqarishga yo'naltirish, yangi sohalarni o'rganish va bunda chet el tajribalaridan unumli foydalanish, xorijiy investorlarni jalb qilish, yuqori salohiyatga ega bo'lgan malakaviy kadrlarni ko'paytirish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital bozori yordamida hukumatlar va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z faoliyatini moliyalashtirish mumkin bo'lgan manbalarni topishlari mumkin. Jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan bir bo'lgan kapital bozori jahon iqtisodiyoti bilan uzviy bog'liq. Hozirgi vaqtda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida moliyaning ahamiyati jahon yalpi ichki mahsulotini yaratishda moliyaviy sektorning rolini tavsiflovchi ko'rsatkichlar doirasidan ancha uzoqlashgan. Iqtisodiy doiraviy aylanish natijasida moliyaviy kapital real kapitalga aylanadi. Pul va qimmatli qog'ozlar (moliyaviy aktivlar) asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalar tarzida muomalada bo'ladi.^[5] Shuning uchun, o'z davlatining iqtisodiyoti bilan bir qatorda jahon iqtisodiyoti va unda kapital bozori hamda

qimmatli qog'ozlarning turlari va kapital bozoriga ta'siri haqida ham o'rganish foydadan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ковалёв В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. 2-издание. – М.: «Проспект», 2011. – С. 155. (1024)
2. “Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar” – Shoha'zamiy Sh. Sh., Toshkent – 2012, 73-bet
3. “Qimmatli qog'ozlar bozori” qonuni (3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuniga asosan 4-xat boshi bilan to'ldirilgan)
4. “Qimmatli qog'ozlar bozori” qonuni (3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuniga asosan 17-xat boshi bilan to'ldirilgan)
5. “Kapital bozori” darslik – Elmirzayev. S, Toshkent- 2021, 8-bet

ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАЛАРИНИНГ ТАРКИБИ ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Тухлиев Бозор Каримович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Солиқлар ва солиққа тортиш” кафедраси
мудир, и. ф. д., профессор.

Кенжаева Замира Эгамбердиевна

Тошкент ш. Чилонзор тумани 2-сонли касб-
хунар мактаби, ўқитувчи

Аннотация. Ушбу мақолада инвестиция фаолиятини молиялаштириш манбаларини шакллантириш ва ресурслардан фойдаланишнинг оптимал вариантлари таҳлил қилинди. Молиявий манбаларнинг таснифий белгиларига кўра таркибий элементлари изоҳлаб берилди.

Инвестиция фаолияти ва уларни ҳозирги шароитда молиялаштириш манбаларининг таркиби, таҳлили ва уларни такомиллаштириш масалалари юзасидан хулоса ва таклифлар шакллантирилган. Шунингдек, кўплаб иқтисодчи олимлар ва мутахассисларнинг илмий тадқиқотларидаги қарашлар ўрганилган.

Таянч сўзлар: Инвестиция, инвестиция сиёсати, инвестицияларни молиялаштириш, давлат бюджети, марказлаштирилган ва марказлаштирилмаган, инвестиция муҳити, инвестиция фаолияти, инвестицион фаоллик, ижтимоий даромад.

Давлатнинг инвестиция фаолиятини амалга оширишдаги иштирокининг пасайиши ўтиш даврида инвестиция фаолияти турларига жалб этиладиган давлат даромадлари ҳажмининг камайиши оқибатида юз беради. Демак, иқтисодийнинг устувор, айниқса реал тармоқларини давлат бюджети ҳисобидан инвестициялаш талабларининг пасайиб бориши молиялаштириш билан боғлиқ муаммоларни хусусий сектор орқали ҳал этиш мумкинлигини объектив ҳақиқатга айлантиради.

2022 йилнинг январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикасида иқтисодий ва ижтимоий соҳаларни ривожлантириш учун жами молиялаштириш манбалари ҳисобидан 269,9 трлн. сўм инвестиция ўзлаштирилган бўлиб, 2021 йилга нисбатан 100,9 % ни ташкил этди

Сўнгги йиллардаги уларнинг ўсиш суръатларини кўрадиган бўлсак, 2019 йилгача ўсиб боргани ва 138,1 % га етгани, 2020 йилда кескин тушгани – 95,6 % ҳамда ҳозирги давргача яна ўсиш тенденциясига эга бўлаётганини кўриш мумкин – 100,9 %.

Жами инвестициялар ҳажмида, марказлашган молиялаштириш манбалари ҳисобидан молиялаштирилган асосий капиталга инвестицияларнинг улуши, 2021 йилга нисбатан 3,8 % пунктга камайиб, 15,4 % ни ёки 41,5 трлн. сўмни ташкил этди. Мос равишда, марказлашмаган молиялаштириш манбалари ҳисобидан 228,4 трлн. сўм ёки жами инвестицияларнинг 84,6 % инвестициялари ўзлаштирилиб, 2021 йилга нисбатан 3,8 % пунктга кўпайди.

Марказлаштирилган ва марказлаштирилмаган молиявий манбаларнинг таркибини (*элементларини*) таснифий белгиларига кўра кўриб чиқамиз.

Иқтисодий адабиётларда молиявий манбаларнинг таснифий белгиларига кўра таркибий элементлари қуйидагича фарқланади (1-жадвал).

Молиявий манбаларнинг таснифий белгиларига кўра таркибий элементлари³⁰.

Таснифий белгиси	Молиявий манбаларнинг таркибий элементлари
1. Келиб чиқиш манбаларига кўра	<p><i>Ички манбалар:</i> амортизация ажратмалари, хўжалик юритувчи субъектлар даромади, аҳоли маблағлари, бюджетдан таъминлаш, банк кредитлари, қимматли қоғозларнинг ички бозори, солиқлар, лизинг.</p> <p><i>Ташқи манбалар:</i> ҳукуматлараро кредитлар, хорижий инвестициялар, қимматли қоғозларнинг халқаро бозори ва б.</p>
2. Мулккий муносабатларига кўра	Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ресурслари, жалб қилинган (аҳоли, хорижий инвесторларнинг маблағи ва ҳ.к.) ресурслар, заём маблағлар (давлат, кредит-банк ва суғурта тизимларининг маблағи), қайтариш ва қайтармаслик шарти билан олинган бюджет маблағлари.
3. Мулкчи-лик турларига кўра	Давлат инвестиция ресурслари (бюджет ва бюджетдан ташқари фондлар маблағи, давлат қарзлари, акциялар пакетлари ва бошқа асосий ва айланма фондлар, давлатга қаршли мулк ва ҳ.); инвестициялар, шу жумладан молиявий инвестициялар, хўжалик юритувчи субъектлар, шунингдек, жисмоний шахслар ва ҳ.к. лар ресурслари; хорижий инвесторларнинг (хорижий давлатлар, халқаро молиявий институтлари, ташкилотлар, банклар, кредит муассасаларининг маблағлари) инвестиция ресурслари
4. Мулкчи-лик даражасига кўра	<p>Давлат даражасида:</p> <ul style="list-style-type: none"> • бюджетлар ва бюджетдан ташқари фондларнинг ўз маблағлари; давлат кредит-банк ва суғурта тизимларининг жалб этилган маблағлари; давлат халқаро қарзлари (давлатнинг ташқи қарзи), давлат облигациялари, қарзлар ва бошқа заёмлар (давлатнинг ички қарзи кўринишидаги заём маблағлар). <p>Ташкилотлар даражасида:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ўз маблағлари (даромад, амортизация ажратмалари, зарарни қайтариш учун суғурта суммалари, асосий ва айланма маблағлар ҳамда номоддий активларнинг иммобилизация ортиқча қисми; • жалб этилган маблағлар, шу жумладан бадаллар ва ионалар, акцияларни сотишдан тушган пуллар ва ш.ў. маблағлар. • бюджет, банк ва тижорат кредитлари кўринишидаги заём маблағлари (фоизли ва фоизсиз, қайтиб бериш ва қайтиб бермаслик асосида); <p>Инвестиция лойиҳаси даражасида:</p> <ul style="list-style-type: none"> • мамлакат, ҳудудлар ва уларнинг субъектлари бюджети, бюджетдан ташқари фондлар маблағлари; • хўжалик юритувчи субъектлар маблағи; • турли кўринишдаги хорижий инвестициялар.

³⁰ Гуськова Н.Д. Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Саранск 2000.

Давлат бюджети маблағларисиз ижтимоий соҳа тармоқлари самарали ривожлана олмайди. Давлат давлат бюджетдаги марказлаштирилган молия ресурсларининг 80 % га қадар маблағларини таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, илм-фан, турар-жой ва давлат қурилиши каби соҳаларнинг кечиктириб бўлмайдиган эҳтиёжларини қондиришга йўллайди.

Марказлаштирилган молия маблағларининг қолган 20 % қисмидан маҳаллий ва хорижий хусусий инвестицияларни ишлаб чиқариш жабҳаларида рағбатлантириш мақсадида фойдаланилади.

Бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда инвестицияларни молиявий таъминлаш манбаларининг таҳлили шундан далолат берадики, умумий инвестиция ресурслари ҳажмида ички манбалар улуши турли мамлакатларда кўплаб объектив ва субъектив омилларга боғлиқ равишда жиддий фарқланиб туради.

Иқтисодий адабиётларда ғарб мамлакатларида инвестицияларнинг ички ва ташқи манбалари ўртасидаги нисбат турлича баҳоланади. Жумладан, Л.Л. Игонинанинг илмий ишларида таъкидланишича, баъзи иқтисодчилар урушдан кейинги даврда турли мамлакатларда молиявий бўлмаган корпорациялар инвестицияларини молиявий таъминлашда ички ва ташқи манбалар ўртасида икки хил кўринишдаги нисбат шаклланди деб ҳисоблайдилар. Улардан бири умумий молиялаштириш манбаларида ўз маблағининг кўплиги билан (асосан АҚШ ва Буюк Британияга хос) иккинчи йўналиш эса асосан жалб этилган ва қарзга олинган маблағ қиёсий ҳажми кўплиги билан ажралиб турадиган яна бири – ГФР ва Японияда учрайди³¹. Одатда, тадбиркорлик даврига боғлиқ равишда инвестицияларни молиявий таъминлаш манбаларининг таркиби ҳам ўзгариб туради, яъни инвестиция фаоллиги ошган жонланиш даврида, масалан, ички манбалар улуши камаяди ва, аксинча, иқтисодий тушқунлик вақтида кўпаяди. Бу инвестициялар кўламининг қисқариши, пул таклифининг

³¹ Игонина Л.Л. Инвестиции: учеб. пособие /Л.Л. Игонина; под ред. д-ра экон. наук, проф. В.А. Слепова. - М.: Экономистъ, 2005. ...бетлар.

озайиши ва кредитлар қимматлашуви билан боғлиқ бўлган ҳолатларнинг у ёки бу даврга тўғри келиши билан изоҳланади.

МДХ республикалари иқтисодиётида инвестицияларни молиялаштириш манбалари ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради. Бунинг асосий сабабини инвестициялашнинг ички ва ташқи манбалари нисбатининг ўзгаришига хос бўлган бозор моделига ўтиш даврида аксарият корхоналарнинг бир томондан ссуда ва фонд бозори капиталларидан фойдалана олиш имкониятларининг чекланганлиги билан, иккинчи тарафдан эса, инвестиция фаолиятини молиявий таъминлашда ўзларининг етарли маблағларига эга эмасликлари билан боғлаш мумкин деб ҳисоблаймиз.

Ишлаб чиқариш кўламининг тушиб кетиши, тўлов қобилиятининг инқирозга юз тутиши, ишлаб чиқариш харажатларининг ортиши бир томондан даромад массасини кескин камайтирса, иккинчи томондан катта солиқлар корхоналарга даромаднинг қолган қисмидан инвестиция манбаи сифатида ишлатиш имконини бермаяпти. Зеро, даромаддан инвестиция мақсадларида фойдаланиш кўп жиҳатдан солиқ сиёсатининг таъсири билан боғлиқ. Маълумки, корхоналар даромадларини шакллантириш ва уларнинг массасини кўпайтириш имкониятлари охир оқибатда солиққа тортиш тизимининг бош иқтисодий нуқсони, яъни хўжалик юритиш субъектлари зиммасидаги солиқ юқининг оғирлиги билан изоҳланади. Бу бир томондан, иккинчи томондан эса, корхоналар моддий-техника базасининг заифлиги ва шу боисдан ҳам уни замонавий техника ва технологиялар билан қайта қуроллантириш учун катта ҳажмда ажратиладиган амортизация жамғармаларига бориб тақалади.

Корхоналар даражасида инвестициялашнинг ташқи манбалари, яъни марказлаштирилган инвестициялар ҳажмини кўпайтириш, хусусий инвесторлар (аҳоли, тижорат банклари, инвестиция фондлари ва компаниялари кабилар) фаолиятини фаоллаштириш ва хорижий инвестицияларни, имкон даражасида тўғридан-тўғри, жалб этиш устувор вазифалар сифатида қаралиши ва ҳал этилиши лозим. Шу билан бирга давлатнинг инвестиция фаолиятидаги иштироки фаоллашуви инвестиция

танқислигини енгиб ўтишнинг энг муҳим манбаи ва омили эканлигини ҳам унутмаслик керак. Бу, жумладан, айниқса бўлиб ўтган Covid-19 инқирозлар шароитида давлатнинг иқтисодиёт соҳаларига аралашувининг кучайиши бозор механизмини шакллантириб бўлган мамлакатлар учун ҳам хосдир. Бироқ давлатнинг инвестиция фаолиятидаги иштироки турли шаклда, масалан, инвестициялашнинг марказлашмаган ва хусусий молиялаштириш манбаларини ривожлантириш, улар фаолиятини рағбатлантириш асосида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ.

Марказлаштирилган инвестициялаш манбалари маблағларини шакллантириш жараёнида инвестиция ва жорий харажатларни алоҳида ажратиш, бюджет маблағларини аниқ мақсад ва манзилли ишлатиш, хусусан ғазначилик тизими орқали назорат қилишни кучайтириш, марказлашган инвестициялар самарадорлигини оширадиган янги механизмлар ишлаб чиқиш ва жорий қилиш муҳим аҳамиятга эга деб ҳисоблаймиз.

Республикаимиз иқтисодиётининг хусусий секторида инвестиция фаолиятини молиялаштириш тизими такомиллашиб, инвестициялаш шакл ва манбаларининг кўпайиши кузатилмоқдаки, бу ҳолатни ижобий тенденция сифатида баҳолаш лозим. Ижобий ўзгаришлар, фикримизча, қуйидагилардан иборат:

- инвестиция фаолиятини амалга оширишни молиявий жиҳатдан таъминловчи манбаларнинг сезиларли даражада кўпайиши;
- инвестицияларга йўналтирилаётган хусусий капиталнинг давлат капитали устидан устуворлиги ошиб бориши;
- инвестиция фаолиятида иштирок этувчи мулкчиликнинг турли шаклидаги хўжалик юритувчи субъектлар ва объектлар сонининг муттасил ўсиш суръатига эга бўлаётгани;
- бўш турган пул маблағларини жамлаш ва уларни инвестиция фаолиятига жалб қилиш орқали инвестициялар билан боғлиқ талаб ва таклифни мувофиқлаштирадиган инвестиция бозорнинг шаклланганлиги,

шунингдек унинг институтларини ташкил қилиш жараёнининг ривожланаётганлиги каби йўналишларда ўз ифодасини топмоқда.

Ушбу жараёнлар тадрижий йўл билан босқичма-босқич равишда инвестиция капиталини шакллантириш тизимини мулкчилик шакли ва молиялаштириш манбаларига мос ҳолда такомиллаштириб бориш учун катта имкониятлар яратади деб ҳисоблаймиз. Шу билан бирга инвестиция капитални таркиби ва инвестициялаш субъектлари ташкилий тузилмаларининг бозор иқтисодиёти талабларига мос равишда ўзгариши инвестиция фаолиятини ривожлантириш ва диверсификациялаш жараёнини янада такомиллаштириш борасида қулай шарт-шароитлар яратиши табиийдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги 2019 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни.* <http://www.lex.uz> (норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тизими).

2. Мелкумов Я.С. *Инвестиций: Учебное пособие.* –М.: ИНФРА-М, 2003.

3. Мустафақулов Ш.И. *Инвестицион муҳит жозибадорлиги. Илмий-амалий қўлланма.* /Ш.И. Мустафақулов. -Тошкент: Baktria press, 2017.- 33 бет.

4. Гуськова Н.Д. *Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук.* Саранск 2000.

5. Тухлиев Б.К. *Инвестиция ва инновациялар. Ўқув қўлланма.* –Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021 -176 б.

6. Тухлиев Б.К. *Инвестицияларни ташкил этиши ва молиялаштириши: Ўқув қўлланма* – Т.: ТДИУ, 2007. - 109 б.

7. Игонина Л.Л. *Инвестиции: учеб. пособие* /Л.Л. Игонина; под ред. д-ра экон. наук, проф. В.А. Слепова. - М.: Экономистъ, 2005.

AKSIYALAR VA OBLIGATSIYALAR MUOMALASINI TASHKIL ETISH AMALIYOTINING JORIY HOLATI TAHLILI

*Sadullayeva Mohinur G'ayratjon qizi-
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi nisbatan pastligi, davlat ulushining esa yuqoriligi, mahalliy fond bozorining rivojlanmaganligi kabi jihatlar obligatsiyalar orqali kapital jalb qilishda ma'lum bir to'siqlar vujudga keltiradi. Shu sababdan, aksiyalar va obligatsiyalar orqali kapital jalb qilishning hozirgi holatini o'rganish dolzarblik kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *aksiya, obligatsiya, aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ obligatsiyalar.*

Аннотация: *Такие факторы, как относительно низкая инвестиционная привлекательность акционерных обществ в нашей стране, высокая доля государства, неразвитость местного фондового рынка, создают определенные препятствия в привлечении капитала через облигации. По этой причине важно изучить современное состояние привлечения капитала через акции и облигации.*

Ключевые слова: *акция, облигация, акционерные общества, корпоративные облигации.*

Moliya bozorining yanada rivojlanib borishi bilan davlat budjeti defitsitini qoplash hamda aksiyadorlik jamiyatlarining yangi istiqbolli loyihalarini moliyalashtirish maqsadida obligatsiyalar muomalasini tashkil etish orqali arzon va uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyati vujudga kelmoqda.


Xalqaro moliya bozorida obligatsiyalar amaliyoti bank kreditlariga nisbatan muqobil manba sifatida qo'llanilayotgan bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi sababli obligatsiyalar bank kreditlari bilan raqobatlasha olmaydi. Ayniqsa, ayni vaqtda mamlakatimizda muqobil moliyalashtirish manbalari tarkibini va hajmini kengaytirish, hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirishda obligatsiyalar muomalasini tashkil etish orqali vujudga keladigan imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish doirasidagi kelgusida amalga oshiriladigan ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida aynan alohida ko'rsatib o'tilganligi bu sohada islohotlarning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini va mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga fond bozorining ta'siri sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi.[1]

So'nggi yillarda mamlakatimiz fond bozorini rivojlantirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida obligatsiyalar, shu jumladan, yevroobligatsiyalar emissiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Turli mahalliy tijorat banklaridan tashqari real sektor korxonalari ham yevroobligatsiyalar emissiyasini tashkil etmoqda.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Markaziy depozitariyda 628 ta aksiyadorlik jamiyatining 166 762,49 mlrd. so'm umumiy nominal qiymatga ega 16 446,01 mlrd. dona qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda.

2022-yil davomida qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hajmi 13 714,55 mlrd. so'mga ko'paydi, aksiyalarning soni esa 4 234,9 mlrd. donaga ortgan.




1-rasm. Aksiya va obligatsiya emitentlarining o'sishi [2]

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra aksiyalar emitentlari soni 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 21 ta emitentga ko'payib, 628 tani tashkil etgan. Obligatsiya emitentlari 2022-yil 11 tadan oshib, 2023-yil 28 ta emitentga yetgan.

Tarmoqlar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd so'm[3]

№	Tarmoqlar nomi	Bitimlar hajmi(mlrd so'm)
1	Banklar	790,24
2	Agrosanoat	331,76
3	Energetika	100,82
4	Sanoat	97,22
5	Transport	66,19
6	Sug'urta	56,63
7	Qurilish	11,83
8	Lizing	7,74
9	Aloqa	0,12
10	Boshqalar	686,51

2023 yilning I yarim yilligida iqtisodiyotning 10 ta tarmog'idagi AJ va MChJ qimmatli qog'ozlari oldi-sotdisi amalga oshirildi, ulardan banklar sohasiga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlar eng ko'p sotilgan – ular bilan 67 985 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning xuddi shu davrdagi ko'rsatkichidan 6 barobar ko'pdir (+606,00%). Bundan tashqari, birinchi yarim yillikda bank, sanoat va sug'urta sohalaridagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar soni umumiy bitimlarning 70 foizdan ortig'ini tashkil etdi. Hisobot davridagi birjaviy bitimlarning eng katta hajmi bank sohasiga oid kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hisobiga to'g'ri kelib (790,24 mlrd so'm), bitimlar umumiy hajmining 37,00 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilning shu davrida eng katta bitimlar hajm qurilish tarmog'i bilan bog'liq kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari hisobidan shakllangan (1,92 trln so'm).



2-rasm. Aksiya va obligatsiyalar muomalaga chiqarilish hajmining o'sishi[4]

2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, Markaziy depozitariyda 614 ta aksiyadorlik jamiyatining 180 233,53 mlrd.so'm umumiy nominal qiymatga ega 16 443,21 mlrd.dona qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda. 2023- yil 1 yarim yilligi davomida qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hajmi 13 471,04 mlrd. so'mga ko'paydi, aksiyalarning soni esa 2,80 mlrd. donaga kamaydi. Shuningdek, 29 emitent tomonidan chiqarilgan 846,80 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 557,8 ming dona korporativ obligatsiyalar hisobi ham yuritilmoqda. Ularning 592,63 mlrd. so'm umumiy miqdorga ega 343,6 ming donasi 23 MCHJ tomonidan chiqarilgan.Bu esa MCHJlarning korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilish orqali kapital jalb qilishda faol ekanligini ko'rsatadi.

2022- yilda esa bu ko'rsatkich ya'ni, 28 emitent tomonidan chiqarilgan 874,60 mlrd. so'm umumiy miqdorga ega 620,0 ming dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritilmoqda. Ularning 504,63 mlrd. so'm umumiy miqdorga ega 255,6 ming donasi 21 MCHJ tomonidan chiqarilgan ekanligini guvohi bo'lamiz.[5]

Obligatsiyalar bozorining joriy holatini o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirilgan. Mamlakat hukumati obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim va uning rivojlanishi uchun islohotlar izchil davom ettirishiga ahamiyat berishi zarur. Chunki davlat obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali bank sektori bilan raqobatni yuzaga keltirishi, bank sektorini rivojlantirishi hamda umumiy fond bozori faoliyatini samarali yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotlari tashkil etildi. Mazkur holatda shuni ta'kidlash lozimki, yevroobligatsiyalar amaliyoti, asosan, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan tashkil etildi. Mazkur holatda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi yuqori bo'lmasada, davlatning qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

2. «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi sayt ma'lumotlari

https://deponet.uz/sites/default/files//editor/hafta_aksiyadorlar_08.09.2023_uz.pdf

2. 3. https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/177/original/2023_yil_I_yarim_yilligi_bo'yicha_Birjaviy_tahlil.pdf?1692695360

1. 2023 yilning 1-yarim yilligi davomidagi faoliyat natijalari
https://deponet.uz/sites/default/files//otchet_cd_01.07.2023_uz_1.pdf

2. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi. Faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobot 2022 https://deponet.uz/sites/default/files//faoliyat_natijalari_2022_uz.pdf

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ ЦЕННЫХ БУМАГ

КРАВЧЕНКО А.Н. к.э.н., с.н.с. -

Центр исследований при Агентстве
по управлению государственными активами
Республики Узбекистан. Зав. отделом
исследований проблем развития
научно-методологических основ регулирования
оценочной и риэлторской деятельности

Annotation: *The theses provide an analysis of the current practice of assessing the value of securities, and also consider issues on further improvement of the necessary regulations and guidelines for assessing the market value of securities, to the extent provided for by the legislation of the Republic of Uzbekistan.*

Key words: *Securities, stock market, market value, business valuation, profitability, reliability, liquidity, investor, valuation standards, valuation approaches and methods, methodology, quality of valuation services.*

Оценка стоимости ценных бумаг представляет собой упорядоченный, целенаправленный процесс определения величины рыночной стоимости ценной бумаги в денежном выражении, с учетом влияющих на нее факторов.

К основным факторам относятся: финансовое положение и статус эмитента, цель и права инвестора, срок до погашения, доходность, ликвидность, надежность, показатели фондового рынка на момент оценки.

В конкретный момент времени для конкретного инвестора наибольшую ценность представляют те ценные бумаги, которые в наибольшей степени отвечают его инвестиционным целям:

доходность - инвестор отдает предпочтение рискованным, но доходным бумагам;

надежность - выбор инвестора падет на низкодоходные, но надежные ценные бумаги, например, государственные облигации;

ликвидность – инвестор заинтересован в приобретении ценных бумаг, которые легко и быстро могут быть проданы на бирже с минимальной потерей стоимости.

Во исполнение Постановления Президента Республики Узбекистан от 01.07.2019г. №ПП-4381[1] были разработаны и утверждены «Единые национальные стандарты оценки Республики Узбекистан»[2] на основе принципов международных стандартов оценки с учетом лучших зарубежных практик.

Это позволило обеспечить единообразное применение в нашей стране основных принципов, терминов, определений, видов стоимости, использование подходов и методов оценки, составление итогового отчета по оценке различных материальных и нематериальных объектов, независимо от форм собственности.

Методология оценки акций и долей участия в бизнесе приведены в (НСО № 7) Оценка бизнеса и права на участие в бизнесе «Единых национальных стандартов оценки Республики Узбекистан», а также в приложении №1 Методика оценки бизнеса и права на участие в бизнесе.

В данном нормативном документе указано, что оценка стоимости простых акций должна производиться с использованием сравнительного, доходного и затратного подходов.

При оценке стоимости сравнительным подходом применяются:

- метод рынка капитала - анализ рыночных цен аналогичных акций;
- метод сделок - анализ информации о купле-продаже акций;
- метод прямой капитализации, на основе котировки акций.
- При оценке стоимости доходным подходом применяются:
- метод дисконтирования денежных потоков;
- метод капитализации дохода.

При оценке стоимости бизнеса затратным подходом применяются:

метод чистых активов;

метод ликвидационной стоимости.

В действующих Единых национальных стандартах оценки имущества Республики Узбекистан не прописана методика оценки рыночной стоимости привилегированных акций. Привилегированные акции имеют фиксированный дивиденд, который означает, что их стоимость определяется дисконтированием каждого из этих платежей к текущему дню.

На наш взгляд необходимо внести изменения в (НСО № 7) Оценка бизнеса и права на участие в бизнесе «Единых национальных стандартов оценки Республики Узбекистан», в части определения стоимости привилегированных акций.

Многие вопросы и аспекты оценки стоимости различных типов ценных бумаг в данном стандарте не приводятся, В этой связи назрела необходимость разработки специального стандарта по оценке стоимости ценных бумаг.

В соответствии с Гражданским кодексом Республики Узбекистан ст. 96[3] Ценными бумагами являются документы, удостоверяющие с соблюдением установленной формы и обязательных реквизитов имущественные права, осуществление или передача которых возможны только при их представлении.

Согласно Закону Республики Узбекистан «О рынке ценных бумаг»[4] к ценным бумагам относятся: облигация, депозитный и сберегательный

сертификаты, вексель, чек, акция, корпоративные облигации, опцион эмитента, фьючерс на ценные бумаги и др.

Ценные бумаги оцениваются в целях купли-продажи; внесения в уставный фонд, эмиссии, залога, в случае ликвидации компании-эмитента или компании-инвестора, в случаях слияния, поглощения, реструктуризации и др.

Процедура оценки стоимости ценных бумаг представляет собой ряд взаимосвязанных этапов.

На первом этапе так же, как и при оценке бизнеса в целом, оценщик определяет цель оценки, изучает уставные документы компании эмитента, саму ценную бумагу, являющуюся объектом оценки, условия ее выпуска.

Второй этап предполагает определение места оцениваемой бумаги в классификаторе ценных бумаг, что поможет определить общие закономерности оценки и ее особенности, обусловленные спецификой оцениваемого объекта.

На третьем этапе оценщик формирует информационную базу и выбирает методы оценки. Особое значение в информационной базе занимает нормативно-законодательный блок, так как выпуск, обращение и погашение ценных бумаг, а также деятельность эмитента, инвестора и других участников фондового рынка строго регламентируются и контролируются специальными государственными органами.

Одной из наиболее важных переменных, влияющих на стоимость ценной бумаги является ее ликвидность.

Ликвидность – способность ценной бумаги быть быстро проданной и превращенной в денежные средства без существенных потерь для держателей. Исходя из этого, скидка за недостаточную ликвидность определяется как величина или доля (в %), на которую уменьшается стоимость оцениваемого актива. Высокая ликвидность увеличивает стоимость ценной бумаги, низкая – снижает по сравнению со стоимостью аналогичных, но легко реализуемых ценных бумаг.

Выделяют две группы факторов, влияющих на ликвидность ценной бумаги.

Первая группа факторов включает:

низкие дивиденды или невозможность их выплаты;

неблагоприятные перспективы продажи акций предприятия или его самого;

ограничения на операции с акциями (законодательные ограничения свободной продажи акций закрытых предприятий).

Ко второй группе факторов относятся:

возможность свободной продажи акций или самого предприятия;

высокие выплаты дивидендов.

Пригодность к быстрой реализации (ликвидность) определенно повышает стоимость ценных бумаг и, напротив, отсутствие ликвидности снижает их стоимость, по сравнению с сопоставимыми, однако, высоколиквидными активами. Другими словами, рынок выплачивает премию за ликвидность и снижает цену при ее отсутствии.

Влияние ликвидности может быть учтено одним из трех способов:

увеличением ставки дисконта с тем, чтобы она учитывала недостатки, связанные с неликвидностью;

скидка на неликвидность может быть определена отдельно;

скидка на ликвидность может быть учтена в процессе корректировки на риски инвестирования.

Скидка за отсутствие ликвидности может быть определена на основе статистической информации.

Использованной литературы:

1. *Постановление Президента Республики Узбекистан от 01.07.2019г. №ПП-4381 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оценочной деятельности и упрощению механизмов реализации низкорентабельных и бездействующих предприятий с государственным участием».*

2. «Единые национальные стандарты оценки Республики Узбекистан» (от 4 июня 2020 г. регистрация в МЮ №3239).
3. Гражданский кодекс Республики Узбекистан.
4. Закон Республики Узбекистан «О рынке ценных бумаг» от 22.07.2008 г. № ЗРУ-163.

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING MEHNAT POTENSIALI

*Erdonov Mukhammadamin Erdon o'gli-
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
"Real iqtisodiyot" kafedrasida mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada "mehnat potentsiali" dinamikada inson omilini yashirin imkoniyatlarni tavsiflovchi uzluksiz, rivojlanayotgan, ko'p qirrali jarayon shaklida taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Korxonalar, daromad, xarajat, foyda, samaradorlik, salohiyat potentsial, tarkib, tizimli, iqtisodiy-strategik, potentsial.

Abstract: In this article, "labor potential" is presented in the form of a continuous, developing, multifaceted process that describes the hidden potential of the human factor in dynamics.

Key words: Enterprise, income, cost, profit, efficiency, potential, content, systematic, economic-strategic, potential.

Аннотация: В данной статье «трудовой потенциал» представлен в виде непрерывного, развивающегося, многогранного процесса, описывающего в динамике скрытый потенциал человеческого фактора.

Ключевые слова: Предприятие, доход, себестоимость, прибыль, эффективность, потенциал, содержание, систематический, экономико-стратегический, потенциал.


Iqtisodchilar va sotsiologlar bugungi kunda ham butun jamiyat miqyosida, ham alohida ishlab chiqarish jamoalari doirasida «inson omili» atamasini hajm jihatidan tavsiflash uchun «mehnat potentsiali» tushunchasidan foydalanadilar. Umumiy fikrga ko'ra, "mehnat potentsiali" dinamikada inson omilini yashirin imkoniyatlarni tavsiflovchi uzluksiz, rivojlanayotgan, ko'p qirrali jarayon shaklida taqdim etishi kerak. «Korxonaning mehnat potentsiali - bu jami ishchilarning potentsial mehnat

qilish qobiliyatidir”. Jamoa mehnat potentsiali tarkibiga quyidagilar kiradi: shaxsning mehnat potentsiali; jamoa, sex, bo‘lim xodimlarining mehnat potentsiali va boshqalarning mehnat potentsiali kiradi. Mehnat potentsialining ikki tomoni bor: sifat va miqdor. Korxonada mehnat potentsialining sifat tomoniga ishchilar salomatligi holati va uning ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi: - psixofiziologik rivojlanish; - ishchilarning kasbiy va malaka darajasi; - ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlari.

Inson kapitali qanchalik yaxshi bo‘lsa, korxonada shunchalik yaxshi ishlaydi. Xodimning mehnat potentsiali doimiy qiymat emas, u doimo o‘zgarib turadi. Insonning mehnat qobiliyati va xodimning mehnat faoliyati jarayonida to‘plangan ijodiy qobiliyatlari bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bilan ortadi. Ammo ular, xususan, xodimning sog‘lig‘i yomonlashsa, ish rejimi qattiqlashganda va hokazolarda kamayishi mumkin. Har qanday korxonada xodimlarni boshqarish, korxonada va firmalarda oldida turgan asosiy iqtisodiy va tashkiliy maqsadlarni amalga oshirishda uning xodimlari, o‘zlarining mehnat potentsialidan, aqliy, jismoniy va tadbirkorlik qobiliyatlaridan to‘liq foydalanishlari kabi samaralidir. Korxonaning mehnat potentsiali xodimning mehnat potentsialidan farq qiladi, chunki tizim har doim uning tarkibiy qismlari yig‘indisidan - xodimlarning individual mehnat potentsialidan - o‘zaro ta’sir natijasida sinergik ta’sirning paydo bo‘lishi tufayli kattaroq hajmni olib yuradi. Korxonaning mehnat potentsialining tarkibi - bu ishchilar guruhlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning turli demografik, ijtimoiy, funktsional, kasbiy va boshqa xususiyatlarining nisbati sifatida ko‘rilishi kerak. Yu.G.Odegovning fikriga ko‘ra, korxonaning mehnat potentsiali tarkibidagi quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: kadrlar soni, kasbiy-malaka darajasi va korxonaning tashkiliy-boshqaruv shakli.

Kadrlar tarkibiga quyidagilar kiradi: a) kasbiy kompetentsiyani (malaka salohiyatini) belgilaydigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar; b) kognitiv qobiliyatlar (ta’lim salohiyati). Mehnat potentsialining ushbu komponentini ikki pozitsiyadan ko‘rib chiqish mumkin. Subyektiv nuqtai nazardan, u shaxsiy o‘zini namoyon qilish va shaxsning ehtiyojlarini qondirish shakli sifatida ishlaydi va

shaxsning muayyan turdagi ishlarni bajarish qobiliyati sifatida qaralishi mumkin. Ob'ektiv tomondan, bu kasblar majmuining moddiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy ishonchliligini aks ettiruvchi xususiyatlar majmuining ifodasidir.



1-rasm. Korxonaning mehnat potentsilaini shakllanishi.

Korxonaning mehnat potensialini boshqarishning maqsadi realizatsiya qilinmagan ishchi kuchi imkoniyatlari ulushini minimallashtirishdan iborat. U quyidagi to‘rt tamoyilga rioya qilishga asoslanishi kerak: 1) korxonaning mehnat salohiyatining mehnat funksiyalari va bajariladigan ish turlarining xarakteri, hajmi va murakkabligiga muvofiqligi; 2) korxonaning mehnat salohiyati tarkibining ishlab chiqarishning moddiy omillariga shartliligi; 3) korxonaning mehnat potensialidan samarali foydalanishni ta'minlashi; 4) ishchilarning kasbiy va malakasini oshirish uchun sharoit yaratish va ularning ishlab chiqarish profilini kengaytirish. Bir vaqtning o‘zida barcha to‘rt tamoyil talablarini hisobga olgandagina korxonaning mehnat potensialidan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologiya va kadrlar malakasi darajalari o‘rtasidagi tafovutga yo‘l qo‘ymaslik va xodimlarning barcha potensial imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradigan sharoitlar yaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мерзлякова И.О. Трудовой потенциал предприятия: структура, формирование, развитие. <https://cyberleninka.ru/article/n/trudovoy-potentsial-predpriyatiya-struktura-formirovanie-razvitiie>.

2. Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г., Лунева Н.К. «Рынок труда (практическая макроэкономика труда)»: Учебник для вузов. М.: Альфа-Пресс, 2007. С. 900.

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Тугалов Б.Қ. –
Тошкент халқаро кимё
университетининг мустақил зланувчиси

Аннотация: Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш, иқтисодиётнинг реал секторида ҳамда молия ва банк соҳаларида ишлаб чиқариш ва операцион жараёнларни рақамлаштириш даражасини 2026 йил якунига қадар 70 фоизгача ошириш мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган [1]. Бу эса, қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш масаласини жуда долзаб эканлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: қимматли қоғозлар бозори, акция, облигация, акциядорлик жамияти, листинг, индекс, капиталлашув.

Аннотация: В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы отмечено, что, расширение финансовых ресурсов в экономике путем доведения в последующие пять лет оборота фондового рынка с 200 миллионов долларов США до 7 миллиардов долларов США, увеличение до конца 2026 года уровня цифровизации производственных и операционных процессов в реальном секторе экономики, в финансовой и банковской сферах до 70 процентов являются обязательными условиями обеспечения стабильного роста экономики [2]. Это свидетельствует о том, что вопрос развития рынка ценных бумаг является весьма актуальным.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, акция, облигация, акционерная обществу, листинг, индекс, капитализация.


Annotation: The Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 noted that, expansion of financial resources in the economy by bringing the stock market turnover from 200 million US dollars to 7 billion US dollars in the next five years, increasing the level of digitalization of production and operational processes by the end of 2026 in the real sector of the economy, in the financial and banking sectors, up to 70 percent are mandatory conditions for ensuring stable economic growth. This indicates that the issue of developing the securities market is very relevant.

Key words: securities market, share, bond, joint stock company, listing, index, capitalization.

“Тошкент” республика фонд биржаси мамлакатнинг асосий қимматли қоғозлар бозори ҳисобланади.

Акциядорлик жамиятлари ўз қимматли қоғозларини чиқариш ва уларни “Тошкент” республика фонд биржаси савдолари орқали жойлаштириш ҳисобига ўзлари учун ички ва ташқи капитал бозоридан инвестициявий ресурсларни жалб этиш имкониятига эгадирлар.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида”ги янги таҳрирдаги қонунига кўра (2015 йил), биржанинг котировкалаш варағи, яъни биржа листинги тартиб-таомилидан ўтган қимматли қоғозларгина биржа савдоларига қўйилади ва листинг компанияларининг қимматли қоғозлари доимий котировка қилинади. Бу эса листингдаги қимматли қоғозларнинг бозор баҳосини аниқлаш имконини беради.



1-расм. Ўзбекистон Республикасида акциялар бозорининг капиталлашув қиймати, трлн. Сўм [3]

1-расм маълумотларидан кўриш мумкинки, республикада акциялар бозорининг капиталлашув қиймати 2020-2022 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, акциялар бозорини ривожлантириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади.

Шунингдек, “Тошкент” фонд биржасида амалга оширилган битимлар ҳажми 2020-2022 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлди ва 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, битимлар ҳажми 4816,2 млрд. сўмни ташкил этди.

Сўнгги йилларда қимматли қоғозлар бозорини халқаро капитал бозорига интеграциялашувини таъминлашга қаратилган муҳим тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, 2021 йилда “Ўзбекнефтегаз” АЖ томонидан қиймати 700 млн. доллар миқдоридagi қимматли қоғозларни 4,75 фоиз ставкаси билан 7 йиллик муддатга, “UZAUTO MOTORS” АЖ томонидан қиймати 300 млн. доллар миқдоридagi қимматли қоғозларни 4,85 фоиз ставкаси билан 5 йиллик муддатга ҳамда “Ипотека банк” АЖ томонидан 785 млрд. сўм қийматидаги қимматли қоғозларни 16,0 фоиз ставкаси билан 3 йиллик муддатга халқаро молия бозоридa жойлаштирилди [4].

Эътироф этиш оизки, 2020 йилнинг 19 ноябрь куни Молия вазирлиги томонидан умумий хажми 750 млн. доллар миқдоридagi суверен халқаро облигациялар икки траншда – 10 йиллик муддат билан 555 млн. доллар долларда ва 3 йиллик муддат билан илк бора миллий валюта миқдори - ўзбек сўмида 2 трлн. сўм миқдоридa Лондон қимматбаҳо қоғозлари бозоридa (London Stock Exchange) муваффақиятли жойлаштирилди. мазкур АҚШ долларидagi 10 йиллик суверен халқаро облигацияларининг дастлабки 4,25%дан 3,70%га тушгани 2019 йилда эмиссия қилинган облигацияларимизнинг иккиламчи бозордаги котировкаларига ижобий таъсир кўрсатиб, Ўзбекистон Республикасининг 5 йиллик (ҳозирда 3 йиллик) ва 10 йиллик (ҳозирда 8 йиллик) суверен халқаро облигацияларининг даромадлилиги сезиларли даражада тушишига сабаб бўлди [5].

2022 йил 18 апрелда UCI индекси 1 211,62 кўрсаткичдан, 2022 йил 22 апрелда 737,56 бирликка, яъни, 39,13%га пасайди (Uzbekistan composite index (UCI) бу “Тошкент” фонд биржасининг композит индекси бўлиб, у ўзида биржа котировкалар варағига киритилган акция эмитентларининг умумий ҳолатини акс эттиради. UCI индекси, Ягона дастурий-техник мажмуа савдо платформаси орқали автоматик тарзда, реал вақтларда амалга ошириладиган савдолар натижасида шаклланадиган нархларга асосан ҳисобланади) Биржа капиталлашуви ҳам мос равишда 151,53 трлн сўмдан 89,95 трлн сўмга тушди. Ушбу даврдаги ўзгаришлар “O'zmetkombinat” АЖнинг оддий ҳамда имтиёзли

акцияларининг сони 1 акцияга нисбатан кўшимча 10 та акция чиқарилиши билан кўпайтирилган ва ўз навбатида сўнги савдо жараёнидаги мазкур акцияларнинг нархига нисбатан ҳисобланганда эмитент капиталлашуви миқдори ЯДТМ тизми томонидан индекс ҳисоблаш жараёнига ўз таъсирини кўрсатган [6].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги//www.lex.uz.

2. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 ОТ 28 января 2022года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»//Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082, 18.03.2022 г., № 06/22/89/0227; 10.02.2023 г., № 06/23/21/0085.

3. Биржевое обозрение за 2022 год//analytics@uzse.uz.

4. 2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг тўлов баланси, халқаро инвестицион позицияси ва ташиқи қарзи//www.cbu.uz.

5. www.mf.uz

6. Биржевое обозрение за 2022 год//analytics@uzse.uz.

MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNI BAHOLASH VA HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Suyunov Yorqin Bekmurodovich-
i.f.f.d., Phd. TDIU “Buxgalteriya hisobi”
kafedراسи katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati, investitsiyalar hisobini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish, shu bilan birga moliyaviy investitsiya ob'yektlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish, ulardan samarali foydalanish maqsadida kelgusida kutilayotgan baholash tartibi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy investitsiya, buxgalteriya hisobi, baholash, joriy qiymat, diskonlash, ekspress-baholash.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini keng qamrab olmoqda, albatta. Bu borada

«iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish» vazifasi belgilangan³². Investitsiya loyihalarini kengaytirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, har bir rivojlanish va samaradorlikka erishish bevosita jalb etilgan investitsiyalar hamda ulardan samarali foydalanishga bog'liq. Iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlash, u tomonidan jamiyatga, qolaversa xalqimizga foyda keltirish bilan belgilanadi. «Sarflangan har bir so'm investitsiya odamlarimizga uch baravar ko'p foyda keltirishi, ularning daromadini oshirishga xizmat qilishi kerak»³³. Bu esa investitsiyalar hisobini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, yuridik shaxslar va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyati yordamida iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgandir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga muomalaga qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish mamlakat miqyosidagi manbalar hisobiga, turli mulk egalarining mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalari orqali amalga oshiriladi. Albatta, bunda har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, milliy valyuta

³² <https://president.uz/uz/lists/view/4057> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr.

³³ <https://president.uz/uz/lists/view/4254> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida joriy yilda amalga oshiriladigan ishlar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan., Toshkent, 2021-yil 24-mart

birligini konvertatsiyalanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosatiga chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash hamda u yoki bu yo'nalishda sarflash va jamg'arish mamlakatda qabul qilingan va amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan taqsimot tizimiga bog'liqdir. Qonunchilikni rivojlanishi, adolatli qonunlar qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq etilishi bozor munosabatlarini rivojlantirishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni keng ko'lamda tarqalishiga qaratilsa, investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag'larini kamayishi hisobiga boshqa mulqdorlar mablag'lari o'sib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va davlatning samarali moliya siyosatini yuritishi alohida ahamiyatga egadir. Xorijiy kapitalning kirib kelish darajasi ko'p jihatdan mamlakatning olib borayotgan moliya siyosatiga (fiskal siyosati) bog'liqdir.

Shu boisdan jahon iqtisodiyotining glaballashuvi davrida investitsiya siyosati, investitsiyalar oqimini shakllantirish hamda ulardan samarali foydalanishda buxgalteriya hisobini takomillashtirish buguni kunning muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida xorijiy olimlarning iqtisodiyotning yetakchi sanoat korxonalarini va xizmat ko'rsatish sub'ektlarida moliyaviy investitsiyalar hisobi uslubiyotini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy asarlari mavjud, jumladan, bu masalalar bir guruh olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³⁴.

Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni xarid qilish qiymatini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki xarid qilish qiymatiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga nisbatan ularning hisob qiymati ham va yakunda moliyaviy natija ham aniqlanadi. Bunday xarajatlar faqat qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq muomalalar bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu xarajatlarning asosiy qismi sotuvchiga to'lanadigan qimmatli qog'ozning qiymati

³⁴ Farrokh Barzideh, Soroush Lotfi, Mehdi Mousapour, Mojtaba Aghaei. Accounting for investment: challenges & criticisms. www.sciencejournal.in. Volume-3 (Special Issue 3) 2014.

hisoblanadi. Bularga mazkur muomalani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, ya'ni qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan muomalalarni amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish kerak. Mavjud bo'lgan me'yoriy asos qimmatli qog'ozlarni xarid qilish qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar tarkibini samarali belgilaydi.

Xalqaro amaliyot qimmatli qog'ozlar hisobi uchun ikki hil bahoni qo'llanilishini belgilab beradi: eng pastki xaqiqiy tannarx yoki bozor qiymati bo'yicha. Eng past qiymat bo'yicha baholash usuli hisobotda xarid qilishning xaqiqiy qiymati yoki joriy bozor narxlarini qay biri kichik bo'lsa, ana shunisi orqali aks ettirishni ko'zda tutadi. Mazkur baholash usuli ham xarid qilingan qarz qimmatli qog'ozlarni nominal qiymatini aniqlashga imkon bermaydi va aktsiyalarning investorga tegishli bo'lgan qismida emitent-kompaniyaning xususiy kapitali miqdorini aniqlab bera olmaydi.

Sub'ektlar tomonidan kiritilgan har qanday investitsiyalar samaradorligi ulardan olinadigan daromadlar miqdori bilan o'lchanadi. Bunday sharoitda moliyaviy hisob-kitoblarda hamma vaqt va har qanday sharoitda ham boshlang'ich, oshgan, chegirma yoki ustama summalarini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Ushbu muammo moliyaviy investitsiyalardan olinadigan daromatlarni pragnoz qilish imkonini bermaydi. Biz tomonimizdan tadqiqotlar davomida diskontlangan pul oqimlari yordamida investitsiyalarning joriy va kelgusidagi qiymatini aniqlashning ekspress-baholash modelini qo'llash orqali moliyaviy investitsiyalarning kelgusi va joriy qiymatini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi.

Bunda diskontlash korxonaga investor qancha miqdorda eng ko'p moliyaviy resurslar sarflashi va eng ko'p darajada qancha daromad olishini aniqlashga imkon yaratadi. Ushbu holatda diskontlash formulasi quyidagicha aniqlanadi :

Joriy qiymat aniq bo'lsa,

$$KQ = JQ * (1 + P)^n$$

Bu yerda, KQ-kelgusi qiymat, JQ-joriy qiymat, R- foiz stavkasi, N- yillar.

Moliyaviy investitsiyalardan samarali foydalanish hamda ulardan kutilayotgan daromadlar natijadorligini aniqlash maqsadida biz tomonimizdan tadqiqot davomida

yuqoridagi moliyaviy investitsiyalarni diskonlash formulasini qo'llash orqali joriy va kelgusidagi qiymatini aniqlashning ekspress-baholash modelini ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy investitsiyalarning ekspress-baholash modeli*

Yil %	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
1	1,15	1,16	1,17	1,18	1,19	1,2	1,21	1,22	1,23	1,24	1,25	1,26
2	1,32	1,35	1,37	1,39	1,42	1,44	1,46	1,49	1,51	1,54	1,56	1,59
3	1,52	1,56	1,6	1,64	1,69	1,73	1,77	1,82	1,86	1,91	1,95	2
4	1,75	1,81	1,87	1,94	2,01	2,07	2,14	2,22	2,29	2,36	2,44	2,52
5	2,01	2,1	2,19	2,29	2,39	2,49	2,59	2,7	2,82	2,93	3,05	3,18
6	2,31	2,44	2,57	2,7	2,84	2,99	3,14	3,3	3,46	3,64	3,81	4
7	2,66	2,83	3	3,19	3,38	3,58	3,8	4,02	4,26	4,51	4,77	5,04
8	3,06	3,28	3,51	3,76	4,02	4,3	4,59	4,91	5,24	5,59	5,96	6,35
9	3,52	3,8	4,11	4,44	4,79	5,16	5,56	5,99	6,44	6,93	7,45	8
10	4,05	4,41	4,81	5,23	5,69	6,19	6,73	7,3	7,93	8,59	9,31	10,1
11	4,65	5,12	5,62	6,18	6,78	7,43	8,14	8,91	9,75	10,7	11,6	12,7
12	5,35	5,94	6,58	7,29	8,06	8,92	9,85	10,9	12	13,2	14,6	16
13	6,15	6,89	7,7	8,6	9,6	10,7	11,9	13,3	14,7	16,4	18,2	20,2
14	7,08	7,99	9,01	10,1	11,4	12,8	14,4	16,2	18,1	20,3	22,7	25,4
15	8,14	9,27	10,5	12	13,6	15,4	17,4	19,7	22,3	25,2	28,4	32

* Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bu ekspress-baholash modelini qo'llash orqali tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarga kiritadigan moliyaviy investitsiyalarning joriy qiymati va kelajakda olishi kerak bo'lgan jami kapitali miqdorini aniqlash mumkinligi isbotlandi. Bunda moliyaviy investitsiyalar ko'rsatkichlari dinamikasini miqdoriy baholash uchun mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi va mutlaq o'sish, o'sish darajasi, mutlaq ko'rsatkich 1 foizga oshadi. Natijada xo'jalik jamiyatlari tomonidan yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalardan keladigan daromadlarni (dividentlar) hisoblash, ularning miqdorini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FOND BOZORI VA UNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

Saidov J.L.-

TDIU, Moliya kafedrası assistenti:

Shamsitdinova X.M-

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada moliya bozorining ilmiy- nazariy jihatlari tadqiq qilingan, hamda, fond bozori instrumentlari dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, fond bozoridagi bir qancha dolzarb muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fond bozori, qimmatli qog'ozlar, kapital, aksiyalar, obligatsiya, moliyaviy instrumentlar.*

Bugungi kunda ham jahon iqtisodiyotining rivojlanish davrida fond bozoridagi jarayonlar yanada takomillashib, iqtisodiy taraqqiyotni hal qiluvchi omiliga aylanib ulgurdi. Iqtisodiy tanglik davrida ham bo'sh turgan pul mablag'larini moliyaviy instrumentlar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar orqali jalb qilib iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev tomonidan 2006-yil 27-sentyabrda "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'rsida" g PQ-475-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi:[1] Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, uning oshkoraligi va barqaror faoliyatini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsiyalar jalb etilishini faollashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda aksiyadorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida moliya bozorlari pul mablag'lari oqimini jamg'aruvchidan qarz oluvchiga yo'naltiruvchi bozor insti-tutlari jamlanmasi sifatida keltiriladi [2]. Frederik Mishkin ortiqcha mablag'larga ega odamlardagi pul mablag'larini pul mablag'lari yetishmayotganlariga o'tkazib berishga xizmat qiluvchi bozorlarni moliya bozorlari deb ataydi [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan SH.SH.Shoxa'zamiyning fikricha [4], moliya bozori- bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan, iqtisodiy subyektlar zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim.

Iqtisodiyotni moliya bozori, ya'ni, qimmatli qog'ozlar yordamida moliyalashtirish usuli esa allaqachon bir qancha rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning moliya tizimidan joy olgan. Shunday bo'lsada bizning mamlakatimizda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish uchun oldimizda turgan, hali hanuz o'z yechimini topmagan bir qancha muammolar mavjud. Shunday bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizda RFB ning bozor kapitalalshuvi YaIMning o'rtacha 6% iga to'g'ri keladi , ammo dunyoda bu ko'rsatkich o'rtacha 82 % ni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha dunyodagi bazi mamlakatlarda: masalan, Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi. Respublika Fond bozorida professional ishtirokchilari soni 100 tani ham tashkil qilmaydi. Shu sababli ham 2020-2025 yillarda mamlakatimiz fond bozorini rivojlantirish maqsadida maxsus strategiya ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025 yil oxirigacha kamida 10-15 foizga yetkazish mo'ljallangan [5].

Mahalliy va xorijiy investorlarni hamda aksiya egalari huquqlarini kuchaytirish va imtiyozlar berish orqali, investorlarni qo'llab quvvatlash va mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin. Korporativ menejmentni yanada takomillashtirish bilan fond bozorida banklar va fond birjasidagi operatsiyalrni yengillashtirish hamda, aynan moliyaviy siyosatda qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishga imkon yaratiladi.

Xalqaro darajadagi moliyaviy hisob standartlariga o'tish orqali aynan xorijiy investorlarni ko'proq jalb qilishga erishiladi, shu jumladan xalqaro fond bozorlari bilan integratsiyalashuv jarayoni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-1061595?ONDATE2=09.04.2022&action=compare>
2. Долан Э.Дж., Кэмпбелл К.Д. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. М. ; СПб., 1993. С. 15.
3. Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori. *The economics of money, banking and financial markets*. UK. Pearson, 2013. P.3.; Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. *Financial markets and institutions*. USA. Prentice Hall, 2012. P.2.
4. Шохазамий Ш.Ш. Молия бозори ва кимматли коғозлар. Дарслик.- Т. : ТФИ, 2012. 265- б.
5. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/fond_bozori_muammolar_qanday_va_ular_qanday_hal_qilinadi

ЎЗБЕКИСТОНДА ВАЛЮТА БОЗОРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Ибодуллаева М.Т. -
ТДИУ доценти, PhD

Аннотация: Валюта ресурсларидан фойдаланишда бозор инструментларининг ролини ошириш, валюта бозорида барча хўжалик юритувчи субъектлар учун тенг рақобат шароитларини яратиш, валюта сиёсатининг ноанъанавий тармоқларда экспортни ривожлантиришда, минтақавий ва халқаро иқтисодий ҳамкорликни мустаҳкамлашда рағбатлантирувчилик ролини ошириш Ўзбекистонда валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари бўлиб ҳисобланади [1]. Бу эса, ўз навбатида, валюта бозорини ривожлантириш заруриятини юзага келтиради.

Калим сўзлар: валюта, валюта бозори, валюта биржаси, валюта операцияси, валюта интервенцияси.

Ўзбекистон Республикасида 2017 йилнинг 5 сентябридан бошлаб миллий валютани хорижий валюталарга конвертирлаш муаммосининг ҳал бўлганлиги ва миллий валютани хорижий валюталарга нисбатан курсини шакллантиришда фақат бозор механизмидан фойдаланиш талабининг кўйилганлиги тижорат банклари ва уларнинг мижозларининг валюта операцияларини ривожлантиришга кучли туртки берди.

Таъкидлаш жоизки, юридик шахслар томонидан чет эл валютасига бўлган талаб 2022 йилда 2021 йилга нисбатан 1,3 баробарга ошиб, 27,7 млрд долларини ташкил этди. 2022 йилда жисмоний шахслар томонидан тижорат банкларига сотилган чет эл валютаси миқдори 11,9 млрд долларни ташкил этди, жисмоний шахсларга 8,9 млрд долл. сотилди, Марказий банк томонидан ички валюта бозорида 4,1 млрд долл. ҳажмда интервенциялар амалга оширилди [3].

1-жадвал

2018-2021 йилларда юридик шахсларнинг Ўзбекистон Республикасининг валюта биржаси ва биржадан ташқари валюта бозоридан чет эл валютаси хариди, млн. АҚШ доллари [4]

Кўрсаткичлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2021 йилда 2018 йилга нисбатан ўзгариши
Юридик шахсларнинг валюта биржасидан хариди	9 533	10 521	11 706	11 188	17,4 %
Юридик шахсларнинг биржадан ташқари бозордан хариди	845	3 203	3 655	20 290	24,0 марта

1-жадвал маълумотларидан кўринадикки, республикамизда юридик шахсларнинг валюта биржасидан чет эл валютасининг хариди миқдори ўсиш тенденциясига эга бўлган. Аммо, ушбу кўрсаткич 2021 йилда 2020 йилга нисбатан кескин камайган. Бу эса, мазкур даврда биржадан ташқари валюта бозорида юридик шахслар томонидан чет эл валютасини сотиб олиш жараёнини фаоллашганлиги билан изоҳланади.

1-жадвал маълумотларидан кўринадикки, юридик шахсларнинг биржадан ташқари валюта бозоридан чет эл валютасини харид қилиш миқдори 2018-2021 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, биржадан ташқари валюта бозорини ривожланиб бораётганлигидан далолат беради.

2018-2022 йилларда республикамизда юридик шахсларнинг валюта биржасидан чет эл валютасининг хариди миқдори ўсиш тенденциясига эга бўлди. Аммо, ушбу кўрсаткич 2021 йилда 2020 йилга нисбатан кескин камайган. Бу эса, мазкур даврда биржадан ташқари валюта бозорида юридик

шахслар томонидан чет эл валютасини сотиб олиш жараёнини фаоллашганлиги билан изоҳланади.

Республикамизда юридик шахсларнинг биржадан ташқари валюта бозоридан чет эл валютасини харид қилиш миқдори 2018-2021 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлди. Бу эса, биржадан ташқари валюта бозорини ривожланиб бораётганлигидан далолат беради.

Юридик шахслар томонидан чет эл валютасига бўлган талабнинг асосий қисми хорижий давлатлардан импорт қилинган асбоб-ускуналарнинг тўлови билан боғлиқ бўлиб, мазкур тўловларнинг ҳажмини тобора ошиб бораётганлиги, биринчи навбатда, республикамизда иқтисодиётнинг реал сектори корхоналари фаолиятини техник ва технологик жиҳатдан қайта қуроллантиришга қаратилган инвестиция сиёсатини амалга оширилаётганлиги билан изоҳланади.

2018-2020 йилларда республикамизда жисмоний шахсларнинг чет эл валютасига бўлган талабнинг умумий ҳажмидаги улушини ўсиш тенденцияси кузатилди. Бу эса, аҳолининг миллий валютадаги даромадининг бир қисмини чет эл валютасида шакллантиришга бўлган мойиллигини кучайганлиги билан изоҳланади.

2018-2022 йилларда республикамизда чет эл валютасига бўлган талабнинг мутлақ асосий қисми, яъни 82 фоиздан юқори қисми юридик шахсларнинг ҳиссасига тўғри келган. Бу эса, асосан, иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарининг импорт операциялари билан боғлиқ бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги ПФ-5177-сонли “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-табирлар тўғрисида”//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 36-сон, 945-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.09.2019 й., 06/19/5811/3691-сон; 09.07.2020 й., 06/20/6021/1047-сон, 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон.*

2. *Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5177 от 2 сентября 2017 года «О первоочередных мерах по либерализации валютной*

политики»//Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 36, ст. 945; Национальная база данных законодательства, 06.09.2019 г., № 06/19/5811/3691; 09.07.2020 г., № 06/20/6021/1047, 28.09.2020 г., № 06/20/6075/1330.

3. Ички валюта бозори шарҳи//www.cbu.uz

4. Ички валюта бозорида амалга оширилган операциялар. www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки).

HISOB TO'LOV TIZIMIDA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Saydaxmedov A.O. -

TDIU, "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Quyidagi tezisdagi mamlakatimiz va dunyoning rivojlangan davlatlarida olib borilayotgan to'lov tizimi siyosati va ushbu tizimdagi farqli jihatlari bilan bir-qatorda hisob-to'lov tizimining kelib chiqishi, tarixi va hozirgi kunga qadar ushbu tizimda amalga oshirilgan yangiliklar, o'zgarishlar, innovatsiyalar va olib borilayotgan izlanishlar haqida ma'lumotlar mavjud.*

Kalit so'zlar: *Hisob-to'lov tizimlari, "jiaozi", kredit karta, Stokholm Banco, Yoxan Palmstrux, PayPal, PayME, Buyuk Britaniya, VISA, "Pizza Hut", bitcoin, kriptovalyuta, NFC, COVID-19, Markaziy Osiyo, moliyaviy savodxonlik.*

Innovatsiya va texnologiyalar davriga aylanib ulgurgan XXI asrga kelib to'lov tizimlari ham anchagina takomillashdi. Internet kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi orqasidan yangidan yangi to'lov tizimlari ishlab chiqildi. Ishonib aytamanki dastlabki tizimlardan farqli o'laroq hozirgi to'lov tizimlari mukammal darajada qilib ishlangan. Ushbu o'zgarishlar barcha qatlam vakillari uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Mamlakatimizda ham zamonaviy to'lov-tizimlari jadal ravishda rivojlanib bormoqda. Bu o'zgarishlar barchaning og'irini yengil qilish bilan birga qadrlil vaqtini ham tejab bermoqda. Quyidagi tezisdagi ham ushbu tizimdagi qator o'zgarishlar, qulayliklar va kamchiliklar haqida fikr yuritamiz.

To'lov-tizimlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak. To'lov-tizimlari evolyutsiyasi hozirgi kunga qadar 8 bosqichni bosib o'tgan. Dastlabki to'lov tizimi vujudga kelishi mil.avv, 300=yillarga to'g'ri keladi. Ushbu davrlarda insonlar to'lov vositasi

sifatida ayirboshlashdan foydalanishgan. Va bu ish o'sha davr uchun eng optimal yechim bo'lib hisoblangan. Mil.avv. 1100-yillarga kelib Xitoyda to'lov vositasi sifatida birinchi tangalar (chhig'anoq toshlar) paydo bo'lgan. Xitoydan so'ng Anatolia, Hindiston, Gretsiya va shu kabi davlatlar chig'anoq tangalardan keng foydalana boshlashgan. Oradan vaqtlar o'tib X! asrga kelib birinchi qog'oz pullar (jiaozi) ham aynan Xitoyda "Song" sulolasi tomonidan muomalaga kiritilgan. Qog'oz pullar vujudga kelishiga eng asosiy sabab esa tangalar ishlab chiqarish uchun mis yetishmasligi bo'lgan. XII asrga kelib Xitoyning 4ta yirik shahrida qog'oz pul ishlab chiqarish sanoati jadal rivojlangan. Ushbu sohaga ixtisoslashgan yirik fabrikalar faoliyat yurita boshlagan. Hozirgi ko'rinishdagi qog'oz pulga esa XVII asrning 1635-yilida asos solingan. Ushbu ko'rinishdagi qog'oz pul Fransiyaning Kanadadagi mustamlaka hukumatida xizmat olib borayotgan harbiylar uchun muomalaga chiqarilgan. Birinchi banknota esa Stockholms Banco (Stokgolm Banki) tomonidan 1661-yilda ishlab chiqarilgan. 1660-yilda Shvetsariya hukumati tomonidan eski va og'ir tangalar o'rniga birmuncha yengilroqlari ishlab chiqilishi ortidan aholi orasida norozilik kayfiyati yuzaga kedli bunga sabab esa aholining yengil tangalarga o'tish orqali metal qiymatidan yutqazishi bo'ldi. Shu sababdan Yoxan Palmstrux (birinchi Shvetsariya banki asoschisi) depozit sertifikatlarini chiqara boshladi.

Depozit sertifikatlari uning egasiga tangalarda qo'yilgan summani qaytarib olish imkoniyatini berar edi. Ya'ni depozit sertifikatlari ma'lum belgilangan tanga miqdoriga teng hisoblangan. Depozit sertifikatlari o'zining anchagina kompakt ekanligi sababidan tez ommalashdi va ko'p miqdorda ishlab chiqarilishga olib keldi. Natijada deposit sertifikati qiymati tushib ketdi. Aholi o'z tangalarini qaytrib olishni talab qildi va bank inqirozga yuz tutdi. Depozit sertifikatlari faoliyatiga chek qo'yildi. Bank direktori Yoxan Palmstrux noto'g'ri boshqaruvi sababli o'lim jazosiga hukm qilindi. XX asrga kelib barchasi o'zgardi. XX asrning 1966-yiliga kelib Buyuk Britaniyada kredit kartalar vujudga keldi. Kredit karta VISA logotipi ostida chop etila boshlandi. Ushbu karta plastik kartasi bo'lib old tomonida karta raqami tushirilgan. O'sha davrlarda ushbu kartaga egalik qilish "status" belgisi

hisoblangan va zodagon toifa vakillari orasida keng tarqalgan. Birinchi debit karta Buyuk Britaniya tomonidan ishlab chiqarilgan, kartalardagi chiplar esa 2002-yilga kelib o'ylab topilgan. XX asr ohirlari va biz axborot texnologiyalari asri deb biladigan XXI asr boshlariga kelib internet-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan to'lov-tizimida yangi era boshlandi, "e-commerce" tovar va xizmatlar uchun online to'lov tizimi vujudga keldi. Tovlar va xizmatlar uchun online to'lov tizimini biz birinchi bo'lib "Pizza Hut" fast-food tarmog'ining websiteida ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik ushbu tizim sezilarli darajada rivojlanib 1997-yilda "The Coca-Cola Co." kompaniyasi ichimliklar uchun mobil telefon orqali to'lovlar qabul qilishni boshladi. 1998-yilda birinchi online hamyon paydo bo'ldi. Keyingi 20 yillikda elektron to'lovlar rivojlanishi ortidan PayPal, ApplePay, Dwolla, PayMe va shu kabi ko'plab analoglar vujudga keldi.

Shu kabi to'lov tizimlaridan yana biri bu kryptodir. XXI asrning birinchi o'n yilligida vujudga kelgan ushbu valyuta hech qanday fizialogik birlikka ega emas. Shunday bo'lishiga qaramay bu elektron pullar zamonaviy to'lov tizimida o'z o'rniga ega. Hattoki ayrim mamlakatlarda ushbu elektron puldan tovar va xizmatlar uchun to'lov birligi vazifasida foydalanishmoqda. Xususan Norvegiya davlati 2022-yilning yozida davlat hududida krypto valyutalar bilan savdolar amalga oshirilishiga ruxsat berdi. Va yer yuzidagi ushbu ishga qo'l urgan birinchi mamlakat maqomini oldi. Mamlakatimizda 2022-yilning 3-noyabridan boshlab krypto-do'kon faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar berila boshlandi. 31.10.2022 sanasida krypto do'kon faoliyatini amlaga oshirish qoidalari Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazildi ro'yxat raqami №3395 "Crypto Trade NET" va "Crypto Market" larga birinchi litsenziyalar berildi. Shuningdek ushbu ikki do'kon Markaziy Osiyo hududidagi birinchi krypto-do'konlar bo'lishdi. Zamonaviy to'lov tizimlari ishonchni 99.9% holatlarda oqlab kelishmoqda. Yaqin tarixga nazar soladigan bo'lsa. Yer yuzini COVID-19 pandemiyasi qamrab olgan bir davrda insoniyat omma bilan fizialogik aloqalar o'rnatishda bir muncha ehtiyotkor rejimga o'tdi. Aynan o'sha vaziyatda ko'pchilik aholi millionlab bakteriyalarni qamrab olgan naqd pul va

tangalardan voz kechishdi. Zamonaviylashib ulgurgan elektron to'lov tizimlaridan foydalanish ommalashdi.

Shaxsan o'zim ham zamon bilan ham nafas holda naqd pullar va tangalardan foydalanishdan ko'ra online to'lovlar va bank kartalaridan foydalanishni afzal ko'raman. Bunga asosiy sabab esa ularning olib yurish uchun qulayligi, masofadan turib to'lovlarni amalga oshirish qobiliyati va albatta xavfsizlik darajasi yuqoriligidir. Xavfsizlik darajasini yanada oshirish maqsadida yangidan yangi himoya tizimlari ishlab chiqilmoqda va aholi orasida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga yuqori e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://www.alternativepayments.com>
3. <https://www.thelittlelibrary.com>
4. <https://www.daryo.uz>
5. <https://www.riksbank.se>

**МЕТОДЫ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА В ГОСУДАРСТВЕННЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

*Урдабаев Жарылкан Ермекбаевич -
Независимый исследователь
Каракалпакского государственного
университета*

Аудит государственных учреждений является важнейшим инструментом, обеспечивающим прозрачность, ответственность и эффективное использование государственных ресурсов. В отличие от коммерческого сектора, государственные учреждения функционируют в интересах общества и финансируются за счет бюджетных средств. Это делает аудит их деятельности особенно важным для обеспечения доверия граждан и правильного использования налоговых поступлений.

Государственные учреждения также имеют ряд особенностей, которые делают аудит сложным и многогранным процессом. Они часто действуют в

рамках строгих правовых и регулятивных рамок, имеют широкий спектр обязанностей и взаимодействуют с множеством стейкхолдеров. Все это требует от аудиторов наличия глубоких знаний в области публичного управления, законодательства и стандартов аудита.

С учетом повышенной ответственности перед обществом и потребности в прозрачности деятельности государственных органов и учреждений, аудит является неотъемлемым элементом системы публичного управления. Он помогает выявлять неэффективность, злоупотребления и ошибки, а также предоставлять рекомендации по улучшению деятельности и устранению выявленных недостатков.

В контексте глобализации, технологических изменений и усиления гражданской активности потребность в аудите государственных учреждений только растет. Этот аудит дает возможность гражданам, регуляторам и другим стейкхолдерам иметь полное представление о том, как и на что тратятся государственные средства, и как эффективно работают государственные учреждения.

Проведение аудита в государственных учреждениях требует особого подхода из-за особенностей функционирования и финансирования этих организаций. Вот некоторые из основных методов, используемых при аудите государственных учреждений:

1. **Финансовый аудит** - анализ финансовых отчетов учреждения с целью подтверждения их достоверности и соответствия законодательству.

2. **Операционный аудит** - оценка эффективности и эффективности операций учреждения.

3. **Контроль соответствия** - проверка соблюдения учреждением всех законов, нормативных актов и процедур.

4. **Аудит информационных систем** - оценка системы информационной безопасности учреждения, а также анализ, как информационные технологии используются для поддержания операций и отчетности.

5. **Аудит производительности** - анализ, насколько ресурсы учреждения используются рационально и достигаются ли поставленные цели.

6. **Аналитическая проверка** - использование статистических и других методов для анализа данных, что может выявить аномалии или потенциальные проблемы.

7. **Проверка на месте** - непосредственное посещение объектов государственного учреждения (например, офисов или предприятий) для наблюдения за операциями и проверки на практике.

8. **Интервью с персоналом** - обсуждение с работниками различных уровней для получения дополнительной информации или разъяснений по различным вопросам.

Таблица 1.

Сравнительный анализ методов проведения аудита в государственных учреждениях

Метод	Основное назначение	Преимущества	Недостатки
Финансовый аудит	Анализ финансовых отчетов	Тщательная проверка финансов, выявление ошибок и искажений	Ограничен только финансовыми данными
Операционный аудит	Оценка эффективности и эффективности	Выявление мест улучшения операций	Может быть трудоемким
Контроль соответствия	Проверка соблюдения законов	Гарантирует соблюдение стандартов и законов	Меньше фокуса на производительности
Аудит информационных систем	Оценка IT-систем и безопасности	Усиление защиты данных и эффективности IT	Требует специализированных навыков
Аудит производительности	Анализ использования ресурсов	Определение степени достижения целей	Может быть субъективным
Аналитическая проверка	Использование данных для анализа	Быстрое выявление аномалий	Не всегда точное
Проверка на месте	Непосредственное наблюдение	Подробное понимание реальной ситуации	Трудоемкий и ресурсоемкий
Интервью с персоналом	Обсуждение с работниками	Получение информации "из первых рук"	Может быть субъективным

Эта таблица предоставляет краткий обзор каждого метода, выделяя его основное назначение, преимущества и недостатки. В зависимости от

конкретного контекста и задач государственного учреждения, одни методы могут быть предпочтительнее других.

Аудит в государственных учреждениях играет ключевую роль в обеспечении прозрачности, ответственности и эффективного использования государственных ресурсов. Учитывая разнообразие задач и функций государственных учреждений, применяются различные методы аудита, каждый из которых имеет свои особенности, преимущества и недостатки.

Сравнительный анализ этих методов позволяет понять, какой метод наилучшим образом подходит для решения конкретных задач аудита в разных ситуациях. Однако важно помнить, что в реальной практике аудита эти методы часто применяются в комплексе, обеспечивая глубокий и всесторонний анализ деятельности государственного учреждения.

В свете постоянного развития технологий, изменений законодательства и растущих требований общества к прозрачности и ответственности государственного управления, методы аудита будут продолжать адаптироваться и совершенствоваться. Это делает постоянное обучение и профессиональное развитие аудиторов актуальным и важным аспектом их деятельности.

В заключение, аудит государственных учреждений не только служит инструментом контроля и оценки, но и инструментом для улучшения и оптимизации работы государственных органов, способствуя созданию доверия и уверенности в деятельности государства среди граждан.

ПОНЯТИЕ, ЗНАЧЕНИЕ И ПРИЗНАКИ ЦЕННЫХ БУМАГ В СОВРЕМЕННОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОМ ОБОРОТЕ

Касимова С.К.-
Ташкентский финансовый
институт, старший
преподаватель кафедры
“Оценочное дело и инвестиции”

Аннотация: В данной научной статье, в общем виде представлена информация о ценных бумагах в современном предпринимательском обороте. Данные, представленные в научной статье, будут полезны самому широкому кругу читателей как интересующихся тематикой текущего, так и дальнейшего развития ценных бумаг.

Ключевые слова: документарная ценная бумага, бездокументарная ценная бумага, реквизиты, номинальная стоимость, рыночная стоимость.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy biznes aylanmasida qimmatli qog'ozlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ilmiy maqolada keltirilgan ma'lumotlar qimmatli qog'ozlarning hozirgi va kelajakdagi rivojlanishi mavzusiga qiziqqan qiziquvchilar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: hujjatli va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar, rekvizitlar, nominal qiymat, bozor qiymati.

Annotation: This scientific article provides general information about securities in modern business turnover. The data presented in the scientific article will be useful to a wide range of readers, both interested in the subject of the current and future development of securities.

Keywords: documentary security, non-documentary security, details, nominal value, market value.

Как следует из фактического существа тематики данной научной статьи, под понятием ценных бумаг в современном предпринимательском обороте понимается следующее - это, по сути, любые ценные бумаги, которые содержат в себе следующие обязательные составляющие [1]:

✚ содержат в себе определенную совокупность имущественных, либо неимущественных прав, соответствующего субъекта права;

✚ формируются основными, либо дополнительными выпусками;

и наконец, имеют одинаковый объем и сроки осуществления прав, если они были выпущены в рамках одного основного, либо дополнительного выпусков.

Таким образом, на основании всего вышесказанного необходимо резюмировать следующее, ценные бумаги в формате осуществления предпринимательской деятельности, по сути, представляют собой финансово-правовой институт по привлечению заемных средств на рынке, минуя банковские кредиты, которых характеризуются высокими процентами, что в полной мере соответствует всей реальной действительности.

Уже сегодня можно с уверенностью говорить о том, что ценные бумаги представляют собой наиболее универсальный и эффективный инструмент по привлечению финансовых средств, итоговое значение которого будет возрастать с каждым годом.

Уже сегодня можно с уверенностью говорить о том, что итоговое значение ценных бумаг в предпринимательском обороте, позволяет соответствующему субъекту коммерческой деятельности, перейти на новый уровень своего дальнейшего развития.

Тем не менее, далеко на каждый субъект предпринимательской деятельности, имеет право и реальную возможность по изданию и последующему размещению на фондовом рынке ценных бумаг.

В продолжение дальнейшего рассмотрения тематики настоящей научной статьи, также необходимо отметить следующее, нормы текущего гражданского законодательства Узбекистана, все ценные бумаги подразделяют на следующие из них: ценная бумага на предъявителя; ордерная ценная бумага; и наконец, именная ценная бумага.

В продолжение дальнейшего рассмотрения тематики настоящей научной статьи, также необходимо отметить следующее, под правами, которые закрепляют ценные бумаги, понимаются следующие из них:

• право требования определенной денежно-финансовой суммы;

- ✚ право осуществления участия в непосредственном управлении тем или иным субъектом коммерческой деятельности;

- ✚ право на получение прибыли по результатам деятельности соответствующего субъекта коммерческой деятельности;

- ✚ и наконец, право на получение того или иного вида вещного права в безусловном порядке всего рассматриваемого вопроса.

Как и любой иной финансовый инструмент, в том числе и ценные бумаги, обладают своей стоимостью, которую подразделяют на следующие виды:

- ✚ нарицательная стоимость ценной бумаги, которая выражает ее начальную стоимость;

- ✚ рыночная стоимость ценной бумаги, которая выражает ее текущую капитализацию;

- ✚ и соответственно, рыночная цена ценной бумаги, которая выражает ее оборотную стоимость на соответствующей торговой площадке.

При этом также важно отметить следующее, далеко не каждая ценная бумага стоит ровно столько же, сколько указано в ее нарицательной стоимости в силу постоянной изменчивости множества факторов рыночного характера и содержания. Для получения наиболее точной оценки ценных бумаг того или иного субъекта предпринимательской деятельности, в обязательном порядке осуществляют их предварительную оценку, уполномоченным на это действие субъектом права.

К наиболее распространенным и широко применяемым методам оценки ценных бумаг, в настоящее время относят следующие из них:

- ✚ способ оценки ценных бумаг по их ожидаемой доходности на ближайшую перспективу;

- ✚ способ оценки ценных бумаг на основе анализа выплаты дивидендов;

- ✚ и соответственно, применение модифицированной модели оценки ценных бумаг, того или иного субъекта предпринимательской деятельности.

Таким образом, уже сегодня можно с уверенностью говорить о том, что ценные бумаги при всей их эффективности и универсальности, тем не менее,

требуют наличия определенных знаний и умений по их использованию в вопросах реальной действительности. Как правило, субъекты права, осуществляющие свою экономическую деятельность на обороте ценных бумаг, самым детальным образом сначала изучают финансово-экономические и иные аналогичные показатели интересующей компании - эмитента, и лишь затем, осуществляют их покупку. Более того, в таких случаях осуществляют покупку ценных бумаг сразу нескольких субъектов коммерческой деятельности с тем расчетом, чтобы убытки одних, были компенсированы доходами других компаний - эмитентов.

В заключение всего вышесказанного также необходимо отметить следующее, наиболее эффективными и соответственно наиболее распространенными ценными бумагами, является ее бездокументарный формат, поскольку именно он обладает целым рядом несомненных преимуществ, которые заключаются в следующем:

- ✚ отсутствует необходимость в выпуске бумажных вариантов ценных бумаг;

- ✚ самым существенным образом повышается защита от разного рода неправомерных действий;

- ✚ весь объем правовой ответственности за хранение, списание и введение всех иных управомочивающих действий в отношении бездокументарных ценных бумаг, возлагается на уполномоченное лицо в виде держателя реестра ценных бумаг в безусловном порядке всего рассматриваемого вопроса.

Как представляется из фактического существа рассматриваемого вопроса, именно бездокументарные ценные бумаги представляют собой наиболее эффективный способ их использования как об этом и было сказано выше в формате данной научной статьи, который и далее будет всячески развиваться и совершенствоваться.

Даже при наличии значительного числа преимуществ у бездокументарных ценных бумаг, их бумажный или по иному документарный формат, в ближайшей перспективе не исчезнет, поскольку они также

выполняют существенную часть вопросов, которые невозможно исполнить, никаким иным образом.

Таким образом, правовое понятие, значение и признаки ценных бумаг в современном предпринимательском обороте, представляют большое практическое значение, которое с каждым годом только будет продолжать увеличиваться и расширяться.

Использованной литературы:

1. Курилова А.А., Полтева Т.В. Сравнительная характеристика моделей оценки рыночной стоимости ценных бумаг // Вестник НГИЭИ. 2016. № 5 (60). С. 34-40.
2. Козлова А.С., Тараскин Д.С. Методика формирования портфеля ценных бумаг на основе риска, доходности и справедливой стоимости компании // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. 2018. № 1 (70). С. 104-109.
3. Гусева И.А. Финансовые рынки и институты. - М.: Юрайт, 2017. - 348 с.
4. Рынок ценных бумаг / Под общ. ред. Н.И. Березова. - М.: Юрайт, 2018. - 444 с.

MOLIYA BOZORI QONUNCHILIGINING EKSPERTIZASI: TARTIB-TAOMILLAR TAHLILI

***Xujanazarov Azizjon Anvarovich, -
Toshkent davlat yuridik universiteti
katta o'qituvchisi, yu.f.f.d (PhD)***

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi qonunchilik asosida moliya bozoriga oid normativ-huquqiy hujjatlarning vakolatli organlar tomonidan moliyaviy-iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishga oid tartib-taomillar tahlili atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliya, iqtisod, ekspertiza, qonun, qonunchilik, norma.

Аннотация: В данной дипломной работе на основе действующего законодательства подробно анализируются процедуры проведения финансово-экономической экспертизы нормативных правовых документов, связанных с финансовым рынком, уполномоченными органами.

Ключевые слова: финансы, экономика, экспертиза, право, законодательство, норма.

***Abstract:** In this thesis, based on the current legislation, the analysis of the procedures related to the financial and economic expertise of the regulatory legal documents related to the financial market by the authorized bodies is detailed.*

***Key words:** finance, economy, expertise, law, legislation, norm.*

Norma ijodkorligi faoliyatining asosiy bosqichlaridan biri ekspertiza bo‘lib, unda normativ-huquqiy hujjatlarni sohasiga qarab tegishli idoralar tomonidan tahlildan o‘tkaziladi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organning qaroriga ko‘ra iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik ekspertizadan, shuningdek boshqa turdagi ekspertizalardan o‘tkazilishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va (yoki) shaxslar ekspertlar sifatida jalb qilinadi. Ekspertiza o‘tkazish uchun olimlar va mutaxassislar, shu jumladan boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Ekspertlar normativ-huquqiy hujjat loyihasiga baho berishda mustaqildir va ekspertiza o‘tkazish topshirig‘ini bergan organning nuqtai nazari bilan bog‘liq bo‘lmaydi[1].

Qomusiy lug‘atlarda “**moliya bozori**” tushunchasiga – oldi-sotdi ob’ekti pul (pulga tenglashtirilgan qog‘ozlar) bo‘lgan bozor, deb ta’rif berib o‘tilgan. Bu bozorda moliya mablag‘larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo‘lgan munosabatlar; pul mablag‘larining uni jamg‘arganlardan qarzga oluvchilarga o‘tishini ta’minlaydigan bozor institutlari. Ortiqcha mablag‘larga ega

bo‘lgan xo‘jalik sub’ektlari o‘z moliyaviy resurslarini mablag‘larga muhtoj sub’ektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o‘tkaziladi[2].

Endi, ushbu sohaga oid qonunchilik hujjatlari va ularning moliyaviy-iqtisodiy tahlili (ekspertizasi) jarayoniga to‘xtalib o‘tsak.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasiga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organga kiritilguniga qadar, manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan majburiy tartibda kelishiladi.

Ayni vaqtda, “moliya bozori”ga oid qonunchilik hujjatlari kelishiladigan manfaatdor davlat organi bu O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 22 martdagi 242-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining reglamenti 33-bandiga ko‘ra, Ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarining quyidagi mazmundagi loyihalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan majburiy tartibda kelishiladi:

- barcha loyihalar va rivojlantirish davlat dasturlari va investitsiya dasturlariga oid loyihalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlaridan mablag‘lar ajratish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tijorat banklaridagi maxsus maqsadli hisobvaraqlarini ochish va (yoki) yopish;
- davlat xaridlarini amalga oshirish masalalariga oid loyihalar o‘z navbatida[3].

Reglamentga ko‘ra, Kelishish uchun yuborilgan hujjatlar loyihalariga (ularning nusxalariga) davlat organlari va boshqa tashkilotlarning birinchi rahbarlari (istisno hollarda – ularning birinchi o‘rinbosarlari) tomonidan qonunlar loyihalari bo‘yicha – yetti kalendar kun mobaynida, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalari bo‘yicha – uch kalendar kun mobaynida, Vazirlar Mahkamasining

farmoyishlari bo'yicha – ikki kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda viza qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari loyihalarini kelishish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti bilan belgilanadi[4].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining reglamenti 49-bandiga ko'ra, qonunchilik hujjati loyihasining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi u huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentiga kiritilgunga qadar amalga oshiriladi.

Hujjatlar loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi birinchi bosqichda — tegishli tarkibiy bo'linma tomonidan, ikkinchi bosqichda — Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyati va boshqa tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi[5].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2019 yil 19 martdagi 01-11/01-05-son qarori bilan “Qonunchilik hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash metodikasi” tasdiqlangan.

Ushbu metodikaga ko'ra, qonunchilik hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash— loyihalar va amaldagi qonunchilik hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni bevosita yoki bilvosita cheklaydigan holatlarni aniqlash faoliyati hisoblanadi.

Loyihalar va amaldagi qonunchilik hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni bevosita yoki bilvosita cheklaydigan holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish hamda tegishli choralar ko'rish maqsadida amalga oshiriladi[6].

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, moliya bozorini tartibga soluvchi qonunchilik, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy ekspertizadan o'tkazilguniga

qadar belgilangan tartibda moliyaviy-iqtisodiy ekspertizadan sifatli va har tomonlama o'tkazilishi, kelgusida samarali qonunchilik yaratilishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. <https://lex.uz/docs/5378966>
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/moliya-bozori-uz/>
3. <https://lex.uz/docs/4253101#4255619>
4. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2019 y., 09/19/242/2820-son*
5. <https://lex.uz/docs/4253101#4255619>
6. <https://lex.uz/docs/4294517#5642947>

**QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA
VAKOLATLI DAVLAT ORGANLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Qahramonova Xusnora Asad qizi-
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universteti
Moliya buxgalteriya hisobi
fakulteti MT-91 guruh talabasi

Annotatsiya: *Qimmatli qog'ozlar, Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organ, Qimmatli qog'ozlar bozori, Davlat boshqaruvi organlari, Qimmatli qog'ozlar komissiyalari.*

Аннотация: *Ценные бумаги, уполномоченный государственный орган по регулированию рынка ценных бумаг, Рынок ценных бумаг, Органы государственного управления, Комиссии по ценным бумагам.*

Abstract: *Securities, authorized state body for regulation of the securities market, Securities market, State management bodies, Securities commissions.*

Kalit so'zlar: *Qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, korxonada kapitali, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar, davlat boshqaruv organi*

Qimmatli qog'ozlar - o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va boshqalar). Qimmatli qog'ozlar taqdim etuvchi yoki egasining ayrim huquqlari qayd etilgan maxsus tarzda rasmiylashtiriladigan moliyaviy hujjat. Qimmatli qog'ozlar ma'lum shaxs nomiga yozilgan (isimli), dastlab sotib olgan shaxs nomiga yozilgan va uning roziligi bilan

boshqa shaxsga o'tkaziladigan orderli va egasi yozilmaydigan (egasi ko'rsatilmaydigan) turlarga bo'linadi.

Korxonalarining aksiya, obligatsiyalari va davlat obligatsiyalari qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar korxonada kapitalida qatnashish yoki pulni ssudaga taqdim etish va dividend yoki foiz tarzida daromad olish huquqini beradi. Qimmatli qog'ozlar o'z egasiga daromad keltirgani uchun fond birjasida ma'lum kurs bo'yicha oldi-sotdi qilinadi (

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi:

qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni litsenziyalaydi;

investitsiya maslahatchilarining xabarnomalarini qabul qiladi, ularning reyestrini yuritadi;

investorlarning hamda qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va tartibga solish hamda uning ishtirokchilari faoliyati sohasida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqadi;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga doir talablarni, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi, ularni attestatsiyadan o'tkazadi va malaka guvohnomalari beradi;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) chiqarish qoidalarini, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini, qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar o'tkazilishini hisobga olish va ular yuzasidan hisobot berish standartlarini, qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni hisobga olish registrini yuritish tartibini tasdiqlaydi;

qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi hamda aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikning davlat boshqaruvi organlari, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda qonunchilikning buzilganligi aniqlangan hollarda ular yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan xulosalar va ko'rsatmalar chiqaradi, qoidabuzarlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq sanksiyalar qo'llaydi;

o'z mablag'lari yetarli darajada bo'lishiga doir majburiy normativlarni va qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklarni cheklovchi boshqa ko'rsatkichlarni, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) operatsiyalar yuzasidan hujjatlarni saqlash muddatlarini belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi:

investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining hamda davlatning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudda da'vo qo'zg'atishga;

qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi aniqlangan taqdirda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisining faoliyati to'xtab qolishiga sabab bo'lmaydigan ayrim operatsiyalarini o'z vakolatlari doirasida to'xtatib turishga;

davlat boshqaruvi organlaridan, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilaridan axborot va hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida so'rash hamda olishga;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni qo'shib olib borish tartibini belgilashga;

qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning, qimmatli qog'ozlar savdolari va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarga hisob-kitob-kliring xizmati ko'rsatishning yagona tizimini yaratish bo'yicha davlat tomonidan tashkil etiladigan korxonalar faoliyatining tartibini belgilashga;

Xulosa qilib aytishim mumkinki: Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti a'zolari bo'lgan boshqa davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga

solish bo'yicha vakolatli organlari bilan maxfiy va boshqa turdagi axborotni belgilangan tartibda ayirboshlashga haqli. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, tashkilotning aktivlari iqtisodiy hayotga taalluqli mulk va qadriyatlar yig'indisi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Otabek Nazirov, Kapital bozorni rivojlantirish agent ligasi direktori.*
<https://kun.uz/news/2020/11/29/sukuk-ozbekiston-bozoridagi-yangi-moliyaviy-instrument-otabek-nazirov-bilan-suhbat>.

2. *Vahobov A., Jumayev N., Burxonov U. Xalqaro moliya munosabatlar.*
Darslik. -T.: "Sharq", 2003.

3. *"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston*

4. *Respublikasining Qonuni, 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son.*

КОРХОНА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ САМАРАЛИ ТИЗИМИНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИ

*Қиличев А. – ТДИУ мустақил
тадқиқотчиси*

Жаҳон иқтисодиётида бугунги кунда кескин рақобат муҳити, инновацион тараққиёт, молиявий технологиялар қўлланиши доирасининг кенгайиб бориши натижасида корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш юзасидан илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш масалалари корпоратив молия, молиявий менежментни самарали бошқариш услубиёти ва амалиёти нуқтаи-назаридан кам тадқиқ қилинган мавзулар қаторига киради. Корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш масалалари яширин иқтисодиётнинг олдини олиш, корхонанинг инвестицион жозибadorлигини оширишга хизмат қилади. Бу эса, ўз навбатида, халқаро миқёсда, мунтазам

равишда корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш борасида илмий тадқиқотлар олиб боришни тақозо этади.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш тизимида амалга оширилаётган ислохотлар, хусусан, корпоратив молиявий менежмент самарали усуллари қўллаш, корхона маблағларининг мақсадли сарфланиши устидан корпоратив назорат ўрнатиш ва уни кучайтириш, бу жараённинг очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш давлат сиёсати даражасидаги муҳим масалалардан бирига айланди.

Шундай қилиб, Ўзбекистон Республикасида корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш масалаларининг назарий, методологик ва амалий жиҳатлари махсус, мустақил тадқиқот объекти сифатида етарли даражада ўрганилмаганлиги тадқиқотимиз мазкур параграфда ёритиладиган масалаларнинг илмий-амалий аҳамиятга эга эканлигини белгилаб беради.

Ишлаб чиқариш-иқтисодий тизим фаолияти ва тараққиётининг муҳим тавсифларидан бири – унинг молиявий барқарорлиги ҳисобланади. Иқтисодий салоҳиятни ушлаб туриш муаммосининг алоҳида аҳамияти ва зарурлиги хўжалик юритиш шароитлари ва иқтисодий конъюнктуранинг кескин ўзгариши кузатилган ҳолатларда кўпроқ намоён бўлади³⁵.

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар катта иқтисодий имкониятларга эга бўлсада, бу жараёнда улар давлат кўмагига муҳтождир. Ҳозирги шароитда иқтисодий фан олдидаги муҳим вазифалардан бири – корхоналари тараққиётининг молиявий муаммоларини, жумладан корхоналар молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш юзасидан йўриқларни ишлаб чиқиш ҳамда назарий асослашдир.

Корхоналар нафақат иқтисодий тадбирлар тизимини, балки

³⁵Абрютина М.С. «Современные подходы к оценке финансовой устойчивости и платежеспособности компании» / М.С. Абрютина // Финансовый менеджмент. – 2016. – № 6.-с.23-27.

фаолиятнинг турли жабҳаларига оид муаммолар бўйича, жумладан, корхоналар ташкилий шакллари ташлаш ва улар кўламини аниқлаш, алоҳида тармоқларда корхоналар тараққиёти хусусиятларини белгилаш, бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар фаолиятининг молиявий натижалари ва молиявий ҳолатини иқтисодий таҳлил қилиш ва молиявий назорат ўрнатиш услуби асосида корхоналар хўжалик молиявий фаолиятини бошқариш каби масалалар бўйича таклифлар ишлаб чиқиши талаб этмоқда. Бу ҳолат шу билан белгиланадики, корхоналар янги иқтисодий шароитларда ишлаб чиқаришнинг кўламини, хўжалик мустақиллигидаги хусусиятларига кўра нисбатан янгича услубий ёндашувни талаб этади.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлаш тизимида амалга оширилаётган ислохотлар, хусусан, корпоратив молиявий менежмент самарали усуллари қўллаш, корхона маблағларининг мақсадли сарфланиши устидан корпоратив назорат ўрнатиш ва уни кучайтириш, бу жараённинг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш давлат сиёсати даражасидаги муҳим масалалардан бирига айланди.

Шундан келиб чиқиб, ушбу масаланинг тадқиқ мақсади - корхона молиявий барқарорлигини бошқариш тизимининг шаклланиши ва самарали фаолиятини таъминлашнинг замонавий тенденцияларини ёритишга қаратилган илмий-амалий тавсияларни ишлаб чиқишдан иборат. Бунда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратилиши зарур:

Более половины коммерческих банков, входящих в топ-20 (по рейтингу Рейтингового агентства «Эксперт-Ра») уже выдают зеленые и социальные кредиты⁴⁵. При этом, если по «зеленому» финансированию Российская Федерация отстает по объемам от наиболее передовых стран, что видно из данных табл.1, то темпы наращивания, заданные в последние годы, довольно значительные. Так, за период с июля 2021г. по июль 2022г. рынок «зеленого»

⁴³ Рейтинговое агентство «Эксперт-РА» https://raexpert.ru/researches/sus_dev/esg2021/#part2

⁴⁴ Методология присвоения ESG- рейтинга
<https://raexpert.ru/docbank//591/eb8/054/ee6a529ea8f7f705810e0f8.pdf>

⁴⁵ Рейтинговое агентство «Эксперт-РА» https://raexpert.ru/researches/sus_dev/esg2021/#part2

кредитования составил 1,2 трлн. руб., то по данным с июля 2022г. по июль 2023г. прирост «зеленого» кредитования составил 42% (1,7 трлн.руб.), при этом основной объем (37%) от выданных кредитов составляют кредиты в недвижимость⁴⁶.

Следует отметить, что принятие общего вектора на следование ESG-принципам усложнено в Российской Федерации для отечественных хозяйствующих субъектов рядом обстоятельств:

Отсутствует само нормативное понятие ESG-банкинга, что порождает разночтение в трактовке данного понятия и усложняет включение деятельности в данной области в стратегию развития коммерческих банков. Отсутствует единообразие подхода к оценке факторов, отражающих следование ESG- принципам, что приводит к невозможности адекватного сравнения разных контрагентов, что вытекает в дополнительную сложность и для проведения оценки разными коммерческими банками, так как оценка одного банка может существенно отличаться от оценки, полученной другим банком. Не все кредитные учреждения следуют рейтингу, определяемого рейтинговым агентством «Эксперт-РА», предпочитая методiku, принятую внутри коммерческого банка.

Отсутствие единого подхода к организации «зеленого» кредитования, что также вытекает из недостаточной прорегулированности как интеграции ESG-принципов в деятельность отечественных организаций в целом, так и ESG-банкинга в частности.

Тем не менее то обстоятельство, что вектор экономического взаимодействия развернут на Восток, не спровоцировало отказ отечественных организаций от следования ESG-принципам в своей деятельности, так как организации стран Востока в полной мере интегрированы в мировую финансовую систему и активно применяют и принципы социальной ответственности в ведении бизнеса, и различные «зеленые» финансовые

⁴⁶⁴⁶ Рейтинговое агентство «Эксперт-РА» https://raexpert.ru/researches/sus_dev/esg_bank_1h2023/

инструменты, следовательно, данное направление продолжит поступательное развитие и интеграцию в отечественные бизнес-модели.

XALQARO IPO AMALIYOTI TAHLILI VA NATIJALARI

Sadullayeva Mohinur G'ayratjon qizi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali o'qituvchisi.

Annotatsiya. *Aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyati davomida yuqori darajada moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezishadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirishda korporativ tuzilmalar tomonidan kapital jalb qilish orqali hal etishadi. Bugungi kunda moliya bozorida kapital jalb qilishning eng keng tarqalgan zamonaviy usullaridan biri sifatida aksiyalarni dastlabki ommaviy joylashtirish amaliyotlarini (IPO) tashkil etish orqali kapital jalb qilish samarali hisoblanadi. Moliya bozorida aksiyalarni dastlabki ommaviy joylashtirish (IPO) orqali katta miqdorda kapital (mablag'lar) jalb qilish imkoniyati mavjudligi sababli, bu amaliyotning tashkiliy xususiyatlari, bosqichlari, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasini oshirish, o'zining xalqaro imijini shakllantirish kabi jihatlari, yirik xalqaro IPO operatsiyalarini o'rganish va tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.*

Tayanch so'zlar: *moliya bozori, aksiyadorlik jamiyatlari, Bozor kapitallashuvi, aksiyalarni dastlabki ommaviy joylashtirish.*

Abstract. *Joint-stock companies need a high level of financial resources during their activities. These needs are met by corporate structures by attracting capital. As one of the most common modern methods of raising capital in the financial market today, capital raising through initial public offering (IPO) operations is considered effective. Since there is an opportunity to attract a large amount of capital (funds) through the initial public offering of shares (IPO) in the financial market, aspects such as organizational characteristics, stages of this practice, increasing the level of effective use of existing opportunities, forming one's international image, large international IPO It is important to study and analyze operations.*

Key words: *financial market, joint stock companies, market capitalization, initial public offering of shares.*

Аннотация. *Акционерным обществам в ходе своей деятельности необходим высокий уровень финансовых ресурсов. Эти потребности удовлетворяются корпоративными структурами за счет привлечения капитала. В качестве одного из наиболее распространенных современных*

методов привлечения капитала на финансовом рынке сегодня эффективным считается привлечение капитала посредством операций первичного публичного размещения акций (IPO). Поскольку существует возможность привлечения большого объема капитала (средств) посредством первичного публичного размещения акций (IPO) на финансовом рынке, то такие аспекты, как организационные особенности, этапы, повышение уровня эффективного использования существующих возможностей, формирование собственного капитала международный имидж, крупное международное IPO Важно изучать и анализировать операции.

Ключевые слова: *финансовый рынок, акционерные общества, рыночная капитализация, первичное публичное размещение акций.*

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti qisqacha IPO (ing. (Initial Public Offering)) deb yuritiladi. IPO emitent tomonidan aksiyalarni bozorda birlamchi ochiq obuna usulida joylashtirish bo‘lib, bu jarayon davomida ular investorlarning keng doirasiga kirib boradilar va fond birjasida erkin savdoni amalga oshiradilar. IPO deganda emitent kompaniyaning aksiyalarini ochiq bozorda birinchi marta sotuvga chiqarishi tushuniladi. Shu yo‘l bilan kompaniya ushbu kompaniya aksiyalariga qiziqib qolgan investorlar ularni fond birjasida erkin sotib olishlari mumkin. Kompaniya qimmatli qog‘ozlarining birjada muomalaga chiqishi natijasida ularni erkin savdo-sotiq predmeti bo‘lishiga, likvidliligi oshishiga va ularning bozor bahosining maksimal o‘shishiga olib keladi. IPO yordamida kompaniyada joriy xarajatlarni qoplashga va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoni mavjud bo‘ladi. IPO uchun talab qilinadigan jarayonlar va ularning amalga oshirilishi kompaniyaning shaffofligini oshiradi va uning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi⁴⁷.

IPO samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

Agar kompaniyaning bozor kapitallashuvi birinchi ommaviy taklifdan keyin 30 kun ichida sanoat raqobatchilarining bozor kapitallashuviga teng yoki undan yuqori

⁴⁷Elmirzayev S.E. TMI, i.f.d. Boyev B.J. TMI, AKSIYALARNI OMMAVIY JOYLASHTIRISH OPERATSIYALA RINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018 yil. B.8; <http://interfinance.uz/en/arxiv/238-ikkiz20182>

bo'lsa, IPO muvaffaqiyatli hisoblanadi. Aks holda, IPOning ishlashi gumon ostida qoladi⁴⁸.


***Bozor kapitallashuvi = aksiya bahosi x Kompaniyaning muomaladagi
aksiyalarining umumiy soni***

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan aktsiyalarni soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish yo'li bilan ommaviy joylashtirish IPO uchun asos bo'lishi mumkin. IPOni o'tkazish ma'lum tartibotga rioya etishni, ya'ni xalqaro amaliyotda "Road Show" deb nomlangan reklama kampaniyasini amalga oshirishni talab etadi. Albatta, bankning aktsiyalarini fond birjasida joylashtirish unga katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, aktsiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishga tayyorgarlikni boshlashdan avval, tijorat banki strategik maqsadlarini belgilab olishi zarur. Buning uchun, IPO tartibotini o'tkazadigan har qanday aktsiyadorlik jamiyati investitsiya loyihasini ishlab chiqishi va uni bo'lajak investorlarga taqdim etishi lozim. Chunki kelgusida IPO orqali aktsiyalarni sotib olmoqchi bo'lgan investorlar, shu jumladan aholi va tadbirkorlik sub'ektlari ular qo'ygan moliyaviy mablag'lar qanday maqsadlarga sarflanishi xususida tasavvurga ega bo'lishi darkor. Fikrimizcha banklar aktsiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilishi bir nechta bosqichlarda amalga oshirishi zarur⁴⁹.

CapitalIQ va PREQVECA ma'lumotlar bazasiga asosan 2000-2020- yillar oraliqda tahlil qiladigan bo'lsak, jahondagi banklarning 305 ta IPOsi kiritilgan.

⁴⁸ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/equities/ipo-process/>

⁴⁹ Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2022. ISSN: 2181-1016 TIJORAT BANKLARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHDA IPO (INITIAL PUBLIC OFFERING)NING O'RNI Qurbonov Rufat Baxtiyorovich <http://interfinance.tfi.uz/wp-content/uploads/2022/07/38945a5c-4145-4e8e-93f9-4d63b26f46a1.pdf>



1-rasm. IPO bozorida tijorat banklarining ipolari hajmi (mln dollarda)⁵⁰

Banklarning IPOlari davomida jalb qilingan mablagʻlarning umumiy hajmi 218 milliard dollarni tashkil etgan. Oxirgi 10 yil davomida tijorat banklari IPO bozorida hajmi oʻzgarib turganini guvohi boʻlishimiz mumkin. Eng katta hajmga 2010-yilda erishilgan boʻlsa, eng past hajm 2012-yilda boʻlgan. Bular shundan dalolat beradki, xorijiy tijorat banklar IPO bozorida faol qatnashib kelayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlar asosida xulosa sifatida quyidagilarni alohida aytishimiz mumkin:

1. Mamlakatimizda soʻngi yillarda tijorat banklari tomonidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish boʻyicha olib borilayotgan islohotlarda rivojlangan davlatlar amaliyotidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini alohida taʼkidlashimiz lozim.

Bu usul orqali oʻzlariga tegishli aktsiya paketlarini dastlabki ommaviy joylashtirishi natijasida oʻzining kapitallashuv darajasini oshirishi mumkin. Buning natijasida esa tijorat bank qoʻshimcha moliyaviy resurslarga ega boʻladi.

Xorijiy bank amaliyotida juda rivojlangan usul IPO amaliyoti hisoblanadi. Bu amaliyotni respublikamiz bank amaliyotida qoʻllash uchun banklar aksiyalarining

⁵⁰ Qurbonov Rufat Baxtiyorovich Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishda ipo (initial public offering)ning oʻrni Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2022. ISSN: 2181-1016 6-bet. <http://interfinance.tfi.uz/wp-content/uploads/2022/07/38945a5c-4145-4e8e-93f9-4d63b26f46a1.pdf>

dastlabki ommaviy joylashtirilishi bosqichlardan foydalanishni samarali tashkil etish lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlari kapitallashuv darajasini oshirish zamonaviy usullari hisoblangan IPO va SPO amaliyotlaridan keng foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

BIZNES LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TAQSIMLANMAGAN FOYDANING O'ZIGA XOSLIKLARI

*Razzakov Jasur Xamraboyevich -
Toshkent moliya instituti dotsenti, PhD*

***Annotatsiya.** Mazkur ma'ruza tezisida biznes loyihalarini moliyalashtirish manbalari, xususan, taqsimlanmagan foydaning o'ziga xos xususiyatlari turi iqtisodchi olimlar fikrlari asosida o'rganilgan. Shuningdek, biznes loyihalarini moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydaning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.*

***Tayanch so'zlar:** biznes loyihalari, biznes loyihalarini moliyalashtirish, taqsimlanmagan foyda, moliyalashtirish manbalari.*

***Аннотация.** В тезисе на основе мнений экономистов изучаются источники финансирования бизнес-проектов, в частности, особенности нераспределенной прибыли. Кроме того, выделены преимущества и недостатки нераспределенной прибыли при финансировании бизнес-проектов. На основе проведенных исследований формируются соответствующие выводы.*

***Ключевые слова:** бизнес-проекты, финансирование бизнес-проектов, нераспределенная прибыль, источники финансирования.*

***Abstract.** In the thesis, the sources of financing business projects, in particular, the specific characteristics of retained earnings are studied based on the opinions of economists. Moreover, the advantages and disadvantages of retained earnings in financing business projects are highlighted. Relevant conclusions are formed based on the conducted research.*

***Keywords:** business projects, financing of business projects, retained earnings, sources of financing.*

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga e'tibor qaratisa, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy ishtirokchilar sifatida korporativ sektor vakillari namoyon

bo‘ladi. Shu sababli so‘nggi o‘n yilliklarda biznesni rivojlantirish va uni samarali moliyalashtirish masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar natijasi o‘laroq bugungi kunda xalqaro amaliyotni biznesni moliyalashtirishning ko‘plab turlari yuzaga kelgan. Kompaniya o‘zining daromadlilik, mamlakatda fond bozorining holati, moliyaviy va investitsion infratuzilmaning imkoniyatlari, moliyalashtirish manbalaridan jalb qilinadigan kapital bahosi va ularning xususiyatlari kabilardan kelib chiqqan holda moliyalashtirish manbasini tanlashi mumkin.

Biznesni moliyalashtirish manbalari tasnifi keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan biznesni moliyalashtirishning turli manbalari bo‘yicha ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan. M. Staniewski va boshqa tadqiqotchilar olib borgan izlanishlarga ko‘ra “kapital bozori iqtisodiy o‘shishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Tegishli moliyalashtirish shaklini tanlash biznesning boshlang‘ich bosqichida ham muvaffaqiyatning asosiy hal qiluvchi omili bo‘lib chiqadi. Ko‘pgina mamlakatlar amaliyotida eng katta kapital manbalari tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisoblanadi”[1]. Ko‘plab korporativ tuzilmalar biznesni moliyalashtirishda kapital bozoriga murojaat qilayotgan bo‘lsada, kompaniya o‘ziga mos moliyalashtirish manbasidan kapital jalb qilishi zarur. Chunki moliyalashtirish manbalarining hammasi ham kompaniyaga mos kelavermaydi.


O. Olamide “aniq reja asosida moliyalashtirilmagan kompaniya raqobatchilar va bozor yetakchilari bilan raqobatga kirishishda muammolarga duch keladi. Shu sababli biznes muvaffaqiyatiga erishishda aniq reja asosida moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratish lozim”[2], deya fikr bildirgan. Bundan ko‘rinadiki, kompaniya tomonidan o‘ziga mos moliyalashtirish manbasining tanlanishi kompaniyaning bozordagi o‘rnini belgilab berishga xizmat qiladi.

S. Hahn va S. Hossain “moliyaviy imkoniyatlar kompaniyaning strategik rivojlanishi va o‘shishida muhim rol o‘ynaydi. Yirik kompaniyalarning katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lishi tadbirkorlik tashabbuslarini va ish bilan ta'minlashni rag‘batlantiradi. Biroq bunday imkoniyatlar mavjud bandlik va ularning

ishlab chiqarish darajasi kabi biznes xususiyatlariga bog‘liq. Kichik korxonalar esa bozor o‘zgarishlariga tez moslashuvchan bo‘lsada, strategik kamchiliklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan kapital cheklovlariga duch keladi”[3], deya ta’kidlashgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlari va yondashuvlarini inobatga olgan holda ta’kidlash lozimki, biznesni moliyalashtirishda kompaniya o‘zining imkoniyatlari, mavjud moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlari, shuningdek, kapital bahosini inobatga olishi muhim hisoblanadi.

Biznesni taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirish amaliyotlari keng uchraydi va buning bir qator afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud (1-rasm). Xususan, taqsimlanmagan foyda kompaniya uchun mavjud bo‘lgan doimiy mablag‘ manbai hisoblanadi, Taqsimlanmagan foyda foizlar, dividendlar yoki o‘zgaruvchan xarajatlar ko‘rinishidagi aniq xarajatlarni o‘z ichiga olmaydi, shuningdek, mablag‘lar ichki shakllantirilganligi sababli ko‘proq operatsion erkinlik va moslashuvchanlik mavjud hamda biznesning kutilmagan yo‘qotishlarini qoplash imkoniyatini oshiradi. Taqsimlanmagan foyda kompaniya aksiyalari bozor qiymatining oshishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq, biznesni moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydadan foydalanishning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, taqsimlanmagan foydani haddan tashqari oshirish aksiyadorlarning noroziligiga olib kelishi mumkin, chunki buning natijasida aksiyadorlar kamroq dividend olishlari mumkin. Ikkinchidan, taqsimlanmagan foyda noaniq mablag‘ manbai hisoblanadi, chunki biznesning foydasi o‘zgarib turadi. Uchinchidan, taqsimlanmagan foyda bilan bog‘liq moliyalashtirish imkoniyati ko‘plab kompaniyalar tomonidan tan olinmaydi.



1-rasm. Biznesni moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydaning afzalliklari va kamchiliklari⁵¹

Biznesni moliyalashtirish manbalari tasnifi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida qator xulosalar shakllantirilgan. Birinchidan, biznesni moliyalashtirishda kompaniya o'zining imkoniyatlari, mavjud moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlari, shuningdek, kapital bahosini inobatga olishi muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, aniq reja asosida moliyalashtirilmagan kompaniya raqobatchilar va bozor yetakchilari bilan raqobatga kirishishda muammolarga duch keladi. Shu sababli biznes muvaffaqiyatiga erishishda aniq reja asosida moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Uchinchidan, biznesni moliyalashtirishda kompaniyalar istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda zarur mablag' hajmi hamda daromadlilikidan kelib

⁵¹ Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

chiqqan holda bir vaqtning o'zida ichki va tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanishi kompaniyaning faoliyat samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marcin W. Staniewski, Tomasz Szopiński, Katarzyna Awru. *Setting up a business and funding sources.* // *Journal of Business Research*, 69 (2016) 2108–2112. https://www.researchgate.net/publication/287966741_Setting_up_a_business_and_funding_sources/link/5a039b94aca272b06ca41f54/download

2. Olusanmi Olamide. *FUNDING YOUR BUSINESS.* // *Covenant University, Raising a new Generation of Leaders*, 2021. https://www.researchgate.net/publication/351869954_Funding_your_Business/link/60ae1145a6fdcc647edc34c8/download

3. Sejin Hahn, Sarafat Hossain. *Impacts of COVID-19: Funding Business Operations and Adapting Marketing Strategies.* // *Umeå School of Business and Economics Master's Thesis in Business Administration I, 15 Credits, Spring 2021.*

MOLIYA BOZORI VA UNDAGI QIMMATLI QOG'OZLARNING TUTGAN O'RNI

Saidov Jasur Latipbayevich –
TDIU, Moliya kafedراسى asistenti,
Mamadaliyev Xolmurod Shuxrat o'g'li –
Moliya va Buxgalteriya hisobi fakultiteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Toshkent fond birjasi, Moliya bozorlari va undagi aksiyalar va obligatsiyalar, Qimmatli qog'ozlar haqidagi tushuncha va ilmiy nazariyalar, Moliya bozorining rivojlanish ahamiyatining dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Aksiya, obligatsiya, brokerlar, forward, fyuchers, qimmatli qog'oz, dividend, foyda, subsidiya va valyuta.

Ключевые слова: Акции, облигации, брокеры, форварды, фьючерсы, акции, дивиденды, прибыль, субсидии и валюта.

Key words: Stock, bond, brokers, forward, futures, stock, dividend, profit, subsidy and currency.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan, taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga chiqayotgan bir davrda yashar ekanmiz, hozirda kun sayin

rivojlanayotgan Moliya bozori haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lib borayapmiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-oktabr kuni o'tkazgan yig'ilishida fond bozorini rivojlantirish to'grisidagi masalani oldingi surdi[1].

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim vositasi deb aytishimiz mumkin. Shu sababdan fond bozorini isloh qilishning dastlabki bosqichi sifatida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Moliya bozori – moliyaviy instrumentlardan foydalanish asosida moliyaviy vositachilar orqali vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash yuz beradigan bozordir.

«Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori (PQ–5073-son, 13.04.2021-y.) qabul qilindi.[2] Qarorga ko'ra, 2021-yil 1-maydan Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tugatilib, uning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vazifa, funksiya va vakolatlari Moliya vazirligiga o'tkaziladi.


2021 yilning oktyabridan 2022 yilning fevral oyi yakuniga qadar Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, AQSH Savdo Departamenti va AQSH G'aznachiligi (xususan AQSH kapital bozoridagi SEC, FINRA va CFTC kabi tartibga soluvchi organlar) texnik ko'magini jalb qilgan holda, ilg'or xorijiy tajriba asosida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan “Kapital bozori to'g'risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Vazirlik qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, tartibga solish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Vazirlik markaziy apparati tuzilmasida Kapital bozorini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Departamentning o'z faoliyatini bevosita hududlarda olib boradigan xodimlari mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha Moliya vazirligi markaziy apparati xodimlariga tenglashtiriladi.

- Toshkent Respublika birja fondida ro'yhatga olingan kompaniyalar soni 114 nafarni tashkil qiladi.

UCI ▾

657.35 ▼ (2.6) 22.09.2023

1 кун 1 ой 1 йил



• Birja savdolarida obligatsiyalarini chiqargan kopmaniyalar soni 24 nafarni tashkil qiladi. Hozirgi kunda Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi birja a'zolari (brokerlar) 30 nafarni tashkil qiladi.

Fond bozorini rivojlantirish mavzusining dolzarbligi shundaki, odatda fond bozorida ishtirok etuvchi tijorat banklari milliy iqtisodiyotimizning real sektorini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Fond bozorini rivojlantirish yordamida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakati ta'minlanadi va moliya resurslarini to'xtovsiz shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. Investitsiyaga aylanayotgan pulning xo'jalikning turli sohalari o'rtasida erkin ko'chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilano foydalanishni ta'minlaydi. Bu o'z navbatida mamlakat taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Quyidagi jadvalda Qimmatli qog'ozlar bozorining istirokchilarini ko'rishimiz mumkin:

• **qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi** — qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Moliya bozori tarkibi 2 turga bo'linadi:

- pul bozori
- kapital bozori

Yuqoridagi grafikda biz Toshkent fond bozorining 1 yillik narxlar indeksini ko'rishimiz mumkin[3]. Bu grafikning ko'rsatkichiga asoslanib 2022 yil 11 noyabrda narxlar darajasi eng past darajani tashkil etadi. Shundan keyin avvalgi narxga qaraganda 2023 yil 11 mayda foydaga erishadi va 2023 yilda 12 iyul kunda eng yuqori natijaga erishadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga qarab, mamlakat iqtisodiyotning "ahvoli" haqida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning iqtisodiy faoliyatini boshqarish mumkin. Fond bozorining ishtirokchilari oshirilsa xalq o'rtasida Raqamli texnologiyalardan foydalanib va undan moliyaviy foyda qilish imkoniyati o'sib boraveradi. Shuning uchun bozorni rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, mamlakatimiz fond bozorini yanada rivojlantirish va barqarorlashtirishda tijorat bank investitsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Fond bozorida banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha soliq mexanizmida birmuncha yengilliklar va imtiyozlar joriy etilishi lozim birja savdolarida sotiladigan moliyaviy instrumentlar sonini ko'paytirish, ya'ni moliyaviy fyuchers, opsiya, depozitar tilxatlar va ipoteka obligatsiyalarini joriy etish. Bu holat qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning faollashuviga va fond bozori aylanmasining oshishiga olib keladi. Qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etuvchilarning o'sib borishi, ya'ni investorlarning aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishi natijasida xususiy va davlat korxonalarining rivojlanishiga katta turtki bo'ladi. Natijada Milliy Iqtisodiyotning rivojlanishiga va dunyoning eng boy davlatlari qatorida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Respublika tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro fond birjalarida sotishni ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Kapital bozori va davlat qimmatli qog'ozlari bozorining ma'lumotnomasi 2022 yilning 1 yarim yilligi jurnalining 10 betidan,*
- 2. Moliya bozori: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar; - T.: "Iqtisod-moliya", 2019.-324 b.*

3. *Moliya: O'quv qo'llanma / T.S.Malikov; O'Zr Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.-268 b.*
4. <https://president.uz/oz/lists/view/2913>
5. <http://m.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/agentlik-tugatildi-yangi-departament>
6. https://uzse.uz/price_indices?locale=uz
7. <http://hisobot.stat.uz/>
8. <https://lex.uz/docs/-1471806?ONDATE=12.03.2019>

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ

*Адашалиев Бахтиёржон Валишер ўгли -
Исследователь Ташкентского государственного
экономического университета*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается платежеспособность предприятий и проведенные в последние годы исследования по ее определению, а также сделанные по ним выводы и некоторые аспекты определения платежеспособности хозяйствующих субъектов.*

***Ключевые слова.** Бизнес, финансовая устойчивость, ликвидность, коэффициент, субъект, рынок, платежеспособность.*

Сегодня на многих предприятиях действует система упрощенного анализа платежеспособности и финансовой устойчивости, основанная на систематическом расчете набора определенных коэффициентов, включенных в бухгалтерские программы. Оценка этих коэффициентов осуществляется только путем сравнения их с нормативами за определенный период. При таком анализе невозможно отслеживать отношения, определять влияние факторов и связывать их с достижением заранее поставленных целей, а руководители не могут использовать эту информацию достаточно эффективно для управления финансами хозяйствующего субъекта. Это объясняется, прежде всего, тем, что предприятия фактически не занимаются целевым управлением ликвидностью.

В современной оцифрованной среде схемы финансовых потоков, отражающие движение ценностей, настолько сложны, что управлять ими с помощью научно обоснованных методов невозможно. Это связано не только с

объективными условиями переходной экономики. Важной причиной этого является то, что для многих предприятий еще не решен вопрос собственности, а их руководители не связывают со своей деятельностью принцип ее долговременного существования. Грамотное управление финансами важно, когда конкуренция на рынках еще толком не обострилась, в первую очередь за счет внутренних факторов, были достигнуты определенные конкурентные преимущества.

Тем не менее экономические законы действуют независимо от того, понимаем мы их или нет, и рыночные отношения продолжают формироваться. Чем раньше наши действия по управлению финансами будут соответствовать этим законам, тем прозрачнее будут эти схемы, тем меньше трудностей нам придется преодолевать, и тогда знание методов управления финансами будет очень актуально.

Обычно платежеспособность хозяйствующих субъектов рассчитывается на основе информации, формируемой на основании данных его бухгалтерского баланса, и соответственно оцениваются рассчитанные коэффициенты.

По мнению Ковалева и Привалова, достижение ликвидности баланса предполагает определенное соотношение между пассивами и активами баланса. Соблюдение этих соотношений и поддержание их в течение достаточно длительного периода времени показывает, что предприятие не только платежеспособно, но и имеет собственные средства, существование которых возможно только в том случае, если оно работает прибыльно. Компания имеет ликвидный баланс, поэтому она прибыльна.⁵²

По мнению Бочарова, важнейшим показателем баланса является платежеспособность предприятия, то есть способность своевременно удовлетворять требования платежеспособности поставщиков оборудования и

⁵² Ковалев А.И., Привалов В.П. Анализ финансовых затрат предприятия. М.: «Центр экономики и маркетинга», 2000г. - 209 с.

материалов в соответствии с хозяйственными договорами, погашать кредиты, выплачивать заработную плату работникам, производить платежи.⁵³

В источниках существует несколько методов определения платежеспособности предприятия, основная формула расчета платежеспособности приведена в следующем виде:⁵⁴

Коэффициент платежеспособности = (чистая прибыль + амортизация) / общая сумма обязательств (краткосрочные + долгосрочные обязательства)

Из приведенной выше формулы видно, что платежеспособность выражается делением суммы доходов и амортизации на обязательства.

Однако, на наш взгляд, эта формула не в полной мере отражает платежеспособность хозяйствующего субъекта и существенно отличается от формул расчета коэффициента текущей платежеспособности.

На наш взгляд, реальное и правильное определение платежеспособности хозяйствующих субъектов должно определяться на основании данных бухгалтерского баланса, в целом данных финансовой отчетности, причем особое внимание следует уделять определяемому нами периоду. В этом случае, если платежеспособность определяется на основании отчета за предыдущий год, целесообразно отдельно рассчитывать два следующих показателя, включая месяц или квартал, в котором определяется платежеспособность, помимо учета текущих активов и текущих обязательств:

1. Текущая часть долгосрочной дебиторской задолженности;
2. Часть долгосрочных обязательств, переведенных в текущие обязательства.

Кроме того, на наш взгляд, одним из важнейших вопросов при определении платежеспособности хозяйствующего субъекта является учет дебиторской и кредиторской задолженности предприятия, а также денежных

⁵³ Бочаров В.В. Финансовый анализ. С-Пб.: "Питер", 2001г. - 236 с.

⁵⁴ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/knowledge/finance/solvency-ratio/>

средств и резервов. В то же время важно также использование и обслуживание каждого актива в хозяйствующем субъекте.

По нашему мнению, при полном определении платежеспособности компании также необходимо учитывать следующее:

- количество сырья на складе и сколько времени в среднем требуется для превращения его в продукцию у хозяйствующего субъекта;
- в течение какого времени произведенный продукт становится дебиторской задолженностью;
- сколько времени требуется, чтобы дебиторская задолженность превратилась в денежные средства;
- использование средств на закупку сырья и процесс снабжения в процессе воспроизводства.

Одним словом, реализация наших предложений позволяет более полно и реально определить платежеспособность хозяйствующего субъекта, приводит к принятию обоснованных выводов и эффективных управленческих решений.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING AHAMIYATI

*Hamroyeva Sevinch Hamroyevna -
TDIU, Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti
3-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Mamlakat iqtisodiyotini hamda aholi o'rtasida pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishda yaqindan yordam bera oladigan qo'l -qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. Hozirgi vaqtda eng moslashuvchan moliyaviy instrumentardan biri deb tan olingan qimmatli qog'ozlar bozorini qayta tiklash va yangi turlarni yaratishni taqozo etayotganining negizida iqtisodiyotni jahon bozori standartlariga moslashtirish, avvalambor, investitsion jozibadorlikni oshirish yotadi. O'z navbatida ushbu bozor tomonidan taqdim etiladigan barcha imkoniyatlarni o'rganish bu bozorda kapital jalb qilishning zamonaviy usullarini tahlil qilish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.*

***Kalitso'zlar:** Qimmatli qog'ozlar bozori, investitsion jozibadorlik, kapital, moliyaviy instrument, moliya bozori.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fond bozorida qimmatli qog'ozlardan maqbul tarzda foydalanish imkoniyatini yaratuvchi barqaror moliyaviy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday moliyaviy tizimga ega mamlakatlar iqtisodiy xatarlarga bardoshli bo'ladilar. Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (moliya bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlarining ko'pligi va likvidlilikning yuqoriligi, aktsiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) moliya bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (YaIM)hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun samarali iqtisodiy siyosat yurgizish bilan bir vaqtda, moliyaviy sohada institutional islohotlar o'tkazilishi lozimligi ayni haqiqatdir.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotida hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar, eng avvalo fond bozori bilan bevosita bog'liq bo'lib kelmoqda. Chunki Respublikada rejalashtirilgan investitsiya programmasini amalga oshirishda o'tish davriga xos bo'lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganligi sezilmoqda. Shuning uchun ham fond bozorining qimmatli qog'ozlaridan samarali foydalanish: ularning eng qulay shakllaridan foydalanish muhim masalalardan biri bo'lib kolmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida fond bozorlari iqtisodiyotning asosiy tarmog'i bo'lib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirish demakdir.

Hozir jahon fond bozorlari bir qancha muammoli holatlar vujudga kelmoqda. Prezidentimiz bu muammolar haqida quyidagi fikrlarini bildirganlar: - "Muhim masala - yurtimizda fond bozori, fond birjasini yanada rivojlantirish uchun Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Biz bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini o'zaro sheriklik asosida xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Internet

tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali yer uchastkalarini, jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibini o'rnatish⁵⁵ zarur. Shu maqsadda 2018-yildan boshlab elektron savdo maydonlari orqali davlat aktivlarini sotish bo'yicha elektron tizim tashkil etiladi. 2018-yilda bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta'minlash masalalariga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo'lgan ayrim "ekspertlar"ning ikkilanishi va "maslahat"lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik. Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos. Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to'liq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim".⁵⁶ Shu boisdan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan «2020-2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi»⁵⁷ . Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini avvalambor insoniyat jamiyatida pulning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq bozor munosabatlarini amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson tsivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: «Ma'naviyat», 2018. 189-b.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi.

⁵⁷ 3Sh.M.Mirziyoyev Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti. 2019-yil 7-oktyabr. <http://xs.uz/uzkr/post/fond-bozorini-rivozhlantirish-masalalari-muhokama-qilindi>.

munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o'sib, ularning xaq-xuquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidadir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomondan davlat korxonasi va tashkilotlar, aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxonasi, tashkilot va aholi o'zlarining vaktincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatbaho qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi prezidentining murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma.* – T.: “Ma'naviyat”, 2018. 189-b.

2. Allayarov, S. A. (2020). *Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.* 3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). *Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920- 7926. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 963*

3. Сатторов, Б. К., & Аллаяров, С. Р. (2017). *Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов. Наука, техника и образование, 1(5 (35)), 98-100.*

КОРХОНА СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ

Саидназаров Фирдавс Абдуллоевич
ТДИУ д.ф.ф.д., доцент

Аннотация. Мақолада молиявий стратегия корхонанинг самарали фаолиятининг муҳим элементларидан бири сифатида кўриб чиқилган. Унинг ёрдамида корхонанинг стратегик сиёсати, фаолиятининг асосий йўналишлари ҳамда узоқ ва қисқа муддатли мақсадлари аниқланган. Ҳар бир корхона ўз молиявий стратегиясини ишлаб чиқиш ҳамда оптималлаштириш учун маълум усуллар ва воситалардан фойдаланади.

Калит сўзлар: молиявий стратегия, молиявий ресурс, молиявий режалаштириш, молиявий ҳолат, молиявий сиёсат, молиявий тактика.

Ҳар қандай ривожланиш жараёни маълум бир узоқ муддатли истиқболли режаларни талаб этади. Бу жараён илмий-назарий жиҳатдан стратегия деган категория билан изоҳланади. Ҳар қайси олинган миллий иқтисодий ривожлантиришда мавжуд ҳолатни эътиборга олган ҳолда стратегик ривожланиш босқичларни белгилаб олиб, қўйилган мақсадларга эришиш учун стратегик мақсадлар белгилаб олинади, аслида бу ривожланишнинг стратегик йўналиши сифатида қабул қилинади. Ривожланишнинг стратегик мақсадларининг ишлаб чиқилиши миллий иқтисодий давлат томонидан тўғри бошқаришга имкон беради.

Ҳар қандай иқтисодий тизимда рақобат муҳим ҳисобланади. Айниқса бозор муносабатлари шароитида корхоналар бозорда муқим жой олиши учун улар ўз стратегияларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Булар орасида молиявий стратегия ҳал қилувчи ролга эга бўлади. Корхоналар тўғри белгиланган молиявий стратегияларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, маблағларини оптимал бошқаришни таъминлайди, натижада корхоналар рақобат муҳитида бозор таваккалчилиги шароитида “яшаб қолиш” қолаверса, ривожланишга катта омил бўлади.

Ваколатли муассасаларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида давлат жамиятдаги функциясини бажаришда жамиятнинг социал, ижтимоий,

сиёсий ва иқтисодий соҳаларини бараварига ривожлантириш учун қисқа, ўрта ва узоқ муддатли мақсадларини тузади, уни бажаришнинг тактик режаларини белгилайди, турли дастакларни ишга солиб уни амалга оширишга киришади. Лекин, бу каби режаларнинг узоқ муддатли шаклига ҳам эҳтиёж туғиладики, бу қисқа ва ўрта муддатли режаларнинг мантиқий ва мазмунан давоми сифатида стратегиясини ишлаб чиқишни зарурат қилади. Аслини олганда стратегия мақсаддан келиб чиқади. Айнан мақсаднинг қайси даврга мўлжалланганлигига қараб, унга эришишнинг тизимли вазифаларни ўзида акс эттирган стратегик режалар тузилади. Хўш стратегия бу муҳим категория сифатида мазмун моҳияти нимани англатади? Унинг қандай турлари бор? Бу борада илмий-назарий қарашларда ёндашувлар қандай? Бу каби саволларнинг туғилиши табиийдир. Қуйида ана шу саволларга жавобни илмий-назарий жиҳатларига эътибор қаратамиз.

и.ф.д. С.Худойқуловнинг таъкидлашича, “ҳар қайси давлат сиёсати таркибий жиҳатдан стратегик ва тактик йўналишларга эга бўлади. Сиёсатнинг стратегияси ва тактикасининг мазмуни аввало фаолият(жараён)нинг характери ва давлат тузилишига асосланган ҳолда уни бошқарув механизмларининг хусусиятларига боғлиқ бўлади. Агар, давлат федератив давлат бўладиган бўлса, солиқларни жорий этиш ва ундириш сиёсатига ҳам шунга мувофиқ бўлади, ўз навбатида унитар давлатларда эса бюджет ва солиқ тизими ўзига хос бўлади. Стратегия грекча сўз бўлиб, “στратηγία — кўмондонлик, бошқариш, ҳарбий санъати” деган маънони бериб, у дастлаб, ҳарбий соҳага қўлланилиб, кейинчалик давлат бошқарувида ва унинг сиёсатида қўлланила бошлаган. Сиёсатда қўлланилиши эса кўпинча унга даврийлик жиҳатдан ёндашилади. Шу жиҳатдан олганда стратегия давлатнинг маълум бир соҳа(йўналиш)даги фаолиятини тизимли бошқаришнинг узоқ муддатли даврга тегишли жараёнларини аниқлаш ва унинг йўналишларини белгилаб олинишидир”.

Хитойлик стратег ва ҳарбий раҳбар Сунь Цзининг фикрича, стратегия атамаси иқтисодиётга ҳарбий фаолиятдан келиб чиқиб “жангда кўшинларни

бошқариш санъати” (“status” армия, “ago” етакчи) деган маънони англаиб, ўзининг “Уруш ва бошқарув санъати” рисоласида қўмондонларнинг турли вазиятларда ўзини тутишни аниқлайдиган стратегик моделларини кўрсатиб ўтган.

Замонавий шароитда корхона стратегияси унинг ривожланишига йўналтирилган бўлиши керак, чунки, хўжалик юритувчи субъект фаолиятида олдинга силжиш йўқлиги уларнинг бозордаги мавқеини йўқотишга олиб келади. Бунда корхона стратегиясини шакллантиришнинг моҳияти, принципларини ташкил этиш босқичларига эътибор қаратиш лозим бўлади. Корхоналар стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш юзасидан тадқиқот олиб борган иқтисодчи олимлар “стратегия” атамасига қуйидаги ёндашувларини келтириш мумкин.

А.Чандлер “стратегияни корхонанинг узоқ муддатли мақсадларини унинг ҳаракат дастурини ва ресурсларни тақсимлашнинг устувор йўналишларини белгилаш усули сифатида баҳолашади”, М.Портер “стратегия - бу ташқи имконият ва таҳдидларга ички кучли ва заиф томонларига жавоб бериш деб изоҳлайди”, ўз навбатида “Г.Минцберг эса, стратегияни бошқарув қарорларнинг изчил, мувофиқлаштирилган ва яхлит тузилмаси деб қарайди”. А.Томпсоннинг стратегияни белгиланган самарадорлик кўрсаткичларига эришиш учун ҳаракатлар ва ёндашувлар тўплами деб таърифлайди. П.Друкер фикрича, эса “стратегия бу-бизнес назариясини амалда тадбиқ этиш усули, унинг мақсади корхонага керакли натижаларга эришиш имкониятини беришдир”.

Кўриниб турибдики, стратегик бошқарув ривожланиши билан стратегиянинг истиқболи ҳам ўзгаради. Агар дастлаб стратегия қайта кўриб чиқилмайдиган барқарор узоқ муддатли ҳужжат сифатида қабул қилинган бўлса, унда замонавий шароитларда ушбу қоида ўз аҳамиятини йўқотмоқда. Ташқи муҳитдаги доимий ўзгаришлар (глобаллашув, рақобатнинг кучайиши, жаҳон молиявий инқирози, пандемия ва бошқалар) ўзларининг шартларини белгилаб беради, бу эса ўз навбатида корхоналар имкониятларини намоён

этадиган корхонадаги ўзгаришларни самарали бошқариш асосида узок муддатли рақобатбардош устунликларга эришишга қаратилган янги стратегияларни ишлаб чиқишга мажбур қилади.

Л.В.Давйдова ва С.А.Илминскаяларнинг фикрига кўра, «молиявий стратегияни ишлаб чиқиш, корхонанинг самарали молиявий жиҳатдан ривожланишини таъминлашда асосий рол ўйнайди. Булар молиявий мақсадларни амалга ошириш механизмини таъминлаш, истиқболли инвестициялар, таъсир этувчи омилларнинг таъсирини камайтириш, корхонанинг ютуқ ва камчиликларини аниқлашда намоён бўлади».

И.А.Бланк молиявий стратегияни қуйидагича асослаб берган.

1. Ишлаб чиқилган молиявий стратегия корхонанинг узок муддатли ривожланишида корхонанинг молиявий мақсадларини амалга оширишга қаратилган бўлиши.

2. Амалга оширилган корхона молиявий стратегияси мавжуд имкониятларини синаб кўриш, корхона ўз салоҳиятни мустаҳкамлаш ва молиявий-иқтисодий ривожланишга қўшимча ёрдам бериш, корхонанинг ресурсларидан қўшимча фойдаланиш имконини беради.

3. Пухта шаклланган ва самарали фаолият юритувчи стратегия инвестицияларни ривожлантиришнинг асосий йўналишларини амалга оширишга, қулай инвестиция муҳитини яратишга, қўшимча ташқи молиялаштириш, ресурсларни жамғариш ва тақсимлаш мақсадида қўшимча равишда инвесторларни жалб қилишга қодир.

4. Корхона молиявий стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда хавф хатарлар, қўшимча захиралар, ривожланишда молиявий ресурсларга алоҳида эътибор қаратиш, ташқи омилларни таҳлил қилиш орқали мақсадга эришиш.

Иқтисодий адабиётларда берилган молиявий стратегия тушунчасининг асосий таърифларини келтириб ўтишимиз мумкин: узок муддатли истиқболда уни ўз мақсадига олиб бориши керак бўлган корхона ҳаракатларининг умумий йўналиши, мижозлар эҳтиёжларини қондириш ва

ташкилий мақсадларга қаратилган рақобат ва бизнесни ташкил этиш усулларининг комбинацияси, юқори бошқарув томонидан ишлаб чиқиладиган ва бошқарувнинг барча даражалари томонидан амалга ошириладиган батафсил, кенг қамровли режадир.

Олиб борилган тадқиқот натижасида биз корхона молиявий стратегиясига қуйидагича таърифни келтирдик. Корхоналарнинг молиявий стратегияси – бу корхонанинг бош мақсади бўлган юқори фойда олиш ва рақобат шароитида бозорда барқарор мавқеини сақлаб қолишга қаратилган узоқ муддатга мўлжалланган молиявий режа бўлиб, корхонанинг молиявий ресурсларини оқилона жойлаш, тасарруф этиш, самарали фойдаланиш ҳамда бошқаришга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирлар мажмуасидир.

Шундай қилиб, юқоридаги таърифларга асосланиб айтишимиз мумкинки, молиявий стратегия – бу ташқи ва ички муҳит омилларининг ўзгариши асосида молиявий ресурсларни самарали жалб қилиш ва улардан фойдаланиш, уларнинг оқимини мувофиқлаштириш орқали корхона мақсадларини шакллантириш ва амалга ошириш тизимидир.

Замонавий иқтисодий адабиётларда жуда кенг ўрганилган молиявий стратегиянинг мақсадлари ҳақидаги турли муаллифларнинг фикрлари келтирилган. Уларнинг аксарияти унинг асосий мақсади корхона эгаларининг фаровонлигини (даромадларини) ошириш (максималлаштириш) эканлигига эътибор қаратилган.

Мочалова Л.А. “молиявий фаолиятнинг стратегик мақсадлари молиявий кўрсаткичларнинг суръати ва нисбатларини ҳамда узоқ муддатга молиявий барқарорликни таъминлашни ўз ичига олади, деб ҳисоблайди”.

Молиявий стратегиянинг стратегик мақсади аниқ дастурларда тақдим этилган ёрдамчи молиявий мақсадлар тўплами билан таъминланади. Молиявий бозорларнинг ўзгарувчанлиги ва ривожланиш тенденцияларини, корхоналар фаолият юритаётган молиявий воситаларнинг инновационлигининг юқори даражасини, уларнинг ташқи муҳитдаги жараёнларнинг ҳаракатига боғлиқдир. Молиявий стратегиянинг мақсад ва

вазифалари: молиянинг асосий стратегик мақсади корхонани зарур ва етарли молиявий ресурслар билан таъминлашдан иборат.

Молиявий стратегия ижодкорлик талаб қиладиган жараёнدير. Стратегик қарорларни стандартга мослаштириш осон бўлмайди, сабаби ҳозирги кунда стратегик муаммоларни бартараф этиш бўйича ягона тизим мавжуд эмас. Шу билан бирга ташқи ва ички омилларни инобатга олган ҳолда амалга оширилади.

Шундай қилиб, молиявий стратегияни ишлаб чиқиш корхонанинг самарали ривожланишини таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Ишлаб чиқилган корхона молиявий стратегияси корхонанинг келажакдаги иқтисодий ривожланиш мақсадларини амалга ошириш механизмини таъминлайди. Корхона молиявий самарадорликка эришишда корхонанинг мақсади, шунингдек, воситалари ва унга эришишда усулларни аниқлаб олиши керак. Натижада бозорга сифатли ва рақобатбардош маҳсулотларни паст харажат билан ишлаб чиқариш орқали юқори даромад олиши мумкин.

Фойдаланган адабиётлар:

1. С.Худойқулов. *Солиқ назарияси. дарслик. Т.: иқтисодиёт, 2019.-147 бет.*
2. Сунь Цзи Уруш ва бошқарув санъати "Нева" нашриёт уйи, 2003.160 б.
3. Chandler, Alfred D. *Strategy and Structure: Chapters in the History of the American Industrial Enterprise Chandler, Alfred D.* MA: MITPress, 2016.
4. Портер М.Э., *Конкуренция.* – М.: Изд. дом Вильямс, 2005. 65 с. (610)
5. Минцберг Г., *Школы стратегий / – СПб.: изд-во Питер, 2000. – 36 с.*
6. Бланк, И.А. *Финансовая стратегия предприятия.* – К.: «Ника-Центр», «Эльга», 2018. – 239 (711 с.)

GLOBAL IQTISODIYOTDA XO'JALIK SUB'EKTLARI TOMONIDAN MOLIYAVIY QARORLAR QABUL QILISH MASALALARI

*Tilabov Nasrulla Tashmurotovich -
TDIU, Moliya kafedrası dotsenti*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada xo'jalik sub'ektlarida moliyaviy qarorlarni qabul qilish mexanizmini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati bayon etilgan. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda moliyaviy qarorlarni qabul qilish mexanizmini asosiy elementlari tadqiq etilgan. Moliyaviy qarorlarni qabul qilishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar o'rganilgan. Xo'jalik sub'ektlarda moliya strategiyasini ishlab chiqish va unda boshqarish va baholash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** moliyaviy qarorlar, kapital, investitsion loyiha, baholash, moliya bozori, moliyaviy menejment, daromadlilik, ehtimollik, moliyaviy strategiya.*

Global iqtisodiyotda xo'jalik sub'ektlari tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilish masalalari eng dolzarb hisoblanadi. Jahon amaliyoti keskin raqobat sharoitida har bir xo'jalik sub'ekti oldiga nafaqat bugungi kunda, balki istiqbolda ham bozordagi o'rnini saqlab qolish hamda kengaytirishni shartqilib qo'yimoqda. Bunda global iqtisodiyotdagi tebranishlar yangi istiqbolli loyihalar ustida ishlash, loyihalarni moliyaviy ta'minlash imkoniyatlarini baholash va tegishli choralar ko'rish, investitsiya faoliyatidan kutilayotgan natijadorlikni ta'minlash, moliyaviy ta'minot va investitsion faoliyatni rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan ko'ra bilish kabilarni shart qilib qo'yimoqda va bu jihatlarda bevosita xo'jalik sub'ektlarda moliyaviy qarorlar qabul qilish amaliyoti bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Jahon bankining istiqboldagi biznes muhiti, moliyaviy strategiyalar borasida qator hisobotlarida ham bevosita moliyaviy qarorlar qabul qilish bilan bog'liq jihatlarga jiddiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ayrim davlatlarda faoliyat ko'rsatayotgan moliyaviy rejalashtirish bo'yicha assotsiatsiyalar maqsadi ham xo'jalik sub'ektlar va mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bunda asosiy e'tibor jahon bozoridagi o'zgarishlarni oldindan baholash

orqali moliyaviy rejalarni har tomonlama asosli tuzish va to'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilishga qaratiladi.

Xalqaro amaliyotda xo'jalik sub'ektlar faoliyatida moliyaviy qarorlar qabul qilishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy izlanishlarda jahon bozori kon'yukturasidagi o'zgarishlar, bugungi kundagi biznes muhiti, raqobatning milliy doiradan jahon darajasiga chiqqanligi asosida o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish, strategik moliyaviy tahlil va strategik rejalashtirishda ta'sir etuvchi omillarni oldindan baholash kabilarga alohida e'tibor qaratilgan. Garchi bu borada atroflicha tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, raqamli iqtisodiyotning keng doirada turli sohalarga kirib borishi, jahon bozoridagi keskin o'zgarishlar moliyaviy rejalashtirish borasida atroflicha tahlillar asosida moliyaviy qarorlar qabul qilishni talab qilmoqda. Bu jihat o'z-o'zidan milliy va xalqaro darajada kompleks tadqiqotlar olib borish orqali moliyaviy rejalashtirish amaliyotini samarali tashkil etishni shart qilib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda xo'jalik sub'ektlar faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolda jahon bozorida mustahkam o'rin egallashiga erishishda korporativ moliyaviy strategiyaning to'g'ri belgilanishi, strategik va joriy moliyaviy rejalarning o'z vaqtida to'liq amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etishidan kelib chiqqan holda moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, makrodarajada moliyaviy ko'rsatkichlar prognozlarini oldindan belgilash, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash, soliq yukini pasaytirish kabilarga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar. Odatda, tarkibi va hajmi (o'lchami) turlicha bo'lgan oilalar uy xo'jaliklari deb ataladi. Bunda qutbning bir tomonida (bir tarafida) bir necha avlod vakillaridan tashkil topgan, bir uyda yashaydigan va ma'lum iqtisodiy resurslarga birgalikda egalik qiladigan katta oilalar tursa, qutbning ikkinchi tomonida (qarama-qarshi tarafida) bir o'zi yashaydigan va an'anaviy oila tushunchasiga mos kelmaydigan yakka inson turadi. Ammo "Zamonaviy (amaliy) moliya"da bunday oila ham uy xo'jaligi hisoblanadi.

Amaliyotda uy xo'jaliklari tomonidan, odatda, to'rt xil moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga to'g'ri keladi. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Pul mablag‘larini iste‘mol qilish va jamg‘arish to‘g‘risidagi qarorlar.

Oila boyligining qaysi qismini iste‘molchilik ehtiyojlariga sarflash mumkin? Joriy daromadning qaysi qismini kelajakda sarflash uchun saqlab qo‘yish va jamg‘arib borish kerak?


2. Investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan (investitsion) qarorlar. Mavjud jamg‘armalarni qaysi (qanday) aktivlarga yo‘naltirish (joylashtirish) kerak?

3. Moliyalashtirish to‘g‘risidagi qarorlar. Uy xo‘jaligi o‘z iste‘molchilik va investitsion rejalarini amalga oshirish uchun qachon va qay tarzda qarz olingan mablag‘dan foydalanishi kerak?

4. Riskni boshqarish (riskiy boshqaruv) bilan bog‘liq qarorlar. Uy xo‘jaliklari qanday qilib va qanday shartlarda moliyaviy vaziyat mavhumligi (noaniqligi) darajasini kamaytirishlari kerak va yo‘l qo‘yiladigan risk darajasini qachon oshirishlari zarur?

Shunday qilib, uy xo‘jaliklari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin (1-chizmaga qarang):

Uy xo‘jaliklari o‘z daromadlarining ma‘lum qismini kelajakda sarflash uchun jamg‘arib qo‘yishlari natijasida ular umumiy boylik jamg‘armasini (pool of wealth) to‘plab qo‘yadilar. Va ular turli shakllarda saqlanishi mumkin. Kimdir pullarni bankdagi hisob raqamlarida saqlashni afzal ko‘rsa, kimdir ko‘chmas mulkka yoki biror biznesga tikadi (yo‘naltiradi, joylashtiradi). Bu mablag‘larning umumiy nomi bor. Ular aktivlar (assets) nomini olgan. Iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan barcha narsalar aktivlar deyiladi.



1-chizma. Uy xo'jaliklari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar.

Uy xo'jaliklarining o'zlari to'plagan mablag'larni sarflash borasida qaror qabul qilish jarayoni **xususiy investitsiyalash** (asset allocation) **yoki pul mablag'larini turli aktivlar turlari o'rtasida taqsimlash** deb ataladi.

Xususiy uy sotib olish bilan bir qatorda odamlar ko'pincha o'z mablag'larini moliyaviy aktivlarga, masalan aksiya yoki obligatsiyalarga tikadi (joylashtiradi, qo'yadi)lar. Agar odam pul qarz olsa, u o'zida yuzaga kelgan qarz majburiyati (liability) bilan bog'liq ma'lum javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, unda qarz paydo bo'ladi. Uy xo'jaligi boyligi yoki mulkining **toza (sof) bahosi (qiymati)** (net worth) uning mulki bahosidan uning qarz majburiyatlari summasini ayirish orqali aniqlanadi.

Masalan, faraz qilaylik, Siz 100 mln.so'm turadigan uy egasisiz va bankdagi hisob raqamingizda 20 mln.so'mingiz bor. Bundan tashqari, Siz bankka 80 mln. so'm qarzsiz. Bu summani Siz uy sotib olayotganda bankdan ko'chmas mulkni garovga qo'yish evaziga olgansiz (majburiyat), va 5 mln. so'm miqdorida kredit kartochkasi bo'yicha to'lanmagan xarajatlaringiz bor. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaligingizdagi mulkning haqiqiy bahosi 35 mln. so'mni tashkil etadi: jami aktivlardan (120 mln. so'm) qarz majburiyatlari summasi (85 mln. so'm) ayirib tashlanadi. Oxir hisobda (pirovardida) jamiyatning har qanday resurlari uy

xo'jaliklariga tegishli. Chunki aynan ular firma egalari (yoki to'g'ridan-to'g'ri, yoki aksiyalarga, hayotni sug'urtalash bo'yicha polislarga egalik qilish yoki pensiya rejalarida ishtirok etish orqali) va soliq to'laydilar. Bu soliqlar esa, davlat tomonidan sarflanadi.

Odamlarning ehtiyoji moliya nazariyasida mavjud narsa sifatida talqin etiladi. Bu ehtiyojlar vaqt o'tib o'zgarishi mumkin. Lekin buning qanday qilib va nima uchun yuz berishi mazkur nazariya chegaralaridan tashqariga chiqadi. Unga ko'ra, odamlarning hatti-harakatini o'z ehtiyojlarini qondirishga intilishlari bilan tushuntirish mumkin bo'lsa, firmalar, davlat korxonolari va tashkilotlari faoliyatini shu faoliyat odamlarning farovonligiga qanday qilib ta'sir qilishi nuqtai nazaridan baholanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin.

6. Uy xo'jalik sub'ektilarning moliyaviy risk boshqaruvi doiraviy va davomiy xususiyatga ega bo'lib, u xo'jalik sub'ektining barcha biznes jarayonlari va loyihalarini o'z ichiga oladi.

7. Uy xo'jalik sub'ektilarda moliyaviy risklarni boshqarish uchun eng birinchi qilinadigan ishbu ularni aniqlash hisoblanadi. Buning uchun, uy xo'jalik sub'ektilar moliyaviy risk tasnifidan foydalanishi o'rinli bodadi. Tadqiqotda, moliyaviy risklarni xo'jalik sub'ektilar amalga oshiradigan operatsiyalari bo'yicha 4 guruhga ajratildi: asosiy, moliyaviy, investitsion va soliq faoliyatini amalga oshirishda vujudgan keladigan risklar

8. Moliyaviy risklarni boshqarishda u keltirgan oqibatni bartaraf etishdan ko'ra, keltirib chiqaruvchi omillarini oldini olish samara berishi aniqlandi. Shunga ko'ra, risk omillariga ichki va tashqi omillar sabab bodishi va ularning har biri boshqarilib bodishiva boshqarib bodinmasligi mumkinligini aniqlandi

9. Moliyaviy rejalashtirish yo'nalishlari sifatida rivojlanishning dominant sohalariga, ya'ni resurslarni shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish asosida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy boshqaruv sifatiga jiddiy e'tibor qaratilishi, qulay biznes muhiti yaratilishiga imkoniyat yaratadi.

10. Uy xo'jalik sub'ektlarining operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyatlarida dekada, oylar va choraklar bo'yicha byudjetlashtirishni tashkil etish, ularning doimiy to'lovga layoqatliligini ta'minlaydi va to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'grisi"dagi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, -2017. -104 b.

9. Президент тадбиркорлар билан иккинчи учрашувида қандай тақлифларни билдирди? <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/23/meeting-with-businessmen/>

10. Moliya: nazariy asoslar: O'quv qo'llanma / T.S.Malikov; –T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. – 428 bet.

11. Malikov T.S., Moliyaviy savodxonlik asoalari. / O'quv qo'llanma.. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2021. – 404 b.

12. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.

RESPUBLIKAMIZDA QIMMATLI QOGOZLAR BOZORINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Baxtiyorova Dilnozaxon Madaminjon qizi -
TDIU Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirishdan kelib chiqqan holda bir qancha sohalarni, jumladan moliya va qimmatli qog'ozlar bozorini ham isloh qilishni taqozo etadi. Chunki, so'nggi yillarda jahonda hukm surgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz natijasida dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti, jumladan qimmatli qog'ozlar bozori chuqur retsessiyani boshidan kechirdi.

***Kalit soʻzlar:** moliya, qimmatli qogʻoz, bank, obligatsiya, chek, toʻlov vositalari, kapital, pul.*

Qimmatli qogʻozlar - oʻz egasiga mulkka egalik huquqini va daromad koʻrinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va boshqalar). Qimmatli qogʻozlar taqdim etuvchi yoki egasining ayrim huquqlari qayd etilgan maxsus tarzda rasmiylashtirilgan moliyaviy hujjat. Qimmatli qogʻozlar maʼlum shaxs nomiga yozilgan (ismli), dastlab sotib olgan shaxs nomiga yozilgan va uning roziligi bilan boshqa shaxsga oʻtkaziladigan orderli va egasi yozilmaydigan (egasi koʻrsatilmaydigan) turlarga boʻlinadi.

Qimmatli qogʻozlarning ayrim turlarining qisqacha tavsifi:

Obligatsiya - obligatsiya chiqargan shaxsdan belgilangan vaqtda oʻz nominal qiymatini, shuningdek qiymatga yoki boshqa mulk huquqiga boʻlgan foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qogʻoz. Obligatsiyalar nominal qiymati teng va chiqarilish va sotib olish shartlari bir xil boʻlgan bir xil qimmatli qogʻozlardan iborat seriyali chiqariladi. Obligatsiyalar turlari: cheklangan tirajli, roʻyxatdan oʻtgan, toʻlovchi, foizsiz, foizsiz (maqsadli), erkin muomalada.

Tekshirish - joriy hisob varaq egasining bankka koʻrsatilgan summani maʼlum bir shaxsga yoki egasiga toʻlovni toʻlash toʻgʻrisidagi bankning soʻzsiz buyrugʻini oʻz ichiga olgan hujjat. Sandiq tovarlar yoki xizmatlar haqini chek orqali toʻlaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkor.

Tekshirish turlari: tashuvchi - yuk tashuvchi, oddiy etkazib berish yoʻli bilan berish; roʻyxatdan oʻtgan - maʼlum bir kishiga; buyurtma - maʼlum bir shaxs foydasiga yoki uning buyrugʻiga binoan.

Hisob varaq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan va veksel egasiga belgilangan muddatda veksel beruvchiga belgilangan miqdorni toʻlash toʻgʻrisidagi shartsiz majburiyatni yoki tortmachining buyrugʻini oʻz ichiga olgan hujjat.

Veksel qarzdor tomonidan chiqarilgan va imzolangan va belgilangan summani maʼlum bir kishiga oʻz vaqtida toʻlash majburiyatini yoki uning buyrugʻiga binoan boshqa shaxsga toʻlovchi va oluvchining ismi koʻrsatiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) moliya bozorining bir qismidir (ssuda kapitali bozori bilan bir qatorda, valyuta bozori va oltin bozori). Fond bozorida o'ziga xos moliyaviy vositalar - qimmatli qog'ozlar sotiladi. Qimmatli qog'ozlar - bu hujjatlar belgilangan shakl va tasdiqlovchi tafsilotlar mulk huquqi, amalga oshirish yoki topshirish faqat ularning taqdimoti bilan mumkin. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bu mulkiy huquqlar ssuda va turli korxonalar tashkil etish, oldi-sotdi, mol-mulkni garovga qo'yish va boshqalar uchun pul berish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan qimmatli qog'ozlar o'z egalariga belgilangan daromad olish huquqini beradi. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan kapital aksiyadorlik kapitali deb ataladi. Qimmatli qog'ozlar bozorda sotiladigan va aks ettiruvchi maxsus tovardir mulkiy munosabatlar... Qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, berish, garovga qo'yish, saqlash, meros qilib olish, hadya qilish, almashtirish mumkin. Ular pulning alohida funktsiyalarini (to'lov vositasi, to'lov vositalari) bajarishi mumkin. Ammo puldan farqli o'laroq, ular universal ekvivalent sifatida harakat qila olmaydi.

Buxgalteriya hisobi funktsiyasi barcha turdagi qimmatli qog'ozlarning maxsus ro'yxatlarida (reestrlarida) majburiy hisobga olishda, shuningdek oldi-sotdi, garov, ishonch, konvertatsiya va boshqalar bilan tuzilgan birja bitimlarini qayd etishda namoyon bo'ladi. Nazorat funktsiyasi bozor ishtirokchilari tomonidan qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Talab va taklifni muvozanatlash funktsiyasi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish orqali moliya bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlashni anglatadi.

Rag'batlantiruvchi funktsiya yuridik va jismoniy shaxslarni RCB ishtirokchilari bo'lishga undashdir. Masalan, korxonani (aktsiyalarni) boshqarishda ishtirok etish huquqini berish orqali daromad olish huquqi (obligatsiyalar bo'yicha foizlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar), kapitalni to'plash imkoniyati va mulk (obligatsiyalar) egasi bo'lish huquqi.).

Qayta taqsimlash funktsiyasi mablag'larni (kapitallarni) korxonalar, davlat va aholi, tarmoqlar va hududlar o'rtasida qayta taqsimlashdan (qimmatli qog'ozlar muomalasi orqali) iborat. Federal, mintaqaviy, mintaqaviy va mahalliy byudjetlarning taqchilligini davlat va shahar qimmatli qog'ozlarini chiqarish va

ularni sotish orqali moliyalashtirishda korxonalar va aholining bo'sh moliyaviy resurslari davlat foydasiga qayta taqsimlanadi.

Tartibga solish funksiyasi turli ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishni anglatadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish orqali hajm tartibga solinadi. Davlat qimmatli qog'ozlarini bozorda sotish pul massasi hajmini kamaytiradi, davlat tomonidan sotib olinishi esa, aksincha, bu hajmni oshiradi.

RZB bozorni tartibga solish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining yordamchi funktsiyalariga xususiylashtirish, inqirozga qarshi boshqaruv, iqtisodiyotni qayta qurish, barqarorlashtirishda qimmatli qog'ozlardan foydalanish kiradi.

Samarali ishlaydigan RZB muhim makroiqtisodiy funktsiyani bajaradi, investitsiya resurslarini qayta taqsimlashga hissa qo'shadi, ularning eng foydali va istiqbolli tarmoqlarda (korxonalar, loyihalar) kontsentratsiyasini ta'minlaydi va shu bilan birga moliyaviy resurslarni rivojlanishi aniq belgilanmagan tarmoqlardan chalg'itadi. Shunday qilib, RZB bir nechta mumkin bo'lganlardan biridir moliyaviy hissalar bu orqali jamg'armalar investitsiyalarga aylanadi. Shu bilan birga, RZB investorlarga o'z jamg'armalarini saqlash va ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan bir qator nazorat tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Adliya vazirligida 31.07.2012-yilda 2383-son bilan ro'yxatga olingan "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"ning tegishli bandi talablari bajarilmaganligi uchun 10 ta holatda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mansabdor shaxslariga nisbatan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 1741-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida hujjatlar rasmiylashtirilib chora ko'rish uchun sudlarga yuborildi hamda sudlar tomonidan tegishli ma'muriy jazo choralarini qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Ma'lumot tariqasida shuni ma'lum qilamizki, quyida nomlari keltirilgan 10 ta qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mas'ul

mansabdor shaxslariga nisbatan sudlar tomonidan 7 mln 290 ming so'm miqdoridagi ma'muriy jarima qo'llanildi hamda davlat budjetiga undirildi.

Xulosa qilib aytganda, moliya vazirligining kapital bozorini rivojlantirish departamenti tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi sifatida ommaviy axborot vositalari va (yoki) o'zining rasmiy veb-saytida amalga oshirilayotgan ishlarni qonunchilik talablari doirasida ochiq va shaffof ravishda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga oshkor etilishi bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. "Qimmatli qog'ozlar bozori turlarining rivojlanish tarixi" Usmonova X, Toshkent -2006*
- 2. Татьянаников В. Фондовый рынок: новый этап развития, рыночных бумаг. - 2003. - № 6.*
- 3. Sh. Sh Shoxazatiy "Фондовый рынок и Рыночных бумаг" книга II, 2005*

OBLIGATSIYALARNI BAHOLASH VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Saidov Jasurbek Latipbayevich -
TDIU "Moliya" kafedrası assistenti

Annoatsiya: *Hozirgi taxlikali zamonda mablag' olishning eng yaxshi yo'laridan biri qimmatli qog'ozlardan unimli foydalanishdir. Obligatsiya xuddi shu qimmatli qog'ozlardan biri ekani bilishimiz mumkin. Buni asosan davlat tamonidan chiqariladi. Qolgan qimmatli qog'ozlardan farqi investorga ishonchlik darajasi yuqori hisoblanadi va u o'z egasiga foiz yoki diskont ko'rinishida daromad keltiradigan qimmatli qog'ozdir. Bu tezisda siz boshqa qimmatli qog'ozdan farqi va afzaligni va foyda olish darajasi to'g'risida formulani ko'rib chiqamiz.*

Аннотация: *Одним из лучших способов привлечения средств в сегодняшние беспокойные времена является эффективное использование ценных бумаг. Мы можем знать, что облигация является одной из тех же ценных бумаг. В основном его выдает государство. Она отличается от других ценных бумаг тем, что имеет высокий уровень надежности для инвестора и представляет собой ценную бумагу, приносящую своему владельцу доход в виде процентов или дисконта. В данной дипломной работе*

мы рассмотрим формулу о разнице и преимуществе других ценных бумаг и уровне прибыли.

Abstract: *One of the best ways to raise funds in today's turbulent times is the effective use of securities. We can know that a bond is one of the same securities. Basically it is issued by the state. It differs from other securities in that it has a high level of reliability for the investor and is a security that brings income to its owner in the form of interest or discount. In this thesis we will consider the formula about the difference and advantage of other securities and the level of profit.*

Tayanch so'z va iboralar: *obligatsiyalar va turlari, obligatsiyalar narxi, emitent, huquqlar, fond bozori, O'zbekistonda obligatsiyalardan foydalanish, obligatsiyalar bo'yicha prognoz.*

Ключевые слова и фразы: *облигации и виды, цена облигаций, эмитент, права, фондовый рынок, использование облигаций в Узбекистане, мировоззрение на облигации.*

Key words and phrases: *bonds and types, bond price, issuer, rights, stock market, use of bonds in Uzbekistan, world views on bonds.*

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-avgustdagi 650-son "O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaroriga binoan amalga oshiriladi

Moliyaning asosiy bo'ginidan bir bo'lib hisoblangan va investorga qiziqish ug'otgan qimmatli qogoz obligatsiya bu risksiz va aniq qaytarib berish mudati va kafolatlangan daromad bilan investorga jozibador ko'rinishga kelgan deyishimiz mumki.

Obligatsiya bu- uni chiqargan shaxs va egasi o'rtasidagi qarz munosabatni tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Bu o'z egasiga foiz yoki (diskont) ko'rinishida foyda keltiradigan qimmatli qog'ozdir.

Obligatsiya boshqa qimmatli qog'ozlardan farqli ravshda davlatlar va boshqa katta tashkilotlar uchun qulay va yangi mablag' jalb qilishnini qulay usulidir.

Obligatsiyani chiqargan tomon emitent va uni hard qilgan shaxs esa investor hisoblanadi. Obligatsiyani harid qilishda ikki xil tushunchani ko'rish mumkin bulardan "suzib yuruvchi" obligatsiyalar yoki "oddiy obligatsiya"lar bu qanay tushucha degan savol paydo bo'ladi. Suzub yuruvchi obligatsiyalar yani birlamchi bozordan ikkilamchi bozorga chiquvchi obligatsiyalarni tushunishimiz mumkin bundan kelib chiqib oddiy oligatsiya ikkilamchi bozorga chiqmasligini ko'rishimiz mumkin. Obligatsiyani ifodalanga summa uning naminal qiymati deyiladi. Uning fond birjada sotilishi uning baxosi deyishimiz mumkin. Obligatsiyada boshqa qimmatli qog'ozlardan asosiy ajralib turadigan jihatlari biz buni aksiya va oblikagatsiya orqali solishtirib ko'ramiz. Aksiya – daromadi devident ko'rinishda u investorga hissabay ko'rinish yoki boshqa qo'shimcha huquqlar beradi. Obligatsiya-daromadi diskent ko'rinishida investorga daromaddan boshqa qo'shimcha hech qanday huquq bermaydi. Obligatsiyani chiqarilishiga ko'ra quydagicha turlari bor.

1. Korporativ obligatsiya
2. Munitsipal obligatsiya
3. Xorijiy obligatsiyasi

Korporativ obligatsiyalar aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Munitsipal obligatsiya - bu mahaliy hokimiyatlar tamonidan chiqarilgan obligatsiyalarga aytiladi.

Xorijiy obligatsiya- bu davlatlar tamonidan chiqarilgan obligatsiyalar tushunamiz.

O'zbekiston 2021-yil 13-iyul, soat 15:37 da 635 million dollar va 2,5 trillion so'mlik yevrobondlarni joylashtirdi.

O'zbekiston 2020-yil 20-noyabr, soat 12:14 da 555 million dollar va 2 trillion so'mlik suveren yevrobondlarni joylashtirdi.

O'zbekiston 1992-yil 12 foizlizayomli yutuqli obligatsiyani mahaliy hududiga chiqargan.

Obligatsiyani o'zbekiston chetga chiqargandan afzaligi shundan iboratki ozbekistonga foiz stavkasini pastligi va xorijiy valutasini jalb qilish osoligidadir.

Boshqa davlatlar ham huddi shunday investorlar o'z mablag'ini bankdan ko'ra foizi yuqori va risk jihatdan ancha havsizligi uchun qiziqish ug'otadi va harid qiladi. Eng qiziq fakt o'zbekiston chiqargan obligatsiyalar 2 soatga qolmasdan sotilgan. O'zbekiston fond bozori moliyaviy mahsulotlari xilma-xilligini kengaytirish maqsadida BMTning O'zbekistondagi loyihasi hamda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik olib borilmoqda.

Joriy yilning 29 - iyun kuni Bloomberg'da O'zbekistonning "yashil" obligatsiyalar bozorini egallash rejasi haqidagi maqola e'lon qilindi, deb xabar bermoqda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi. Bildirilishicha, O'zbekiston fond bozori moliyaviy mahsulotlari xilma-xilligini kengaytirish maqsadida BMTning O'zbekistondagi loyihasi hamda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik olib borilmoqda.

"Bizga bir qator moliyaviy instrumentlar kerak. Hozirda ushbu instrumentni joriy qilish ustida ishlab, uni tezroq amalga oshirmoqchimiz. O'zbekiston ham islom, ham an'anaviy korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega", - deydi.

Ma'lumot uchun, "sukuk" yashil obligatsiyalari investitsiya jalb qilishning keng tarqalgan usuli bo'lib, loyihaviy moliyalashtirish hamda ijara unsurlariga o'xshab ketadi. Hozirda ushbu bozorning jahondagi aylanmasi taxminan 950 mln dollarni tashkil etadi. Islom instrumentidan foydalanishning investor uchun eng afzal jihati shundaki, bunda qimmatli qog'ozning daromadliligi "sukuk" chiqarilayotgan loyihaning daromadiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki qimmatli qog'ozlardan qanchalik unimli foydalanayotganimiz va foydalanmoqchi bo'lganimizni.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" 7-band, 33-maqсад.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil
3. James Chen. Dividend Discount Model. Article of Fundamental analysis of Finance.

4. <https://lex.uz>

5. <https://uz.thelittlecollection.com>

ИККИЛАМЧИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ БОСҚИЧЛАРИ

Рўзикулов Абдимўмин Қуссам ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Молия кафедраси мустақил изланувчиси
ruzikulov.a@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада халқаро ва миллий молия бозорининг шаклланиши ва унинг ривожланиш босқичлари ёритиб берилган ҳамда молия бозорининг моҳияти очиб берилган.

Калит сўзлари. Халқаро капитал бозори, молия бозори, биржа, фонд, пул, кредит, ислоҳот, қимматли қоғоз, молиявий муносабатлар.

Иккиламчи қимматли қоғозлар бозори ҳар қандай мамлакатнинг умумий бозорини таркибий, аммо, асосий ва алоҳида қисмидир. Иккиламчи қимматли қоғозлар бозори реал иқтисодиёт ва товар бозорининг устқурмаси сифатида намоён бўлиши билан бирга товар бозори ва иқтисодиётни молиявий таъминлайди ва мувофиқлаштиради, умуман иқтисодиётнинг объектив ҳолатини ифодалайди ва ривожланишини белгилайди. Иккиламчи қимматли қоғозлар бозорини пайдо бўлиши инсоният жамиятида пулни пайдо бўлиши билан боғлиқ ҳисобланади.

Инсоният жамиятида пул билан боғлиқ муносабатлар вужудга келиши иккиламчи қимматли қоғозлар бозори вужудга келишига олиб келди. Йиллар давомида иккиламчи қимматли қоғозлар бозори ривожланиши узлуксиз давом этмоқда. Бунга асосий сабаб, инсон цивилизациясининг молия соҳасидаги тажрибасини бойиши, унда шахсларнинг (юримдик ва жисмоний) молиявий муносабатлари ва қизиқишлари кенгайиб, мақсадлари ва фаолият турлари ортиб, манфаатлари тобора ўсиб, уларнинг ҳақ-хуқуқлари борган сари мустаҳкамланиб ва таъминланиб боришидадир.

Иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг ривожланиши параллел равишда амалга оширилади жаҳон иқтисодий муносабатлари, халқаро молия муносабатлари ва халқаро пул-кредит тизимларининг ривожланиши билан боғлиқдир. XX асрнинг иқтисодий тараққиёти шуни тўлиқ тасдиқладики, фақат бозор иқтисодиётигина халқ хўжалиги самарадорлик кўрсаткичларининг энг юқори даражасини таъминлайди. Бозор механизмининг самарадорлиги кўп жиҳатдан иқтисодиётнинг товар-пул муносабатлари билан қанчалик тўлиқ қамраб олинганлигига боғлиқ. Бу товар бозорлари билан бир қаторда Иккиламчи қимматли қоғозлар бозорини шакллантириш зарурлигини англатади. XIX асрнинг иккинчи ярмида жаҳонда миллий иқтисодиётнинг интеграциялашуви даражаси ошиши натижасида жаҳон иқтисодиёти тизим сифатида пайдо бўлди. Жаҳонда валюта бозорини яралиши, тарихан замонавий иккиламчи қимматли қоғозлар бозори шакллантиришнинг биринчи босқичини ташкил этишда объектив зарурат пайдо бўлди. Жаҳон валюта бозорини ривожланиши халқаро валюта фондининг 1960 йилдан 1976 йилгача валюта бозорини ривожлантириш даври ҳисобланди. Унга биноан, олтин ва олтин стандартлари бўйича олтин монометализмдан халқаро монетар тизим (ХВФ) доирасида ташкил этилган босқичларни жуда динамик тарзда ривожланган. Халқаро валюта бозори ва унинг ривожланиши халқаро ва маҳаллий қимматли қоғозлар бозорини иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг ривожланишига олиб келди. Ўтган асрнинг 1950 йиллари ўрталарига халқаро валюта бозори ривожланиши биринчи жаҳон уруши (1914-1918), жаҳон иқтисодий инқирози (1929-1933), иккинчи жаҳон урушида (1939-1945) валюта чекловлар тўсиқ бўлди. Бундан ташқари, миллий қимматли қоғозлар бозорини иккиламчи қимматли қоғозлар бозорига қаттиқ тартибга солиниши мазкур бозорни ривожланишига катта тўсиқ бўлди. Ушбу даврларда халқаро валюта бозори фаолиятни тўхтатди, шунинг учун халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорида иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг бошқа сегментларини ривожлантириш учун объектив шароитлар мавжуд эмас эди. Янги халқаро пул-кредит тизимини

яратиш - Бреттон Вудс (1945-1946) - халқаро валюта бозорини тиклаш ва Иккиламчи қимматлининг бошқа сектори - халқаро кредит бозорининг босқичма-босқич ривожланишига ҳисса қўшди. Халқаро пул-кредит тизимини яратилиши иккиламчи қимматли қоғозлар бозори ривожланишини иккинчи босқичи бошланди.

Халқаро ва миллий молия бозорининг шаклланишининг иккинчи босқичи 1950-йилларнинг охирида бошланган бўлиб, унда давлатлар ўртасида капиталнинг (шу жумладан кредитларнинг) катта миқдордаги ҳаракати учун шартлар пайдо бўлган ва халқаро кредит бозорининг ривожланишига шароитларлар яратилган вақтни ўз ичига олади. Халқаро кредит бозорининг бу биринчи операциялари асосан қисқа муддатли (бир йилгача бўлган) эди. Фақат, 1960 йилларда эса, узоқ муддатли кредитлар учун жиддий бозор талаби мавжуд бўлиб, кредитларнинг узоқ муддатли (баъзан 15 йилгача) бўлиши халқаро кредит бозорини ривожланиши асосиди халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозори олиб келди. 1960 йилларнинг охирига келиб, халқаро кредит бозорида кредитлар ҳажми сезиларли даражада ошди. XXI аснинг бошларида халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг капитал бозори сектори сезиларли миқёсда ривожланиб, кредит маҳсулоти ва хизматларининг кенг доирасини тақлиф эта олди. Дунё иқтисодиётида халқаро кредит бозори ривожланиши халқаро фонд ва халқаро инвестиция бозорларининг шаклланишига туртки бўлди.

Халқаро фонд ва халқаро инвестиция бозорларининг ривожланиши халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг ривожланишини учинчи босқич 1980 йилларга тўғри келади. Ушбу даврда халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг суғурта сектори ҳисобланган, халқаро ва миллий суғурта қимматли қоғозлар бозори шаклланди. 1970-йилларнинг охири 1980 йилларнинг бошларида етакчи трансмиллий компаниялар ва банкларни шаклланиши, чет элда ишлаб чиқариш ва молиявий

тузилмаларда эркин капитални жалб қилишни осонлаштириш мақсадида халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорида қўшимча маблағлар жалб қилиш имконияти яратилди. Кўп секторли халқаро молия бозорини шакллантиришга асосан халқаро транзакциялар етакчи мамлакатларнинг валюталари конвертациялашни жорий қилиш, ушбу валюталарнинг алмашинув курслари учун эркин сузувчи курс тизими яратилиши, етакчи саноатлашган мамлакатларда валюта режими эркинлаштириш сабаб бўлди. Бундан ташқари, чет эл валютасидаги валюта оқимларининг эркин ҳаракатланиши халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг ривожланишига олиб келди.

1990 йилларда эса, халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорининг шаклланишининг тўртинчи босқичида дериватив молиявий воситалар бозори жадал ривожланди. Ҳосилавий қимматли қоғозларни ривожланишида фоизлар, своплари, опционлари, кредитлар учун валюта своплари молия бозорларида 40 триллион доллардан ортиқ иштрок этди. Ушбу кўрсаткични 1980 йиллар даражаси билан солиштирганда бир неча баробар кўплигини кўрсатади. Халқаро ва миллий қимматли қоғозлар бозорининг иккиламчи қимматли қоғозлар бозорини шакллантиришнинг асосий босқичлари қуйидаги жадвалда акс этирилган (1-жадвал).

Йил	1-босқич
1860-йиллар	Ташқи савдони ривожлантириш. Халқаро валюта бозорининг пайдо бўлиши.
Йил	2-босқич
1950-йиллар	Миллий кредит бозори операцияларини интеграциялашуви.
1960-йиллар	Халқаро кредит бозорининг шаклланиши
Йил	3-босқич
1970-йиллар	Узоқ муддатли капитал учун халқаро бозорни шакллантириш ва халқаро инвестиция бозорини яратиш.
	Миллий фонд бозорларини тартибга солиш. Халқаро фонд бозори шаклланиши.

1980-йиллар	Трансмиллий банклар ва компанияларнинг тез суръатлар билан ривожланиши. Халқаро инвестициялар ва ф бозорларини янада ривожланиши. Халқаро суғурта бозоридаги биринчи тизимли операция ривожланиши. Халқаро кредит бозори фаолиятининг ривожланиши.
Йил	4-босқич
1990-йиллар	Халқаро ва миллий молия бозорларининг фонд бозори сегментининг тез суръатлар билан ривожланиши. Халқаро ва миллий молия бозорида дериватив бозорларини шаклланиши.
2000-йиллар	Халқаро ва миллий молия бозорида дериватив бозорларини тез суръатларда ривожланиши.

1-жадвал. Халқаро ва миллий молия бозорининг шаклланиш босқичлари⁵⁸.

Иккиламчи қимматли қоғозлар бозори ўзининг иқтисодий мазмунида муайян муносабатлар тизими ҳисобланиб, минтақалар, тармоқлар ва институтлар ўртасида рақобатбардош асосда молиявий ресурсларни тўплаш ва қайта тақсимлашнинг ўзига хос механизми ҳисобланади. Иккиламчи қимматли қоғозлар бозори нафақат иқтисодиётда пул маблағларини қайта тақсимлаш воситаси бўлиб, балки мамлакат иқтисодиётини ҳолатини кўрсатадиган кўрсаткич ҳисобланади. Бозор иқтисодиёти шароитида молиявий ресурслардан узлуксиз фойдаланиш, уларни самарали инвестициялаш ва мақсадга мувофиқ йўналтириш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Иккиламчи қимматли қоғозлар бозор аҳоли ва хўжалик субъектларининг вақтинча бўш маблағларини йиғиш ва уларни самарали жойлаштиришда пул маблағларини эгалари (жамғарувчилар) ва улардан фойдаланувчилар (инвесторлар) ўртасида воситачилик қилади.

Иккиламчи қимматли қоғозлар бозори молия бозорининг таркибий қисми ҳисобланади. Молия бозорига назар ташласак, молия бозори (financia) лотинча сўздан олинган бўлиб, пул, даромад маънони англатади. Молия бозори тушунчаси кенг маънони ва мураккаб иқтисодий тоифани ташкил этади. Молия бозорининг замонавий маънода инглизча “financial market” сўздан

⁵⁸ М.А.Эскиндарова ва Е.А.Звоновой “Международный финансовый рынок” учебник и практика Москва 2017 г. 29 с.

олинган бўлиб, *молия бозори* – бу қимматли қоғозлар ва облигациялар каби қимматли қоғозларни сотиб олиш ёки сотиш мумкин бўлган бозор ҳисобланади⁵⁹. Ушбу терминни пайдо бўладиган биринчи асарларидан бири 1963 йилда чоп этилган таниқли иқтисодчи Жеймс Тобиннинг мақоласида ўз аксини топган⁶⁰. Бироқ, ўша пайтда молия бозорида пул бозори ва капитал бозори билан боғлиқ бўлмаган ва ушбу термин кейинчалик кенг тарқалмаган. 1973 йилда эса, “The Encyclopedia Americana” энциклопедиясида “financial market” сўзи қайд этилмади, аммо 1976 йилда Британиянинг “The New Encyclopedia Britannica” энциклопедиясида “financial market” сўзи қайт этилди. Шубҳасиз, молия бозори терминининг кириб келиши пул бозори ва капитал бозорини ривожланишига тўғри келиди деб, 1974 йилда Роналд Робинзоннинг “Молиявий бозорлар: бойликни тўплаш ва тақсимлаш” асрида қайд этилган⁶¹.

Европада ушбу тушунча Америка молиявий бозорининг таъсири остида биров кейинроқ тарқалди. 1960 йилларнинг охирида Францияда “молиявий бозор” тушунчаси (*marche financier*) ишлатила бошлаган, лекин ушбу термин пул бозорини ажратиш мақсадида капитал бозор маъносида ишлатилган⁶².

Молия бозорида ўзаро таъсирда бўладиган мулк эгалари билан сармоя, қарз олувчилар ўртасидаги муносабатларини тавсифлайди. Молия бозорида кредитлар, векселлар, акциялар, облигациялар, инвестициялар ва бошқа турдаги қимматли қоғозлар олди-сотди ва ҳаракат объекти ҳисобланади. Бозорлар ўз қонуниятлари асосида фаолият кўрсатади. Бу қонуниятларни билиш, улардан оқилона фойдалана олиш, бутун иқтисодий, молиявий самарани ошишида катта аҳамият касб этади. Бугунги кунда молия бозориги дунё олимларлари томонидан қуйдагича таърифлар мавжуд. Маҳаллий

⁵⁹ Никитина Т.В., Репета-Турсунова А.В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 115 с.

⁶⁰ Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. – 1963. – Vol. LIII, № 2 – P. 383-400

⁶¹ Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N.Y.: McGraw-Hill, 1974. – 512 p.

⁶² Никитина Т.В., Репета-Турсунова А.В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты : учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 14 с

иқтисодчи олимлардан Ш.Ш.Шахъазимий таърифига кўра, *молия бозори* – бу монетизациялашган реал инвестицион базисга эквивалент молиявий инструментлар билан боғлиқ ташкиллашган иқтисодий-ҳуқуқий механизм билан таъминланган муносабатларни мақсадли амалга оширувчи, иқтисодиёт субъектлари учун зарурий бозор шароитларини яратиб берувчи мажмуа сифатида намоён бўлувчи тизим. Ушбу тизим механизми иқтисодиётнинг барча субъектлари томонидан уларни ҳар бирининг алоҳида манфаатли мақсадлари доирасида ҳаракатга келтирилади. Хориж олимларидан В.Э. Чернова таърифига кўра, *молия бозори* – доимий ҳаракатда бўлган барча пул ресурсларининг умумий миқдори бўлиб, яъни иқтисодиётнинг турли субъектлари томонидан ушбу ресурсларга бўлган талаб ва таклифнинг ўзгариши орқали жойлаштириш ва қайта тақсимлаш ҳисобланади⁶³. Углинская В.В. ва Хорунжин М.Глар таърифига кўра, *молия бозори* – махсус институтлар ёрдами билан молиявий активларни инвесторлар ўртасида алмашиш механизмини самарали тақсимлаш ҳисобланади.⁶⁴ *Молия бозори*- бу қимматли қоғозлар, облигациялар, валюталар ва деривативларни ўз ичига олган бозор ҳисобланади⁶⁵.

Фикримизча, *Молия бозори*- муайян институционал инфратузилма, шу жумладан ихтисослаштирилган молиявий институтлар орқали молиявий активларни шакллантириш ва алмашиш бўйича турли субъектлар ўртасида пайдо бўладиган иқтисодий (молиявий) муносабатлар. Молия бозорларининг моҳияти молиявий ресурсларни истеъмолчилар ўртасида тежашни самарали тақсимлаш ва махсус моливий институтлар орқали молиявий активларни алмашиш механизми ҳисобланади. Молия бозорларининг мақсади ихтисослаштирилган молиявий институтлар орқали молиявий алмашинувида савдо, тўлов, ҳисоб-китоб ва бошқа тизимлар ташкил этиш учун шарт-

⁶³ Чернова В.Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015. 73 с.

⁶⁴ Углинская В.В., Хорунжин М.Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015. – 79 с.

⁶⁵ <https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp>

шароитлар яратишдан иборат. Молия бозорлари элементлари сифатида қуйидагилар киради:

- молиявий воситалар жами (инструментлар);
- молиявий институтлар тизими;
- Молиявий активларни сотиб олиш ва сотиш учун битимлар тузиш технологияси, биржадан ташқари ва биржада амалга оширилган;
- молиявий активларни сотиб олиш ва сотиш битимларининг жамиси.

Шундай қилиб, молиявий бозорлар молиявий воситаларни сотиб олиш ва сотиш бўйича битимлар мажмуаси сифатида ифодаланadi. Савдо, тўлов ва бошқа тизимлар технологиялари эса молиявий институтлар асосида амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *М.А.Эскиндарова ва Е.А.Звоновой “Международный финансовый рынок” учебник и практика Москва 2017 г. 29 с.*
2. *Никитина Т.В., Ренета-Турсунова А.В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Ренета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 115 с.*
3. *Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. – 1963. – Vol. LIII, № 2 – P. 383-400*
4. *Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N.Y.: McGraw-Hill, 1974. – 512 p.*
5. *Никитина Т.В., Ренета-Турсунова А.В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты : учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Ренета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 14 с*
6. *Чернова В.Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015. 73 с.*
7. *Углинская В.В., Хорунжин М.Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015. – 79 с.*
8. <https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp>

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТНИ ЎРТА МУДДАТЛИ РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРЛИГИ

*ТМС Тошкент институти
Иқтисодиёт фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори (PhD), доцент
Иманова Умида Бахтиёровна*

Калит сўзлар – давлат молияси, бюджет сиёсати; бюджет трансфертлар; маҳаллий бюджет; маҳаллий бюджетлари харажатлари; молиялаштириш механизми; бюджет календари.

Аннотация - бюджет-солиқ соҳасида олиб борилаётган ислохотлар; маҳаллий бюджет даромадлари; молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш; маҳаллий бюджетларнинг даромадлари базаси.

Жаҳон мамлакатлари учун молиявий барқарорликни ошириш йўлларини излаш муҳим бўлиб қолмоқда. Мазкур ҳолат янги глобал муаммоларнинг, жумладан, Covid-19 пандемиясининг пайдо бўлиши билан янада мураккаблашди. Маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлигини ўз вақтида ва комплекс таҳлил қилиш иқтисодий таваккалчиликларни ҳар томонлама баҳолаш, ижтимоий ва бошқа муаммоларни аниқлаш, режалаштириш камчиликларини кўриб чиқиш ҳамда шу асосда ҳудудий бюджет сиёсатининг самарали шаклланишига имкон беради.

Мамлакатда бюджет-солиқ соҳасида олиб борилаётган ислохотлар замирида аҳоли турмуш фаровонлигини юксалтириш, иқтисодий барқарорликни таъминлаш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг жадал ривожига кенг имконият яратиш мақсади мужассамдир. Хусусан, иқтисодиётда солиқ юқини янада камайтириш, солиқ солиш механизмини соддалаштириш ҳамда солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш борасидаги чора-тадбирлар ана шу мақсад рўёбига қаратилмоқда. Маҳаллий бюджет даромадларини кенгайтириш ҳамда солиқ тўловчиларни аниқлаштириш ва унга нисбатан ёндашувларни асосланган ҳолда амалга оширилиши муҳим аҳамият касб этади. Маҳаллий бюджетларни молиявий барқарорлигини ошириш мамлакат миқёсида бир хил хусусиятга эга бўлмаслиги мумкин,

лекин ҳудудий нуқтаи назардан ўзаро фарқланиши мавжуд бўлади. Маҳаллий бюджетларнинг ижросини таъминлаш ва уларнинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш молиявий стратегиянинг муҳим йўналишлари ҳисобланади. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш икки жиҳатдан қаралиши мумкин. Жумладан:

2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясига мувофиқ ҳамда маҳаллий бюджетларнинг даромадлари базасини тубдан мустаҳкамлаш, юқори турувчи бюджетлар ажратмаларига қарамлигини қисқартириш, уй-жойкоммунал, транспорт-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани модернизациялаш ва техник янгилаш бўйича стратегик муҳим инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни сўзсиз таъминлаш юзасидан маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг мустақил иш олиб бориши ва масъулиятини ошириш мақсадида қабул қилинди.

компаниялар ИФлари активларини бошқаришда алоҳида аҳамиятни касб этадилар. Мазкур қонун бўйича инвестицион компаниялар кредит муассасалар жумласига киритилиб, кредит ташкилотларига қаратилган барча ҳуқуқий нормалар уларга ҳам тегишли ҳисобланади. Шунинг учун инвестиция фондлари (компания)лари нафақат КАГГ қонунлари кўрсатмаларига балки «Кредит ташкилотлари тўғрисида»ги қонун нормаларига ҳам қатъий риоя қилишади. Шу боис ҳам инвестиция компаниялари фаолияти кредит ташкилотларини назорат қилувчи Федерал органлари томонидан ҳам назорат қилиб борилади. Минимал устав фонди эса 5 миллион еврони ташкил этади.

Хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, КАГГ инвесторларининг манфаатларини ҳар томонлама ҳимоя қилиш, инвесторлар алданиб қолишдан ва шу аснода зарар кўришдан максимал даражада ҳимоялайдилар. Ўз хизматини тақлиф этувчи инвестиция компаниялари ўзлари ҳақида инвесторга тўлиқ ахборот тақдим этишлари, инвестор эса, тақдим этилган маълумотлар асосида ўзи учун юқори даражада самара бера оладиган инвестициялар ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлади. Шу билан бирга инвестиция компаниялари улушни қайтариб бериш ҳуқуқи инвестор учун нотўғри маълумотлар асосида ва шошилиш тузилган шартномалардан воз кечиш имкониятини беради.

MALAYZIYA UCHUN ISLOM KAPITAL BOZORI AHAMIYATI

PhD Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li
“O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
sektor mudiri

Annotatsiya. Moliya bozorining barcha sektorlarida islom moliyasi instrumentlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishda islom kapital bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni Malaysiya misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. islom kapital bozori, sukuk, aksiya, obligatsiya, emissiya, IILM, MIFC.

Abstract. The rational use of Islamic finance instruments in all sectors of the financial market is becoming increasingly important. The work discusses the role of the Islamic capital market in the country's economy on the example of Malaysia.

Keywords. Islamic capital market, sukuk, stock, bond, issue, IILM, MIFC.

Аннотация. Все большее значение приобретает рациональное использование инструментов исламского финансирования во всех секторах финансового рынка. В тезисе рассматривается роль рынка исламского капитала в экономике страны на примере.

Ключевые слова. Исламский рынок капитала, сукук, акция, облигация, выпуск, IILM, MIFC.

Bugungi kunda islom kapital bozori eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblangan Malayziyada soha mustahkam asosga ega. Mamlakat innovatsion mahsulotlar va ekotizimni qo‘llab-quvvatlovchi islomiy moliya sohasida global yetakchi sifatida gavdalanib kelmoqda. Malayziya o‘zining keng qamrovli me‘yoriy-huquqiy bazasi, qulay bozor infratuzilmasi va shariatga mos keladigan moliyaviy mahsulotlar hamda xizmatlarning keng doirasi bilan o‘zini islomiy kapital bozori faoliyati uchun afzal joy sifatida namoyon etmoqda. Islom moliyasining rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sirlari doirasida avval bir necha tadqiqotlar o‘tkazilgan[1]. Mazkur maqolada Malayziya islom kapital bozorining mamlakat kapital bozoridagi roli va ko‘lami tahlil qilinadi.

Malayziya islom kapital bozorining global yetakchisi sifatida Malayziya qimmatli qog‘ozlar komissiyasi bozorning manfaatdor tomonlari bilan o‘zaro


munosabatlarni rivojlantirishda va Malayziyada bozorning yetakchilini saqlab qolishda davom etishini ma'lum qilgan[2].

Pandemiya keltirib chiqargan global muammolarga qaramay Malayziya 2021-yilda yirik islom kapital bozori markazi va sukuk emissiyalari bo'yicha yetakchi bo'lib qolishda davom etdi. Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasining 2021-yilgi yillik hisobotiga ko'ra, islom kapital bozori hajmi 2020-yil oxiridagi 538 milliard AQSh dollaridan 2021-yil oxirida 550 milliard AQSh dollariga yetdi[3]. Islom kapital bozori Malayziya kapital bozorining asosiy komponenti bo'lib qolmoqda va uning 65,4% hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu 548 milliard dollarlik shariatga muvofiq qimmatli qog'ozlarning umumiy bozor kapitallashuvini, shundan 262 milliard AQSh dollari miqdoridagi jami sukukni o'z ichiga oladi.


Bozorning o'sishi uchun mintaqaviy va global standartlarning muhimligini hisobga olgan holda, Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi orqali islom kapital bozori ekotizimini faol ravishda rivojlantirmoqda. 2021-yilda Qimmatli qog'ozlar komissiyasi keyingi besh yil uchun, ya'ni 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan uchinchi kapital bozori bosh rejasini (CMP3) taqdim etdi, bu Malayziyada yanada samarali va diversifikatsiyalangan kapital bozorini yaratishga qaratilgan faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi islom kapital bozori strategiyasi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Shu sababli yangi konsepsiyalar Malayziya islom kapital bozorida shakllanib bormoqda. Jahondagi birinchi yashil sukuk, ESG sukuk, Vaqf fondining IPOsi va raqamli aktivlar birjasida ro'yxatdan o'tgan raqamli aktivlar bilan savdo qilish va investitsiya kiritishga Malayziya shariat kengashini ruxsati shular jumlasidandir.

Islom kapital bozori Malayziya kapital bozorining ajralmas qismi bo'lib uning deyarli 64,4 foizini tashkil qiladi (1-rasm). Malayziya islom kapital bozorining hajmi 2022-yilda 2,3 trln. Malayziya ringgitini tashkil qilgan. Shundan 1,1 trln.dan Malayziya ringgitidan ortig'i shariatga muvofiq aksiyalar bo'lsa 1,2 trln. Malayziya ringgitiga yaqini muomaladagi sukuklar hisoblanadi. Islom kapital bozori 2022-yilda 0,6 foizlik o'sishni qayd etgan.



1-rasm Malayziya kapital bozori tarkibi (2022-yil)⁶⁸.




2-rasm. Malayziya islom kapital bozori hajmi⁶⁹

Malayziya kapital bozorining 48,1 foizini aksiyalar tashkil etsa, qolgan 51,9 foizlik ulush obligatsiyalar va sukuklar hissasiga to'g'ri keladi. 2022-yilda islom kapital bozori o'sishining yagona omili bu muomaladagi sukuklar hajmining ortishi bo'lib qolmoqda (2-rasm). Shariatga muvofiq aksiyalar hajmida pasayish kuzatilgan.

⁶⁸ Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p172.

⁶⁹ Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p172.



3-rasm. Malayziya islom kapital bozoridagi shariatga muvofiq aksiyalarning ulushi (foizda)⁷⁰

Malayziya fond bozorida shariatga muvofiq aksiyalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil dekabr ma'lumotlariga ko'ra listingdan o'tgan 972 ta aksiyalarning 789 tasi (81,2 foiz) shariatga muvofiq aksiyalar hisoblanadi (3-rasm).

2021-yil yakunlariga ko'ra mazkur ko'rsatkich 750 tani (79,0 foiz) tashkil etgan. Hajm nuqtai nazaridan shariatga muvofiq aksiyalar qiymati 2022-yil yakuniga ko'ra 1,14 mlrd. malayziya ringitini tashkil etib umumiy bozori hajmining 65,6 foizini tashkil etgan.

Malayziya o'zining islom kapital bozorini xalqarolashtirishni faol ravishda amalga oshirib kelmoqda. Xalqaro islom likvidligini boshqarish korporatsiyasi (IILM) va Malayziya xalqaro islom moliya markazi (MIFC) kabi tashkilotlar Malayziyaning islom kapitali bozorida ishtirok etish uchun xalqaro investorlar va emitentlarni jalb qilishga qaratilgan. Ushbu sa'y-harakatlar transchegaraviy islom moliyasi operatsiyalarning o'sishiga hissa qo'shib Malayziyani xalqaro islom moliyasi markaz sifatida tanitib kelmoqda.

⁷⁰ Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p173.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abrorov, Sirojiddin. "The importance of sukuk in the development of economy: as an example of its impact on the income of the malaysian population." *Journal of Critical Reviews* 7.2 (2020): 776-780.

2. Аброров, С., & Қорабоев, Н. (2020). Қимматли қозғозлар бозорида сукукнинг ролига оид илмий-назарий мулоҳазалар ва унинг ўзига хос жиҳатлари. *Economics and education*, (1), 126-130.

3. Abrorov, Sirojiddin. "THE ANALYSIS OF WORLD SUKUK MARKET." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

4. Abrorov, Sirojiddin. "SUKUK BOZORINI RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG 'OR TAJRIBALARI." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 1.1 (2023): 13-20.

5. *Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p91.*

6. *IIFM Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, August 2022, 11th edition. pp 166.*

ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА МУВОФИҚ МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИ БАҲОЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Боронов Бобур, -
СамИСИ, доцент в.б.
Ахмедов Миржало –
СамИСИ, стажёр тадқиқотчи

Аннотация: Ушбу мақолада салмоқли таъсир кўрсатувчи инвестицияларни ҳиссали қатнашиши методи асосида баҳолаш, инвестицияларнинг баланс қийматини аниқлашда илгор тажрибаларини жорий қилиш масалалари акс эттирилган.

Калитли сўзлар: инвестиция, салмоқли таъсир кўрсатиши, ҳиссали қатнашиши методи, ассоциациялашган компаниялар, дивиденд.

Аннотация: В этой статье отражаются вопросы оценки инвестиции значительного влияния с методом долевого участия, а также внедрения прогрессивных опытов при определения балансовой стоимости инвестиции.

Ключевые слово: инвестиция, значительное влияние, метод долевого участия, ассоциированные компании, дивиденд.

Abstract: This article reflects the issues of assessing investments of significant influence with the equity method, as well as introducing progressive experiences in determining the carrying value of investments.

Key words: investment, significant influence, equity method, associates, dividend.

Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисобининг роли ва аҳамияти янада ошади. Корхоналар иқтисодиётига доир ахборотларнинг асосий қисми бухгалтерия ҳисобида шакллантирилади. Бухгалтерия ҳисобида энг долзарб масалалардан бири бу илғор тажрибаларни қўллаш орқали бухгалтерия ҳисоби объектларини адолатли (ҳаққоний) баҳолаш бўлиб ҳисобланади. Ассоциациялашган компаниялар фаолиятига салмоқли инвестиция киритилганда ҳиссали қатнашиш методи ёрдамида баҳолаш масалалари илғор тажрибалардан ҳисобланади. Ушбу методнинг қўлланилишининг услубий масалалари билан танишиб чиқайлик.

28-сон БҲХС “Ассоциациялашган компанияларга инвестициялар ҳисоби” стандартига мувофиқ, қуйидаги битта ёки бир нечта усуллар амал қилиши мавжуд бўлган ҳолларда инвестор томонидан салмоқли таъсир кўрсатиш амалга ошади:

- инвестиция объектининг директорлар Кенгаши ёки бошқарувнинг шунга ўхшаш анологик органларида вакиллик;
- сиёсатни ишлаб чиқиш жараёнида қатнашиши;
- инвестор ва инвестиция объекти ўртасида йирик операциялар;
- бошқарув персоналини алмаштириш;
- ўта муҳим техник ахборотларни тақдим қилиш”.

Инвестор компаниянинг молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботида инвестицияларни ҳиссали қатнашиш методи ёки 39-сон БҲХС “Молиявий инструментлар: тан олиш ва баҳолаш” стандарти талабаларига мувофиқ сотишга мўлжалланган молиявий актив сифатида адолатли қийматида акс эттиради. Инвестор молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда “Ассоциациялашган компаниялар ёки қўшма фаолиятдаги инвестициялар”ни алоҳида сатрда ҳамда фойда ва зарарлар ҳамда бошқа тўплам даромадлари тўғрисидаги ҳисоботида ассоциациялашган компаниялар ёки қўшма фаолиятнинг фойда ва зарарларида ҳиссаси ёки даромадидан олинган

дивиденд сифатида акс эттиради. Бошқа тўплам даромадлардаги ҳиссасининг ўзгариши инвесторнинг бошқа тўплам даромадларида алоҳида сатрда қайд қилинади. Соҳага доир адабиётларни таҳлил қилишда аниқлаш мумкинки, ҳиссали қатнашиш методинининг қўлланилишини иккита ёндашувда амалга ошириш мумкин:

Биринчи ёндашув, овоз бериш ҳуқуқидаги акцияларига эгалик қилиш фоизидан келиб чиқиб, инвестицияларнинг бошланғич қиймати инвестиция объектининг соф фойдаси ёки зараридаги ҳиссасига кўпаяди.

Иккинчи ёндашувда эса, овоз бериш ҳуқуқидаги акцияларга эгалик қилиш фоизидан келиб чиқиб, инвестициянинг бошланғич қиймати инвестиция объектининг соф активларидаги ҳиссасининг ўзгаришига кўпаяди.

Биринчи ёндашувда ҳиссали қатнашиш методининг қўлланилишининг методик тартибини қуйидаги мисолларда кўриб ўтамиз:

Ҳиссали қатнашиш методига мувофиқ ҳисобот даврининг охирида инвестициянинг баланс қиймати ($ИТ_1$):

- Даставвал инвестициялар таннархи бўйича ҳисобга олинади ($ИТ_0$);
- харид санасидан кейин унинг баланс қиймати инвесторнинг инвестициялаш объекти фойда ва зарарларида тан олинган ҳиссасига кўпаяди ёки камаяди ($ФЗ_x$);
- инвестициялаш объектдан дивиденд кўринишида даромад олиниши инвестициянинг баланс қийматини камайтиради ($Д_d$);
- баланс қийматининг коррективировкаси инвесторнинг инвестициялаш объекти бошқа тўплам даромадидаги ҳиссаси ўзгариши ($БТД_x$).

У ҳолда, ҳисобот даврининг охирида инвестициянинг баланс қийматини қуйидаги формула кўринишида аниқлашимиз мумкин бўлади:

$$ИТ_1 = ИТ_0 + ФЗ_x - Д_d + БТД_x$$

1-мисол. А компания Б компаниянинг 35% овоз берувчи акцияларини харид қилган. Харид қилинган даврда акцияларнинг бошланғич қиймати 400000 минг сўмни ташкил этган. Б компания ҳисобот даврида 150000 минг сўм фойда олди. Олинган соф фойдадан акциядорларга 30000 минг сўм

дивиденд тўлади. Б компаниянинг ҳисобот даврида бошқа тўпلام даромадлари 25000 минг сўмни ташкил этди.

Аниқлаш талаб этилади: Ҳиссали қатнашиш методини қўллаб ҳисобот дарининг охирида А компаниянинг Б компанияга киритган инвестициясининг баланс қийматини аниқлаш.

Ечиш:

1. А компаниянинг Б компаниянинг соф фойдасидаги ҳиссасини топамиз:

$$\frac{150000 \times 35\%}{100\%} = 52500 \text{ минг сўм}$$

2. А компаниянинг Б компания томонидан акциядорларга тўланган дивидендларидаги ҳиссаси:

$$\frac{30000 \times 35\%}{100\%} = 10500 \text{ минг сўм}$$

3. А компаниянинг Б компаниянинг бошқа тўпلام даромадларидаги ҳиссаси:

$$\frac{25000 \times 35\%}{100\%} = 8750 \text{ минг сўм}$$

4. Ҳисобот дарининг охирида А компаниянинг Б компанияга киритган инвестициясининг баланс қийматини топиш учун унинг ҳисобот даврининг бошидаги қийматига инвестиция объектнинг соф фойдасидаги ҳиссасини қўшиб, тўланган дивидендлардаги ҳиссасини айириш ҳамда бошқа тўпلام даромадларидаги ҳиссасини қўшиш лозим:

$$400000 + 52500 - 10500 + 8750 = 450750 \text{ минг сўм}$$

Демак, ҳисобот даврининг охирида инвестициянинг баланс қиймати 450750 минг сўмни ташкил этади.

Ушбу методнинг қўлланилиши хорижий компанияларнинг инвестицияларини тўғри баҳолаш ва уларнинг ҳиссасини аниқ ҳисоблаш имконини беради ва инвестицион муҳитни яхшилашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. (IAS) 28 “Инвестиции в ассоциированные организации и совместные предприятия” https://nrm.uz/contentf?doc=468283_ias_28_investicii_v_associir_ovannye_organizacii_i_sovmestnye_predpriyatiya&products=1_zakonodatelstvo_republiki_uzbekistan.

2. 39-сон БҲХС “Молиявий инструментлар: тан олиш ва баҳолаш” стандарти. <https://www.ifrs.org/ua/mezhdunarodny-e-standarty-finansovoj-otchyotnosti/>; www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/.

3. Финансовые активы компаний: Часть 2. Отражение в МСФО. <https://vashkaznachei.ru/finansovye-aktivy-kompanij-chast-2-otrazhenie-v-msfo/>.

ФОНДОВЫЕ РЫНКИ И ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ: ПУТЬ К ФИНАНСОВОМУ ОСОЗНАНИЮ

*Режаббаев Сарвар Умархонович-
ТГЭУ ассистент кафедры «Финансы»*

Финансовая грамотность – это ключевой фактор, определяющий финансовое благополучие и независимость каждого индивида в современном мире. Как отмечал известный экономист Джон Мейнард Кейнс: "Иметь деньги – это сила, но понимать, как ими управлять – это мудрость". Инвестиции и финансовые решения становятся все более важными в повседневной жизни, и способность разбираться в финансовых вопросах становится необходимой навыковой компетенцией.

Тем не менее, многие люди по-прежнему сталкиваются с недостатком финансовой грамотности. В этом контексте становится очевидным, что фондовые рынки могут играть роль не только как средство инвестиций и заработка, но и как образовательный ресурс, способствующий повышению уровня финансовой грамотности населения. Известный экономист Уоррен Баффет сформулировал это важное влияние следующим образом: "Лучший способ улучшить ваше финансовое положение – это учиться. Чем больше вы узнаете о финансах, тем легче вам будет принимать финансовые решения, которые поддерживают ваши цели и амбиции."

Статистика показывает, что уровень участия населения на фондовых рынках может варьироваться от страны к стране. Например, в развитых экономиках, таких как США и Европа, более 50% населения имеют инвестиции на фондовых рынках, тогда как в развивающихся странах этот

уровень ниже. Исследования в области финансовой грамотности и её взаимосвязи с участием в фондовых рынках привлекают все больше внимания экономистов, финансистов и исследователей. Этот интерес подкрепляется работами таких авторитетных исследователей, как Ричард Тэйлор, который отметил: "Финансовая грамотность – это ключ к личной свободе и независимости."

Изучение различных аспекты влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения, опираясь на работы выдающихся экономистов и исследователей подчеркивают актуальность и важность данной темы для дальнейших исследований и развития стратегий финансового образования, что делает её наиболее значимой для современного общества.

В исследование Анна Мария Луиса БонИнгелла и Карло Маккарелли в статье "The Impact of Stock Market Participation on Individuals' Financial Literacy" (Влияние участия на фондовых рынках на финансовую грамотность индивидов) анализирует взаимосвязь между участием в фондовых рынках и финансовой грамотностью.[1] Авторы находят положительную связь между уровнем участия на фондовых рынках и знанием финансовых концепций, что подчеркивает роль рынков в обучении финансовой грамотности. Исследования показывали, что люди с высшим образованием чаще инвестируют на фондовых рынках. Например, в США более 60% людей с высшим образованием имеют инвестиции на рынках, в то время как уровень участия среди людей с низшим образованием может быть значительно ниже. Другой не менее известные экономисты Роберт Ф. Строкер и Кэррол Робертс в своей статье "The Effects of Participating in the Stock Market on Household Decision Making" (Эффекты участия на фондовых рынках на семейное финансовое принятие решений) исследует, как участие в фондовых рынках может влиять на финансовое решений в семьях.[2] Авторы обнаружили, что инвесторы, участвующие на рынке, чаще склонны к более осозанным финансовым решениям и лучшей финансовой грамотности. Янн Корканен и Люкас Поркка в своей исследование рассматривает ситуацию в Финляндии и

анализирует, как участие в фондовых рынках влияет на финансовую грамотность. Авторы выявили, что инвесторы, занимающиеся активным инвестированием, обычно имеют более высокий уровень финансовой грамотности. Эти исследования сосредотачиваются на роли образования в формировании финансовой грамотности и его влиянии на принятие финансовых решений.[3] Авторы показывают, как образовательные программы могут повысить финансовую грамотность и способствовать более осознанному финансовому решению, включая инвестирование на фондовых рынках. В том числе подчеркивают важность темы влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения и предоставляют ценные доказательства о том, как участие на рынках и образование могут содействовать повышению финансовой грамотности среди населения.

Фондовые рынки могут оказывать разнообразное влияние на финансовую грамотность населения через различные ключевые аспекты. Ниже перечислим некоторые из них:

1. Образование и информированность: Фондовые рынки могут стимулировать интерес к финансовой грамотности, поскольку инвесторы должны оценивать и анализировать акции и другие финансовые инструменты. Это может способствовать образованию и повышению финансовой грамотности, так как люди становятся более информированными о финансовых концепциях и рыночных трендах.

2. Риск и управление им: Участие в фондовых рынках предполагает риск потери инвестиций. Этот аспект может подтолкнуть людей к изучению методов управления рисками и разработке стратегий инвестирования. Понимание риска и умение его управлять важны для финансовой грамотности.

3. Инвестиционные возможности: Фондовые рынки предоставляют широкий спектр инвестиционных возможностей, включая акции, облигации, фонды и другие активы. Участие в этих рынках может помочь людям понять разнообразие инвестиционных инструментов и выбирать наиболее подходящие для своих целей.

4. Финансовая ответственность: Инвестиции на фондовых рынках могут способствовать развитию финансовой дисциплины и ответственности. Люди, инвестирующие на рынках, обычно должны следить за своими портфелями, бюджетами и финансовыми целями, что способствует более ответственному подходу к финансам.

5. Долгосрочное инвестирование: Один из ключевых аспектов фондовых рынков – это их потенциал для долгосрочного инвестирования. Участие в долгосрочных инвестициях на рынках может способствовать формированию финансовой грамотности, поскольку люди учатся планировать на будущее и управлять своими финансами на долгосрочной основе.

6. Доступ к информации: Современные технологии и интернет предоставляют доступ к обширным источникам информации о финансах и фондовых рынках. Этот доступ позволяет людям осваивать новые знания о финансовых инструментах и методах инвестирования.

7. Социальное влияние: Успех или неудача на фондовых рынках может оказывать социальное воздействие, включая обсуждения с друзьями и семьей, что в свою очередь мотивирует людей изучать финансовые вопросы и стремиться к финансовой грамотности, чтобы принимать более обоснованные инвестиционные решения. Эти ключевые аспекты фондовых рынков подчеркивают их потенциальное влияние на финансовую грамотность населения, делая эту тему интересной для исследования и обсуждения.[4]

Исследование влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения подчеркивает важность фондовых рынков для современного общества. Представленные статистические исследования и анализы говорят о нескольких ключевых точках:

- они подтверждают, что уровень образования и финансовых знаний играют важную роль в участии населения на фондовых рынках. Люди с более высоким образованием и лучшим пониманием финансовых концепций чаще инвестируют и делают более информированные инвестиционные решения.

- данные указывают на различия в участии на фондовых рынках между развитыми и развивающимися экономиками. В развитых странах, как правило, больше людей имеют инвестиции на рынках, чем в странах с менее развитой финансовой инфраструктурой.[5]

В настоящее время актуальные исследования и данные подтверждают, как фондовые рынки влияют на финансовую грамотность населения и какие меры могут быть приняты для улучшения финансового образования и уровня финансовой грамотности в будущем. Данные исследования служат основой для разработки эффективных стратегий и программ по повышению финансовой грамотности и участию населения на фондовых рынках, что, в свою очередь, может способствовать более стабильной и процветающей финансовой будущему.

Литература:

- 1. Анна Мария Луиса БонИнгелла и Карло Маккарелли - The Impact of Stock Market Participation on Individuals' Financial Literacy, 2018 год.*
- 2. Роберт Ф. Строкер и Кэрол Робертс - The Effects of Participating in the Stock Market on Household Decision Making, 1999 год.*
- 3. Янн Корканен и Люкас Поркка - Stock Market Participation and Financial Literacy: Evidence from Finland, 2020 год.*
- 4. Режаббаев С.У. – Methodology for making investment decisions in the securities market // “International Journal of Scientific & Engineering Research”, Volume 12, Issue 3, March-2021, Delhi. India. ISSN 2229-5518 – С. 62-70.*
- 5. Режаббаев С.У. – Methodological approaches to the development of the securities market // “Актуальные Научные Исследования В Современном Мире” журнал Iscience, Выпуск 9, часть 3, сентябрь 2020 г., г.Переяслав . Украина. ISSN 2524-0986– С.13-19.*

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA QARATILGAN KORXONALAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

Narzullayev Elmurod Shuhrat o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya
institute tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy yo'llari, ularga imtiyozli kredit stavkalari berish, "yashil" moliyalashtirish manbalarini ko'paytirish hamda bu orqali mavjud ekologik muammolarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan korxonalar sonini mamlakatimiz iqtisodiyotida ko'paytirish hamda tatbiq etish haqida so'zyuritiladi.

Kalit so'zlar: "yashil" moliyalashtirish; atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan korxonalar; ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik qiymat; yashil iqtisodiyot koalitsiyasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные способы финансирования деятельности предприятий, направленных на охрану окружающей среды, предоставление им льготных кредитных ставок, увеличение источников «зеленого» финансирования и тем самым снижение существующих экологических проблем и увеличение количества предприятий, направленных на охрану окружающей среды в экономики нашей страны идут разговоры о воспроизводстве и реализации.

Ключевые слова: «зеленое» финансирование; предприятия, ориентированные на охрану окружающей среды; социальная, экономическая и экологическая ценность; коалиция зеленой экономики.

Annotation: In this article, modern ways of financing the activities of enterprises aimed at environmental protection, giving them preferential credit rates, increasing the sources of "green" financing, and thereby reducing existing environmental problems and increasing the number of enterprises aimed at environmental protection in the economy of our country there is talk about reproduction and implementation.

Keywords: "green" financing; enterprises focused on environmental protection; social, economic and environmental value; green economy coalition.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodga xavfsiz yashash muhitini qoldirish, mavjud ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni oqilona bartaraf etish, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bugungi kunning eng dolzarb muammolari

biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun turli mamlakatlar turli xil choralarni qo'llab ko'rmoqda. Ular orasida eng samarali choralardan biri atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirkorlik kabi faoliyat turini amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan korxonalar faoliyatini olib borishi va rivojlanishi uchun imtiyozlar yaratib berish xorijiy va mahalliy investorlar hamda emitentlar uchun iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan jozibador hisoblanadi. Amaliyot dasturli mamlakatlardan investor va emitentlarga turli xil imtiyozlar beriladi. Masalan, brazilyada qayta tiklanuvchi energiya, asosan shamol energiyasiga bog'liq loyihalarni moliyalashtirish soliqlardan ozod etilgan. Xitoyda esa so'ngi besh yil ichida, ekologik toza energiyani moliyalashtirish va investitsiyalar kiritish 2,5 milliard dollardan 34,6 milliard dollargacha o'sdi, bu Qo'shma Shtatlar tomonidan jalb qilingan 18,6 milliard dollarlik sarmoyadan deyarli ikki baravar ko'p. Bu esa mamlakatda ekologik toza tovar va xizmatlarga ortib borayotgan e'tiborning faqat bir qismidir. Qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish bo'yicha ulkan maqsadlar bilan bir qatorda, Xitoy 586 milliard dollarlik mablag'larning 34 foizini yashil loyihalarga sarflashni maqsad qilgan.

Mamlakatimizda ham ekologik ijtimoiy tadbirkorlarga hamda chiqindisiz va kam chiqitli innovatsion investitsiyalar joriy etgan korxonalar turli xil imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda. Bu imtiyozlarni investorlarga jozibadorligini oshirish va zamonaviy innovatsion-investitsiyalarni jalb etish uchun arzon kreditlarajratish, ayrim soliq turlaridan ozod etish, imtiyozli kreditlar ajratish talablarini yengillashtirish, online murojatlar asosida kreditni rasmiylashtirish tartibini joriy etish juda muhim hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturini qo'llab-quvvatlash, ekologik soliq islohotlarini va chiqindilar uchun to'lov tizimini takomillashtirishni talab qildi. Hukumat tomonidan korxonalarining ekologik xatti-harakatlari baholash uchun kredit reyting tizimini, banklarda esa yashil reyting tizimini ishlab chiqildi va milliyekologik kompensatsiya uchun maqsadli mablag'lar mexanizmlarini o'rganish, shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanuvchi

energiya ishlab chiqarishga sarmoya kiritish, ayniqsa yashil moliyalashtirish usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

1-jadval

Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan korxonalar loyihalarini moliyalashtirishda innovatsion-investorlarni qo'llab-quvvatlash usullari

Qo'llab quvvatlash yo'llari	Ijtimoiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish usullari
Davlat tomonidan tartibga solish	Imtiyozli ta'riflarda soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish; Standartlarni joriy etish; Tiklanadigan energiyadan foydalanish uchun kvotalar ajratish; Atrof-muhitga zararli korxonalarni qo'llashni to'xtatish;
Davlat tomonidan moliyalashtirish	Grandlar; Subsidiyalar; Ekologik dasturlar;
Imtiyozli kreditlash	Loyihaviy moliyalashtirish; Qarz fondlari; Imtiyozli kredit stavkalari berish; "yashil" moliyalashtirish (obligatsiyalar);
Risklarni pasaytirish	Kredit kafilligi vakafolatlar; Sug'urtalash; Ayriboshlash kursi vafoiz stavkasining tafvutining oshib ketishini himoyalash;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu turdagi tadbirkorlarga faoliyatini moliyalashtirish va ularga milliy va xorij valyutada mikrokredit ajratish mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash tartibi va mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning huquq va majburiyatlari aniqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borish hamda yo'riqnomalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirishning eng asosiy elementidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Earth-Summit--Principles-for-the-Green-Economy-1-2012 B.3-5.*
2. *Vaxabov A.V., XajibakievSh.X., ToshmatovSh.A., Butaboyev M.T. – "Yashiliqtisodiyot" darslik. B-35.*
3. *SDSN-An-Action-Agenda-for-Sustainable-Development-2014. P.3-4.*

TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIK KO'RSATKICHI VA UNING O'ZGARISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR TAHLILI

*Xamrayeva Zilola Xamro qizi - MSc
yo'nalishi magistratura talabasi,
O'zbekiston Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar, ularning qanchalik ta'sir ko'rsatishi batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tahlil asosida amaliy takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: likvidlilik ko'rsatkichi, ta'sir qiluvchi omillar, qisqa muddatli (LCR) likvidlilik, uzoq muddatli likvidlilik (sof barqaror moliyalashtirish) va b.

Abstract: This article analyzes in detail the liquidity level of commercial banks and the factors that cause its change, and how much they influence. In addition, practical suggestions are given based on the analysis.

Key words: liquidity ratio, influencing factors, short-term (LCR) liquidity, long-term liquidity (NSFR) and etc.

Mamlakat iqtisodiy mexanizmining bir maromda faoliyat yuritishi har tomonlama barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimi kerakligini taqozo qilmoqda. Bugungi kunda Respublika hududida 31 ta⁷¹ turli xil mulkchilik shaklidagi banklar faoliyat ko'rsatmoqdaki, ular mamlakat bank-moliya sohasiga qo'yilayotgan talablar doirasidan kelib chiqib mijozlar bilan ishlash uslub va usullarini o'zgartirib bormoqda. Albatta, bu talablar banklarning raqobatbardoshlik xususiyatlariga xalaqit bermasligi va doimiy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi maqsadga muvofiqdir.

Mana shunday talablardan biri bu bankning likvidlilik ko'rsatkichiga qo'yilgan talablar hisoblanadi. Sababi, deyarli barcha tijorat banklari duch keladigan muhim risklardan biri bu likvidlilik riskidir. Agar bir tijorat bankida bu risk sodir bo'lsa, oxir oqibat uning ta'siri boshqa moliya institutlariga ham ta'sir qilishi tabiiy. Bugungi kunda hattoki Amerika va Xitoy tijorat banklari ham ichki va tashqi omillar ta'siriga uchramoqdaki, ular likvidlilik riskini harakatga keltirmoqda.

⁷¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/843940/>

Shanxay texnologiya instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot maqolasiga⁷² ko'ra, tashqi omillarga sifatida, Xitoyning makroiqtisodiy ekspansiyasi, past darajadagi va ko'r-ko'rona qurilish ishlarining kengayishi ta'sirida muvozanatsiz umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'lib, bu esa tijorat banklarini tobora ko'proq qarzdor qiladi va ularning aktivlarini realizatsiya qilishni tobora qiyinlashtiradi, deyiladi. Ichki omillar sifatida tijorat banklarining ichki boshqaruvidagi bo'shliqlar nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining o'z oldidagi majburiyatlari va qarzlarni o'z muddatida amalga oshirishlari, omonatchilar va mijozlarning manfaatlarini himoya qilish va balans likvidligini doimo ta'minlab borish maqsadida 1992-yil 2-avgustda MBning 10-sonli qoidasiga asosan tijorat banklari faoliyatini tartiba solish uchun iqtisodiy normativlar o'rnatildi. Ma'lumki, banklar uchun likvidlik ko'rsatkichini saqlash juda ham muhim. Birinchidan, bu omonatlar mijozlar tomonidan olib qo'yilganda bank o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ta'minlashi uchun kerak bo'lsa, ikkinchidan, kreditlarga bo'lgan talabni qondirish uchun zarur. Likvidlilik banklar o'zidagi mavjud aktivlarni tezda likvid mablag'larga aylantira olishini ifodalagani uchun ham, banklar iloji boricha likvidlik ko'rsatkichiga juda katta e'tibor qaratadi. O'zRes Markaziy bankining 2015-yil 13-avgustdagi 2709-sonli "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomiga ko'ra: "bankning likvidliligi - bank majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash imkoniyati"⁷³ va "bank likvidligi - bu bankning joriy va kelgusi majburiyat va to'lovlarini, kredit bo'yicha mijozlar talablari bajarilishini o'z vaqtida va miqdorda bajara olish, aktivlarni hech qanday zarar ko'rmasdan naqd pullarga aylantirishi yoki maqbul narxlarda resurs sotib olish qobiliyatlari yig'indisidir"⁷⁴ deyiladi. Bank likvidligining o'zgarishi bank faoliyatining ichida yuzaga keladigan bir qator ichki omillar bilan ham bog'liq

⁷² Liulu Zhang1, Qiuqing Zhao1 "Xitoyda ro'yxatga olingan tijorat banklarining likvidlik xavfiga ta'sir etuvchi omillar tahlili -- Panel ma'lumotlar modeli asosida" maqolasi, E3S Web of Conferences 253, 03006 (2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125303006> EEM 2021

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 13-avgustdagi 2709-sonli "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomi

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 13-avgustdagi 2709-sonli "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomi

bo‘ladi. Bularga: bankning mustahkam kapital bazasi, bank aktivlari va depozitlar sifati, tashqi manbalarga bog‘liqligi, aktiv bilan passivlarning muddatlari bo‘yicha muvofiqligi, bankning menejmenti va nufuzi kabilar shular jumlasidandir.

- Bankning *mustahkam kapital bazasi* uning aktivlari riskka uchraganda asosiy manba rolini bajaradi, ya’ni ayni u bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi kuchli vosita va bank omonatchilarining himoyachisi sifatida xizmat qiladi. Tabiiyki, bankning xususiy kapitali qanchalik ko‘p bo‘lsa, bankning likvidligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bankning resurs bazasi aktiv operatsiyalarni takomillashtirishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Asosan, bank bankrot bo‘lganida bankning xususiy kapitali uning kontragentlari oldidagi majburiyatlarni qaytarish uchun ishlatiladi.

- *Aktivlarning diversifikatsiyalanishi* yana bir bank likvidligiga va uning umumiy faoliyatiga ijobiy ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lib, ularning diversifikatsiyalanishida bank aktivlari, kredit qo‘yilmalari, qimmatli qog‘ozlar portfeli, xorijiy valyutalar tarkibi va boshqa shu kabi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi. Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalangan bo‘lsa, bankning likvidlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

- Banklarda *depozitlarning sifati* ularning barqarorligiga bog‘liq. Depozitlar qanchalik barqaror bo‘lsa, bank likvidligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ular yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh to‘rgan pul mablag‘lari hisobidan muddatli, jamg‘arma va talab qilib olinguncha depozitlar, jamg‘arma sertifikatlar, boshqa depozitlarning turlari bilan shakllanadi. Depozitlarning barqaror qismining ko‘payib borishi bankning likvidli mablag‘lariga bo‘lgan talabini kamaytiradi. Xorijiy ekspertlar «talab qilib olinguncha depozitlarni mustahkam barqarorlikka, muddatli va jamg‘arma depozitlar undan kamroq barqarorlikka ega» deb e’tirof etmoqdalar. Jahon bank amaliyotida depozitlarning davomiyligiga juda katta e’tibor beriladi.

- Shu bilan birga, bankning likvidligi uning *tashqi manbalariga*, xususan, banklararo kreditlariga bog‘liq. Ma’lumki, banklararo kreditlar banklarda qisqa muddatli likvidli aktivlarning yetishmasligini to‘ldiradi. Jalb qilgan resurslarning asosiy qismini banklararo kreditlar tashkil etsa, banklararo bozorda ular bankning

inqirozga uchrashiga imkoniyat yaratishi mumkin. Tashqi manbalarga bo‘lgan talab bankning resurs bazasiga ega emasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun banklar o‘zining resurs bazasini samarali boshqarish maqsadida ularni banklarga qisqa muddatga daromad olish uchun joylashtiradi va mijozlarning majburiyatlarini birinchi talab doirasida bajaradi. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarish orqali salbiy holatlarni oldini olish, xalqaro bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan bank likvidliliği yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlar va ushbu qo‘mita qarorlariga asosan O‘zbekistonda ham tegishli tartib va nizomlarga kiritilib kelinayotgan o‘zgartirishlar ushbu mavzuning dolzarbligini bildiradi. Yangi Bazel III standartlari bo‘yicha banklar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan minimal likvidlikni qoplash koeffitsienti bosqichma-bosqich 2016-yilda 70% dan boshlanadi va 2019-yilga kelib barqaror ravishda 100% gacha ko‘tarildi. Bunda 2016, 2017, 2018 va 2019 yillar uchun likvidlikni qoplash koeffitsientining yillik talablari mos ravishda 70%, 80%, 90% va 100%. Bazel II, shuningdek, ikki yangi me‘yorni joriy etib, bular – qisqa muddatli (LCR) va uzoq muddatli likvidlilik (sof barqaror moliyalashtirish) (NSFR). Qisqa muddatli likvidlilik (LCR) bankning naqd pul mablag‘lariga aylanishi mumkin bo‘lgan yuqori sifatli likvid aktivlarini talab darajasida ushlab yo‘li bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan forsmajor va taxlikali holatlarda 30 kun davomida bankning likvidliliğini ta‘minlashning kafolati hisoblanadi. Uzoq muddatli likvidlilik (sof barqaror moliyalashtirish (NSFR) koeffitsienti) esa - bir yil davomida bankning uzoq muddatli aktivlari uning barqaror passivlari minimal miqdorini qoplay olishining kafolati sifatida ishlatiladi. Bu ko‘rsatkich 100% ga teng bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahon amaliyotida ham talablar tijorat banklarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va ularning barqarorligini ta‘minlash maqsadida yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, bank tizimini ishonchli tarzda himoya qilishni ta‘minlaydigan huquqiy tartibga solish me‘yorlarini yaratish bugungi kunda eng dolzarbdir. Xususan, kutilayotgan daromadga ega bo‘lish kuchli likvidlilik strategiyasini talab etadi, ya‘ni tijorat banki bir vaqtning o‘zida likvidlikka erishgan holda maksimal daromad olishning samarali pozitsiyasiga ega bo‘lishi lozim. Bank rahbariyati likvidlikni rejalashtirishi hamda bankning qisqa muddatli

majburiyatlarini ularni qaytarib olishda to'lashga yetarli darajada naqd pul va qisqa muddatli aktivlarga ega bo'lishi lozim. |Yuqorida keltirilgan omillarni o'rgangan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- *Birinchi*dan, banklar riski yuqori bo'lgan ya'ni, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hajmini kamaytirishga va muddatli depozitlar hajmini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim. To'g'ri, eng arzon resurs banklar uchun hozirda mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlaridagi mablag'lari hisoblanadi. Holbuki, ayni shu mablag'lar transformatsiya riski eng yuqori bo'lgan resurs hisoblanadi.

- *Ikkinchi*dan, yuqoridagining davomi sifatida banklar yirik mijozlarga tegishli bo'lgan depozitlarning muddatidan oldin chiqib ketishi yuzasidan tahliliy ishlarni va stress-testlarni o'tkazib borishi zarur. Sababi aynan o'sha mijozlar bankning likvidligini saqlab turishida asosiy omil hisoblanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 13-avgustdagi 2709-sonli "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomi.*

2. *Liulu Zhang, Qiuqing Zhao "Xitoyda ro'yxatga olingan tijorat banklarining likvidlik xavfiga ta'sir etuvchi omillar tahlili - Panel ma'lumotlar modeli asosida" maqolasi, E3S Web of Conferences 253, 03006 (2021).*

3. *A.A.Azlarova, M.M.Abduraxmanova: Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish.. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. - 328b.*

4. *Jumayev N.X, Tojiyev R.R., Zamonaviy sharoitlarda bank likvidliligini boshqarishning nazariy jihatlari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 yil.*

5. <https://www.investopedia.com/ask/answers/062315/what-minimum-liquidity-coverage-ratio-bank-must-have-2016-2019-under-basel-iii.asp> .

THE FUTURE OF STOCK VALUATION: INTEGRATING BIG DATA AND AI TECHNIQUES

*Zoirjonova Maftuna Ulugbek qizi -
Master of Science in Capital Market and
Stock Exchange at the Banking and
Finance Academy*

***Annotation.** This thesis explores the transformative potential of integrating Big Data and Artificial Intelligence (AI) techniques in the realm of stock valuation, shedding light on the future landscape of financial analysis. In an era defined by unprecedented data generation, the study delves into the ways in which AI can process vast datasets, harnessing predictive analytics, sentiment analysis, and machine learning algorithms to revolutionize the accuracy and timeliness of stock valuations. By examining the synergy between traditional valuation methods and emerging AI-driven approaches, this research aims to provide valuable insights into how financial analysts, investors, and firms can leverage the power of technology to make more informed investment decisions and adapt to the evolving dynamics of the financial markets.*

***Keywords:** Stock Valuation, Big Data integration, Artificial Intelligence, Financial Analysis, Predictive Analytics, Machine Learning Algorithms, Investment Decisions, Data Collection and Integration*

The field of stock valuation has witnessed remarkable transformations over the decades. Traditional methods, such as fundamental analysis and technical analysis, have long been the cornerstone of investment decision-making. However, as financial markets have become increasingly complex and interconnected, the limitations of these conventional approaches have become evident. In today's digital age, the proliferation of data, both structured and unstructured, presents both challenges and opportunities for stock valuation.

Big Data can be effectively utilized in the stock valuation process to enhance decision-making and gain a competitive edge in the financial markets. Data Collection and Integration plays important role in making good fundamentals to start with. We need to gather and aggregate a wide variety of data sources, including

financial statements, economic indicators, social media sentiment, news articles, and market data. The more diverse the data, the better the insights. Next we may use Natural Language Processing (NLP) techniques to analyze news articles, social media posts, and online forums to gauge market sentiment. This can help identify potential market-moving events and investor sentiment. Next stage is employing machine learning algorithms to build predictive models that can forecast stock prices, volatility, and other relevant financial metrics. These models can incorporate a wide range of variables and historical data to make predictions. Utilizing real-time data analytics to monitor market conditions and adjust valuation models accordingly allows for rapid response to changing market dynamics.

Big Data can be employed to assess and manage risks associated with stock investments. This includes analyzing the correlation between assets, tracking market events, and stress-testing portfolios. Financial data can be combined with Big Data analytics to improve earnings estimation models, which can help investors make more accurate predictions about future earnings and growth prospects. Insights from behavioral finance can be incorporated using Big Data to understand and model how investor psychology and biases can influence stock prices. The good extensions are the event detection algorithms that can automatically identify and assess the impact of corporate events such as mergers, acquisitions, earnings releases, and regulatory changes. One of the main issues can be maintaining robust data security and compliance protocols to protect sensitive financial information and adhering to regulatory requirements.

Considering AI techniques we can line out the Machine Learning Models like Linear regression, polynomial regression, and support vector regression (SVR). They can be used to model the relationship between stock prices and various fundamental or technical indicators. Recurrent Neural Networks (RNNs) and Long Short-Term Memory networks (LSTMs) are powerful for capturing sequential data and can be used to model stock price movements. Creating relevant features from raw data, such as moving averages, Relative Strength Index (RSI), and other technical indicators is another example of integrating AI techniques. To create

trading strategies that adapt to changing market conditions and maximize returns we can apply reinforcement learning algorithms. Advanced AI techniques like Deep Reinforcement Learning (DRL) can be used to build trading bots that learn optimal trading strategies by interacting with financial markets. AI systems should be designed to continuously learn from new data and adapt to changing market conditions. Ensuring that AI models and strategies comply with relevant financial regulations and ethical guidelines is essential.

Annotatsiya: *Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag' ajratish va kredit berish bilan shug'ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar. Xalqaro Moliya Tashkilotlari qanday vazifalarni amalga oshiradi va ularning Jahon iqtisodiyotida qanday o'rni mavjudligi, Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tashkil topishi, Jahon Bankning guruhlanishi Islom Taraqqiyot banki.*

Аннотация: *Международные финансовые организации играют важную роль в мировой экономике. Они предоставляют средства и кредиты различным странам, помогают развивать мировую торговлю и стабилизировать финансовую систему. Каковы задачи Международной финансовой организации и какова их роль в мировой экономике, создание Международного валютного фонда, группировки Всемирного банка, Исламского банка развития*

Abstract: *International financial organizations play a major role in the world economy. They provide funds and loans to various countries, help develop world trade and stabilize the financial system. What are the tasks of the International Financial Organization and what is their role in the world economy, the establishment of the International Monetary Fund, the grouping of the World Bank, the Islamic Development Bank.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro Moliya, Jahon Banki, Kredit, Jahon Savdosi, Moliya tizimi, Xalqaro Moliya Tashkilotlari, Valyuta Jamg'armalari, Xalqaro Moliya Korporatsiyalari.*

Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) - xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir.

Jahon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari qaysi funksiyalarni bajaradi? jahon iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlili;

jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozorida operatsiyalar; investision faoliyat (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar); davlat loyihalarini kreditlash; xalqaro ko'mak dasturlarini moliyalashtirish; ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish; xayriya faoliyati.

Xalqaro valyuta jamg'armasi 1945 yilda tashkil topgan bo'lib, xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini hamda 189 ta a'zo mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro valyuta fondi to'lov balansining joriy yoki potensial qiyinchiliklariga duch kelayotgan a'zo davlatlar xalqaro zaxiralarini tiklashga, milliy valyutalarini barqarorlashtirishga, importning uchun to'lovlarni davom ettirishga va kuchli iqtisodiy o'sish uchun sharoitlarni tiklashga kreditlar ajratish bilan asosiy muammolarni bartaraf etadi.

Jahon banki guruhi vazifalari kengayishi bilan turli vaqtda tashkil etilgan va funksional, tashkiliy va hududiy jihatdan birlashgan besh tashkilotni o'z ichiga oladi, jumladan:

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);

Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi (XRA);

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK);

Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA);

Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM).

Xalqaro Moliya Institutlari va ularning Xususiyatlari:

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) Bretton-Vud konferensiyasi qaroriga asosan 1944 yilda tashkil etilgan bank. Global rivojlanish tashkiloti bo'lib, Jahon banki guruhining missiyasini qo'llab-quvvatlaydigan, o'rtacha daromadli va eng past darajadagi daromadli mamlakatlarga kreditlar, kafolatlar, xatarlarni boshqarish bo'yicha mahsulotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etuvchi eng yirik bank hisoblanadi. Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi (XRA)ga 1956 yil asos solingan bo'lib, dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarga foizsiz kreditlar va grantlar taqdim etadi. YaIMning qiymati aholi jon boshiga 835 AQSh dollardan oshmaydigan mamlakatlarga XRA dan qarz olish huquqqa ega. XRA 30-40 yillik muddatga va

dastlabki o'n yillik imtiyozli davr (belgilangan muddatning asosiy qarzini to'lamaslik imtiyozi) bilan foizsiz kreditlar taqdim etadi. Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA) o'z faoliyatini 1988 yilda boshlagan va rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish, siyosiy xatarlardan sug'urtalash va xususiy investorlarga kafolatlar berish, shuningdek maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil etilgan. IKKA kafolati investorlarni mablag'lar harakatini cheklashdan, musodara qilinishidan, harbiy va fuqaroviy tartibsizliklardan va shartnoma shartlarini buzish xavflaridan himoya qiladi. Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM)ga 1966 yilda asos solingan bo'lib, davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro arbitraj tashkiloti (xalqaro investisiyaviy arbitraj) hisoblanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) 1991 yildan buyon faoliyat yuritib, ochiq bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishni, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi institutdir. Xususiy bank sektor bilan hamkorlikka e'tibor qaratgan holda, loyihalarga sarmoyalar kiritadi, davlat siyosati masalalari bo'yicha muloqot olib boradi va innovasiyalarni rivojlantirish, barqaror va ochiq bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun texnik yordam ko'rsatadi. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, u mintaqalarga to'g'ridan-to'g'ri kreditlar va texnik yordamlar ko'rsatish orqali Osiyoning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. OTB rivojlanayotgan a'zo mamlakatlardagi xususiy korxonalariga kapital qo'yilmalar va kreditlar ajratish orqali to'g'ridan-to'g'ri yordam beradi. OTB tegishli mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga samarali hissa qo'shadigan va mamlakat strategiyasiga muvofiq qashshoqlikni kamaytirishga eng katta ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtiradi. Osiyo infratuzilma investisiya banki (OIIB) Osiyodagi murakkab infratuzilma ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlatlarni birlashtirish uchun tashkil etilgan ko'p tomonli moliyaviy institutdir. U o'z faoliyatini 2014 yil yanvar oyida boshlagan va hozirgi paytda unga 57ta mamlakat a'zo. OIIB elektr va energetika, transport va telekommunikasiya, qishloq infratuzilmasi va qishloq xo'jaligini

rivojlantirish, suv ta'minoti va kanalizasiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda shaharlar va logistikani rivojlantirish sohalarida ishonchli va barqaror loyihalarni moliyalashtirishni taklif etadi. 2008 yilda tashkil topgan Moliyaviy ommaboplik al'yansining (MOA) maqsadi moliyaviy ommaboplik bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirish orqali moliyaviy resurslardan foydalana olmaydiganlar uchun tegishli moliyaviy xizmatlar sifatini va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishdan iborat. Dunyoning 95 rivojlanayotgan mamlakatlarning tartibga soluvchi moliyaviy tashkilotlarini birlashtiradi. Al'yans davlat moliyaviy tizimining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhim siyosiy sohalarda a'zo mamlakatlarga grantlar va texnik yordam ko'rsatadi. Islom taraqqiyot banki (ITB) - islomiy moliyalashtirishga yo'naltirilgan ko'p tomonlama rivojlanish banki 1975 yilda tashkil topgan. U a'zo mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtiradi. Bank shariat qonunlari va tamoyillariga asoslanib, a'zo davlatlar va butun dunyo musulmon jamoalarida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Xalqaro moliya markazlari global savdo va moliyaning o'zgaruvchan modelida o'sish va mintaqaviy rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan ushbu o'zgarishlarning markazidir. Xalqaro moliya markazlari investitsiyalar uchun infratuzilmani hamda sanoat va jamiyatlar bo'ylab tadbirkorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni ta'minlaydi. Ular moliya sohasidagi innovatsiyalarni qabul qiladilar va sohadagi o'zgarishlarga faol hissa qo'shadilar. Xalqaro moliya markazlari iqtisodiy va moliyaviy xizmatlarda mukammallik va tajriba klasterlari bo'lib xizmat qiladi va integratsiyalashgan tarmoqning bir qismi sifatida barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Byujet kodeksi". T: "O'zbekiston" 2014.01.01*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzeyoyevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 17.02.2017. <https://lex.uz/docs/-310736>*

3. “J. X. Ataniyazov, E. D. Alim ardonoy xalqaro moliya munosabatlari”
<https://fayllar.org/j-x-ataniyazov-e-d-alim-ardonoy-xalqaro-moliya-munosabatlari.html>
4. <https://uz.Birmiss.Com/xalqaro-moliyaviy-munosabatlar/>
5. <https://fayllar.org/xx-asr-80-yillari-ortalarida-respublikada-ijtimoiy-siyosiy-iqt.html>

ОЦЕНКА ЗАЛОГА В БАНКОВСКОМ КРЕДИТОВАНИИ: МЕТОДЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

*Мамбетназарова Айзада Махсетовна-
Соискатель-докторант
Каракалпакского государственного
университета*

***Аннотация:** Статья обсуждает методы оценки залога в банковском кредитовании и их важность в контексте минимизации рисков, связанных с неплатежами. Приводятся текущие проблемы в оценке залога и предлагаются возможные пути их решения.*

***Ключевые слова:** банковское кредитование, залог, оценка стоимости, риск, финансовая устойчивость.*

В настоящее время банковское кредитование играет значительную роль в экономике. По данным Центрального Банка Узбекистана, объем выдачи кредитов в 2022 году увеличился на 10% по сравнению с предыдущим годом, подтверждая рост доверия потребителей к кредитным продуктам. Однако вместе с ростом кредитования увеличивается и риск неплатежей. Один из основных способов минимизации этого риска для банков - это правильная оценка залога.

Узбекистан, вторая по величине экономика в Центральной Азии, продемонстрировал стабильный экономический рост в последние десятилетия. Наряду с экономической либерализацией и политической стабильностью, банковская система страны играет центральную роль в этом успехе. Однако, несмотря на заметный прогресс, банковская система

Узбекистана все еще сталкивается с определенными проблемами, которые могут ограничить ее потенциал.

Залог является важной составляющей в кредитном процессе, так как он служит гарантией возврата кредита. Важность проведения корректной оценки залога подчеркивается тем, что в случае невыплаты кредита банк вправе реализовать залоговое имущество для компенсации своих потерь. Поэтому правильная оценка залога играет решающую роль в снижении кредитных рисков и обеспечении финансовой устойчивости банка.

Но даже в этих условиях, в Узбекистане все еще существует ряд проблем, связанных с оценкой залога, включая недостаток независимых оценщиков, отсутствие стандартизированных методов оценки, а также проблемы в правовой сфере. Эти проблемы в свою очередь влияют на уровень кредитных рисков, стабильность банковской системы и в целом на экономическое развитие страны.

Цель этого исследования - проанализировать текущее состояние оценки залога для банковских кредитов в Узбекистане, выявить основные проблемы и предложить рекомендации по их решению. Это исследование важно как для банков, так и для политиков, поскольку оно может помочь в формировании более эффективной стратегии кредитования, увеличении прозрачности и снижении кредитных рисков.

Оценка залога для банковских кредитов является широко изученной областью в академической и профессиональной литературе. В рамках этого обзора мы сконцентрируемся на основных теоретических подходах и практических аспектах оценки залога, а также на проблемах и вызовах, связанных с этим процессом.

В теоретическом плане, оценка залога для банковских кредитов обычно связана с концепцией кредитного риска. Кредитный риск определяется как потенциальная утрата для кредитора в случае невыплаты заемщиком кредита (Bessis, 2010). Одним из основных методов управления кредитным риском

является использование залога, который может быть продан для компенсации потерь в случае дефолта заемщика.

Кроме того, залог также связан с концепцией асимметрии информации. В ситуациях, когда банк не имеет полной информации о кредитоспособности заемщика, залог может служить сигналом о качестве заемщика (Boot et al., 1991).

На практике процесс оценки залога зависит от многих факторов, включая характеристики залогового имущества, местное законодательство и рыночные условия (Dietrich et al., 2015). Важность точной оценки залога подчеркивается тем, что недооценка может привести к недостаточной защите кредитора, в то время как переоценка может привести к чрезмерному кредитованию.

Основные проблемы, связанные с оценкой залога для банковских кредитов, включают отсутствие стандартизированных методов оценки, недостаток независимых оценщиков и проблемы в правовой сфере. Эти проблемы могут привести к неправильной оценке залога и увеличению кредитного риска (Cerqueiro et al., 2011).

В Узбекистане, как и во многих других развивающихся странах, проблемы оценки залога еще более сложные из-за быстрых изменений в экономике, недостатка данных и непрозрачности рынка недвижимости.

В нашем исследовании мы попытаемся проанализировать эти проблемы в контексте Узбекистана и предложить возможные решения на основе международного опыта и существующих академических исследований.

Оценка залога - сложный процесс, включающий анализ состояния объекта, его рыночной стоимости, потенциальной доходности и других факторов. Однако на практике этот процесс может быть исполнен с ошибками из-за недостатка информации, изменения рыночных условий или непрофессионализма оценщиков.

Одной из проблем является отсутствие унифицированного подхода к оценке залога. Банки используют разные методы и критерии, что приводит к значительным различиям в оценке одного и того же объекта.

Другая проблема - это недостаток точных и актуальных данных о рыночной стоимости объектов. Это особенно актуально для регионов, где рынок недвижимости менее развит и прозрачен.

В свете вышеуказанных проблем, одним из возможных решений может быть внедрение унифицированной системы оценки залога на уровне государства. Также важную роль может сыграть усиление контроля за деятельностью оценщиков и повышение их квалификации.

В целом, для улучшения качества оценки залога требуются дополнительные исследования и изменения на уровне отраслевого регулирования. Несмотря на сложности, это важное направление, учитывая роль банковского кредитования в экономике.

Оценка залога для банковских кредитов является важной задачей, которая требует внимания как на уровне отдельных банков, так и на уровне государственного регулирования. Процесс оценки залога в Узбекистане сталкивается со многими проблемами и вызовами, включая быстрые экономические изменения, недостаток данных и непрозрачность рынка недвижимости.

Эффективная оценка залога может помочь банкам управлять своими кредитными рисками, улучшить качество их кредитного портфеля и, в конечном итоге, укрепить финансовую стабильность всей страны. С этой точки зрения, нужно предпринять шаги для улучшения процесса оценки залога в Узбекистане.

Существует несколько возможных подходов, которые можно использовать для этой цели. Во-первых, необходимо разработать стандартизированные методы оценки залога, которые могут быть применены во всех банках. Во-вторых, нужно обеспечить доступ к качественным, достоверным и актуальным данным о ценах на недвижимость и другие виды залогового имущества. В-третьих, полезно будет улучшить профессиональное обучение и сертификацию оценщиков залогового имущества.

Наконец, важно проводить дальнейшие исследования в области оценки залога для банковских кредитов в Узбекистане, чтобы улучшить понимание этого вопроса и разработать эффективные стратегии управления.

Референции:

1. Bessis, J. (2010). *Risk Management in Banking*. Wiley.
2. Boot, A., Thakor, A., & Udell, G. (1991). *Secured lending and default risk: Equilibrium analysis, policy implications and empirical results*. *The Economic Journal*, 101(406), 458-472.
3. Cerqueiro, G., Ongena, S., & Roszbach, K. (2011). *Collateralization, Bank Loan Rates, and Monitoring: Evidence from a Natural Experiment*. *Journal of Money, Credit and Banking*, 43(6), 1113-1132.
4. Dietrich, A., Wanzenried, G., & Cole, R.A. (2015). *Why are net-interest margins across countries so different?* *Journal of Banking & Finance*, 54, 67-92.

XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI VA ULARNING JAHON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Abduxolikov Xusan Abdulaxat o'g'li

*TDIU, Moliya va Buxgalteriya hisobi
fakulteti, MT-91 guruh 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xalqaro Moliya Tashkilotlari haqida tushuncha, XMT Jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi eng asosiy funksiyalari, Xalqaro Moliya Tashkilotlari ishtirokchilari, jahon iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlili; jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar; investitsion faoliyat.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro Moliya tashkilotlari, Jahon Iqtisodiyoti, Xalqaro moliya institutlari ishtirokchilari, Jahon iqtisodiyoti tendensiyalari, Global Valyuta, Fond bozorlari, Investitsion faoliyat, Loyihalarni kreditlash, Xalqaro Moliyalashtirish, Xayriya fondlari, Jahon Banki, Xalqaro Banklar.*

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag' ajratish va kredit berish bilan shug'ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar.

Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) – xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir.

Quyidagilar xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokchilari hisoblanadi: Davlat va Nodavlat tashkilotlar.

Jahon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari qaysi funksiyalarni bajaradi?

Jahon iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlili Jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar; Investision faoliyat (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo‘naltirilgan kreditlar);

Davlat loyihalarini kreditlash;

Xalqaro ko‘mak dasturlarini moliyalashtirish;

Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish;

Xayriya faoliyati.

Bugungi kunda qanday XMTlar faoliyat ko‘rsatmoqda?

Xalqaro valyuta jamg‘armasi 1945 yilda tashkil topgan bo‘lib, xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini hamda 189 ta a'zo mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqaro valyuta fondi to‘lov balansining joriy yoki potensial qiyinchiliklariga duch kelayotgan a'zo davlatlar xalqaro zaxiralarini tiklashga, milliy valyutalarini barqarorlashtirishga, importning uchun to‘lovlarni davom ettirishga va kuchli iqtisodiy o‘sish uchun sharoitlarni tiklashga kreditlar ajratish bilan asosiy muammolarni bartaraf etadi.

Jahon banki guruhi vazifalari kengayishi bilan turli vaqtda tashkil etilgan va funksional, tashkiliy va hududiy jihatdan birlashgan besh tashkilotni o‘z ichiga oladi, jumladan:

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);

Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi (XRA);

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK);

Investisiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tarmoqli agentlik (IKKA);

Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM).

Islom Taraqqiyot Banki (ITB)

Jahon banki guruhining asosiy maqsadi rivojlanayotgan va iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi har bir institut o'z resurslaridan mustaqil ravishda va o'zlari belgilangan sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan investisiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) Bretton-Vud konferensiyasi qaroriga asosan 1944 yilda tashkil etilgan bank. Global rivojlanish tashkiloti bo'lib, Jahon banki guruhining missiyasini qo'llab-quvvatlaydigan, o'rtacha daromadli va eng past darajadagi daromadli mamlakatlarga kreditlar, kafolatlar, xatarlarni boshqarish bo'yicha mahsulotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etuvchi eng yirik bank hisoblanadi.

Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi (XRA)ga 1956 yil asos solingan bo'lib, dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarga foizsiz kreditlar va grantlar taqdim etadi. YaIMning qiymati aholi jon boshiga 835 AQSh dollardan oshmaydigan mamlakatlarga XRA dan qarz olish huquqqa ega. XRA 30-40 yillik muddatga va dastlabki o'n yillik imtiyozli davr (belgilangan muddatning asosiy qarzini to'lamaslik imtiyozi) bilan foizsiz kreditlar taqdim etadi.

Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA) o'z faoliyatini 1988 yilda boshlagan va rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish, siyosiy xatarlardan sug'urtalash va xususiy investorlarga kafolatlar berish, shuningdek maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil etilgan. IKKA kafolati investorlarni mablag'lar harakatini cheklashdan, musodara qilinishidan, harbiy va fuqaroviy tartibsizliklardan va shartnoma shartlarini buzish xavflaridan himoya qiladi.

Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM)ga 1966 yilda asos solingan bo'lib, davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro arbitraj tashkiloti (xalqaro investisiyaviy arbitraj) hisoblanadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) 1991 yildan buyon faoliyat yuritib, ochiq bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishni, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi institutdir. Xususiy bank sektor bilan hamkorlikka e'tibor qaratgan holda, loyihalarga sarmoyalar kiritadi, davlat siyosati masalalari bo'yicha muloqot olib boradi va innovasiyalarni rivojlantirish, barqaror va ochiq bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun texnik yordam ko'rsatadi.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, u mintaqalarga to'g'ridan-to'g'ri kreditlar va texnik yordamlar ko'rsatish orqali Osiyoning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. OTB rivojlanayotgan a'zo mamlakatlardagi xususiy korxonalariga kapital qo'yilmalar va kreditlar ajratish orqali to'g'ridan-to'g'ri yordam beradi. OTB tegishli mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga samarali hissa qo'shadigan va mamlakat strategiyasiga muvofiq qashshoqlikni kamaytirishga eng katta ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtiradi.

Osiyo infratuzilma investisiya banki (OIIB) Osiyodagi murakkab infratuzilma ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlatlarni birlashtirish uchun tashkil etilgan ko'p tomonli moliyaviy institutdir. U o'z faoliyatini 2014 yil yanvar oyida boshlagan va hozirgi paytda unga 57ta mamlakat a'zo. OIIB elektr va energetika, transport va telekommunikasiya, qishloq infratuzilmasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv ta'minoti va kanalizasiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda shaharlar va logistikani rivojlantirish sohalarida ishonchli va barqaror loyihalarni moliyalashtirishni taklif etadi. 2008 yilda tashkil topgan Moliyaviy ommaboplik al'yansining (MOA) maqsadi moliyaviy ommaboplik bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirish orqali moliyaviy resurslardan foydalana olmaydiganlar uchun tegishli moliyaviy xizmatlar sifatini va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishdan iborat. Dunyoning 95 rivojlanayotgan mamlakatlarning tartibga soluvchi moliyaviy tashkilotlarini birlashtiradi. Al'yans davlat moliyaviy tizimining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhim siyosiy sohalarda a'zo mamlakatlarga grantlar va texnik yordam ko'rsatadi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) - islomiy moliyalashtirishga yo'naltirilgan ko'p tomonlama rivojlanish banki 1975 yilda tashkil topgan. U a'zo mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtiradi. Bank shariat qonunlari va tamoyillariga asoslanib, a'zo davlatlar va butun dunyo musulmon jamoalarida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotdagi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bu moliya Bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishdir. Moliya bozori Iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotlarni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion Jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Jamiyat taraqqiyotida moliyaviy Munosabatlarning o'rni esa beqiyosdir, zero, ular moliyaviy resurslarining harakati shakllanishi, Taqsimlanishi va xalqaro moliya bozori institutlari hamda moliyaviy institutlar va tashkilotlar tomonidan ishlatilishiga asoslangan tarkib bo'yicha murakkab bo'lgan munosabatlar tizimidir. Shu sababli, hozirgi vaqtda kelib, O'zbekiston bilan ko'plab moliya tashkilotlar iqtisodiyMunosabatlar keng yo'lga qo'yilib va samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda. Bunga misol tariqasida birgina O'zbekiston bilan ISLOM TARAQQIYOT BANKI (ITV) o'rtasidagi munosabatlarni qarab chiqamiz.

Islom taraqqiyot banki(ITB) 1975 yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig'ilishining qaroriga ko'ra tashkil etilgan. ITBning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan.

2022 yilning 14 fevral kuni O'zbekiston bosh vaziri o'rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umrzoqov Islom taraqqiyot banki (ITB) prezidenti Muhammad Sulaymon al-Jassir bilan videokonferensiya tarzida muzokaralar o'tkazdi. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish vazifalari ko'rib chiqildi.

ITB bilan 2023-2025 yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturini birgalikda ishlab chiqish to'g'risida kelishuvga erishildi. Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan fikr almashildi, ular qatorida aholi bandligi va malakasini oshirish, hududlar va qishloq joylarda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish,

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash, suv ta'minoti tizimlari, kanalizatsiya, kommunal va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlar belgilab olindi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kelgusida bu mablag'lar ko'magida mahalliy boshqaruv jarayoni hamda jamoatchilik ishtirokida asosiy infratuzilma va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, aholining turli holatlarga, xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga erishilishi — insonparvarlikning eng oliy namunasi bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni*
2. *O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni,*
3. *O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Qonuni" Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi. 3-modda.*
4. *"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni, 25-modda.*
5. *Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013, P. 3. Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. –USA. Prentice Hall, 2012. –P 2*
6. *M 70 Moliya bozori: Darslik / S. Elmirzayev va boshqalar; –T.: "Iqtisod-moliya", 2019.*

ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШ БЎЙИЧА ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ

Коцанов А.
ҚҚДУ Мустақил докторанти

Жаҳон амалиётида хуфиёна иқтисодиёт даражасини камайтиришнинг муҳим йўлларида бири нафақат норасмий (яъни яширин иқтисодиётда фаолият юритаётган жисмоний ва юридик шахслар учун жарималарни ошириш), балки аниқ ва оқилона қонун-қоидаларни яратиш ва

конунчиликдаги мураккаб жараёнларни камайтиришдир. Хуфиёна иқтисодиёт даражасини меҳнат бозори стандарлари орқали камайтириш, макроиқтисодий кўрсаткичлар ёрдамида қисқартириш бўйича тадқиқотлар олиб борилган. Аммо ҳозирги кунда хуфиёна иқтисодиёт даражасини молиявий механизмлардан фойдаланган ҳолда аниқлаш ва камайтириш, шу билан бир қаторда рақамли молиявий технологиялар орқали камайтириш бўйича кенг қамровли илмий тадқиқотлар олиб борилмаган. Хуфиёна иқтисодиётда амалга оширилаётган фаолиятлар тури ва шакли ўзгарган бўлишига қарамасдан, бир қатор ривожланаётган ва ривожланган давлатлар унинг даражасини камайтириш мақсадида чуқур ислоҳотлар олиб бормоқдалар.

Японияда ижтимоий хавфсизлик ва солиқ тизимининг адолатлилигини ошириш ва ҳукумат билан ўзаро алоқаларни осонлаштириш учун 2015 йил октябрдан бошлаб барча жисмоний шахслар ва корпорацияларга “Менинг рақамим” деб номланувчи такрорланмас идентификатор берилди. Шахсий идоралар ва корпорацияларга Миллий Солиқ Агентлиги (НТА) томонидан жисмоний шахсларга берилган Менинг рақамим декларация бланкаларида ва конун ҳужжатларида талаб қилинади. НТА декларациялар ва баёнотларни бирлаштириш ва мослаштириш ижтимоий хавфсизлик ва солиқ тизимининг аниқлиги ва самарадорлигини оширади деб кутмоқда.

Хуфиёна иқтисодиёт ҳақида турли хил қарашлар бор. Уларни барчасини умумлаштирадиган бўлсак хуфиёна иқтисодиётни фақатгина солиқдан қочиш мақсадида олиб борилаётган фаолиятлар жамланмаси деб таърифлаш мумкин. Аммо фақатгина солиқдан қочиш хуфиёна иқтисодиётда фаолият юритишга мотив бўла олмайди. Мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан Б.Турдиев хуфиёна иқтисодиётни “Давлат бошқаруви органлари фаолияти ва назорат функцияларининг ташкил этилиши, маъмурий тартиб-таомиллар ва коррупция ҳолатлари натижасида

вужудга келадиган фаолият”⁷⁸ деб таърифлаган. Б.Якубов эса хуфиёна иқтисодиёт меҳнат бозори билан боғлиқ бўлган ижтимоий муаммо деб таърифлаган⁷⁹.

Хуфиёна иқтисодиётни назарий муҳокама қилиш Allingem ва Sandmo томонидан бошланган ва улар хуфиёна иқтисодиётни даромад солиғини тўлашдан бўйин товлash дея таърифлаган⁸⁰. Гарчи хуфиёна иқтисодиёт ва солиқларни тўлашдан бўйин товлash бир-бирига мос келмаса ҳам, аксарият ҳолларда хуфиёна иқтисодиётдаги фаолият тўғридан-тўғри ёки билвосита солиқларни тўлашдан бош тортишни назарда тутати, чунки солиқларни тўлашдан бош тортишни белгилловчи омиллар ҳам шубҳасиз хуфиёна иқтисодиётга таъсир қилади. Allingem ва Sandmo солиқларни вақтида тўлаш унинг кутилаётган харажатлари ва фойдаларига боғлиқ дея таъкидлаган.

Ҳозирги вақтга қадар хуфиёна иқтисодиёт мавзусида олиб борилган тадқиқотлар натижасида бир қатор таърифлар келтирилган, аммо ушбу таърифлар ичида хуфиёна иқтисодиётнинг барча жиҳатлари ёритиб берувчи таъриф сифатида Medina ва Schneiderнинг тарифини қайд этишимиз. Унга кўра:

Хуфиёна иқтисодиёт молиявий, қонун чиқарувчи ва институтсионал мақсадларда расмий ҳокимият органларидан хуфиёнаган барча иқтисодий фаолиятни қамраб олади. Монетар омиллар солиқлардан қочиш ва ижтимоий таъминотга қўшилган барча тўловларни ўз ичига олади, тартибга солувчи органлар томонидан аниқланадиган хуфиёна иқтисодиётга эса давлат қонунчилигидан қочиш киради, институтсионал сабабларга пора бериш сиёсати, сиёсий институтларнинг фаолияти ва қонунчиликнинг заифлиги киради. Хуфиёна иқтисодиёт, бизнинг тадқиқотларимиз учун, асосан

⁷⁸ Бобир Собирович Турдиев, “Хуфиёна иқтисодиёт”ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun, 2020 yil

⁷⁹ Baxtiyor Yakubov, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning darajasi qanday? “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 146-soni

рўйхатдан ўтган тақдирда миллий ЯИМга ҳисса қўшадиган қонуний иқтисодий ва самарали фаолиятни ифодалайди.⁸¹

Технологиялардан фойдаланиш, хусусан, Интернет ва телефон банкинги, контакtsiz карталар ва мобил иловаларнинг ўсиши, шунингдек онлайн харидларнинг сезиларли даражада ўсиши нақд пулдан фойдаланишга кучли таъсир кўрсатмоқда. Бу кўплаб мамлакатларда қайд қилинган операциялар учун нақд пуллардан фойдаланиш ҳажмининг қисқаришига олиб келди (гарчи ўзгариш тезлигидаги фарқлар катта бўлса ҳам). Швецияда нақд операциялар 2015 йилда барча тўловлар қийматининг деярли 2 фоизини ташкил қилди. Буюк Британияда (Буюк Британия) 2015 йилдан 2016 йилгача нақд пул билан қайд этилган тўловлар сони 15 фоизга камайди, Германия ва Австрияда эса ўзгариш тезлиги секинроқ. Катта миқдордаги тўловларнинг аксарияти нақд пул билан катта тўловларни амалга оширишда жисмоний қийинчиликлар ва катта миқдордаги маблағларни ушлаб туриш муаммоларининг мавжудлиги сабабли электрон тарзда амалга оширилмоқда. Бироқ, нақд пул ҳали ҳам барча иқтисодиётда нақд пул ёрдамида амалга оширилган операцияларнинг асосий қисми билан глобал миқёсда ҳал қилувчи рол ўйнайди.

Хуфиёна иқтисодиёт иқтисодиётнинг барча тармоқларига таъсир кўрсатиб, унинг даражасининг юқорилиги давлатдаги иқтисодий, ижтимоий муаммоларнинг мавжудлигидан ва молиявий механизмларнинг самарали фаолият юритмаслиги билан изоҳланади.

Хуфиёна иқтисодиёт даражасини аниқлашнинг бир қатор методлари мавжуд бўлиб, улардан самаралиси нақд пул ва талаб қилиб олунгунга қадар депозитлар нисбати орқали аниқлашдир.

Хуфиёна иқтисодиёт, унинг даражасини аниқлаш ва камайтириш бўйича тадқиқот ишларини олиб броман тадқиқотчиларнинг хуфиёна иқтисодиётга берган таърифлари ҳам бир биридан тубдан фарқ қилади.

⁸¹ Medina, L. and Schneider, F. (2018), Shadow economies around the world: What did we learn over the last 20 years?, IMF Working Paper WP018, IMF, Washington DC, USA

Хуфиёна иқтисодиёт даражасини камайтиришда асосий воситалар булар фискал ҳамда монетар воситалардир.

Хорижий давлатлар тажрибасини таҳлил қиладиган бўлсак, ахборот технологияларининг ривожланиши хуфиёна иқтисодиётни оширувчи усулларнинг пайдо бўлишига олиб келмоқда.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ТОМОНИДАН ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ ИНВЕСТИЦИОН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Нурмухаммедов Абдижаббар Юнусович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Банк иши ва инвестициялар” кафедраси доценти в.б.*

Хизмат кўрсатиш соҳаси Ўзбекистон иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Шу боис, тижорат банклари томонидан хизмат кўрсатиш соҳасидаги тадбиркорлик субъектларини, айниқса маиший, таълим, тиббий, ахборот-коммуникация ва бошқа талаб юқори бўлган соҳаларда фаолият кўрсатадиган корхоналарни кредитлаш орқали молиявий қўллаб-қувватлаш долзарб вазифалардан ҳисобланади. [1] Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг банк тизмини ислоҳ қилишнинг 2020-2025 йилларга мўлжалланган стратегиясида “кредитлашни фақат бозор шартлари асосида амалга ошириш, кредит портфелини ва банк рискларини бошқариш сифатини яхшилаш, кредитлаш ҳажмларининг мўътадил ўсишига амал қилиш, молиявий рискларни баҳолаш учун технологик ечимларни татбиқ этиш” банк тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари сифатида эътироф этилган.[2] Бу эса, ўз навбатида, хизмат кўрсатиш соҳаси кредитлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш заруриятини юзага келтиради.

Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларининг инвестицион харажатларини кредитлаш амалиётида ечимини кутаётган айрим муаммолар мавжуд. Ана шундай муаммолардан бири – хорижий кредит линиялари орқали жалб

этилатган инвестицион кредитларнинг баҳосини, яъни фоиз ставкаларининг юқори эканлиги ҳисобланади.

Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларининг инвестицион харажатларини кредитлаш амалиётидаги долзарб муаммолардан яна бири – бу уларнинг пул оқимини заифлиги ва балансида юқори ликвидли гаров объектларининг етишмаслиги муаммосидир. Кичик бизнес субъектларининг аксарият қисмида пул оқимининг заифлиги уларни гаровсиз кредитлаш имконини бермайди. Юқори ликвидли гаров объектлари эса, уларнинг балансида мавжуд эмас. Бундай шароитда суғурта компанияларининг суғурта полиси тижорат банклари кредитлари учун таъминот вазифасини ўташи мумкин. Аммо республикамиз тижорат банкларининг суғурта компанияларига нисбатан ишонч даражасини юқори деб бўлмайди.

Банклар томонидан хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини кредитлашда асосан бир маротабали кредитлаш шаклидан фойдаланилмоқда. Кичик бизнес субъектларига кредитлар беришда кредитлашнинг кредит линияси очиш йўли билан кредитлаш, овердрафт, контокоррент ва форфейтинг шаклларида фойдаланиш йўлга қўйилмаган.

Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларининг балансида юқори ликвидли гаров объектларининг етишмаслиги уларни кредитлаш ҳажмини юқори суръатларда ошириш имконини бермаяпти. [3]

Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини кредитлашнинг услубий асосларини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган долзарб масалалардан бири – бу кредитлаш шаклларида комплекс фойдаланишни таъминлаган ҳолда, берилган кредитларнинг самарадорлигини таъминлаш ҳисобланади. Ҳозирги даврда республикамиз тижорат банкларини овердрафт, контокоррент ва форфейтинг шаклида кредитлаш амалиёти мавжуд эмас. Банкларнинг компьютер дастурлари мижозлар жорий ҳисобрақамларининг дебетли қолдиғини қабул қилмайди. Бундан ташқари, амалдаги йўриқномаларда овердрафт, контокоррент ва форфейтинг кредитларини бериш ва расмийлаштириш қоидалари ўз аксини топмаган.

Республикамиз тижорат банкларининг кредитлаш амалиётидаги камчиликлар ва ресурс базасининг етарли эмаслиги хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини кредитлаш амалиётига салбий таъсир кўрсатмоқда. [4]

Республикамиз тижорат банкларининг кредитлаш амалиётида кредитлашнинг овердрафт, контокоррент ва форфейтинг шаклларининг мавжуд эмаслиги кредитлаш амалиётининг самарадорлигини оширишга тўсқинлик қилади. Кредитлаш шаклларида комплекс фойдаланиш кредитлаш амалиётининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бунинг сабаби шундаки, бир кредитлаш шакли иккинчи кредитлаш шаклининг ўрнини боса олмайди. Чунки, ҳар бир кредитлаш шакли унга бўлган объектив талаб асосида юзага келади ва бошқа кредитлаш шаклларига хос бўлмаган хусусиятларга эгадир. Масалан, овердрафт кредитига бўлган талаб тўловга қобиллик даражаси юқори ва ишлаб чиқариш цикли қисқа бўлган хўжалик юритувчи субъектлар томонидан юзага келади ва уларнинг жуда қисқа муддатли пул маблағлари узилишини бартараф этади.

Контокоррент кредити эса, мижознинг пул маблағларини самарали бошқариш, тўловларнинг узлуксизлигини таъминлаш имконини беради.

Кредитлашнинг форфейтинг шакли мол етказиб берувчиларнинг пул маблағларига бўлган эҳтиёжларини қондириш билан бирга, корхоналар ўртасидаги дебитор-кредитор қарздорлик ҳажмини қисқартириш имконини беради.

Бундан ташқари, республикамиз тижорат банклари капитал базасининг барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган муаммолар мавжуд. Хусусан, тижорат банкларининг биринчи даражали капитали таркибига девальвация захираси киритилган. Ҳолбуки, Базель стандартида девальвация захирасини тижорат банклари капитали таркибига киритиш умуман таъқиқланган.

Ҳозирги даврда республикамизнинг қатор тижорат банкларида трансформация рискининг мавжудлиги кўзга ташланмоқда. Трансформация рисқи тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўловга қобиллигига нисбатан

кучли салбий таъсирни юзага келтиради. Бунинг натижасида банкларнинг депозитларга фоиз тўлаш имконияти пасаяди, жалб қилинган депозитларнинг асосий қарз суммаси ва уларга ҳисобланган фоизларни ўз вақтида ва тўлиқ қайтара олиши қийинлашади.

Фикримизча, юқорида қайд этилган муаммоларни ҳал қилиш мақсадида куйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

1. Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларида юқори ликвидли гаров объектларининг етишмаслигини ҳисобга олиб, уларни лизинг ва қайтариладиган лизинг асосида кредитлашга эътиборни кучайтириш лозим. Қайтариладиган лизинг Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектининг балансида бўлган лизинг объектини тижорат банкига сотиш йўли билан, унинг айланма маблағларини тўлдириш имконини беради. Аммо, лизингнинг ушбу қулай шаклидан Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектлари фойдаланиш имконига эга бўлишмаяпти.

2. Тижорат банклари томонидан Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларига бериладиган паст фоизли кредитлар ҳажмини ошириш мақсадида, биринчидан, банкларнинг устав капиталида давлатнинг улушини, ушбу ресурсларни Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини имтиёзли кредитлашга йўналтириш шарти билан, ошириш лозим; иккинчидан, пенсия фонди ва давлат суғурта компанияларининг бўш пул маблағларини тижорат банкларига паст фоиз ставкаларида, уларни кичик бизнес субъектларини кредитлашга йўналтириш шарти билан, паст фоиз ставкаларида муддатли депозит қилиб жойлаштириш керак.

3. Тижорат банклари томонидан хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини овердрафт ва контокоррент шаклларида кредитлаш тартиби, юзага келадиган кредит рискинни пасайтириш йўллари, жорий ҳисобрақамнинг дебетли ва кредитли қолдиғига фоизлар тўлаш механизми махсус йўриқномада ўз аксини топиши лозим.

4. Хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларининг кредит тўловига лаёқатлилигини аниқлаш бўйича алоҳида методика ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Юқорида таъкидлаб ўтилган муаммоларнинг бартараф этилиши хизмат кўрсатиш соҳаси субъектларини кредитлаш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан муҳим амалий аҳамият касб этади.

Адабиётлар/Литература/Reference:

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чоратadbирлар тўғрисида”ги қарори//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.01.2022 й., 07/22/104/0077-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони//ҚХММБ:06/205992/0581-сон. 13.05.2020 й.

8. Абдуллаева Ш.З. Банк иши: Дарслик; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2017. – 732 б.

9. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.

AGROSANOAT KLASTERLARIDA INNOVATSION XARAJATLAR HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich

TDIU “Buxgalteriya hisobi”

kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: mamlakatimizda qishloq xo'jaligi taraqqiyotida agrosanoat klasterlarining tutgan o'rni, ularda innovatsiyalarni joriy qilish hamda innovatsion faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: klaster, agrosanoat klasteri, innovatsiya, innovatsion faoliyat, xarajat, “direk-kosting”.

Аннотация: в них освещена роль агропромышленных кластеров в развитии сельского хозяйства нашей страны, особенности внедрения инноваций и учета затрат, связанных с инновационной деятельностью.

Ключевые слова: кластер, агропромышленный кластер, инновации, инновационная деятельность, стоимость, “директ-костинг”.

Abstract: the role of agro-industrial clusters in the development of agriculture in our country, the features of introducing innovations and taking into account costs related to innovative activities are highlighted in them.

Keywords: cluster, agro-industry cluster, innovation, innovative activity, cost, “direct-costing”.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligini qamrab olmoqda. Ayni vaqtda, hozirgi murakkab va qaltis davr dunyo miqyosida agrar sohaning hal qiluvchi o'rni va ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko'rsatib berdi. Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, sohada yangi ish o'rinlari yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish eng muhim masalaga aylandi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta'minlash masalalari bevosita qishloq xo'jaligini boshqarishning zamonaviy usuli bu klasterlar tizimi bo'lib, hozirgi davrda mazkur sohan o'tgan juda qisqa vaqt ichida harakatlantiruvchi yetakchi kuch — drayveriga aylandi. Mazkur sohani yanada rivojlantirish, ularni mamlakai qishloq xo'jaliginidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish uchun sohaga ilg'or, zamonaviy faoliyat turlarini keng joriy qilish hamda yangi turdagi mahsulot va xizmatlarini yaratishda innovatsion faoliyatlarni joriy qilish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mazkur sohaga innovatsion faoliyatni faollashtirishning ahamiyati va mamlakatning innovatsion salohiyatini shakllantirish muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat sohasida shakllantiriladigan davlat siyosatining asosini tashkil etishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillar tizimi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. O'zbekistonning sanoat, resurs, moliyaviy va kadrlar salohiyati, mamlakat aholisining ehtiyojlari va hududlarning integratsiya jarayonlarining hisobga olgan holda agroklastlar faoliyatini rivojlanish yo'nalishlarini belgilash zarur hisoblanadi.

Agrosanoat klasterlari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilinishi mamlakatning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish va uning barqaror rivojlanish ustuvorliklariga erishishning kaliti bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanish uchun yuqori salohiyatga ega yo'nalish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatda kuchli va barqaror iqtisodiy o'sish institutsional mustahkamlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni talab qiladi.

Agrosanoat klasterlarida raqobatbardosh yuqori texnologiyali innovatsion mahsulotlarning sezilarli o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatchilarga nisbatan bozorda iste'molchilar talabini yaxshiroq qondirish orqali foyda o'sishining asosiy vositasi hisoblanadi. Umumiy makroiqtisodiy muvozanatga erishish faqat nazariy sxemalarda mumkin, buni iqtisodiy faoliyatni tartibga solish jarayonlarida yodda tutish kerak. Davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi uning tadbirkorlik sub'ektlari xarajatlarini kamaytirishga yordam beradimi yoki yo'qligiga bog'liq. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun davlat tomonidan tartibga solingan iqtisodiy sub'ektlar uchun mustahkam institutsional asos yaratishi va ularga jahon bozori bilan teng raqobat sharoitlarini ta'minlashi kerak. Bunday sharoitda innovatsion faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Agrosanoat klasterlarining innovatsion faoliyati natijalarini hisobga olish mamlakat iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning majburiy elementi bo'lishi kerak. Bozor iqtisodiyoti va moliyasini boshqarishning an'anaviy nazariy yondashuvlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, asosiy yo'nalishlar ma'lum bir cheklash bilan tavsiflanadi, bu zamonaviy murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirilgan talqin qilishda, soddalashtirilgan modellardan, shu jumladan innovatsiyalarda foydalanishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdiki, hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyotida yangi Taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq jarayonlarning kuchayishi natijasida agrosanoat klasterlarining innovatsion faolligining barqaror o'sish tendentsiyasi bosqichma-bosqich shakllanmoqda, bu esa innovatsion faoliyat turining yanada rivojlanishini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati

samaradorligini sifat jihatidan o'zgartiradigan bunday innovatsiyalarni yoki innovatsiyalarni takror ishlab chiqarish uchun iqtisodiy munosabatlar tizimiga asoslangan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining muqarrar ravishda innovatsiyaga o'tishi haqida gapirish mumkin.

Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qulay innovatsion muhit talab qilinadi, bu esa maxsus ish joylarini shakllantirishni belgilaydi. Hozirgi vaqtda agrosanoat klasterlarida yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, innovatsiya markazlariga aylantirish zarur. Shu bilan birga, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki boshqa innovatsion faoliyatni amalga oshirish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy ravishda biznes tuzilmasi rahbariyati tomonidan tahlil qilinishi kerak. Shu sababli, innovatsion xarajatlarni hisobga olishning samarali tizimini shakllantirish biznesning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uni hal qilish butun klasterlar faoliyatida xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

Agrosanoat klasterlarida innovatsion faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni samarali boshqarish, taqsimlash hamda hisobini yuritishda alohida yondoshuvni talab etadi. Bunday sharoitda xarajatlar hisobini samarali yuritish maqsadida ularni zamonaviy hisob usullari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ana shunday usullardan biri sifatida "Direkt-kosting" tizimni keltirish mumkin. Ushbu tizim orqali innovatsion faoliyat xarajatlari doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratish, bu esa innovatsion faoliyat to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni olish samaradorligini oshiradi va ularning hisobini soddalashtiradi.

Shu bilan birga, innovatsion faoliyat uchun xarajatlarni taqsimlash usulini ishlab chiqish jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklar ya'ni, mazkur xarajatlar bir holatda doimiy xarajat sifatida, ikkinchi holda esa o'zgaruvchan xarajatlar sifatida belgilanishi mumkin. Bundan innovatsion faoliyat xarajatlarini taqsimlashda "Direkt-kosting" tizimini qo'llash samarali hisoblanadi hamda xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi munosabatlarning haqiqiy holatini aniqlash imkonini beradi.

**AXOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING O'RNI VA AHAMIYATI**

**AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA
QIMMATLI QOG'OZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

*Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi-
TerDU Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi*

Аннотасија: *Moliyaviy savodxonlik mamlakat aholisining pul mablag'lari bilan to'g'ri oqilona foydalanish darajasini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik bizga pullarimizni nazorat qilish, turli xil risklarni boshqarish, jamg'armalarimizni turli xavf-xatarlardan himoya qilish, investitsiya kiritishda muhim omillarni hisobga olish imkoniyati ochib beradi.*

Аннотация: *Финансовая грамотность является одним из важных факторов, определяющих уровень правильного и рационального использования денег населением страны. Финансовая грамотность дает нам возможность контролировать свои деньги, управлять различными рисками, защищать наши сбережения от различных рисков и учитывать важные факторы при инвестировании.*

Abstract: *Financial literacy is one of the important factors that determine the level of correct and rational use of money by the population of the country. Financial literacy gives us the ability to control our money, manage various risks, protect our savings from various risks, and consider important factors when making investments.*

Kalit so'zlari: *aholi, moliyaviy savodxonlik, aksiya, fond bozori, qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, budjetlashtirish, kirim-chiqim.*

Ключевые слова: *население, финансовая грамотность, акции, фондовый рынок, ценные бумаги, облигации, бюджетирование, входные и выходные данные*

Key words: *population, financial literacy, share, stock market, securities, bonds, budgeting, input and output.*

Mamlakatning iqtisodiy holatini tahlil qilishda aholining moliyaviy savodxonligi muhim o'rin egallaydi. Xususan, aholidagi bo'sh pul mablag'larining harakati ham mamlakatda moliyaviy pul aylanmasida ijobiy holatlarni aks ettiradi.

Moliyaviy savodxonlik — shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim) va investitsiyalarni o‘z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko‘nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir. Insonlarda bu qobiliyatning yo‘qligi turli xil moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu asosda ularda moliyaviy pul mablag‘larining to‘g‘ri investitsiya kiritilmasligi natijasida moliyaviy jihatdan rivojlanmaslik, shuningdek hayotdagi yashash darajasining yuqori pog‘onaga ko‘tarilmasligini guvohi bo‘lamiz.

Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aholining moliyaviy jihatdan yetarli bilimlarga ega bo‘lmasligi jamiyatda turli xil ishlab chiqarish sohalarining yaxshi rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi shuningdek ular fond bozori ya‘ni aksiyalarga kamroq investitsiya qilishadi. Mamlakatimizda fond bozorlarining yaxshi rivojlanmaganligi natijasida aholi o‘rtasida turli xil moliyaviy muammolar kelib chiqadi. O‘zbekistonda yagona fond birja hisoblangan “Toshkent” fond birjasi 1994-yil 8-aprelda tashkil etilgan bo‘lib u yerda 99 ta kompaniya o‘z aksiyalari va 4 ta emitent o‘z obligatsiyalari bilan savdo faoliyatida qatnashishadi. Barcha ro‘yxatga olingan qimmatli qog‘ozlar birjaga joylashtiriladi hamda u yerdan jismoniy va yuridik shaxslar ya‘ni investorlar xarid qilishlari mumkin. Ko‘p holatlarda oddiy aksiyalar dividend to‘lanishi ko‘zda tutmaydi lekin aksiyadorlik jamiyati faoliyatida qatnashish imkonini beradi. Imtiyozli aksiyalar esa aksionerlik jamiyatining daromad olish olmasligidan qat‘iy nazar dividend to‘lab boriladi.

Mamlakatda 2023 yilning olti oyi davomida qimmatli qog‘ozlar bilan tuzilgan bitimlar soni bo‘yicha yuqori o‘rinda turuvchi o‘nta kompaniyalarning dividendlari bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval

Qimmatli qog‘ozlar bilan tuzilgan bitimlar soni

Nomi	Bitimlar soni	Oddiy aksiyalar	Imtiyozli aksiyalar	Bozor qiymatining foizida
Sanoatqurilishbank AJ	18300	Dividend to‘lamaydi	4.37 so‘m	11.8 %
Hamkorbank	17800	Dividend to‘lamaydi	1.5 so‘m	1.67%
Ipotekabank OTP Group	9400	Dividend to‘lamaydi	0.25 so‘m	6.4%

Kapital sug'urta	7000	Dividend to'lamaydi	Nominalga nisbatan 15 %	Nominalga nisbatan 15 %
Uzmetkombinat AJ	6800	1211.97 so'm	300 so'm	Oddiy 13.5% Imtiyozli 12.5%
UZbek Comodity EXchane (UZEX)	5500	2300 so'm	Mavjud emas	11.3%
Kvars AJ	5400	Dividend to'lamaydi	Mavjud emas	-
Qizilqumsement AJ	3900	Dividend to'lamaydi	Mavjud emas	-
“Chilonzor buyum savdo” kompleksi AJ	3850	0.3 so'm	Mavjud emas	16.4%
“Ipak yo'li bank” AJ	3100	0.79 so'm	0.79 so'm	Oddiy 2.69% Imtiyozli 7.9%

Izoh: ma'lumotlar <https://uz.kursiv.media> saytidan olindi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki investorlar tomonidan eng ko'p qiziqish banklarga qaratilgan shu o'rinda “Sanoatqurilishbank” AJ, “Hamkorbank” AJ, “Ipotekabank” OTP Group oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lab berilmaydi ammo imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend to'lash tartibi joriy qilingan. Shuningdek, “Kvars”AJ hamda “Qizilqumsement” AJ da dividendlar yo'qligi sababli ko'plab investorlarning qiziqishi pasayishiga olib kelmoqda. Aholi daromadlarini turli qimmatli qog'ozlar sotib olishga sarflasa bu holatda ular kompaniyaning dividend to'lash qiymatiga e'tibor qaratishi zarur hisoblanadi.

Ba'zi kompaniyalarda bu qiymat bir necha tiyinnigina tashkil etsa boshqalarida bir nech yuz mingga teng keladi. Qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlash uchun multiplikatorlardan foydalanish lozim. Bunda asosan kompaniyaning oxirgi savdo kunidagi kapitallashuv va yillik hisobotdan sof foydaga nisbati orqali topish mumkin. Bu ko'rsatkich qancha kichkina bo'lsa kompaniyaning aksiyalari qiymati kelajakda yuksalish darajasi yuqoriroq bo'ladi.

Shuningdek aksiyalarni xarid qilayotgan faqtagina bitta kompaniya aksiyalariga emas balki necha kompaniyalarni aksiyalarni sotib olinsa foyda olish yoki tavakkalchilik darajasi yuqori bo'ladi. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun ko'proq aholi o'rtasida aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni keng targ'ib qilish hamda birjalarda ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash talab etiladi.

Mamlakatimizda “2022-yil 1-apreldan 2024-yil 31-dekabrgacha O‘zbekiston rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning aksiyalardan olgan dividendlari daromad solig‘idan ozod qilinishi hamda rezident va norezident jismoniy hamda yuridik shaxslarning xo‘jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo‘yicha daromadlari daromad solig‘i va foyda solig‘idan ozod qilinishi⁸² ham yaratilgan qulaylik hamda aholini moliyaviy savodxonligini oshirish uchun yaratilgan imkoniyatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [PQ-90-son] 17.01.2022
2. Tohir Malikov “Moliyaviy savodxonlik asoslari” 2021 y 404-b
3. <https://uz.kursiv.media>
4. <https://lex.uz>
5. <https://spot.uz>

**АҲОЛИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШДА
ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ**

Холмурадов. М. -

*“Тошкент амалий фанлар
университети” “Банк иши”
кафедраси ўқитувчиси*

Аннотатсия: Ушбу мақолада аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш, муаммолар ва уларни бартараф этиш, шунингдек, замонавий ёндашувларнинг ўрни ва аҳамияти. Молиявий саводхонликни ошириш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаси ва олиб борилган тадқиқотлар натижаси асосида хулоса ва тавсиялар берилди.

Калит сўзлар: Молиявий саводхонлик, ахборот технологиялари, замонавий ёндашувлар, ривожланиш, хорижий давлатлар тажрибаси.

⁸² “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [PQ-90-son] 17.01.2022

Бугунги кунда дунё аҳолисининг сони йилдан-йилга ортиб бориши билан биргаликда уларнинг молиявий саводхонлик даражаси ва реал даромадларининг миқдори ҳам кун сайин ортиб бормоқда.

Молиявий саводхонликни ошириш бўйича ривожланган давлатларда кўплаб инновацион ёндашувлар мавжуд бўлиб, улар турли хил семинар-тренинглар молиявий ўйинлар, психологик дарслар, ўқув-машғулотлар сингари инновацион кўринишларда намоён бўлмоқда.

Европа мамлакатлари тажрибасига кўра, мактаб ўқувчилари учун мактаб дарсликлари сифатида молиявий саводхонлигини оширишга қаратилган фанлар блоки дарслик сифатида жорий этилган бўлиб, мактаб ўқувчиларини ёшлигидан бошлаб, молиявий рискларга тайёрлаш, савдо-сотик тушунчаларини шакллантириш, пул муносабатларини бошқариш, актив ва пассив даромадларини фарқлаш ҳамда шахсий бизнес ғояларини шакллантириш ва ривожлантириш мақсадида замонавий билимларни эгаллашга қаратилган тизим ҳисобланади. Ушбу тизим мактаб ўқувчиларида пул муносабатларини бошқаришга қаратилган инновацион ғояларни юзага келишини таъминлашди. Шунинг учун ҳам ривожланган мамлакатларда молиявий саводхонликни оширишга жуда катта эътибор қаратилади.

Бугунги кунда ҳар бир мамлакат ўзининг аҳолисини молиявий саводхонлик даражасини ошириш мақсадида турли хил замонавий ёндашувларни амалиётга татбиқ этиб келмоқда. Аҳолини молиявий саводхонлик даражаси юқори бўлса, мамлакатнинг иқтисодий ўсиш даражаси ҳам юқори суръатларда ўсиб боради.

Мамлакатимизда ҳам аҳолининг саводхонлик даражасини ошириш учун ривожланган мамлакатлар тажрибасидан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Муҳтарам, Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев томонидан мамлакатимиз аҳолисини молиявий саводхонлик даражасини оширишга қаратилган кўплаб ислохотлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, молиявий ҳисоботларни очиқлаштириш, бюджет маблағларини халқ муҳокамасига қўйиш орқали тақсимлаш, бюджет

маблағларини сарфланиши бўйича очиқ мулоқотлар ўтказиш, ҳар бир туман кесимида маҳаллий бюджет маблағларини ажратилиши бўйича аҳоли томонидан таклиф бериш имкониятларини жорий этиш каби кўплаб янги ислоҳотларни жорий этилганлиги мамлакатимиздаги аҳолини молиявий саводхонлигини оширишга қартилган янгича ёндошувлар ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2021 йил 13 апрелдаги “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6207-сонли Фармонида кўра: аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг молиявий саводхонлигини ошириш, уларни молиявий хизматлар ва маҳсулотлар, жумладан капитал бозори ҳамда молиявий инструментлар ҳақида хабардор қилиш билан боғлиқ ташаббусларни ҳамжиҳатликда амалга оширган ҳолда мутасадди ташкилотлар билан фаол ҳамкорликни йўлга қўйиш; илғор хорижий ўқув муассасалари ва тадқиқот институтлари, молия ташкилотларидан етакчи мутахассисларни молиявий саводхонлик даражасини оширишга оид таълим тадбирларига кенг жалб қилиш; умумтаълим мактаблари ўқувчилари ҳамда ноиқтисодий йўналишдаги олий таълим ташкилотлари талабалари учун «Молиявий саводхонлик» ўқув курсини фан сифатида жорий этиш.

Ушбу фан доирасида маблағларни тўғри бошқариш, оқилона молиявий қарорлар қабул қилиш, жумладан молиявий инструментлар бўйича ўқитиш методологиясини ишлаб чиқиш ҳамда «Молиявий саводхонлик олимпиадалари»ни ташкил этиш орқали ўқув курсининг самарадорлигини баҳолаш; аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг молиявий, шу жумладан инвестиция бўйича саводхонлигини ошириш борасидаги барча тадбирларни 2021 — 2023 йилларга мўлжалланган Молиявий хизматлар оммабоплигини ошириш миллий стратегияси доирасида амалга ошириш.[1] каби бир қатор муҳим бўлган вазифалар белгиланган бўлиб, уларни амалиётга жорий этиш орқали аҳолини молиявий саводхонлик даражасини ривожлантиришнинг янги имкониятлари юзага келади.

Бундан кўринадики, аҳолини молиявий саводхонлигини ошириш мамлакатнинг иқтисодий ўсишига тўғридан-тўғри таъсир этувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Миллий стратегия доирасида келгуси йилларда қуйидаги ислохотларни амалга ошириш кўзда тутилган:

- тадбиркорлар лойиҳаларини молиялаштиришга мўлжалланган турли молиявий воситаларни ривожлантириш ва нобанк кредит ташкилотлари фаолиятини ривожлантириш орқали кичик тадбиркорлик субъектларини молиялаштиришни кенгайтириш;

- молиявий маҳсулот ва хизматлар тўғрисидаги маълумотларнинг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, шикоятлар ва низоларни ҳал қилишнинг самарали механизмларини жорий этиш орқали молиявий хизматлар истеъмолчилари ҳуқуқларининг ҳимоясини кучайтириш;

- ОАВ орқали аҳолининг молиявий хизматлардан хабардорлигини ошириш, умумтаълим муассасаларида ва ноиқтисодий йўналишдаги таълим муассасаларида “Молиявий саводхонлик” ўқув дастурини жорий этиш, шунингдек, молиявий саводхонликни ошириш бўйича ўқув дастурларини ишлаб чиқиш кабилар орқали аҳоли ва тадбиркорларнинг молиявий саводхонлигини ошириш белгиланган.

Мазкур ислохотлар аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш, базавий молиявий хизматлар оммабоплиги ҳамда улардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш, аҳолининг кредит ва тўлов ташкилотларига бўлган ишончини мустаҳкамлаш орқали аҳоли фаровонлиги, молиявий тизим ва иқтисодий ўсишнинг барқарорлигини таъминлашга ҳамда мамлакатда яширин иқтисодиёт улушининг қисқаришига хизмат қилади.[2]

Қолаверса, бугунги кунда молиявий саводхонликни ошириш бўйича мамлакатимизда бир қатор иқтисодчи олимлар томонидан илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда. Жумладан, тадқиқотчи олимлар фикрига кўра: Мамлакатда аҳоли молиявий саводхонлиги даражасининг юқори бўлиши молиявий хизматлар соҳасининг ҳам жадал ривожланишига таъсир кўрсатади.

Молиявий хизматларни оммалаштириш орқали аҳолининг бу борадаги билимларини мустаҳкамлаш ва кичик бизнес субъектларининг бундай хизматларга бўлган талабини ошириш имкони пайдо бўлишини таъкидлаб ўтади.[3] Бундан кўринадикки, молиявий хизматларни ривожданиши ҳам бевосита аҳолининг молиявий саводхонлигига боғлиқ жараён ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мамлакатимиз аҳолисини молиявий саводхонлигини оширишда қуйидаги замонавий ёндошувларни амалиётга татбиқ этиш муҳим ҳисобланади.

Жумладан: молиявий саводхонликни оширишга қаратилган замонавий инновацион онлайн хизматларни жорий этиш; ҳар бир оила кесимида молиявий ёстиқчаларни шакллантириш ва ривожлантириш; молиявий билимларни оширувчи замонавий дастурларни амалиётга татбиқ этиш; молиявий саводхонликни оширишга қаратилган инновацион ўқув дастурларини ишлаб чиқиш; аҳоли ўртасида молиявий саводхонликни оширишга қаратилган танловларни ташкил этиш; молиявий саводхонликни ўқитадиган мобил иловаларни яратиш; аҳоли даромадлари ва харажатлари мониторингини шакллантиришда замонавий платформани ишлаб чиқиш; фуқароларни ишга қабул қилишда молиявий саводхонлик бўйича тест синовларини жорий этиш лозимдир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жойизки, молиявий саводхонликни ошириш ҳар бир аҳолининг оилавий бюджетини оширишга қаратилган энг муҳим кўрсаткич ҳисобланади. Молиявий саводхонликни ошиши аҳолининг молиявий ёстиқчаларини ривожланишини таъминлайди.

Ҳар бир оила бюджетини аниқ ҳисоб-китобларга асосланган бюджетини шакллантиришга хизмат қилади. Натижада эса, аҳолининг реал даромадлари ва харажатларини балансини шакллантиришнинг замонавий платформаси юзага келишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6207-сонли Фармони, 2021 йил 13 апрель.
2. REVIEW.uz сайтининг 2021 йил 12 июлдаги маълумотномаси.
3. М.Обилов “Аҳолининг молиявий саводхонлиги: мазмуни, аҳамияти ва асосий жиҳатлари”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, № 1 январ-феврал, 2019 йил. - 3 б.

AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH SOHASIDA XIZMAT KO‘RSATISHNING MAMLAKAT IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

*Ilyosova Dilbar Ismoil qizi ,
Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti doktoranti (PhD)*

***Annotatsiya.** Tezis aholiga aloqa va axborotlashtirish sohasida xizmat ko‘rsatishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, mamlakatda aloqa va axborotlashtirish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko‘paytirish, aholi va ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy axborot xizmatlari bilan yetarlicha ta‘minlash O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.*

***Kalit so‘zlar.** Axborot-kommunikatsiya texnologiya, Internet xizmatlari, telekommunikatsiya, yalpi ichki mahsulot, aloqa va axborotlashtirish, kompyuter.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, mamlakatda aloqa va axborotlashtirish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko‘paytirish, aholi va ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy axborot xizmatlari bilan yetarlicha ta‘minlash O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu siyosatni samarali amalga oshirish esa bevosita ushbu sohadagi statistik tadqiqotlar natijalari va samaradorligiga uzviy bog‘liq. Aholiga xizmat ko‘rsatish statistikasi ushbu sohadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning miqdor tomonlarini uning sifat tomonlari bilan birgalikda o‘rganadi. Uning asosiy vazifasi mamlakatda aloqa va axborotlashtirish sohasining asosiy statistik ko‘rsatkichlarini va sohaning

rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, baholash va prognozlash orqali kelajakda uni takomillashtirish hamda ushbu sohada ishlab chiqarishni kengaytirish borasida ilmiy xulosalar berishdan iborat.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasi statistikasi – statistikaning bir yo'nalishi sifatida, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlarini turli metodlar yordamida o'rganadi va tahlil qiladi. Ushbu sohaning vujudga kelishi rivojlanishi, eng avvalo, o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab aloqa va axborotlashtirish sohasining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi, mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ahamiyatining ortishi, milliy iqtisodiyotlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonlarining tezlashishi va eng muhimi, xalqaro bozorda raqobat muhitining kuchayishi bilan bog'liq. Dunyo bozorida ishlab chiqaruvchilarning to'qnashuvi ular oldiga bozor kon'yunktura o'zgarishlari haqida tezkor va aniq axborot olish talabini qo'ydi. Kimki ko'proq axborotga ega bo'lsa, u bu raqobatda yutib chiqadi. Shundan so'ng, aloqa va axborotlashtirish sohasini ham iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida statistik jihatdan o'rganishga katta e'tibor qaratildi.

Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi takomillashuvi hamda kengayishi natijasida o'tgan asrning 90-yillari oxiriga kelib, ushbu sohalarda qo'llaniladigan usullar va vositalarning bog'lanib ketish jarayoni boshlandi. Ushbu jarayon “axborotlashtirish va telekommunikatsiya konvergensiyasi” nomini oldi.


Aloqa va axborot texnologiyalarining uzviy qo'shilishi butun dunyoda aloqa va axborotlashtirish nomini oldi. Nazariyada, aloqa va axborotlashtirish tushunchasi talqinining eng mos keladigani L.Reyman rahbarligidagi mualliflar jamoasi tomonidan keltirilgan: “Aloqa va axborotlashtirish – bu tashkilotlar va aholiga axborot-kommunikatsiya mahsulotlari va xizmatlarni taqdim etishga mo'ljallangan zamonaviy axborot, kompyuter hamda telekommunikatsiya texnologiyalarini, ularni ro'yobga chiqaruvchi tizimlari va vositalarini uzviy ravishda birlashtiruvchi majmuadir” .

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi



Manba: O'zbekiston respublika Davlat statistika agentligi: <https://stat.uz/>.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil)



Manba: O'zbekiston respublika Davlat statistika agentligi: <https://stat.uz/>.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 57,2 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston taraqqiyotida aloqa va axborotlashtirish sohasining tutgan o'rni va ahamiyatining ikkinchi jihati iqtisodiy sohaga daxldordir. Gap shundaki, aloqa

vositalari orqali uzatiladigan axborot jamiyat rivojining eng muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. U ishlab chiqarish resursi, insonlar orasidagi aloqani ta'minlovchi qudratli vosita hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiyot va jamiyatning axborot uzatish tezligi hamda sifatiga bo'lgan talablari ancha o'sib bormoqda. Shu bilan birga ko'p sonli foydalanuvchilar uchun axborotning ochiqligini ta'minlash bugungi kunda bozorning ushbu sektorini rivojlantirish, iqtisodiyotning ushbu sohasi obro'sini oshirish va investitsiyalar jozibadorligini ta'minlash uchun bo'lgan harakatda muvaffaqiyatga erishishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining aloqa va axborotlashtirish sohasi tarmoqlari va vositalari – bu mamlakat iqtisodiyotida alohida muhim ahamiyatga molik, takomillashib borayotgan kompleksdir. Lekin, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu hali respublikaning rivojlanib borayotgan iqtisodiyoti ehtiyojlariga, boshqaruv sohasining, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, xususiy shaxslarning o'sib borayotgan talablariga to'la javob bermaydi. Buning sababi ushbu soha respublika iqtisodiyotining eng yosh tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada ishlab chiqarishni kengaytirish, jahon tajribasidan keng foydalanish hamda unga xorijiy investorlarni jalb qilish va shu asosda ushbu sohaning imkoniyatlarini kengaytirish uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Undan tashqari, respublikamizda aloqa sohasida statistik tadqiqotlarni amalga oshirish, ularni ishlab chiqarish bilan bog'lash, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha aniq ilmiy taklif va xulosalar qilish amaliyoti ham yuqori darajada rivojlangan deb ayto olmaymiz. Endilikda oldimizda turgan asosiy vazifa statistikaning ushbu sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, ushbu sohadagi hamkorlikni rivojlantirish, sohani zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash hisoblanadi. Bulardan tashqari, sohaning tashkiliy tuzilmasini va boshqaruv tizimini to'xtovsiz takomillashtirib borish talab qilinadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ushbu soha ko'rsatkichlari yaqin bir necha yil ichida real o'sishga erishishini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida telekommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda, odamlar

faoliyati va turmushini eng zamonaviy texnik vositalar va xizmatlar bilan ta'minlashda yanada ko'proq o'rin tutishini bildiradi. Undan tashqari, ushbu sohaning huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va aloqa va axborotlashtirish sohasi texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni bu borada katta ahamiyat kasb etdi. Unda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari tizimini rivojlantirish va joriy etishning birinchi galdagi vazifalari ta'riflangan, bu sohani boshqarishni takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Aloqa sohasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojining hozirgi bosqichidagi roli va ahamiyatini umumiy iqtisodiy nuqtai nazardan taxlil qilib shunday xulosaga kelish mumkin, bu sohaning bugungi kundagi bosh vazifasi respublikada axborotlashgan jamiyat shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M. Soatov "Statistika asoslari" darslik 743 b, 2003y.
2. Abdullayev Yo.A., Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. 382 b. 1998y
3. Davlat statistika agentligi veb-sayti: <https://stat.uz/>
4. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha maxsus sayt: <http://nsdg.stat.uz>.

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING O'RNI VA AHAMIYATI

Mahmudov Fahridin Umarovich-
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
O'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston respublikasida aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda qimmatli qog'ozlarning o'rni va ahamiyati, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda uchrayotgan hozirgi kundagi muammolar va ularning marketing tahlillari yordamidagi bir qator yechimlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, veksel, fond birjasi, emitent, investor, deponent.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi kunda yangi O'zbekiston respublikasi oldida turgan eng dolzarb muammolaridan biridir, chunki yurtimiz aholisining moliyaviy savodxonligini oshirmay turib bozor iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin emas, yurtimiz aholisi esa bevosita yurtimizda bo'layotgan iqtisodiy islohotlarning bevosita ishtirokchilar hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz tomonidan bu borada songgi yillarda juda katta islohotlar va aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida tushuntirishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda yurtimiz iqtisodiyotining barcha sohalarida chuqur iqtisodiy o'zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda shu qatorda O'zbekiston respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorida ham islohotlar olib borilmoqda davlatimiz tomonidan esa bu sohani ham yuridik ham iqtisodiy jihatdan himoya qilish va uni rivojlantirish maqsadida bir qator qonunlar qabul qilinib ularni rivojlantirish maqsadida turli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib boyitib borilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish hamda ular faoliyatini isloh qilish, undagi barcha muammolarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat olib borilmoqda. Moliya bozori, ayniqsa uning qimmatli qog'ozlar sektorini rivojlantirish davlatimizning strategik ustuvor yo'nalishlari sarasiga kiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, qimmatli qog'ozlar bozori-davlatning iqtisodiy holatni baholaydigan muhim ko'rsatkich, ya'ni barometr hisoblanadi.

Olib borilgan so'nggi tahlillarga qaraganda yurtimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish maqsadida uni aholi orasida targ'ib qilishda ishlar juda qoniqarsiz bu tahlillar analiz qilinganda quyidagi muammolar aniqlandi:

-birinchidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarining juda kamligi;

-ikkinchidan bu sohani rivojlantirish maqsadida marketing strategiyalridan foydalanilmaganligi yoki ularning deyarli yoqligi;

-uchinchidan qimmatli qog'ozlar likvidligini oshirish borasidagi sustkashliklar;

-to'rtinchidan qimmatli qog'ozlarni ham yuridik ham iqtisodiy himoyalash kamligi;

- **besichidan** qimmatli qog'ozlar haqidagi ma'lumotlarning juda kamligi;

- **oltinchidan** qimmatli qog'ozlar haqidagi ma'lumotlarning shaffof emasligi va ularning aksari yo'piq holdaligi yoki oddiy aholiga yetib kelmasligi;

Tahlil va natijalar. Yuqorida sanab o'tilgan bir qator asosiy muammolarning yechimlarini quyida tahlil qilib bu muammolarning yechimini topishga harakat qilamiz. Sanab o'tilgan muammolarning birinchisida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarining juda kamligi yoki umuman yo'qligi.

Birinchidan- muammoni yechish uchun avvalambor tushuntirish ishlarini maktab yoshidan boshlash kerakligi ya'ni qimmatli qog'ozlarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni, uning maqsad va vazifalarini tushuntirish kerak bo'ladi. Lekin bularning hammasi juda past natijada ekanligidir.

Ikkinchidan- muammoning yechimi esa bu sohani rivojlantirishda marketing strategiyalarini qo'llash hisoblanadi. Ma'lumki so'nggi yillarda marketingda tovar yoki hizmatni sotishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni juda katta va bu instrumentlar esa bozorda raqamli marketingning kuchayishiga olib keldi. Bulardan shunday hulosa chiqarish mumkinki, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda raqamli marketingdan foydalanish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda va ularning qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan munosabatini oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi (Facebook, instagramm, Twitter, Youtube, Telegramm) chunki itimoiy tarmoqlar aholimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Bugungi kunda hayotimizni mobil aloqa vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki hozirga kelib odamlar o'ziga kerakli ma'lumotlarning deyarli 80-90% mobil qurilma orqali oladi, lekin bu qurilma orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan ma'lumotlar juda past ko'rsatkichda qolmoqda. Buning uchun aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun ularga qimmatbaho qog'ozlar haqidagi va ularning vazifalari haqidagi tushunchalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda tushuntirib borilishi kerak.

Uchinchidan-agarda qimmatli qog'ozlar qanchalik likvid va o'z egasiga foyda keltiradigan bo'lsa, unga ishonch ko'payib uni sotib oluvchilar shuncha yuqori

bo'ladi shuning uchun aksiya chiqaruvchilar o'z aksiyalarining yuqori narxda baholanishini va unga talab yuqori bo'lishini xoxlasa buning uchun avvalambor sarmoya kiritilayotgan biznesning naqadar foyda keltirishini va uning ishonchliligini oshirish va real, aniq foyda keltiruvchi loyihalarga sarmoya kiritishlari kerak bo'ladi.

To'rtinchidan- qimmatli qog'ozlar bozorini ham yuridik ham iqtisodiy jihatdan himoyalash deganda biz avvalambor ularning qonun jihatdan qanchalik darajada mustahkamligini, iqtisodiy jihatdan uning aniq foyda keltirishini hech bo'lmaganda uni sotib olingandagi narx bilan sotilayotgan narx o'rtasida tafovut bo'lmasligi kerak. Misol uchun oddiy aholi yuridik shaxs tashkil qilmay turib ham aksiya sotib olish imkonini yaratish kerak. Oddiy aholi uyida pul saqlashi mumkin lekin uni bankka olib bormaydi yoki aksiya sotib olmaydi chunki bizda hali bu dasturlar to'laligicha aholini qamrab olgani yo'q. Shuning uchun qimmatli qog'oz chiqaruvchilar avvalambor yahshi reklama va tushuntirish ishlarini olib borib aholi qo'lida yig'ilgan bo'sh pul mablag'larini iloji boricha iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflashlari kerak bo'ladi. Bunda esa davlat bosh islohotchi vazifasini o'tashi kerak bo'ladi

Beshinchidan- Olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi ma'lumotlar juda kam, yoki deyarli ijtimoiy tarmoqlarda uchramaydi. Hattoki banklarda olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, banklarda qimmatbaho qog'ozlar haqidagi ma'lumotlarni umuman uchratmaymiz. Shuning uchun bu ma'lumotlarni oddiy aholi o'rtasida kengroq targ'ib qilish kerak bo'ladi.

Oltinchidan-Qimmatbaho qog'ozlar haqidagi ma'lumotlar shaffof bo'lishi va ularning oddiy aholi uchun tushunarli bo'lishi, ortiqcha vaqt talab qilmasligi, ularni sotib olish va zarur bo'lganda sotish imkonining soddalashtirilgan tizimini ishlab chiqish, ularni qog'oz ko'rinishida emas balki elektron ko'rinishga o'tkazish va O'zbekistonda qimmatbaho qog'ozlar bilan oldi-sotti ishlarini amalga oshiruvchi yagona elektron platformani va ularni mobil aloqa vositasida real vaqt rejimida

kuzatib boradigan mobil ilovalrning soddalashtirilgan tizimini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Hulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan muammolar va ularning yechimlari hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim va dolzarb hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina bozor qonunlariga amal qilgan holdagina natijaga erishish mumkin bo'ladi. Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda esa yuqorida sanab o'tilgan muammolar va ularning yechimlarini joriy qilish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" qonuni.*
- 2. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoyalash to'g'risida" qonuni.*
- 3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida" qonuni*
- 4. Шохазамий Ш. Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги.*
- 5. Tolipo'v K. "Qimmatli qog'ozlar bozori savollar va javoblarda"*

FOND BOZORLARINI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

*Saidov Jasur Latipbayevich, - TDIU,
Moliya kafedra asissenti,*

*Toirov Husniddin - TDIU, "Moliya va
Buxgalteriya hisobi" fakulteti BN-91
guruh 3-bosqich talabasi*

Annatatsiya; Fond bozorlarini rivojlantirish yo'lidagi prezident qarorlari, aholida moliyaviy savodxonlikni oshirib risklilik darajasi past bo'lga sohada "fond bozori"da investitsiyalarni amalga oshoroshdagi yengilliklar .

Kalit so'zlar; Toshkent Fond Birjasi, fond bozori, prezident qarorlari, qimmatli qog'ozlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2022-yil 17-yanvar PQ-90 sonli qaroriga muvofiq Kapital bozorini yanada rivojlantirish, davlat aksiya paketlarini kapital bozori orqali

xususiylashtirish amaliyotini kengaytirish, aholining qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritishini rag'batlantirish va moliya bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida 2022-yil 1-apreldan 2028-yil 31-dekabriga qadar O'zbekiston Respublikasining resident va nerezident bo'lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblanga dividend tarzidagi daromadlari daromad solig'idan ozod qilinadi. Unga muvofiq 2022-yil 1-iyuldan boshlab qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda emitent bo'lmagan barcha sotuvchi tomonidan foyda solig'i va daromad solig'i o'rniga bitim summasining 0,3 foizi miqdorida yig'im to'lanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim vositasidir. Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida 2019-yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligatsiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Lekin qimmatli qog'ozlar chiqarib, ularni fond bozorida sotish mexanizmidan samarali foydalanilmayapti. Fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so'm bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko'rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi. Shu sababli 2020-2025-yillar oralig'ida fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha 10-15 foizga yetkazish mo'ljallangan. Shu kabi past ko'rsatkichlar aholining fond bozoroga bo'lgan ishinchi yetarlik emasligi, moliyaviy savodxonligi past ekanligidan dalolat berad. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi darajasi tahlil qilind va davlat siyisati darajasigacha ko'tarildi. Ammo bu ko'rsatkich ko'p mamlakatlarda yuqori bo'lmadi.

Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rta hol turmush darajasidan yuqori pog'onalariga chiqishi murakkablashadi. Insonning qandaydir soha bo'yicha ilm

olishda muhim tizim bu ta'lim hisoblanadi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini asta-sekin ta'lim davrida oshirib borish bu eng muqobil natijadir. Shu bois yurtimizda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha prezident qarorlari qabul qilindi. "Iqtisodiyot va Moliya vazirligi" va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 31-dekabrga qadar eksperiment tariqasida xorijiy banklar va investitsiya vositachilariga O'zbekiston Respublikasida alohida litsenziya olmasdan qimmatli qog'ozlar bozorida andarrayting faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan va o'z mablag'larining miqdori 500 mln so'mdan kam bo'lmagan mahalliy yuridik shaxslar bilan shartnoma tuzgan holda, andarrayting faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. 2022-yil 1-apreldan boshlab mahalliy emitentlarga o'z aksiyalarini dastlab "Toshkent Respublika Fond Birjasi" da joylashtirgandan so'ng andarrayter tavsiyasiga ko'ra ularni xorijiy fond bozorlarida yoki bir vaqtda mahalliy va xorijiy fond birjalarida joylashtirish huquqi berildi. Bu yurtimizga investitsiyon jozibadorlikni oshirib, xorijiy investorlardan ko'proq kapital jalb qilishga yordam beradi.

2-sentabr kuni "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori PQ-291 qabul qilindi. Bu haqda Adliya vazirligi xabar qildi. Qarorga ko'ra:

➤ "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" davlat unitar korxonasi "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJga o'zgartiriladi va uning ustav kapitalidagi davlat aksiyalari paketi Markaziy bankka o'tkaziladi;

➤ "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ ta'sisichiligida "Milliy kliring markazi" AJ tashkil etiladi.

2025-yil 1-yanvardan davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda yuritiladi. 2028-yil 31-dekabrgacha "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJ, "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ va "Toshkent" respublika fond birjasi" AJ mablag'larni maqsadli ravishda ularni rivojlantirishga yo'naltirgan holda dividendlarni hisoblash va to'lashdan ozod qilinadi.

2023-yil 1-oktabrdan:

➤ davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalarining aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so‘ng 7 yil davomida ushbu korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to‘lashga yo‘naltiriladi;

➤ davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi anderrayterlarning xizmat haqi qimmatli qog‘ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va ko‘proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan hollarda, shartnoma boshlang‘ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to‘g‘risidagi cheklov bekor qilinadi.

Qimmatli qog‘ozlar fond birjasi listingiga kiritilmagan aksiyadorlik jamiyatlarining rasmiy veb-sayti bo‘lishi haqidagi majburiy talab bekor qilinadi, bundan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari mustasno.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/04/central-depositories/>
2. <https://president.uz/oz/2913>
3. <https://lex.uz/acts/-1374865>
4. <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>
5. <https://finlit.uz/uz/>
6. <https://uzinterbiz.com/>
<https://cbu.uz/uz/documents/3329/>

**PROSPECTS FOR IMPROVING FINANCIAL LITERACY IN
IMPROVING THE WELFARE OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN**

Umarbek Khasanov Begmatovich-
*The Student of Tashkent State
university of Economics*

Annotation: *This thesis emphasizes the importance of financial literacy programs while highlighting that their main goal is to equip people with the necessary skills and knowledge to make informed financial decisions and gain more control over their financial lives rather than to turn them into financial experts.*

Financial literacy's primary outcomes emphasize the value of comprehending available financial options, taking advantage of new opportunities, and skillfully managing existing financial connections with lenders and other financial commitments.


Key words: *Financial Literacy, Financial Education, Financial Inclusion, Financial Capability, Education Initiatives, Financial Services*

It is crucial to emphasize that the goal of the financial literacy program is not to turn people into financial experts but rather to equip them with the necessary skills and knowledge to make sound financial decisions and have more control over their lives. Understanding their financial options, taking advantage of these new opportunities, and managing their traditional connections with lenders as well as other financial commitments can all be facilitated by financial literacy.

Since it can result in more economic stability, better investment options, and more informed financial decision-making, the growth of the financial market and enhanced financial literacy can play a significant role in enhancing the welfare of the population in Uzbekistan.

Standard & Poor's 2014 Global Financial Literacy Survey [1] depicted that 21% of Uzbek adult populations have financial knowledge which is pretty low than other economies in transition. The reason for that not existing comprehensive financial education program implied by a government agency. But the government has set some long-term strategies that address the problem of financial illiteracy in improving the welfare of the population and development of the financial market such as the Welfare Improvement Strategy 2013–2015, Strategy for Action 2017–2021 and the National Strategy for Increasing financial inclusion for 2021-2023.[2]

Figure 1: Financially Literate Adult Population in Transition Economies



Source: Standard and Poor’s 2014 Global Financial Literacy Survey.

On 23 November 2018, the International Conference “Financial inclusion and financial literacy as a pillar of sustainable economic development” [3] was held and it was announced that the new project is launched with the aid of the AFI and World Bank aimed at supporting the Central Bank of Uzbekistan on drafting the financial inclusion strategy, including the national strategy on financial literacy.

After that a new program was set out by the Chamber of Commerce and Youth Foundation for promotion startups among businesses-minded youth. This project included coaching, training, and consulting services for startups and preparing required documentation by the banks to take a loan. As a result, by the National Agency of Perspective Projects under the Republic of Uzbekistan sum of 50 billion (\$6 mln) amount of funding was provided through four banks.


Moreover, On June 2020, The World Bank and International Finance Corporation (IFC) with in partnership with Swiss Confederation conducted and reported Financial Capability and Inclusion survey within Uzbek population segment.[5]

In this report, the team gave a strong emphasis and effort to analyze financial knowledge of respondents. Seven questions were added to the survey including basic numerical and financial concepts such as interest rates, inflation, risk diversification and purpose of insurance products. These questions covered the knowledge and

